

O.U.AVLAYEV, S.R.MIRZAYEVA,  
SH.R.SAMAROVA

# MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

**O.U.AVLAYEV, S.R.MIRZAYEVA, SH.R.SAMAROVA**

**MAXSUS FANLARNI O‘QITISH  
METODIKASI**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**TOSHKENT – 2022  
«YANGI CHIRCHIQ BOOK» NASHRIYOTI**

**UO'K: 114.17.201  
KBK: 44.9.(5O'zb)**

**O.U.Avlayev, S.R.Mirzayeva, Sh.R.Samarova  
MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI. O'quv qo'llanma.  
– Toshkent: «Yangi chirchiq book» nashriyoti. 2022, 352 bet.**

Ushbu o'quv qo'llanma psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy ta'lif metodlaridan foydalanish, o'quv jarayonida treninglar, yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhlar va jamoada ishlashni tashkil qilgan holda ilg'or ta'lif metodlarini amaliyatga joriy qilish hamda pedagogik jarayonga yangicha yondashuv masalalariga bag'ishlangan. Qo'llanma materiallarida bo'lajak o'qituvchilarda global tafakkur, kompetentlik, professionallikni shakllantirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lif turlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ulardan o'z pedagogik faoliyatlarida samarali foydalanishlarini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining magistratura talabalari, tadqiqotchilar, izlanuvchilari va barcha pedagoglar uchun mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

psixologiya.fanlari.doktori., prof. A.Rasulov (O'zMU)

pedagogika.fanlari.nomzodi, dosent. Sh. Abdujalilova (ChDPI )

*O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2022 yil 9 senyabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etildi.*

**ISBN 978-9943-9170-5-7**

© «YANGI CHIRCHIQ BOOK» nashriyoti, 2022



## KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalari uchun kadrlar tayyorlash ishini zamonaviy darajada olib borishni talab qiladi. Shu munosabat bilan mutaxassislar tayyorlash jarayonida ilg'or ta'lif texnologiyalaridan unumli foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

"Ta'lif to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning amaliyotga to'liq tatbiq etilishini ta'minlash zamonaviy darajada bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan bo'lg'usi mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi.

Hozirgi ta'lif texnologiyalari va ilg'or ta'lif metodlarining bilim olish, olingan bilimni boshqalarga o'rgatish, bilimlardan amalda foydalana bilish va yangi bilimlami yaratishdagi o'mi va ahamiyatini quyidagi fikrlar orqali ifodalash mumkin:

Bilim olishdan bilim berish afzalroqdir.

Bilim berish savob ishlardan biridir.

Bilim berishdan bilimni ishlata bilish muhimroqdir.

Bilimni ishlata bilishdan undan foydalanish sohalarini kengaytirish muhimroq.

Yangi bilim yaratish mexanizmini o'rgatish bilim berishdan muhimdir.

Yuqorida fikrlardan ko'rinish turibdiki, fanni o'qitish jarayonida ta'lif oluvchiga bilim berish, bilimni ishlata bilishni, undan amalda foydalana bilishni va pirovardida yangi bilim yaratish mexanizmini o'rgatishda ta'lif metodlarini samarali qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Ta'lif jarayonining bugungi vazifalaridan biri o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lif muhitini sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Bundan esa, ta'lif jarayonida ta'lif oluvchining diqqat markazida bo'lishini hamda yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash ta'lif samaradorligini oshirish uchun muhim ekanligi ma'lum bo'ladi.

Ta'lif jarayonida ta'lif oluvchining diqqat markazida bo'lishini ta'minlash uchun ta'lif muassasalariga o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol ta'lif metodlarini biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashq'ulotlarni tashkil etishda samarali foydalana oladigan o'qituvchilar kerak.

Ushbu o'quv qo'llanma umumiy o'rta ta'lif, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lif muassasalarini o'quv jarayoniga ta'lif texnologiyalarini joriy qilishni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarni o'qitish jarayonida treninglar, yakka tartibda, juftlikda, kichik guruuhlar va jamoada ishslashni tashkil qilgan holda yangi ta'lif texnologiyalaridan foydalanish hamda pedagogik jarayonga yangicha yondashuv masalalariga bag'ishlangan.

Mazkur o'quv qo'llanmada keltirilgan ta'lif metodlaridan har bir o'qituvchi o'zi o'qitayotgan fanning mazmuni, maqsadi, shuningdek, mavjud sharoitlar hamda ta'lif oluvchilarning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda foydalaniishi mumkin.

# **1-MAVZU: MAXSUS (PSIXOLOGIYA) FANLARINI O'QITISH METODIKASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI**

## **Reja:**

1. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

2. O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida o'qitish muammolari

## **Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari**

O'quv maaqсадlari fanning maqсадlari bilan bog'liqdir. Ko'pchilik olimlar psixologiyani tabiiy biologik yoki bioijtimoiy fan sifatida idrok etilishi ko'pgina munozaralarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. V.Ya. Lyadusning fikricha, psixologiyani ijtimoiy-tarixiy fan sifatida talqin etish kerak. Bu esa uning tarkibidagi tadqiqotlar tabiiy fanlar usullarini rad etmaydi. Shu o'rinda gumanitar idrok etish-o'rganilayotgan ob'ektga sub'ektning boshqacha munosabatini o'zda tutadi. Bu borada M.Vaxtinning fikricha, buyumni idrok etish va shaxsni idrolk etish ikki xil narsalardir. Buyumni bir tomonlama sub'ektni esa oxirigacha idrok etiladi.

Gumanitar idrok qilish xususiyatlardan kelib faning predmeti maqsadi va vazifalari aniqlanadi.

Fanning predmeti-o'qitish jarayoni hamda o'quvchilarning bilimlarning samarali o'zlashtirishlarini ta'minlaydigan usul va vositalar shuningdek pedagogik jarayon, o'qituvchi o'quvchi munosabatlari.

Fanning maqsadi-turli hayotiy sharoitlarda odamlar bilan muloqot va munosabat qila olish uchun zarur bilimlar metodlarni nazariy va amaliy jihatdan egallashdir;

Psixologiyani o'qitish faqat boshqa odamlarning xulq-atvorini fikrlesh tarzi usullarini o'zgartirish emas, ayni vaqtda insonga o'zini o'zgartirish usullarini ham o'rganishga yo'naltiradi.

Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasining asosiy maqsadi-ilmiy dunyoqarash va mustahkam e'tiqodi shakllangan hamda jamiyat qurilishiga amaliy jihatdan yo'nalgan mutaxassis shaxsini tayyorlashdan iborat.

O'qitish metodikasining vazifalari:

1. Psixologiya fanlarini mazmun mohiyatini tushunish va tahlil qila olish;

2. Psixologiya fani bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonnini tashkil etish ko'nikma malakalari bilan qurollantirish uchun ularni o'qitishning eng samarali shakl, metod va usullarini tizimlashtiradi.

3. Psixologiya fanini o'qitish bo'yicha to'plangan amaliy tajribalarni tizimlashtirish va kelajakka tavsiyalar ishlab chiqish;
4. Psixologiya fanidan dars beradigan bo'lajak o'qituvchilarni o'z faoliyatlariga ijodiy yondashuvga o'rgatish;
5. Talabalar-bo'lajak o'qitvchilarda ilmiy dunyoqarash va yuksak ahloqiy sifatlarini tarkib toptirish;
6. Talabalarda kasbiy yo'nalganlikni tarbiyalash ularda o'qituvchi faoliyatiga qiziqishni oshirish, bolalarga bo'lgan muhabbat va ularni o'rganishga bo'lgan intilishini kuchaytirish
7. Talabalarda psixologiya bo'yicha egallangan bilimlarni pedagogik amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Psixologiya fani o'qituvchisi psixologiya kursini tuzish uchun asos bo'lgan quyidagi tamoyillarni bilish kerak:

1. Barcha psixik hodisalar, vogelikning in'ikosi aksidir.
2. Psixika bu yuksak taraqqiy etgan materiya ya'ni miyaning xususiyatidir.
3. Insonning butun psixik faoliyati sababiy taqazolangan (inson-muhit munosabatlari)
4. Barcha psixik hodisalar taraqqiy etib beruvchi birliklar sifatida quriladi. (inson kamoloti davomida bilimlari rivojlanib boradi).
5. Inson texnikasi uning faoliyatida shakllanadi va namoyon bo'ladi. (inson-faoliyat)
6. Har bir psixik hodisa bir butun yaxlit holda ko'rib chiqishi kerak. (shaxsnинг barcha jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog'liq)
7. Nazariy psixologiya bilimlarini amaliy pedagogik faoliyat bilan bog'lashi kerak.

Metodika -- pedagogik fanlar, shuningdek ijtimoiy tizim talab qiladigan, pedagogika fani ko'rsatgan umumiy o'rta va oliy ta'limning maqsad vazifalariga mos ravishda ishlab chiqiladi.

Dars berish metodikasi - bu o'quv fani xususiyatining sharti sifatida ta'lim va tarbiya jarayonining tizimi haqidagi ko'rsatmadir.

### **O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida o'qitish muammolari**

Ta'lim tizimini tubdan tashkil qilish o'quv faoliyatini takomillashtirish, o'quvchi shaxsini psixologik jihatdan rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston psixologlaridan M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, E.G'oziev, R.I.Sunnatova, S.Jalilova, F.Haydarov, Z.T.Nishonovalar tomonidan bu borada tadqiqot ishlari olib borilib ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiya berish masalalari atroflicha yoritib berilgan.

M.G.Davletshin o‘z tadqiqotlarida talabalarning o‘qish faoliyatidagi ko‘nikma, malakalarini hosil bo‘lishi va psixik qobiliyatlarni rivojlantirish masalalarini ilgari surdi. Shuningdek, uning shogirdlari tomonidan tadqiqot muammosini ilmiy dalillar asosida asoslab bergenlar.

Jumladan, M.G.Davletshin, S.X.Jailovalar tomonidan hozirgi zamonda ta’limining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan.

a) Ta’limning har bir darajasini uzlusiz ta’lim tizimining tarkibiy qismi sifatida anglash. Bu yo‘nalish maktab bilan oliv o‘quv yurti o‘rtasidagi aloqa muammolarinigina emas, balki talabalarning kasbiy tayyorligini oshirish vazifasini hisobga olgan holda oliv o‘quv yurti bilan mutaxassisning ishlab chiqarish faoliyatini o‘rtasidagi aloqani ham ko‘zda tutadi.

b) «Ta’limni industriallashtirish» ya’ni kompyuterlashtirish va texnologiyalashtirish asosida hozirgi zamonda jamiyatining aqliy faoliyatini kuchaytirish

v) Ta’limning hozirgi vaqtgacha ustunlik qilgan axborot beruvchilik shakllaridan faol o‘qitish metodlari va shakllariga o‘tish. Bu yo‘nalish «Xotira maktabi»dan «tushunish maktabi», «tafakkur maktabi»ga o‘tishdan iborat.

g) O‘quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va boshqarishning qat’iy belgilangan nazorat usullaridan rivojlantiruvchi, faollashtiruvchi, takomillashtiruvchi usullar va o‘yin usullariga o‘tish. Bu esa ta’lim oluvchilarining tashkiliy-ijodiy, mustaqil faoliyatini qo‘llab quvvatlash va uni rivojlantirishni taqozo etadi.

d) Ta’lim oluvchi va muallim o‘rtasidagi o‘zarro ta’sirini tashkil etish, ta’lim oluvchilarining birlgiligidagi jamoa faoliigi sifatida tashkil qilish zaruriyati qayd qilinadi. Bunda asosiy urug’, o‘qituvchining bilim berish faoliyatidan talabaning bilim olish faoliyatiga o‘tkaziladi.

Psixolog E.G’oziev tomonidan ham o‘quvchilar o‘quv faoliyatlari xususiyatlari talabalar o‘qish jarayonlari va undagi qiyinchiliklar masalalari tadqiq qilingan. Uning “O‘quv faoliyatini boshqarishi” nomli o‘quv qo‘llanmasida o‘quv jarayonini boshqarish, bu borada xorij tadqiqotlari o‘quvchi shaxsi va aqliy taraqqiyot, intellekt muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, olim tomonidan tafakkur muammosi keng doirada talqin qilinib, yoshga xos tafakkur jarayonlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari tadqiqot natijalari asosida yoritib berilgan.

Ma’lumki talabalarning yetakchi faoliyati o‘qish hisoblanadi. O‘quv faoliyati jarayonida mutaxassislarni tayyorlashning asosiy maqsadlariga erishiladi. O‘qish faoliyati talabaning psixik jarayonlarini xususiyatlari rivojlanishiga kasbiy muhim bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni egallahsga ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘qish ijodga aylansa, talabalarning hissiy sohasiga ijobiy ta’sir qiladi, diqqat va

xotirasini rivojlantiradi, qoniqish hissini yuzaga keltiradi, faoliyatga nisbatan qiziqishi ortadi.

A.A.Abdurazzoqov va E.P.Nazirovlarning o'tkazgan tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha birinchi va ikkinchi kurslarda auditoriyada beriladigan vazifalarga qiziqish kuchli bo'ladi. Yuqori kurslarda esa auditoriyadan tashqari vazifalarga va mutaxassislikka bog'liq fanlarni chuqur o'rganishga qiziqish kuchayadi. Shuning uchun talabalarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda ularning bu xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Talabalarning o'quv faoliyatini o'rgangan E.G'oziev rahbarligida uning shogirdlari tomonidan zo'r qiziqish bilan o'rganildi. Jumladan, A.X.Ruxieva "Talabalar o'quv faoliyatida o'z-o'zini boshqarishning psixologik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida umumlashgan o'quv faoliyatining usullari sistemasi orqali o'quv faoliyatini boshqarish deganda maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, nazorat qilinadigan sistemalashtiriladigan, tashkil qilinadigan mustaqil bilim olishga qodir bo'lgan faoliyatni tushuniladi. Tadqiqotda o'z-o'zini boshqarishning barcha komponentlarining tarkibiy qismlari xususiyatlarga egaligi professional qiziqishini takomillashtirish va faoliyatni amalga oshirishda uchraydigan to'siqlarni yengish orqali talaba o'quv faoliyati sub'ektiga aylanishi isbotlangan.

R.I.Sunnatova ilmiy izlanishlarida shaxsda o'z-o'zini boshqarish va tafakkur operatsiyalari tadqiq qilinib, bu borada tadqiqot ishlari olib borildi. Olim tomonidan ta'lif muassasalarida o'qitish ishlarini tashkil qilish va uni shaxs rivojlanishiga ta'sir masalalari yetarlicha yoritib berildi. Shuningdek olti yoshli bolalarni maktah ta'limga tayyorligi, moslashish xususiyatlari, psixik rivojlanish masalalari atroficha tahlil qilingan.

Z.T.Nishonova tadqiqotlarida aynan o'smirlilik davri o'quv faoliyatlarini egallash masalalari yoritilib, muallif bu borada tafakkur sifatlarini rivojlanishi, bilimlar egallashning asosi ekanligini tadqiqot natijalarini asosida ko'rsatib o'tadi.

F.I.Haydarov tomonidan o'rganilgan muammo o'quv faoliyati motivlari masalasiga bag'ishlangan bo'lib bu borada qishloq va shahar maktablari o'quvchilarining o'qish motivlarini rivojlanishi bo'yicha tadqiqot ishini olib bordi. Tadqiqot natijalaridan shuni ko'rish mumkin-ki, o'smirlilik davrida o'qish motivlarini namoyon bo'lish xususiyatlari ya'ni bilish, ijtimoiy, tashqi, ichki motivlari yoritiladi. Shuningdek, ularning o'zaro farqlar bo'yicha dinamikasi ko'rsatiladi. Ma'lumki, shaxsda o'qishga nisbatan ijobjiy xususiyat bilimga qiziqish, intiluvchanlikni yuzaga chiqishi ichki turtki sabablar ya'ni motivlarga bog'liqligi asoslab berilgan.

S.X.Jalilovaning "Pedagogika instituti talabalarida shaxsiy sifatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik

dissertatsiyasida talabalarda shaxsiy sifatlar shakllanishining dinamikasini aniqlashga uringan. Pedagogika institutlariagi ta'lim jarayonida talabalmi sistemali o'rganish shuni ko'rsatadiki, "retrospektiv", "real", "ideal" va "refleksiv" – "men"ni bir-biri bilan taqqoslash talabalarning shaxsiy-ehtiyoj sohasiga hamda ularning shaxsiy professionallashuv jarayoniga ta'sir qiladi. Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar asosida pedagogika institutlarini talabalarini psixologik-pedagogik tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu tavsiyalar milliy psixologiya va pedagogikaning eng yaxshi an'analarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Muallifning ta'kidlashicha, pedagogika oliy o'quv yurtida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlash, takomillashtirish talabalardagi o'z kasbiga bo'lgan psixologik qarashni qayta qurish hamda «ideal o'qituvchi» bo'lajak o'qituvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligi sababli talabalarning uzlaksiz amaliyotda qatnashish jarayonini sifat va miqdor jihatdan kuchaytirish lozim. S.X.Jalilovaning fikricha, talabalarini psixologik-pedagogik tomondan tayyorlashda mashg'ulotlarning usul va turlari avvalambor, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga, ularning o'zlariga, atrofdagilarga, jamiyatga bo'lgan sub'ektiv munosabatlarni psixologik jihatdan qayta qurishlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Yuqoridaagi fikrlardan ko'rinish turibdiki, o'qish, o'qitish masalasiga e'tiboring ortishi bu boradagi keng doiradagi tadqiqot ishlari olib borilishiga turki bo'ladi. O'quv faoliyati masalasining mohiyat mazmuni o'rganilgan bo'lsada, yosh olimlarimiz tomonidan uning o'rganilmagan jabhalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

#### **Nazorat savollari:**

1. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari nimadan iborat.
2. O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida o'qitish muammolari haqida.

## **2-MAVZU: MAXSUS (PSIXOLOGIYA) FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM SHAKLLARI**

### **Reja:**

1. O'qitishni tashkil qilish shakllari. O'qitish shakllari tarixi va klassifikatsiyasi.
2. Ma'ruza mashg'ulotning mohiyati, turlari.
3. Interfaol ma'ruzalar o'qish metodikasi.
4. Amaliy va seminar mashg'ulotining mohiyati, turlari va ularga qo'yiladigan talablar.

### **O'qitishni tashkil qilish shakllari. O'qitish shakllari tarixi va klassifikatsiyasi**

O'qituvchi tomonidan talabalarni samarador o'qishlarini tashkil qilish faqatgina o'qitishning shakllarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanishga bog'liqdir. Zamonaviy didaktikada ko'plab shakllar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni har biri o'qitishni tashkil qilishni u yoki bu tomonini oshib beradi. Shu asosida ma'lum bo'lgan tizimlashtiriladi, umumlashtiriladi va klassifikatsiyalashda ifodalanadi. Ba'zi bir klassifikatsiyalar asosida o'quvchilarning miqdoriy tarkibi, boshqalarida esa o'quv joyi, uchinchisida esa mashg'ulotning davomiyligi va h.k. Masalan, pedagogik nashrlarda o'qitish formasi uchta guruhga ajratiladi:

- yaxlit o'qitish shakllari (pedagogik texnologiyalar);
- o'rganuvchilar o'quv faoliyati formalari (juftlik, guruhli, yakka, jamoaviy);
- sinf, guruhni joriy o'quv ishlarini tashkil qilish formasi (dars va uning turlari)

Shu bilan birga darsdan tashqari ishlar (ekskursiya, uy ishi, fakultativ va h.k.). Boshqa o'quv qo'llanmada o'qitish shakllari klassifikatsiyasida uchta asosiy tizimga e'tibor qaratiladi.

Mavjud pedagogik adabiyotlarda "forma" atamasi ancha keng ma'noda ishlataladi. Bu o'quvchilarda ko'pincha savollar tug'ilishiga olib keladi. Yakka forma va yakka ish bular aynan bir xil narsami yoki yo'qmi, ma'ruza ekskursiya – bu o'qitish shakllarimi yoki usullari?

Yangi bilimlarni o'zlashtirish darsi – bu dars turimi yoki shakllarimi? Bu savollarga javob berish uchun savolning tarixini o'rganib chiqish zarur.

"Forma" lotinchadan tarjima qilinganda tashqi qiyofa degan ma'noni bildiradi.


Shu belgilarga asosan tarixan o'qitishning quyidagi formalari mavjud:

- yakka (juft bo'lib, XV asrda);
- guruhli (frontal);

- mustaqil.

O'qitishning birinchi shakli, yakka forma bo'lib, bunda o'qituvchining o'zi o'qitadi, qoidalarni tushuntiradi, mashqlarning bajarilishini tekshiradi, o'quvchilar bilan suhbat olib boradi.

Jamiyatning rivojlanib borishi davomida o'qitishning yakka-guruqli shakli paydo bo'ladi. Bu o'qitish formasi turli yosh va tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan guruqlar uchun mo'ljalangan. Shuning uchun, mashg'ulot navbati bilan har bir o'quvchi bilan yakka tartibda olib boriladi. Unga mos bo'lgan belgilari: o'rganuvchilar soni 10-15 ta odam, o'zaro ta'sir xarakteri juft-parallel, mustaqil darajasi va o'qituvchi tomonidan rahbarlik yakka formadagi kabi. Uni quyidagi sxema ko'rinishda tasvirlash mumkin:




XVI asr oxiri XVII asr boshlariga kelib ommaviy o'qitishga ehtiyoj paydo bo'ldi, chunki jamiyat ishlab chiqarishi va ma'naviy hayot taraqqiyotida siljishga ega bo'lgan edi. O'qitishning ommaviy shakli paydo bo'ldi. U hozirgi oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishning ma'ruza shaklidir. Bir xil darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'zgarmas tarkibli katta guruqlar tuzildi. Yil davomida o'qitish jarayoni qat'iy jadval asosida barcha o'quvchilar bilan bir vaqtida olib boriladi. O'rganilayotgan material yildagi mashg'ulotlar soniga mos ravishda qismlarga bo'linadi. Bu qismlar dars deb ataladi. Shunday qilib, sinf-dars tizimi paydo bo'ldi. O'qituvchining bilimlarni bayon qilishi, predmetlar, ko'rgazmali vositalarni tabiiy holda namoyish qilish o'qitishning asosini tashkil qiladi. O'rganuvchilar mustaqil fikrlash, kuzatish, tajriba o'tkazishni o'rgana boshlaydilar. Shunday qilib, o'qitish faolroq va ongli xarakterga ega bo'la boshlaydi. O'qitishning bu shakli quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi: o'quvchilarning soni – 100-300 ta (keyinroq 50 tadan 60 gacha) aloqaning frontal xarakterdaligi, o'quvchilarning mustaqillik darajasi oshib boradi, o'qituvchining yetakchi funksiyasi informatsion-nazorat qiluvchi.

O'qituvchi ↔ o'rganuvchilar guruhi hammani eng kam harajat sarflab o'qitishga ehtiyoj tug'ilganda ommaviy forma o'zgarib bordi. Uning eng ko'p ma'lum bo'lgan formasи – bu o'zaro o'qitish formasidir.

Hindistonlik ruhoniy L.Bell va Angliyadagi Dj. Lakaster o'qituvchilar sifatida o'quvchilarning o'zidan foydalangan (1798 yil). Ularning tajribasi bir qator davlatlarga yoyildi (Fransiya, Belgiya, AQSh va boshqalar). Bir – birini

o'qitish maktablari tuzildi. O'ntadan bo'lingan o'quvchilar a'lochi o'quvchilarda (monitorlarda) o'qishar edi. Ular esa o'z navbatida o'qituvchidan nimani va qanday o'qitish kerakligi to'g'risida ko'rsatma olar edilar. Darsliklar yo'q edi, ularning o'rniiga turli didaktik materiallardan foydalilanilgan. Shunday qilib, o'zaro bir-birini o'qitish formasi katta sondagi o'rganuvchilarni qamrab olar edi.


O'zaro aloqa xarakteri: frontal (bevosita va bilvosita) o'rganuvchilarni mustaqillik darajasi oshib boradi; o'qituvchining faoliyati instruktiv-informatsion va nazoratdan iborat bo'ladi.



XIX asr oxirida AQShda o'qitishni tanlov-guruhi shakli paydo bo'ldi. Unda butun ish ikki qismiga bo'linadi:

- o'qituvchining butun guruhi bilan ishlashi;
- o'qituvchining qiyin o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan ishlashi.

O'qitishning tanlov-guruhi formasi katta sondagi o'rganuvchilarni qamrab oladi (30-40 ta odam), o'zaro ta'sir xarakteri – frontal va justli; o'rganuvchilarning mustaqillik darajasi – o'qituvchi rahbarligi ostida; o'qituvchi faoliyati – informatsion, nazorat qiluvchi va maslahat beruvchi.



Yevropada tanlov-guruhi forma bilan bir vaqtda differensiallashgan (mangeym tizimi) paydo bo'ldi. Uning asosiy maqsadi – o'rganuvchilarni tanlab o'qitishni tashkil qilish. Tanlash deyilganda o'rganuvchilarni ularning qobiliyatları, rivojlanish va tayyoragarlik darajasiga ko'ra guruhlarga bo'lish tushuniladi. Mana shu o'qitish darajasida birinchi marta "kuchli", "o'rtal" va "kuchsiz" o'quvchilar guruhlari paydo bo'ladi. Mazkur forma o'qitishga zamonaviy differensial yondashuvning asosini tashkil qiladi.

Hozirgi davrda o'qitishning integrativ (aralash) formasi ko'proq qo'llaniladi. Ulardan eng ko'p tarqalgani darsdir. Zamonaviy darsda ham just, ham guruhi yoki frontal va yakka forma bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda har qanday o'quv yurtiga to'g'ri keladigan universal dars formalari yo'q.

Nima sababdan bir uqituvchi bildirgan fikrlarini tezda ilgab olish mumkin, boshqasi bilan aksincha. Ikkinchisi nimanidir notug'ri qilgandir? Uning sabablarini ma'ruzaga tayyorlanish va uni tahlil qilish asosida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

**Ma'ruza (arabcha, leksiya (lot. lectio) – uqish) – uquv materiali, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma'lum bir tizimga solingan bayonidir.**

Uzbek tilida arab tilidan kirib uzlashtirilgan ma'ruza so'zi qo'llaniladi. Ma'ruza uquv jarayonining asosiy bugini, oliv o'quv yurtlarida dars berishning asosiy shaklidan biri. U talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol uynaydi.

Ma'ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida yoritiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanidan uqiladigan ma'ruza faqatgina iqtisodiy rivojlanishning asosiy qonuniyatlarini ochib berishgina emas, fanning so'nggi yutuqlaridan foydalilanilgan holda amaliyotda qanday ahamiyatga ega ekanligini, hayotda real muammolarni yechishdagagi ahamiyatini ham ko'rsatishi kerak.

Ma'ruza ilmiy xarakterga ega bo'lishi, turli nazariy yo'nalishlar, ilmiy maktablaming asosiy g'oyalarini talabalar ongiga yetkazishi va olgan bilimini ishonchga aylantirishi kerak.

Har qanday ma'ruzaning eng zarur sharti auditoriya bilan kontaktga kirishishdir. Ma'ruzani ko'tarinki ruh bilan uqish kerak.

Ma'ruza o'qish eng avvalo, unga tayyorlanishdan boshlanadi. Buning uchun birinchi navbatda ma'ruza mavzusi bo'yicha adabiyotlar tanlash, hamda ular bilan tanishib chiqish kerak.

### **Ma'ruza mashg'ulotning mobiyati, turlari**

Ma'ruza-bu o'qituvchining monologik tarzdagi ta'limiy darsidir.

Har qanday ma'ruzaning umumiy tuzilishini asosi – bu mavzuni bayon etish, rejani va mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan adabiyotlarni ko'rsatish, keyin esa – ko'rsatilgan ishning rejasiga qat'iy amal qilishdir. Ma'ruza o'qishga qo'yiladigan asosiy talablar sifatida quyidagilar shart deb hisoblanadi.

1.Ifoda etilayotgan ma'lumotlarning yuksak ilmiy darajadaliligi, odatdagidek dunyoqarash ahamiyatiga egaligi;

2.Zamonaviy ilmiy ma'lumotlarning aniq tizimlashtirilgan va metodik qayta ishlab chiqilgan hajmlari;

3.Bildirayotgan fikr-mulohazalarining isbotlanganligi va asoslanganligi;

4.Keltiriladigan ishonchli isbotlar, misollar, tekstlar va hujjalarning yetarlicha bo'lishi;

5. Fikrlari aniq, tushunarli bayon etilishi va eshituvchilar fikrlashlarini faollashtirish, muhokama etilayotgan muammolar bo'yicha mustaqil ishlar uchun savollarning qo'yilishi;

6. Qo'yilgan muammoni hal etish uchun turli nuqtai nazarlarni keltirib chiqarish, xulosalarni ifoda etish;

7. Kiritilayotgan termin va nomlarni tushuntirish: fikr-mulohazalarni talabalarga eshitishga, fikrlash va ma'lumotlarni qisqacha yozib olishga imkon berish.

8. Auditoriya bilan pedagogik aloqa o'rnatishtirish.

9. Tekst, konsept, bloksxemalar, chizmalar, jadvallar, grafiklar, asosiy materiallarni qo'llash.

*Yuqoridagi fikrlarga asoslanib ma'ruza qo'yidagi turlarga ajratiladi;*

1. **Kirish ma'ruzasi** o'quv fani haqida birinchi yaxlit tasavvurni beradi va talabalarni ushbu kurs bo'yicha ishlash tizimiga yo'naltiradi. Ma'ruzachi talabalarni kursning vazifasi va masalalari bilan tanishtiradi. O'quv fanlari va mutaxassislar tayyorlash tizimidagi uning roli va o'mni bilan tanishtiradi. Kursning va fanning rivojlanish davri, amaliyoti, bu sohadagi yutuqlar, mashhur olimlar nomlari bo'yicha qisqacha ma'lumotlar beradi, tadqiqotlar istiqbolli yo'nalishlarini ifoda etib beradi. Bu ma'ruzada kurs doirasidagi ishlar metodik va tashkiliy xususiyatlari ko'rsatib beriladi hamda talabalarga tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlar tahlili beriladi, shuningdek, hisobot shakli va muddati belgilanadi.

2. **Axborot-ma'ruza** tushunib olish esda qolishi kerak bo'lgan bilimlar zaxirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan. Bu oliy məktəb təjribəsində eng ədatiylə bo'lgan turdur.

3. **Obzorli ma'ruza** – bu aniqlashtirish va detallashtirishsiz fan ichidagi va fanlararo aloqalarni ochib berishdagi bayon etiladigan ma'lumotlarni anglab yetish jarayonida ko'p sonli assotsiativ bog'liqliklarga asoslanishi mumkin. Yuqori darajada hisoblangan ilmiy bilimlarni tizimlashtirishdir. Ədatda bayon etiladigan nazarli qoidalar asosini butun kursning yoki uning katta bo'limining ilmiy-tushunchali va konseptual asosi tashkil etadi.

4. **Muammoli ma'ruza**. Bu ma'ruzada bilimlar masalaning, savol yoki vaziyatning muammoliligi orqali beriladi, shu bilan birga idrok etish jarayoni o'qituvchi bilan hamkorlik suhbatlari bilan tadqiqotchilik faoliyatiga yaqinlashadi. Muammoning mazmuni uning yechimini izlashni tashkil etish yo'li bilan yoki an'anaviy va zamonaliviy nuqtai nazarlarni qo'shish va tahlil qilish yo'li bilan ochib beriladi.

5. **Ma'ruza-vizual-aloga**. Ma'ruza materiallarni O'TV vositalari yoki audio-video texnikalari yordamida ko'rsatib yetkazib berishdan iborat bo'ladi.

Bunday ma'ruzani o'qish ko'riliayotgan materiallarni keng va qisqacha izohlab berishdan iborat bo'ladi.

6. **Binar ma'ruba** – bu ma'ruzani ikki o'qituvchi suhbati shaklida o'qish turi hisoblanadi, ya'ni ikki ilmiy maktab vakillari sifatida, yoki olim va amaliyotchi, o'qituvchi va talaba o'tasida va boshqalar.

7. **Oldindan xatolar ko'zda tutilgan ma'ruba** talabalarni berilayotgan ma'lumotlarni doimiy kuzatib borishga rag'batlantirishga mo'ljallangan (mazmunida xatoni izlash: metodologik, metodik, orfografik). Ma'ruba yakunida tinglovchilarni diagnostika qilish va yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish amalga oshiriladi.

8. **Ma'ruba-konferensiya** - oldindan qo'yilgan muammo 5-10 minut davom etadigan axborotlar tizimi bilan ilmiy-amaliy mashg'ulot sifatida o'tkaziladi. Har bir chiqishi o'qituvchi taklif etgan dastur doirasida tayyorlangan manтиqiy yakunlangan matndan iborat bo'ladi. Beriladigan matnlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritib beradi. Ma'ruba yakunida o'qituvchi talabalarning mustaqil ishlari va chiqishlarini to'ldirib yoki taklif etilgan ma'lumotlarga aniqlik kiritib yakun yasaydi va asosiy xulosalarni shakllantiradi.

9. **Ma'ruba-konsultatsiya** turlicha ssenariyida o'tkazilishi mumkin. Birinchi varianti "savol-javoblar" usulida amalga oshiriladi. Ma'ruzachi butun ma'ruba vaqt davomida bir bo'lim yoki bir kurs bo'yicha talabalarning savollariga javob qaytaradi.

Bunday ma'ruzalarning ikkinchi varianti "bahs-munozara" usulida o'tkazilib bu uch xilda olib boriladi: ma'ruzachi yangi o'quv ma'lumotlarini bayon etadi, savol qo'yiladi, qo'yilgan savolga javob izlashda tortishuvlar, muhokama tashkil etiladi.

Ma'ruba funksiyalari:

- Tarixiy-informatsion
- Tizimlashtirish
- Tushuntirish
- Rivojlantiruvchi

O'qituvchi ma'ruba davomida juda ko'p ma'lumot bera olmaydi. Ayniqsa, ko'p degani ham sifatli degani emas. Agar o'qituvchi:

1. Tez gapisra;
2. Darsni tez o'tsa;
3. Hech qanday savollar bermasa;
4. O'quvchilarni yech qanday savollariga javob bermasa;

Rodjer Dominovskiyning fikricha materialni ko'rgazmali noan'anaviy uslubda taqdim qilinishini uylab topish ma'ruzachining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bayon qilish uslubi borasida I.S.Gessen quyidagi larni ilgari suradi: Universitet talabalarining asosiy maqsadi - shunchaki faktlarni "bayon qilish" emas, balki "anglash"ning ilmiy metodini shakllanishidir.

I.S.Gessenning fikricha: "Haqiqiy universitet ma'ruzalari shunchaki tadqiqot natijalarini bayon qilmaydi. Qanday qilib olim bu natijaga kelganini ko'rsatadi. Yaxshi ma'ruza va ilmiy mashg'ulotlar bir-birini to'ldiradi. Ularning har ikkisining vazifasi talabalarni mustaqil izlanishga ilmiy fikrlashga undashdir".

Material mazmunining qiyinlik darajasini tanlash va bayon qilishda quyidagi larga e'tibor berish kerak:

1. Ma'ruza matni barcha talabalar uchun tushunarli va aniq bo'lishi lozim.

2. Tahlil izoh va faktlar tushunarli bo'lishi darkor.

3. Ma'lumotlarning alohida qismi, ayrim muammolarining yechimi barcha tushunarli bo'lishi kerak.

Ma'ruza talabalar bilan muloqotda bulishning alohida shakli bo'lib, uni boshqa hech qanday o'quv shakli bilan almashtirib bo'lmaydi. Ma'ruzaning oldiga quyiladigan maqsad har xil bo'lib, bu maqsad maksimal darajada amalga oshishi uchun, uning funksiyalariga ahamiyat berish kerak.

#### **Ma'ruzaning funksiyalari:**

- Professional ta'lif berish va dunyoqarashni shakllantirish.
- Talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Ularni axloqiy, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, mehnatga munosabati, sotsial-psixologik xislatlarini shakllantirish.

- Bilim berish, urganayotgan fani bo'yicha axborot olish, olgan axboroti asosida tadqiqot o'tkazib, xulosa chiqarishga o'rgatish.

Psixologiya fanlarini o'qitishda tafakkurda erishilgan yutuqlarni nazarda tutgan holda asosiy metodologik muammolarining bayoni yechimi bilan birgalikda, ma'lum faktlar, raqamlar, dalillar bilan izohlash talab etiladi, ya'ni ular urtasida ma'lum bir nisbat bo'lishi talab etiladi.

**Ma'ruzaga talablar.** Psixologik nazariyani o'rganish talabalarini ijodiy fikrlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Ularni jamiyat rivojlanishi psixologik qonun, tendensiyalarni chuqr tushunishi, nazariy masalalar bilan amaliyotni bog'lash mahoratini hosil qilishlari uchun ma'ruza quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

Ma'ruza ma'lum bir yo'nalishga: psixologiyani asosiy qonun, tendensiyalari, prinsiplari, ijtimoiy taraqqiyotning muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Yosh avlodni dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashni tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim.

Ilmiyligi jihatidan nazariyaning asoslarini amaliyot bilan masalaning quyilishining ilmiyligi bilan, hamda iqtisodiy nazariyaning yangi dolzarb

masalalariga ijodiy yondashish bilan nazariy dalillar mantiqiyligi bilan uzviy birligi ta'minlanishi kerak.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi o'qituvchi oldiga quyidagi vazifalarni quyadi:

- talabalarga psixologiya fanida erishilgan nazariy boylikni oshib berish.

- psixologiya nazariysi fanidan olgan bilimlarini boshqa fanlarni o'rganishda ijodiy qo'llashlariga yordam berish;

- talabalarga maxsus fanlarni o'qitish sharoitida murakkab psixologik muammolarni yechishda to'g'ri yo'l topishga o'zida ishonch hosil qilishni tarbiyalash.

Ma'ruzada asosiy maqsadga yetish uchun talabalarda psixologiya fanlarini o'rganishga barqaror qiziqish uyg'onish kerak. Ma'ruzani shunday tuzish kerakki, talabada fanni chuqur o'rganish uchun mustaqil ravishda adabiyotlarni topish, ularning ustida ishlash, tushunishga xohish-istak tugilsin. Shuning uchun zarur material, kitoblar, jurnal va boshqa ma'lumotlar tanlash prinsipial ahamiyatga ega.

Shu bilan birga talabalarga duch kelinadigan qiyinchiliklarni, ularni ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarini ham tushuntirish kerak.

#### **Ma'ruzani bayon qilish uslubi**

Ma'ruzani nazariy va amaliy materialni talabalarga yetkazishning umumiylashtirishda qarasaq, uni qanday tarzda talabaga yetkazish muammosi kelib chiqadi. Dalillar va nazariy konsepsiyanı talabalarga yetkazishda asosan ikki uslubdan foydalilanildi: induktiv va deduktiv.

Induktiv uslub ma'ruzada xususiylikdan umumiylashtirishda qarasaq, deduktiv uslub esa umumiylashtirishda xususiylik tomon bayon qilishni ifodalaydi. Induktiv uslub dalillar, xususiy, umumiylashtirishda qarasaq, uni qanday tarzda talabaga yetkazishda o'qituvchining rolini uning barcha uslublar, ko'rgazmali quroq va boshqalarni qo'llashdagi mohirligini hisobga olmay, ma'ruzaning rolini ko'rsatib bo'lmaydi.

Talabalarni psixologiya fanlarini o'qitishda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruzaning roli beqiyosdir. Shu bilan birga ma'ruzaning mazmunini talabalarga yetkazishda o'qituvchining rolini uning barcha uslublar, ko'rgazmali quroq va boshqalarni qo'llashdagi mohirligini hisobga olmay, ma'ruzaning rolini ko'rsatib bo'lmaydi.

Ma'ruza jarayonida o'qituvchi fikrlash doirasiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega yoshlar bilan ish olib borar ekan, uni albatta dars berishda hisobga olishi kerak. Shu bilan birga texnik va tabiiy fanlarda odatda material aniq xususiy faktlardan nazariy umumlashtirishga, so'ngra xulosa chiqarishg o'rganadi. Birinchi kursdan boshlab, ana shu tizim, uslubni davom ettiriladigan bo'lsa, talabalarni tushunishi osonroq bo'ladi.

Sababi o'zaro bog'lanishni aniqlash, taqqaqlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosa chiqarish shuni talab qiladi. Psixologiya nazariyasiga xos murakkab kategoriyalarni ular yordamida uzlashtirishni yengillashtiriladi.

Birinchi kursdan boshlab, xususiylikdan umumiyligi mantiqiy xulosa chiqarishni o'rganilar ekan, o'qituvchi shu tizimni buzmagan holda undan fanni chuqurroq uzlashtirish uchun foydalanish maqsadlarga muvofiq bo'ladi.

Yana shuni ham hisobga olish zarurki, talabalik (18-20) yoshida shoshilinch xulosani umumlashtirishga harakat qilish, urinish uchrab turadi. Ayrim paytlarda talabalar yoshlik qilib, ko'pincha uylab utirmay dangal, umumlashtirib bo'lmaydigan xususiy faktlarni ham umumlashtirishga harakat qilishadi. O'qituvchi ma'ruza o'qishga tayyorlanar ekan, bu tendensiyani ham hisobga olishi zarur.

Ma'ruza materialini qay tarzda bayon qilinishiga qarab: **dalillar, xususiy, umumiyligi xulosa nazariy qoidalar, aniq faoliyat uchun amaliy xulosalarga kelish tarzida berish mumkin.** Induktiv uslubda ma'ruza ko'pincha qiziqarli, ko'zga tashlanadigan fakt yoki misoldan, ayniqsa shu kunning biron dolzarb masalasi bo'lgan, auditorianing diqqatini jalb qiladigan masaladan boshlanadi.


Induktiv uslub talabalarini ketma-ket xususiy kuzatuvlardan umumiyligi xulosa chiqarishga o'rganish imkonini beradi. Ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Deduktiv uslubda esa ma'ruza umumiyligi nazariy masalalardan boshlanadi. Bu uslub psixologiya nazariyasining umumiyligi qonunlari, qoidalarini hozirgi zamon real xayotga tadbiq qilish, amaliyotda ko'rish va baholash xo'jalik xayotida qo'llash imkonini beradi.

Tajriba shuni kursatadiki, ma'ruza xam induktiv, xam deduktiv uslub asosida olib borilsa maqsadga muvofiq ekan. Avval ishchi gipoteza, taklif shaklida umumiyligi savol auditoriyaga quyiladi, so'ngra talabalarini mulohaza qilishi orqali o'z fikrini tasdiqlovchi dalillar keltirish, faktlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni shu qo'yilgan savolga to'g'ri kelishi birgalikda muxokama qilib xulosa chiqariladi.

Bunda ma'ruza rejasi tuzilganda quyidagi sxema: asosiy g'oya, uni dalillar asosida tasdiqlash-xususiy savollarni izchillikda bayon qilish, deduktiv uslubda mavzuning umumiyligi xarakteristikasini berishni ko'zda tutgan holda tuziladi.

Ma'ruzachi tomonidan qo'yilgan vazifa, talabalarining umumiyligi tayyorlarligidan kelib chiqib, ma'ruzaning rejasini boshqacha tarzda tuzish mumkin. Lekin ularning barchasida bayon qilish mantiqiy, qat'iy izchillikda, ta'kidlangan fikr asoslangan bo'lishi zarur. Agarda bir savoldan boshqasiga o'tish mantikiy asoslangan bo'lsagina ma'ruzada qo'yilgan maqsad ~~amalg'a oshirilishi~~ mumkin. Shu bilan birga ma'ruzada raqamlar, dalillar qanday tarzda berilishi ham muhim ahamiyatga ega.



Ma'ruzaning samarasini oshirishda ko'rgazmali quollar (jadval, sxema, diagramma, grafika kabilar) ning ahamiyati kattadir. Ko'rgazmali quollar axborotni qabul qilish jarayoniga kirish orqali qo'shiladi. Natijada urganilayotgan mavzuni chuqurroq tushunish o'quv materialini xotirada uzoq saklanishiga yordam beradi. Lekin ko'rgazmalilikka ham haddan tashqari qiziqib ketish kerak emas, chunki auditoriya bilan kontakt yuqoladi va natijada ma'ruzaning samarasini pasayadi. Shu bilan birga tanlab olingen, tayyorlangan ko'rgazmali quollar suzsiz samarasini anchagina oshiradi.

**Ma'ruzada** iloji boricha talabalarning diqqatini qaratish, ma'ruza tinglashdan o'z oldiga maqsad ko'yishga erishishi kerak. Buning uchun ma'ruzaning kirish qismida yoki uning asosiy qismida masalaning mohiyatini ochib berishga qaratilgan savol qo'yish maqsadga muvofiq. Sababi, birinchidan, pedagoglarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, talabalar mavzuni o'qituvchi bayon qilishidan avval yoki bayon qilish jarayonida savol quyishi uni bayon qilib bo'lgach savol qo'yib suraganga qaraganda to'likrok, yaxshirok uzlashtirishga olib kelar ekan. Chunki savol qo'yilgach talaba unga qanday javob berilishi mumkin, uni javobi qanday, nima ekan deb uylashni boshlaydi. Uni javobini o'qituvchidan eshitishga diqqatini qaratadi.

Ikkinchidan, ma'ruza boshlanganda 20 minutgacha vaqt o'tgach talabalar diqqati susayadi. Shuning uchun buni hisobga olib, har 15-20 minut o'tgach yoki har bir uzviy savolni bayon qilishda turli metodlardan foydalanish, talabalar diqqatini jalb qiladigan savollar quyish maqsadga muvofiq.

Dars berish jarayonida misol keltirganda guruhdagi talabalarni misol keltirish ham ularni diqqatini jalb qiladi.

Ma'ruzada boshka o'quv shakkiliga qaraganda ma'ruzachining xis-xayajonligi, jo'shqinligi muhim rol o'ynaydi. Ma'ruzachi xis-xayajonini o'zgartirish, mimikasi orqali talabalarni darsga qizikishini kuchaytirishi, yoki aksincha susaytirishi mumkin.

Ma'ruzaning emotsiyal ta'siri o'qituvchining ma'ruza materialini erkin bayon qilishi bilan tug'ridan-tug'ri bog'lik. Erkin bayon qilish orqali auditoriya bilan bog'lanish yaxshilanadi. Talabalarning reaksiyasini kuzatish imkonи vujudga keladi. Og'zaki (suhbat) tarzida ifodalishidan foydalanish mumkin bo'ladi.

Aksincha tez-tez yozilgan ma'ruza matniga qarash auditoriya bilan kontakt o'rnatishni qiyinlashtiradi, uni buzadi, chunki yozma nutq odatda monolog tarzida bo'ladi.

### **Ma'ruzaga tayyorgarlik**

Ma'ruza yozish quyidagi strukturada bajariladi:

1. Ma'ruza yozishga tayyorgarlik: ma'ruza mavzusini tanlash

2. Pedagogik adabiyotlarni, turlari temaga oid o'qish
  3. O'z materiallarini tartibga solish
  4. Xulosalarni yozishni o'yash, shakllantirish
  5. Ma'ruzaning reja prospektini tuzish
- II. Ma'ruzaning (maqola, broshyura) namunaviy tuzilishi.
- Kirish qismi
  - O'quv tarbiyaviy jarayonning hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish masalalari
  - Muammoning nazariya va amaliyotdagi holati
  - Mavzuning dolzarbligi
- III. Asosiy nazariya va amaliy natijalar xususiyati.
- Ta'lim tarbiya sifatini oshirish vositalarini tahlil etish va asoslash
  - Pedagogik vositalarni nazariy asoslash
  - Pedagogik tajribalar natijasida olingen natijalarni ko'rsatish (jadval, grafik, kompyuter)
  - Oldingi holatdan farqi
  - Izlanishdagi qiyinchiliklar
  - O'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga oid yo'l-yo'riqlar
- IV. Xulosa va takliflar.
- Qilingan, olingen ish tajribalarini umumlashtirish, olingen natijalarini tadbiq qilish bo'yicha tavsiya etish.

### **Interfaol ma'ruzalar o'qish metodikasi.**

#### **O'quv jarayonida ma'ruzaning o'rni**

Ma'ruza – barcha turdag'i o'quv mashg'ulotlari uchun metodologik va tashkiliy asosdir. Metodologik asos – chunki talabani ilm-fanga yetaklaydi, o'quv kursiga konseptuallik beradi, tashkiliyi esa – o'quv mashg'ulotlarning qolgan barcha turlari ma'ruzaga bog'lab qo'yilgan, ko'pincha mantiqan undan keyin keladi, mazmunan va mavzuiy jihatdan unga tayanadi.

Ba'zi xollarda ma'ruza asosiy axborot manbai vazifasini bajaradi: ko'pincha yangi kurslar bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yo'q bo'lgan vaqtida, u yoki bu mavzular bo'yicha yangi ilmiy axborotlar darsliklarda o'z aksini topmagan xollarda, kursning ba'zi bo'lim va mavzulari mustaqil o'rganish uchun juda murakkab bo'lganda. Bunday hollarda talabaga murakkab materialni o'zlashtirishda faqatgina ma'ruzachi metodik yordam berishi mumkin.

Ma'ruza materiali va darslik asoslari bir xil bo'lsa ham, so'zsiz, ma'ruza darslik oldida katta usutunlikka ega: unda darslikda berilmagan ilmiy masalalarning eng so'nggi yoritmalari beriladi, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish to'g'risidagi eng zamonaviy ma'lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari, ma'ruza va

darslik hajmi bilan ham farq qiladi. Ba'zi hollarda, masalan, butunlay yangi kurslarni yaratishda ma'ruza talabalarga bilim yetkazishning yagona shakli bo'lishi mumkin, chunki u odatda bir necha yil davom etadigan darslik yaratish jarayonidan ilgarilab ketadi.

Ma'ruza mazmuni o'qitiladigan fanning o'quv dasturi asosida aniqlanadi.

Oliy o'quv yurtidagi ma'ruza – bu darslik yoki boshqa adabiy manbalarni oddiygina gapirib berish emas, balki pedagogning ma'lum bilimlar sohasidagi shaxsiy ilmiy-pedagogik ijodiyotidir. Haqiqiy o'qituvchi, tom ma'nodagi pedagog ma'ruzaga bir kun yoki bir-ikki saat oldin tayyorlanmaydi, balki doimiy ravishda, o'zining butun faoliyati, butun hayoti davomida tayyorlanadi.

Ma'ruza darslarida auditoriya pedagogdan jonli, yorqin, mazmundor xabarlarini kutadi. Bu yerda undan bilim va kasbiy tajribaga qo'shimcha ravishda keng eruditsiya, argumentlash mantig'i, o'z bilimlar sohasiga berilib ketish va uni kichik hamkasblari – talabalarga yuqtirish ichki ehtiyoji talab qilinadi. Ya'ni lektor tinglovchilarning nafaqat ongiga, balki go'zal nutq san'ati bilan ularning hissiyotlariga ham ta'sir etishi zarur.

Barcha ma'ruzalarda bayon qilinayotgan o'quv materialiga talabalarning munosabatini ulardagagi diqqat, qiziqish, yuz ifodalari va h.k. belgilari orqali bilib olish mumkin. Yaxshi ma'ruzalarda o'quv axborotni yetkazish jarayoni to'liq boshqariluvchan bo'lib, teskari aloqa real mavjud bo'ladi. Kuchsiz ma'ruzalarda esa teskari aloqa boshqacha namoyon bo'ladi, unda talabalar o'zlarini eshitib o'tirganga solishadi, ba'zida boshqa ishlar bilan shug'ullanib, qulq solishmayotganliklarini yashirishmaydi ham. Bunday ma'ruzalarga qatnashish faqatgina formal xarakterda bo'ladi. Biroq bunday xolat agar ular yomon tashkillashtirilgan va mazmunsiz bo'lsa har qanday mashg'ulotlarda yuz berishi mumkin. Faqatgina ma'ruzada auditoriya va pedagog orasidagi munosabatlar xolati yaqqolroq namoyon bo'ladi, chunki bu yerda faqat pedagog faoliyat olib boradi, talaba esa ma'ruzani va pedagogni baholab, ma'ruzani qabul qiladi va o'zlashtiradi. Har bir ma'ruzada pedagog auditoriya oldida imtihon topshiradi. O'z-o'zidan ravshanki, ma'ruza materialini sifatli bayon qilish masalasi juda muhim hisoblanadi. Ma'ruzalarda olimdan ilm-fanning yangi ufqlarini ochish shijoati lozim bo'ladi, shunda teskari aloqa qanday bo'lishi kerak bo'lsa, shunday bo'ladi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, ma'ruzada bayon qilingan material qabul qilinsa va ma'lum darajada o'zlashtirilsa ham, biroq hali mustahkam bilimga aylanmaydi. Buning uchun ma'ruza va qo'shimcha material ustida amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari va talabalarning mustaqil ishi mavjud.

## **Ma'ruza uslubi va lektorning o'zini tutishi**

Kafedra oldida turgan o'qituvchida olim, pedagog va yetarli darajada mohir lektor sifatlari mujassam bo'lmog'i zarur. Haqiqiy olim-pedagog o'z predmetini e'tiqod pozitsiyasidan, berilib bayon qiladi. Ma'ruzani malakali o'qish shartlaridan biri predmetni mukammal bilishdir. Biroq ma'ruza uchun faqatgina predmetni, aytيلayotgan ma'lumotlarning talabalar bilimiga aylanishining pedagogik va psixologik yo'llarini bilishning o'zi yetarli bo'lmaydi, shu bilan birga ilmiy xolatlarni, atamalarni qiyinchiliklarsiz, yetarlicha obrazli va emotSIONallik bilan bayon qiladigan rivojlangan nutq zarur bo'ladi.

Ma'ruzada juda ko'p narsa pedagogik muloqotning samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Mashhur psixolog A.A.Leontev to'laqonli ma'ruzaviy muloqotga erishiladigan quyidagi sharoitlarni aniqladi:

- ma'ruza o'qiladigan joyni tez va to'g'ri mo'ljallah;
- ma'ruza mazmunini to'g'ri rejalashtirish;
- material mazmunini tinglovchilarga yo'qotishsiz yetkazib beradigan aniq vositalarni topish;
- tinglovchilar bilan mustahkam kontakt o'rnatish.

O'qituvchining kontakti talabalar bilan mantiqiy, psixologik va ma'naviy bo'lishi mumkin. Mantiqiy kontakt – bu pedagog va talaba fikrlarining kontakti. Psixologik kontakt talabalar diqqatini jamlash, ular tomonidan bayon qilinayotgan materialni tushunish va qabul qilish, o'qituvchi faoliyati va undan kelayotgan axborotga javob tariqasida ichki fikrlash va emotsiyonal faoliyadan iborat bo'ladi. Ma'naviy kontakt talaba va pedagogning hamkorligini ta'minlaydi. Ushbu kontakt amalga oshmasa, masalan, konfliktlar sharoitida, bilish-o'rganish jarayoni qiyinlashadi, yoki umuman sodir bo'lmasligi mumkin.

Auditoriya lektomi butun diqqatini jamlagan holda va ishga to'liq tayyorlik, u bilan birga fikrlash bilan yoki oldindan ma'ruza o'ta zerikarli, darslikni to'lig'icha so'zlab berishdan iborat bo'lishini sezib befarqliq bilan kutib oladi. Ba'zida auditoriya sabr qilish, ko'pincha esa predmet va lektorga nisbatan salbiy kayfiyatda bo'lish pozitsiyasini egallaydi.

Agar o'qituvchi auditoriyaga kirkach talabalarni «ko'rmasa», ular bilan kontakt o'rnatishga harakat qilmasa, ularning darsga qanday tayyorgarlik ko'rganligiga e'tibor bermasa, unga mavzu va rejani aymasa, u holda talabalar qanday qilib predmetga qiziqishlari va jiddiy ishga o'zlarini sozlashlari mumkin.

Ba'zi lektorlarning auditoriya oldida o'zlarining «intelлектual jihatdan ustunligini» ko'rsatishga urinishlari, materialni murakkab tilda bayon qilishlari metodik jihatdan asossiz hisoblanadi. Xuddi shunday ma'ruza tilini haddan tashqari soddalashtirish ham maqsadga muvofiq emas.

Pedagogning predmet mohiyatini bilishi, o'zi shug'ullanadigan ilm-fan taraqqiyotining dialektik asoslarini tushunishi – zaruriy bo'lib, o'quv jarayonining samarador bo'lishi uchun yetarli emasdir. O'qituvchi o'z tinglovchilariga ilgari surilayotgan nazariy bilimlarning haqqoniyligini ko'rsata olish uquvlariga ega bo'lishi, olingen bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatishi shart.

Ma'ruza odatda lektor tomonidan jonli nutq ko'rinishida bayon qilinadi. Ma'ruzani xotirjam, sal balandoq ovozda bayon qilish, tovush balandligini o'zgartirib, asosiy va ahamiyatlilarni ta'kidlab, xulosa qilish, savollar berish, muammolar qo'yish chog'ida nutqni pastlatish tavsiya qilinadi. Shunday qoida mavjud: "ma'ruzalarni yetarlicha baland ovozda o'qish kerakki, uni eshitishsin, va shu bilan bir vaqtida yetarlicha past o'qish lozimki, toki uni tinglashsin". Masalan, daqiqsiga 60-80 so'z o'qish surati normal hisoblanadi.

Ma'lumki, ma'ruzaviy o'qitish fikrlarning aniq va ixchamligini, nutqning ifodaliligini, so'zsiz uning til va imlo jihatdan to'g'rilingini talab qiladi. Ma'ruzada nutqqa e'tiborsizlik va uni kerak bo'limgan kirish so'zлari, jargonlar, vulgarizm bilan bulg'alashga yo'l qo'yilmaydi.

Agar lektor formal logika va uni uquvli qo'llash qoidalarini bilsa, materialni taqdim qilishi shuncha muvaffaqiyatli bo'ladi. Logikada isbotlanishi lozim bo'lgan har bir fikr-mulohaza ma'lum qonunlarga bo'ysunadi. U aniq-ravshan bo'lishi, ikki xil ma'noga ega bo'lmasisligi va butun isbotlash jarayonida o'zgarmasdan shakllantirilishi zarur.

Ma'ruzada materialni bayon qilish jarayonida ilg'ab olish ehtimoliy xarakterga ega: odatda, tinglovchi gapning nima bilan tugashini oldindan topish maqsadida gapiruvchidan fikran oldinga ketib qoladi. Biroq muntazam ravishda oldindan uqib olish tinglovchining diqqatini susaytiradi. Har bir matn - axborot (taxminan 30%) va to'yingan, zich qismdan iborat bo'ladi. To'yinganlik barqarorlikni va uqib olishning ishonchlilagini ta'minlaydi. Aynan bitta ma'ruzaning har bir auditoriya uchun to'yinganlik va informativlik nisbati turlicha bo'lishini mutaxassislar aniqlashdi. Og'zaki chiqishlar uchun 1:3 nisbat optimal bo'ladi. Agar butun matn to'yingan bo'lsa, xabar ma'nosi yo'qoladi.

Ma'ruzaning tabiiy dinamikasi to'rtta fazani o'z ichiga oladi (5.1.-rasm): boshlang'ich qabul qilish – 4-5 daq (1); qabul qilishning optimal faolligi – 25-30 daq (2); zo'riqish fazasi – 10-15 daq (3); sezilarli charchash fazasi (4).

Odatda pedagog oxirigi fazani sezadi, bu noto'g'ri. Chorani oldinroq - zo'riqish fazasida ko'rish zarur. Bu yerda ma'ruza materialini xilma-xillashtirish, yuqori qiziqish uyg'otadigan materialga o'tish, tinglovchilarning zo'riqish darajasini o'zgartirish zarur. Manfaatdorlik va ishonch muhiti bo'limgan joyda zo'riqish va charchash fazalari oldinroq hosil bo'ladi. Zerikarli va bir xildagi ma'ruzalar talabalarning fikriy faoliyatlarini so'ngdirib qo'yadi.

Juda murakkab, abstrakt predmet bo'yicha ma'ruzada ozgina humor, lektorming mazmunga mos ravishda hazil-mutoibalariga yo'l qo'yiladi. Biroq o'tkir fikrlar va hazillar me'yorida bo'lishi va ularni mohirona tortiq qilish talab qilinadi. Ularning ortiqcha bo'lishi qarama-qarshilikka olib keladi va ma'ruza o'zining ilmiy qimmatini osongina yo'qotib qo'yishi mumkin.

Yaxshi lektor, go'zal nutq sohibi bo'lishni istagan har bir pedagog uchun notiqlik san'ati muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy mакtab ma'ruzasida o'qituvchi shaxsan goh u, goh bu talabaga va hammaga murojat qilgandek butun auditoriyaga qarashi kerak.

Lektoring pedagogik va psixologik sifatlari to'g'risida gapirganda irodasini rivojlantirish va auditoriyani o'ziga bo'ysundirish uquvlariga e'tiborni qaratish zarur. Avval o'zini auditoriyadan qo'rmaslikka majbur qilish kerak. Yaxshi tayyorgarlik ko'rilmaga bu odatga aylanib qoladi, so'ngra o'z bilimlariga ishonch hosil qilinadi, bu esa auditoriyaga ta'sir qilishning eng muhim shartidir.

Barcha aytilganlarga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, ya'ni lektor o'z harakatlarida siqilgan bo'lishi kerak emas, biroq ortiqcha yarashmagan yoki teatrlashgan jestlarga berilmasligi lozim. Tinglovchilar lektordagi osoyishta hulq, uning ixchamligi, undagi ishonch va soddalikni qadrlashadi.

Lektor auditoriyani har doim kuzatib borishi zarur, barcha tinglovchilarni ko'z qiri ostida ushlashi, auditoriyani diqqat bilan eshitishi va tinglashi, har qanday chalg'ituvchi holatlarda zarur muhitni tiklab olishi talab qilinadi.

Lektor hammaning ko'z o'ngida bo'ladi, shuning uchun uning tashqi qiyofasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. U auditoriya tomonidan jismoniy, funksional va ijtimoiy belgilarning majmuasi sifatida qabul qilinadi. Lektor qiyofasidagi biror narsa talabalar diqqatini o'ziga jalb qilishi (kiyimi, soch turmag'i, zeb-ziynatlari), ortiqcha qiziqish, hayrat va kulgi uyg'otmasligi kerak. Talabalar auditoriyasi oldida lektor o'zini qanday tutishi lozimligi to'g'risidagi quyidagi qoidalarni bilib qo'yish foydadan holi bo'lmaydi:

- Lektoring pedantik intizomi. Ma'ruzaning aniq boshi va oxirini yashiradigan har qanday sabablarni butunlay yo'qotish kerak. Ma'ruza – kasb ta'limi pedagogi hayotidagi eng muhim narsadir.
- O'z-o'ziga nisbatan o'ta talabchanlik. Lektor har doim quyidagilarga roya qilishi lozim:
  - doskada yozish texnikasiga – yozuvlarning izchil va aniqligi, yaxshi mel va h.k.;
  - ma'muza tilining to'g'riliği va qat'iyiliği – jargon so'zlardan qochish, urg'ularni to'g'ri qo'yish va h.k.;
  - auditoriyani doimiy kuzatish va uni his qilish;

- talabalar uchun juda muhim bo'lgan «Bu nima uchun kerak?» degan savolga javobni hozirlab qo'yish;

- lektor o'zi yaxshi bilmagan predmetlarni auditoriya oldida muhokama qilmasligi;

- lektor o'zi ishonmaydigan va hayotda bajarmaydigan shior va saboqlar bilan ma'ruzani bezamasligi;

- talabalarning ichki dunyosini boyitib, auditoriyaga dam berish;

- talabalar auditoriyasi oldida o'zini yuqori tutib, kekayish kerak emas.

Ma'ruza bu pedagog va talabalarning jamoaviy yo'nalgan tafakkuri va asosiy masala – ushbu tafakkurni faol va mahsuldar qilish. Bunga pedagogning bilimi, tajribasi va pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lgan interfaol ma'ruzalar o'qish jarayonida erishiladi.

#### **Interfaol ma'ruza va unga qo'yiladigan talablar**

Ta'lim tizimi taraqqiyotining zamонавији jihatи talabalarning ijodiy va mustaqil idrok etish faoliyatini takomillashtirishni talab qiladi. Bu o'qituvchining ma'ruzaga tayyorlanishi quyidagi masalalarni yechishga qaratilgan bo'lishi lozimligini bildiradi: materialni talqin qilish va tizimlashtirish, uni tinglovchilarga yetkazib berish, eng asosiyi ularni faol fikrashga jalb etish.

#### **Interfaol ma'ruzaga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:**

- muammolilik, ichki muloqot;
- izchillik, tizimlilik;
- aniqlik, ziddiyatsizlik;
- isbotlay olishlilik;
- o'quv materialining verbal, abstrakt (mantqiy strukturalar, matematik modellar va h.k.), obrazli (rasmlar, sxemalar), emotsional (o'qituvchining holati) birligi.

An'anaviy ma'ruza o'quv materialini reproduktiv bayon qilishga asoslangan bo'lib, u turli xildagi informatsion-retseptiv metodlar yordamida amalga oshiriladi. Biroq e'tiborni muammoli, muloqotli, shaxsga qaratilgan bayon kabi produktiv metodlarga qaratish zarur. Xuddi shu metodlar ma'ruza o'qishda talabalarni faollashtiradi.

Ma'ruba darsida talabalarni faollashtirishning boshqa yo'llari ham bor. U talabalarning ma'ruzaga tayyorlarligini tashkil qilishdan iborat.

Bizga ma'lumki didaktikada ikki xil o'quv-bilish faoliyati mavjud: reproduktiv va produktiv. Bularga mos ravishda ikki xil axborotni ajratish mumkin: nusxalanadigan va bashorat qilinadigan.

Nusxalanadigan axborot talabalar tomonidan tayyor holda o'zlashtiriladi. Uning manbai o'quv materiali asosan tushuntiruv-illyustrativ usulda bayon qilingan kitoblar (o'quv qo'llanma, darslik va h.k.) dan iborat bo'lib, talaba ularni

mustaqil ravishda kamida birinchi va ikkinchi daraja (bilish va takrorlab berish) da o'zlashtirishi lozim bo'ladi. O'qituvchining vazifasi esa mustaqil o'qish uchun axborot manbalarini metodik jihatdan to'g'ri tanlashdan iborat bo'ladi. Bular birinchi qadamadir.

Ikkinchi qadam nusxalangan axborotdan bashorat qilinuvchi axborotga o'tishdir.

Bashorat qilinadigan axborot – talaba tomonidan u aytildasdan oldin hosil qilinadigan axborot bo'lib, talaba ongida bilimlarni va ularni olish yo'llarini quradi. Bu qadamni amalga oshirish uchun o'qituvchi talabalar diqqatini navbatdagi ma'ruza mashg'ulotida ko'rildigani muammoga jalb qiladi (ilgarilab o'qitish tamoyili). Eng asosiysi – muammolarni to'g'ri ajrata olish, belgilash va shakllantirishdir. Shunday qilib, o'quvchi ma'ruzadan oldin o'qituvchi bergen vazifani bajarish vaqtida, ma'lum materialni biladi (reprodutsirlangan axborot) va ma'ruzada belgilangan muammolar haqida ham ma'lumotga ega bo'ladi (bashorat qilinadigan axborot). Ravshanki, bunday vaziyatda o'qishga kuchli intilish - motivatsiya paydo bo'ladi. Talaba o'qituvchi tomonidan muammoning yechimi qanday berilishini va uning xayolidagi yechimga qanchalik mos kelishiga qiziqadi. Shunday ma'ruzalarda talaba va ma'ruzachi teng huquqli hamkorlar kabi bo'lishadi. U ichki muloqotga asoslangan bo'ladi. Bu ma'ruzada o'rganish samaradorligini oshiradi.

Qanday qilib ma'ruzaga samarador tayyorlanish mumkin? O'qituvchini ma'ruzaga tayyorlanishining quyidagi evristik algoritmini keltiramiz:

1) ma'ruzaning mavzusini belgilab olish;

2) ishchi reja tuzish;

3) ishchi rejaga asosan adabiyotlarni qarab chiqish, buning natijasida ishchi konsept tuziladi.

4) ishchi konseptiga asosan ma'ruzaning predmet rejasini tuzish. U mavzuning aniq nomi, tayanch tushuncha va atamalarni, ma'ruza rejasini o'z ichiga oladi. Rejaning har bir punkti tezis ko'rinishida tasvirlanishi kerak (tezis uch qismidan iborat bo'ladi: so'z yuritilayotgan ob'ekt – nima haqda so'z boradi; predikat – u haqda nima deyiladi; ob'ekt va predikatning aloqasi);

5) ma'ruza matnini tuzish, xuddi shu narsa mazmun mantig'ini ochib beradi. Mashg'ulotlarda ma'ruza matnidan foydalanmagan ma'qul, u yordam bermaydi, balki o'qituvchini auditoriyadan chalg'itadi.

– qo'zg'aluvchan reja tuzish. Ana undan ma'ruzada foydalanish mumkin va zarur. Qo'zg'aluvchan reja asosiy va qo'shimcha axborotni aniqlab beradi, zaruriyat tug'ilsa o'quv materialini oson o'zgartirish imkonini beradi.

– Ma'ruzani qanday o'qish kerak?

Ma'ruza o'qiganda o'qituvchi eng avvalo o'rganilayotgan materialga o'z munosabatini, o'z nuqtai nazarini ifodalashi lozim. Ma'ruzani o'qib berish kerak emas. Eng yaxshisi materialni oddiy so'zlashuv tezligida bayon qilish va yozib olish uchun asosiy fikrlarni ajratish ma'qul. Interfaol ma'ruza tashqi tomondan monologik bo'lsa ham, aslida dialogikdir, ya'ni o'qituvchi o'qilayotgan materialga talabalarning diqqatini, ularning kayfiyatlarini, munosabatlarini his qilishi zarur. Xuddi shu narsa teskari aloqani hosil qiladi va o'qituvchiga o'quv jarayoniga tuzatish kiritish imkonini beradi.

Talabalarning ma'ruza mashg'ulotida ishlashlari murakkab jarayon bo'lib, u uchta faoliyatni o'zida mujassamlashtiradi: eshitish, anglash, yozib borish.

Eshitish jarayonini optimallashtirish mumkin, agar:

- notiq ma'rzasidagi asosiy joylar fikran ajratib olinsa;
- ma'ruzada yoritilayotgan asosiy holatlar joriy va bosqichma-bosqich tahlil va sintez qilinsa;
- o'qituvchi aytmoqchi bo'lgan gapni oldindan bilib olishga harakat qilinsa;
- ma'ruzani oxirigacha diqqat bilan eshitishlariga erishilsa.

Talabalarni asosiy joylarni ajratib olishga o'rgatish uchun, eng avvalo ularning diqqatini shunday joylarni aniqlab beradigan kirish jumllalariga qaratish zarur. Joriy va bosqichma-bosqich tahlil o'quv materialini bayon qilish mantig'i va tizimini his qilishga imkon beradi. O'qituvchi nutqini oldindan biliш esa diqqatni tashkil qilish vositali hamda o'quv materialrini anglash va boshlang'ich yodda saqlab qolish usuli hisoblanadi. Agar o'qituvchi aytayotgan narsa qiziqish uyg'otsa, unda o'z-o'zidan navbatdagи fikrni topish istagi tug'iladi. Agar mana shunga muvaffaq bo'linsa, u holda yodda saqlash va o'quv materialining umumiyl o'zlashtirishi yaxshilanadi. Ma'ruzani oxirigacha diqqat bilan eshitishni hosil qilish uchun talabaga iroda omillarini ishga tushirishga, o'z-o'zini ishontirish va o'z holatini boshqarish uslublaridan foydalanishga yordam berish zarur.

Agar talaba ma'ruzani konspekt qilib borsa, tinglash natijasi yanada samarador bo'ladi, Ma'ruzani yozishda daftar chetidan xoshiya qoldirish zarur. U yerga talaba o'z fikrlarini, paydo bo'lgan savollarni, tavsiya etiladigan adabiyotlarni, ma'ruzaning u yoki bu qismini mustaqil qayta ishlashi uchun vazifani, zarur chizma, rasm, sxema va h.k.larni yozib borishi mumkin.

Ma'ruzani konspekt qilish vaqtida satrlar orasida joy qoldirsa foydali bo'ladi. U boshlang'ich matnga bir nechta qator qo'shish, tagiga chizish, asosiysini ajratib olish uchun xizmat qiladi. Asosiy axborotni to'liq, yordamchi axborotni esa qisqacha yozish mumkin, ya'ni ma'ruza yozishda filtrlash va matnni siqish uslublaridan foydalanish ma'qul. Konspektni puxta yozib borish uchun tez yozish

uslublarini egallash foydali bo'ladi. Bu uslubning asosi – shartli belgilardir (ierograflar, piktogrammalar, ramzlar, kvantorlar va h.k.).

Talabalarning konspekt bilan ishlashlarini quyidagi algoritmgaga keltirish mumkin:

- o'qilgan narsani anglash uchun ma'ruza materiallarni bir necha marta takrorlash kerak (birinchi besh soatda, ertasiga va bir sutkadan so'ng va h.q.);
  - daftarni xoshiyasiga qo'yilgan barcha vazifa va belgilarni ishlab chiqish;
  - yozuvlarni texnik qayta ishlash (tagiga chizish, asosiyisini ajratish, xulosa, isbot, ma'ruzaning har bir savolini mantiqiy jihatdan yoritilishini belgilash);
  - ma'ruza matnini kitob bilan solishtirish;
  - ma'ruza matnini aynan takrorlash.

### **Amaliy va seminar mashg'ulotining mohiyati, turlari va ularga qo'yiladigan talablar**

Dars, yuqorida aytib o'tilganidek, o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu sohada turli xil ko'rrik-tanlovlар, jumhuriyat miqyosida o'tkazilayotgan pedagogik o'qishlarda o'rtaqa qo'yilayotgan ilg'or o'qituvchilarining fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiylidik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmosh'i lozim.
2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lmosh'i lozim.
3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmosh'i lozim.
  - Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmosh'i lozim.
    - Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalananmoq lozim.
    - Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarining faolligi birligini ta'minlamosh'i lozim.
    - Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.
    - Dars mashg'ulotini butun sind bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o'quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

• Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Seminar mashg'uloti- bu o'zaro talabalar hamda o'qituvchi orasidagi mavzu yuzasidan bo'lib o'tadigan baxs-munozarasi hisoblanadi.

Seminar mashg'uloti-bunda o'quvchi va talabalarning bilimlari o'quvchilarning mavzu yuzasidan mustaqil fikrga ega ekanliklari ham baholanadi.

G.A.Ball o'zining "Pedagogika va psixologiya nazariyaları" nomli asarida seminar mashg'ulotini ikki turga ajratib ko'rsatgan.

1. Amaliy seminar mashg'uloti.

2. Bahs-munozara seminar mashg'uloti.

Amaliy seminar mashg'uloti bu amaliyotda talabalarning turli ko'rinishdag'i murakkab vaziyatlarni, amaliy vazifalarning yechimlarini muhokama qilib topadilar. Baholash mezonlari o'qituvchi boshchiligidagi o'quv jamoasi ya'ni talabalar bilan birligida tanlanadi.

Bahs-munozarali seminar mashg'uloti dissksusiya ko'rinishidagi turi bo'lib seminar mashg'uloti odatda amaliyotda kerak bo'ladigan psixologik tadqiqotlarni, turli xildagi metodikalarni muhokama qiladilar. Bu tartibdagi seminar mashg'uloti yordamida talabalarni kelajakda o'zlarini faoliyat olib boradigan shaxslar aniqlashtiriladi va o'zlarini kerakli bo'lgan psixologik metod va usullarni o'rganadilar.

Z.M.Panibrasovaning fikriga ko'ra- seminar mashg'uloti jarayonida har bir talabada o'zi bilmagan holda qalbining tubidagi o'zib ketish, baho olishda yuqori ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish hissi mavjud bo'ladi va o'z-o'zidan o'quv faoliyatini kuchaytirishga, o'qish motivining ustun kelishi kuzatiladi.

Seminar mashg'ulotini o'tkazish boshqa dars turlarini o'tkazilishidan ancha murakkabligi turli xildagi olimlar tomonidan aytib o'tilgan. Har bir o'qituvchi o'zi o'tadigan dars yuzasidan ma'lum tayyorlarlikka ega bo'lish lozim. Shu jumladan seminar mashg'ulotini olib boradigan o'qituvchi ham ma'lum tayyorgalikka ega bo'lishi lozim.

Egallangan bilimlarni mustahkamlash quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

○ mashg'ulotga mustaqil tayyorlanish vaqtida talabalar ma'ruza yoki darslik yordamida egallangan bilimlarni takrorlab boradilar.

○ Mashg'ulot davomida ma'lumotlarni og'zaki bayon qilish uni o'zlashtirish darajasini oshiradi.

○ Egallagan bilimlarni muhokama qilish uni yanada mustahkamligini ta'minlaydi.

**Talabalarni seminar mashg'ulotiga tayyorlanishi:**

A) bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi;

**B) mustaqil ishslash malakasi rivojlanadi.**

**Seminar mashg'ulotining quyidagi turlari mavjud:**

1. Reproduktiv tip asosida olib borish bunda avvalo yashirin qobiliyatlarni faollashtirishga qaratilgan bo'ladi.

2. Produktiv tipda tashkil etiladigan mashg'ulotlarda asosiy e'tibor talabalarning fikriy qobiliyatlarini faolligiga qaratiladi.

**Seminar mashg'uloti mavzulari quyidagi mezonlar asosida qayta ishlaniadi:**

1. Seminar mavzulari, ma'ruza mavzularini qaytarishi mumkin;

2. Seminarda ma'ruzada o'tilmagan mavzular ko'rib chiqilishi mumkin;

3. Seminar mashg'uloti aniq bir jihatga qaratilgan bo'ladi.

**Seminar mashg'ulotining mavzusini konspektlashtirish quyidagi tartibdan bo'ladi:**

1. Mavzu

2. Savol, muammo

3. Adabiyotlar

4. Talabalarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini tekshirish shakli

5. Muammoni hal qilishda talabalar faoliyatini tashkil qilish shakllari

6. Mashg'ulot yakunida erishiladigan natijalar

**Talabalarni seminar mavzularini konspektlashtirishda quyidagilarga e'tibor berishi zarur:**

1. Ma'lumotlarni tanlash va uni ikkinchi darajasidadan ajratish

2. Matnni leksik va sintaktik jihatdan qayta ishslash

3. O'qilgan ma'lumotlarni tizimlashtirish

4. O'qilgan ma'lumotlar yuzasidan xulosalar chiqarish

**O'qituvchi muhokama jarayonini boshqarishda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:**

1. Vaqtinchalik reglamentni saqlay olish malakasi

2. O'z fikrini bayon qilishda uyalmaslik malakasi

3. Darsda ko'pgina talabalarni faollashtira olish malakasi

4. Talabalar javob berishga qiynalganlarida savollarni yanada aniqlashtirish malakasi

5. Talabalarning erkin nutqini stimullashtirish malakasi

6. Yakuniy xulosalar chiqara olish malakasi

**O'qituvchining seminar mashg'ulotiga tayyorgarligi hamda darsini olib borishi haqida V.A.Badmaevning «Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi» kitobida batafsil berilgan ular quyidagliardan iborat:**

1. Berilgan mavzuning maqsad va vazifalarni rejorashtirish;

2. Seminar mavzusining rejalari bo'yicha rejalaشتirilган savollarga о'qituvchining о'зи tayyor bo'lishi va kerak bo'lganda о'зи ham javob bera оладиган bo'lishi;

3. Seminarning asosiy savollarini ajratish;

4. Seminarning qo'shimcha savollarini ajratish hamda bahs-munozara uchun beriladigan savollarni belgilash;

5. Seminar mashg'uloti bo'yicha qo'shimcha amaliy savollarni ajratish;

6. Seminar mavzusidagi asosiy savollarni butun guruh oldiga muhokama uchun qo'yish;

7. Talabalarning javoblarini tinglash, fikr va mulohazalarini eshitiladi, javobda xatoliklar bo'lsa to'ldiriladi;

8. Talaba o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savolga noto'g'ri javob bersa, o'qituvchi o'zining javoblari bilan uni to'ldirishi mumkin bo'ladi;

9. O'qituvchi seminar mashg'uloti bo'yicha qo'yilgan barcha savollarga javob olganidan keyin unga yakun yasaydi va xulosa chiqaradi.

10. Dars so'ngida albatta o'qituvchi barcha qatnashganlarga baho qo'yishi kerak, bunda baho seminarning qay darajada o'tganligi hamda qay darajada maqsadga erishilganlik bilan belgilanadi.

11. Kelgusidagi mavzu yuzasidan savollar va masalalar mashqlar beriladi.

Har bir seminar mashg'uloti shu tarzda o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi va davom ettiriladi.

Seminar mashg'ulotini o'tkazishda o'qituvchi tomonidan ham ma'lum bir ma'nodagi tayyorgarlik talab etiladi. O'qituvchi birinchi navbatda o'sha seminar mavzu yuzasidan kerakli bilimlarga ega bo'lishi kerak. Seminar mashg'ulotidagi bahs-munozarani o'qituvchi oqilona boshqarishi va dars oxirida oqilona baholashi kerak bo'ladi. Talabalarning bahs-munozaralarini mavzu yuzasidan ekanligini ta'minlash va mavzudan chetga chiqmaslikka harakat qilishi kerak.

O'qituvchining seminar mashg'ulotini tashkil etishdagi qo'llaydigan usullari, foydalanadigan metodlari, mantiqiy faoliyat tuzilishi sifatida sxema ko'rinishida ifodalanadi. Bunday sxemalardan seminar mashg'ulotining o'zida foydalanish talab etiladi. Sxemani to'liqligicha yodlab olgan holda foydalanish mumkin emas. Uni faqatgina qo'shimcha g'oyalar bilan boyitgan holda foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. O'qituvchining kirish so'zi va seminarning boshlanishi;

2. Talabalardan biriga so'z berish va o'tilayotgan mavzuning ular uchun ahamiyatli jihatlari, qanday qilib seminar mashg'ulotida o'tilganlarni ijimoiy hayotda qo'llash, qaysi savollarga chuqurroq yondashish kerakligi yuzasidan fikr mulohazalar ayтиб o'tiladi;

3. So'zga chiqqan talabalarning har bir so'zini tinglab borish kerak;

4. Agar talabaning gaplari mavzu doirasida hamda aniq, ravon bo'lsa unga gapirish uchun 3-5 daqiqa berish lozim;
  5. Agar talaba mavzu yuzasidan daftarga qarab yoki kitobga qarab gapirayotgan bo'lsa, uni darhol savol berish yo'li bilan to'xtatish lozim;
  6. Agar talaba mavzu haqida tez va qisqa gapirsa, unga gapirishi uchun savol bergen holda 3-5 daqiqa vaqt berishi kerak;
  7. Agar berilgan savolga talaba mustaqil javob bera olsa, u holda uni to'xtatib savolni butun guruhga berish lozim;
  8. Agar guruh uchun berilgan savolga darhol bir yoki bir nechta talaba to'g'ri javob bergen bo'lsa, u holda seminar rejasidagi boshqa savolga o'tish va uni so'rash lozim;
  9. Agar berilgan savolga butun guruh qiynalsa, u holda savolni aniqlashtirgan holda berish kerak;
  10. Javob berish uchun turgan talaba so'zlarini gapirib tugatganidan so'ng guruhda qo'shimcha savollarining bor yoki yo'qligi haqida yoki berilgan javobga aniqliklar kiritmoqchi bo'lganlar yoki berilgan javobdan qoniqmaganlar ya'ni norozilar borligi haqida so'raladi.
  11. Agar butun guruhda seminar mashg'uloti yuzasidan savollar bo'lmasa, u holda o'qituvchining o'zi qo'shimcha, bahs munozaralari yoki aniqlik kirituvchi savolni butun guruhga berishi kerak bo'ladi;
  12. Agar talabalarda savollar bo'lsa, unda berishlarini so'raydi.
  13. Hohlovchilar bo'lsa, ularga so'z navbatini berish kerak;
  14. Agar butun guruh berilgan savolga javob bera olmasa, u holda o'qituvchining o'zi javob berishi va mavzu yuzasidan xulosa chiqarishi kerak bo'ladi.
  15. Agar talaba javobni mavzu yuzasidan bermasa, uni to'xtatishi kerak;
  16. Seminar mavzusining rejasidagi barcha savollar yuzasidan talabalarni baholab bo'lgan o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi:
    - talabalarning bergan javoblarining sifatliligiga qarab baholash;
    - mavzuga chuqur kirib borganligiga qarab;
    - qanday va qancha adabiyotlardan foydalanganligiga qarab baholashi kerak bo'ladi.
- Darsning oxirgi qismida esa o'qituvchi talabalarga kelgusi seminar mashg'uloti uchun mavzu, rejadagi savollarni berishi va o'tilgan mavzuidagi aniqlik kiritilmagan, to'liq gapirilmagan savollarni o'qib o'rganish uchun uygaz vazifa sifatida berish lozim.
- Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quv faoliyatidagi seminar mashg'ulotining amaliy qismi emas, bahs-munozarali seminar mashg'uloti o'qitishning faol turi hisoblanadi.

Bahs-munozarali turdag'i seminar mashg'uloti- talabalarni mantiqiy fikrlashga, nutq boyligini ko'paytirish hamda o'stirishga, jamoaga moslashishga, bahs-munozarada o'z fikrini qat'iy himoya qila olishga, boshqalarni tinglashga, boshqalarni fikrini hurmat qilishga o'rgatadigan dars turi hisoblanadi.

Bahs uchun guruhdagi biror bir talabaning kitobdan yoki biror- bir boshqa manbadan o'qigan va tahlil qilgan fikrlari aytildi va unga guruhdagi boshqalarning fikrlari, qarshiliklari bu fikrga qo'shilmasliklari natijasida bahs munozara o'z fikrini mustahkam himoya qila olish kabilar asosida bahs-munozara turidagi dars o'tiladi. Bunda talabalar uchun yangidan-yangi fikrlarga, qarashlarga ega bo'ladilar.

Psixologiya fanini o'rganayotgan har bir talaba mantiqiy fikrlashga, tajribalar o'tkazishga o'rganishi lozim.

Seminar mashg'ulotini o'tishda har bir o'qituvchi o'z fanini chuqur va har tomonlama bilishi, o'z fani doirasidagi tadqiqotlarni bilishi, har bir talabaning savollariga javob bera oladigan bo'lishi o'z fanini sevishi kerak bo'la oladi.

Agar talabalarning beradigan savollariga javob bera olmasa, u talabalarga o'rnat namuna bo'la olmaydi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Ma'ruza mashg'ulotning mohiyati, turlari.
2. Ta'lif jarayonida ma'ruza mashg'ulotlaridan foydalanish.
3. Seminar mashg'ulotining turlari va unga qo'yiladigan talabalar.

### **3-MAVZU: SHAXSGA YO'NALТИРИЛГАН ТА'LIM TEXNOLOGIYALARI**

#### **Reja:**

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalarining turlari.
2. Didaktik o'yinli texnologiyalar.

#### **Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalarining turlari**

Globallashuv sharoitida ta'lif shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Bugungi tezkor davr talabalami ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta'lif jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash

qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

Bu ta'lim o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihatni ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat.

Bu turdag'i ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdag'i ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabani ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turagi ta'lim talabalarini o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Talabalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yonashishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanan ekan, bir qator shartlarga qat'iy rivoja etishi kerak. Ushbu talablar uyidagilaran iborat:

- har bir talabani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- talabani hurmat qilishi;
- talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- talabaning xohish-istik, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga tolerant munosabatda bo'lishi;
- talabaning kuchi, imkoniyati va intiliishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
- ta'lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o'tkazmaslik;
- alohida talabaning kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik;
- bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida talabaning sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ta'lim jarayonida har bir talaba uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;
- har bir talabaga ta'lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;
- talabaning qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;
- talabaning shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi;
- pedagog sifatida har bir talabaning hurmati va ishonchini qozona olishi zarur.

Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faoliyatlarning qo'llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.

## Ta'limgarayonida pedagoglar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o'quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;
- mashg'ulotlarning loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat o'qitish sifatini yaxshilayi, samaradorligini oshiradi, talabalar shaxsning rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi

Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqtira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Eng muhim pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsada, fikr bilarishlari)ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'yashga, fikrlashga undash shaxsga yo'naltirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

Ta'limgarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo'naltirilgan ta'limga yana bir belgisidir:

- ijodiy topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
- muammoli vaziyatlar;
- rolli va ishbilarmonlik o'yinlari;
- bahs-munozara, debat; - musobaqa ko'rinishidagi bellashuvlar

Ayni vaqtida shaxsga yo'naltirilgan ta'limga quyidagi turlari farqlanmoqda (1-rasm):

Asosiy turlari			
Innovasion ta'limga	Modul ta'limga	Hamkorlik ta'limga	Interfaol ta'limga
Masofaviy ta'limga	Kompyuter ta'limga	Muammoli ta'limga	Loyiha ta'limga
Rivojlantiruvchi ta'limga		Tabaqalashtirilgan ta'limga	
O'yin texnologiyalari			
Individual ta'limga		Dasturiy ta'limga	Mustaqil ta'limga

1-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asosiy turlari

## **2. Didaktik o'yinli texnologiyalar.**

Ayni o'rinda ta'llimning innovatsion xarakterga ega ushbu shakkulari to'g'risida so'z yuritiladi.

O'yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli sanaladi

**I. Amaliy o'yinlar. Dastlab "o'yin" tushunchasining mobiyatini anglab olish talab etiladi.**

Zamonaviy sharoitda ta'lif amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o'yinlardan samarali foydalaniylmoqda.

**Amaliy o'yinlar** – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o'yinlar

Ta'lif amaliyotida qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda "didaktik o'yinlar" deb yuritiladi.

Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'yin sub'ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanlanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida katta avlod tomonidan to'plangan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan.

O'yin shaxsnинг tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lif berish xususiyatlariiga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. "Maktabgacha yoshdag'i bola o'yin faoliyatida o'qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg'aygan sari o'yining roli biroz kamayib boradi. O'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi".<sup>1</sup>

Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o'yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat'iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o'yinlar ularni o'ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur

<sup>1</sup> Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya / Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas'ul muharrir: A.Majidov. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 432-bet.

yuritishga o'rgatadi. "O'yin inson hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o'yinda va o'yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi"<sup>2</sup>.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida o'yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o'rinnegallashga muvaffaq bo'lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hodiq chiqarishga ko'maklashadigan o'yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan.

Zamonaviy pedagogikada o'yinlar ta'lif jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lif oluvchilarning o'quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo'llaniladi:

1. tushuncha, mavzu va alohida bo'lim mohiyatini o'zlashtirishda alohida texnologiya sifatida;
  - pedagogik texnologiyalarning elementi sifatida;
  - o'quv mashg'uloti shakli yoki uning bir qismi sifatida;
  - sind (auditoriya)dan tashqari ishlardan biri  
("Zakovat", "Bilimon", "Huquq fani bilimdoni" va b.) sifatida

O'yinning mohiyati va tuzilishi ma'lum ko'nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o'yin davomida shakllanishini ta'minlaydi. Ta'lif jarayonda o'yin texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyda aniq ifodalay olishi zarur.

O'yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, o'zining hayotda o'mini belgilash, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi hamda o'yin jarayonida shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

O'quv faoliyatining asosiy motivi – bu o'quv-bilish motivi bo'lsa, o'quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa talabada o'zi tanlangan va asoslarini o'zlashtirayotgan kasbga bo'lgan qiziqishi sanaladi. Talaba o'quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kash etadi. O'yinli texnologiyalari, shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini

<sup>2</sup> O'sha manba – 432-bet.

o'stiradi. Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o'yinlar o'yin texnologiyalari deb nomlanadi.


**O'yin texnologiyalari (o'yin ta'limi)** – ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri

O'yin texnologiyalari ta'lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirot etish uchun dastlabki ko'nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilar (m: ta'lim oluvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a'zolari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va b.) sifatida turli rollarni bajarish talaba (o'quvchi) larga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazar, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.

O'quv mashg'ulotlariidan o'yinlar va o'yinli vaziyatlarni qo'llash quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalgalash oshiriladi:

- didaktik maqsad talabalar oldiga o'yinli topshiriq shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysundiriladi;
- didaktik o'quv materialdan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv faoliyatida didaktik vazifani o'yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa elementi qo'llaniladi;
- muvaffaqiyatli hajarilean didaktik tonshiria o'vin natiasi sanaladi

O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'rni, roli, shuningdek, o'yin elementlari hamda ta'limning o'zaro uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan pedagogik o'yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Aksariyat pedagogik o'yinlar o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi (1-rasm):



1-rasm. Pedagogik o'yinlarning asosiy belgilari

Har qanday o'yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalilaniladigan o'yinlar ham o'zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida ko'p holatlarda rolli va kasbiy xarakterga ega ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalilanildi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo'llaniladigan o'yinli texnologiyalarining asosini talabalarning faoliyat va tezkorlikka asoslangan faoliyati tashkil etadi.

Pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida talabalar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mashhur pedagog G.K.Selevko pedagogik o'yinlarni quyidagi tartibda tasniflagan (12-rasm):

Ayni o'rinda o'yin metodikasiga ko'ra guruhlangan o'yin texnologiyalarining mohiyati xususida so'z yuritiladi.

**1. Didaktik o'yinlar** – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faoliyklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o'yinlar o'quvchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtiroy etishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo'riqishlarni kamaytiradi.

**2. Syujetli o'yinlar** – pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtiroy etayotgan shaxslar faoliyatining o'zaro bog'liqligiga asoslangan o'yinlar sanaladi. Bu kabi o'yinlar odatda pedagogik muammolarning yechimini izlash, ta'im-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, shaxsni qayta tarbiyalash maqsadida qo'llaniladi.

**3. Rolli o'yinlar** – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan o'yinlar, ularda rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi. Rolli va ishbilarmonlik o'yinlari o'quvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtiroy etish uchun dastlabki ko'nikma-malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtiroychilari (m: o'quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a'zolari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarning vakillari va b.) sifatida turli rollarni bajarish talabalarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratса, o'quvchilarga ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy, eng muhim, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.

**4. Ishbilarmonlik o'yinlari** – ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlardan mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyuşdırıshga doir ko'nikma, malaka hamda sıfatları o'zlashtırısh maqsadida tashkil etildigani o'yinlar. Bu turdagı o'yinlar ta'lim oluvchilarda aniq faoliyat yo'nalishida zarur BKM va sıfatları shakllantırısh yoki rivojlantırısh maqsadida tashkil etildi. Shu jihatdan ishbilarmonlik o'yinlari ishlab chiqarish jarayoni, kasbiy faoliyatining modellashtirilishini anglatadi. Ishbilarmonlik o'yini talabalarda kasbiy sıfatları hosil qilish bilan birga shaxsiy sıfatları ham tarbiyalaydi, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.


**5. Imitatsion o'yinlar** – ishlab chiqarish korxonaları, ish o'rinnar, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko'chirish) asosida talabalarini muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan o'yinlar. Bu turdagı o'yinlar ssenariyasi, syujetidan tashqari, imitatsiya jarayon, ob'ektlarning tarkibiy tuzilmasi va ahamiyatini to'la ochib berish maqsadia modellashtiriladi. Imitatsion o'yinlar jarayonida ta'lim oluvchilar muayyan operatsiyalarni, m: masalalar yechish, ma'lum bir usulni o'zlashtırısh imkoniyatiga ega bo'ladi.

**6. Dramatik o'yinlar (psixologik va ijtimoiy dramalar)** – psixologik hamda ijtimoiy masalalarini hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar bo'lib, ular tashkil etilishi, metodik xususiyatlariga ko'ra rolli va ishbilarmonlik o'yinlariga yaqin. Odatta psixologik va ijtimoiy xarakterdagı dramatik o'yinlar jamoadagi muhitni yaxshilash, shaxslararo munosabatlarning ijobiy bo'lishiga erishish, muloqotga kirisha olish, jamoada yagona birlikni qaror toptirish, o'zgalarning ruhiy holatini to'g'ri baholash, og'ir vaziyatlarga uch kelgan sub'ektlarga yordam ko'rsatish hamda samarali, unumli faoliyat ko'rsatish uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Barcha o'yinlarda bo'lgani kabi pedagogik o'yinlar jarayonida ham ishtirokchi-talabalar faol holatda bo'ladi, sheriklari bilan o'zaro munosabatga kirishadi, shuningdek, o'z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslash, jamoa bilan zarur munosabatni o'rnatish orqali o'zini o'zi o'rganadi.

Pedagogik jarayonda o'yinlardan foydalanishda ayrim jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Jumladan:

- o'yin ssenariysini tayyorlash;
- yo'riqnomalar tuzish;
- auditoriyani o'yin mohiyatiga muvofiq jihozlash



**2-rasm. Pedagogik o'yinlar tipologiyasi (G.K.Selevko)**

Ssenariy va uning mohiyati muhim ahamiyatga ega. Zero, aynan ssenariygina tegishli ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish imkoniyatini ta'minlaydi. O'qituvchilar o'yin ssenariylarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratishlari, ssenariyi tayyorlash malakasiga ega bo'lishlari zarur.

Pedagogik xarakteridagi o'yinlarning tarkibiy tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- o'quv maqsadi;
- o'yinning vazifasi;
- o'rganiladigan muammo tafsiloti;
- o'yin vaziyatining tafsiloti;
- ishtirokchilarning tasnifi

Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalari qo'llash quyidagilarga asoslanadi:

- guruhni shakllantirish;
- mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;
- muammoli vaziyatni vujudga keltirish;
- rollarni taqsimlash,
- o'yin reglamentini o'matish;
- materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish;
- maslahat berish

O'yin texnologiyalarini qo'llashda rollar qur'a tashlash yo'li bilan taqsimlanadi. Bunda rollar nomi yozilgan kichik qog'ozchalarda foydalanish mumkin. Rollarning talabalar o'rtaida qur'a asosida taqsimlanishi kelib chiqish ehtimoli bo'lgan noroziliklarning oldini oladi. O'yin jarayonida belgilangan vaqt (reglament)ga, muloqot odobiga rioya etish, faollik ko'rsatish hamda o'yinni oxirigacha davom ettirish kutilgan natijani kafolatlaydi. Shuningdek, quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi:

- o'yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi;
- o'yin maqsadi va vazifalarining to'g'ri, aniq belgilanishi;
- o'yin qoidalarining aniq, lo'nda (8-10 tagacha) ifodalanishi;
- o'yin yo'riqnomasining mavjudligi;
- talabalarning o'yin jarayoniga qiziqishlari;
- rollarning samarali, to'g'ri taqsimlanishi;
- jamoada ko'tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi;
- ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo'llab-quvvatlashlari;
- har ishtirokchining o'yin natijasi uchun mas'uliyatni his etishi;
- barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo'naltirilishi


O'yin jarayonida hech kim halaqt qilmasligi kerak. Bordiyu, zaruriyat bo'lsagina faqat boshlovchi ishtirokchilarning harakatlarini tuzatishi, ularni to'g'ri yo'naltirishi mumkin.

Har qanday jarayon singari o'yin yakunida uning tashkil etilishi, o'tkazilishi yuzasidan muhokama o'tkazilishi zarur. Muhokama chog'ida o'yin ishtirokchilari, tomoshabin (jamoaning o'yina ishtirok etmagan a'zolari), ekspertlar o'yining tashkil etilishi va o'tkazilishi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini, takliflarini bildiradi.

Pedagogik maqsadlarda qo'llaniladigan o'yinlar quyidagi texnologiyaga ega (3-rasm):

Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- taqribchilarini chiqishlari;
- fikrlar almashinuvni;
- ishtirokchilarning o'z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari;
- o'yinga yakun yasash



**3-rasm. Pedagogik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi**

O'yin texnologiyalarining metodik ta'minoti loyiha, o'yining mezonlari, ish qog'ozlari (metodik ko'rsatmalar), o'yin mohiyatini yorituvchi hujjatlar (ssenariy) kabilardan iborat. Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan o'yinlar sub'ekt faoliyatini taqozo etadigan hamda mashina (m: kompyuter) o'yinlari tarzda


farqlanadi. O'yinlar chog'ida turli vositalar (kompyuter, imitatsion trenajyorlar, sport anjomlari (koptok, arqon, halqa), xomashyolar (plastlin, yumshoq o'yinchoqlarni yasash uchun materiallar, rangli qalamlar, ish qog'ozlari, o'yinchoqlar, legolar, konstruksiyalar, dekoratsiyalar va b. kerak bo'ladi.

### 3. Muammoli o'qitish texnologiyasi

**Muammoli ta'lism** – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lism

**Muammoli o'qitish** takomillashgan o'qitish texnologiyasidir. Hozirgi oliy maktabdagи samarali o'qitish texnologiyasi muammoli ta'limdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli ta'lism ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Bu turdagи ta'limming ilk g'oyalari amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda o'qitish o'quv rejasi bo'yicha emas, balki o'yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba mакtabini tashkil etgan.



4-rasm. Muammoli ta'limming asosi bo'lgan yo'nalishlar

J.Dyui muammoli ta'lism asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarni belgilagan (4-rasm):


Mualif ko'rsatilgan yo'nalishlarda ta'limgi tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalangan:

- so'z; san'at asarlari; texnik qurilmalar;
- o'vinlar: mehnat

O'tgan asming 60-yillarda muammoli ta'lism L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan.

S.L.Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g’oyasi muammoli ta’limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

Muammoli ta’limning bir necha turlari mavjud. M: M.N.Skatkin o’z ishlarida muammoli ta’limning quyidagi turlari borligiga urg’u beradi (5-rasm):



#### 5-rasm. Muammoli ta’limining asosiy turlari

Muammoli ta’limning asosini **muammo** (yun. “to’siq”, “qiyingchilik”) yoki **muammoli vaziyat** tashkil etib, muammoli TT ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Ko’p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

**Muammo** (yunon. “to’siq”, “qiyingchilik”, arab. “jumboqli”, “sirli”, “tushunilishi qiyin”) – hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo’lgan masala

Mohiyatiga ko’ra muammo uni keltirib chiqargan sabablarni o’rganish, uni hal etishda ahamiyatli, samarali bo’lgan yo’l, metod va vositalarni izlash, ularning samarali ekanligini asoslovchi dalillarni to’plash, dalillarni yangicha, yangi tahlitda izohlash asosida hal qilinadi.

Pedagogika sohasida ko’p holatlarda “muammo” tushunchasi tashkiliy-pedagogik, psixologik, ta’limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo’llaniladi. Soha nuqtai nazardan pedagogik jarayonda quyidagi xarakterdagি muammolarga murojaat qilinadi:

- didaktik xarakterdagи muammo;
- amaliy xarakterdagи muammo;
- ilmiy-metodik xarakterdagи muammo;
- sof ilmiy xarakterdagи muammo

Ma’lum bilimlar, noma’lum bilimlar va mavjud tajriba muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo’ladi.

**Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala**

Ta'lif jarayonida muammoni qo'yish bir necha sathda kechadi. Ular (3-jadval):

**3-jadvali. Muammoni qo'yish darajalari**

Darajalar	Muammoni qo'yish mohiyati
1-daraja	O'qituvchi muammoni qo'yadi va talabalarни uni hal qilishga yo'naltiradi
2-daraja	O'qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarning o'zlarini mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi
3-daraja	O'qituvchi muammoni qo'rsatib bermaydi, balki unga talabalarini ro'para qiladi. Talabalar muammoni anglagan holda uni o'zlarini shakllantirib, muammoni yechish usullarini tahlil qiladi

Ta'lif jarayonida masalani qo'yishda mavjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos sifatida namoyon bo'ladi. O'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishda muammoning qo'yilishi va hal etilishi quyidagi bosqichlarda kechadi (6-rasm):

Asosiy bosqichlar	1-	Masalaning asosini tashkil qiluvchi muammoni belgilab olish
	2-	Maqsadni aniqlashtirish
	3-	Masala yechimi shartini tahlil qilish
	4-	Tashkiliy-pedagogik ishlarni amalga oshirishga sharoit yaratish
	5-	Masalaning yechimini topishga yo'naltirilgan amaliy harakatni tashkil etish
	6-	Muammoning yechimini bayon etish
	7-bosqich	Muammo yechimini muhokama qilish


**6-rasm. Muammoni qo'yish va hal etish bosqichlari**

Pedagogik jarayonda talaba "muammo"ga emas, balki muammoli vaziyatga ro'para qilinadi.

**Muammoli vaziyat** – talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi

Darhaqiqat, muammoli vaziyat deganda talabanining hozirda yoki kelgusida ta'lif maqsadiga erishishi uchun xavf tug'diraigan vaziyat tushuniladi.

Muammoli vaziyatni hal qilish bir necha bosqichda kechadi. Ya'ni (7-rasm):




7-rasm. Muammoli ta'lifning asosi bo'lgan bosqichlari

Pedagogikada muammoli vaziyat metodi ham qo'llaniladi.

**Muammoli vaziyat metodi** – talabalarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida uning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish va ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l

Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning yechimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat. Ta'lif jarayonida muammoli vaziyat metodi qo'llanilganda talabalarning faoliyatları quyidagi tizim asosida tashkil etiladi (8-rasm):



**8-rasm. Muammoli vaziyat metodiga asoslangan talabalar faoliyati**

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi talabalarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo’llanilganda talabalar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadi.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi quyidagicha:

- muammoli vaziyat tavsifini keltirish;
- talabalarga kichik guruhlarga bo'lish;
- guruhlar tomonidan muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarining aniqlanishi;
- guruhlarning muammoli vaziyatning oqibatlari to'g'risida fikr yuritishi;
- guruhlar tomonidan muammoli vaziyat yechimi borasidagi variantlarning asoslanishi;
- variantlar orasidan to'g'ri yechimning tanlanishi;
- guruh tomonidan yechimning bayon etilishi;
- jamoada yechim yuzasidan muhokamaning tashkil etilishi

Muammoli vaziyatni yechishda quyidagi usullar qo'llaniladi:

- muammoni turli nuqtai nazardan o'rghanish va tahlil qilish;
- mavjud dalillarni solishtirish va umumlashtirish;
- qo'shimcha dalillarni aniqlash va ularni o'zaro qiyoslash;
- muammo bilan bog'liq xulosalarni chiqarish;
- talabalarning mustaqil ravishda muammoni qo'yishlari

Muammoli vaziyat metodi quyidagi afzalliklariga ega:

- talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- talabalar muamoning sabab, oqibat va yechimlarini topishni o'rGANADI;
- talabalarning bilim va qobiliyatlarini
- baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- talabalar fikrlar va natijalarini tahlil qilishni o'rGANADI

Ta'limgarayonida muammoli vaziyat metodini qo'llash

1. O'qituvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi.
2. O'qituvchi tomonidan muammo vaziyat bayon qilinadi.
3. O'qituvchi talabalarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
4. O'qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratadi.
5. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'r ganib, uning sabablarini aniqlaydi.
6. Guruhlar muammoni yechish imkoniyatlarini muhokama qiladi.
7. Muammoli vaziyatni yechish yo'llari tanlanadi.
8. Kichik guruhlara muammoli vaziyatning yechimi topiladi.
9. Guruhlar yechim yuzasidan taqdimot qiladi.
10. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
11. Jamoa o'qituvchi bilan muammoli vaziyatning samarali yechimini tanlaydi

quyidagi tartibda kechadi:

Ta'lif jarayonida ushbu metodni qo'llashda ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanai. Ular:

- ta'lif oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo talabalarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi

Mohiyatiga ko'ra muammoli ta'lif muayyan texnologiyalarga asoslanadi.

**Muammoli ta'lif texnologiyalari** – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarни shakllantirishga xizzmat qiladigan ta'lif texnologiyalari

Muammoli ta'lif texnologiyalari talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ushbu texnologiyalarning asosiy g'oyasi – shaxsnı fikrleshgä, muammo mohiyatını tushunish, muamoli vaziyatni hal qilishga undash, unda muammoni his qila (ko'ra) olish, yechimni topish yo'lida tadqiqot olib borish va muammoni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash sanaladi.

Ushbu ta'lif texnologiyasi juda qadimdan shakllangan. M: qadimgi Gresiyada Sugrot tomonidan qo'llanilgan usul, qadimgi Hindiston, Xitoy, Mavarounnahrda

qo'llanilgan bahs-munozalar. Zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan muammoli ta'lim texnologiyalari 1894 yilda amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui tomonidan (Chikago tajriba məktəbində) asoslangan.


Bu turdagı ta'lim texnologiyalarining quyidagi shakllari mavjud:

- muammoli bayon;
- muammoli ma'ruza;
- evristik suhbat;
- muammoli namoyish;
- izlanishga asoslangan amaliy mashg'ulot;
- ijodiy topshiriq;
- xayoliy muammoli tajriba;
- muammo farazlarini shakllantirish;
- masalalarni muammoli yechishning optimal variantlarini tanlash;
- muammoli vazifa;
- muammoli o'yin

Ta'lim tizimida muammoli ma'ruza muammoli ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan o'qitish shakli sanaladi.

**Muammoli ma'ruza** – o'qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faoliyatini oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza

Muammoli ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'qituvchilar ularni to'g'ri tanlashga e'tibor qaratishlari zarur. Quyidagilar muammoli ta'limga asosiy metodlari sanaladi (9-rasm):



**9-rasm. Muammoli ta'lim metodlari**

### **Nazorat savollari:**

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nima?
2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning qanday turlari mavjud?
3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari qanday didaktik imkoniyatga ega?
4. Amaliy o‘yinlarning zamonaviy ta’lim uchun ahamiyati qanday?
5. Amaliy o‘yinlarning qanday turlari mavjud?
6. Didaktik o‘yinli texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
7. Didaktik o‘yinli texnologiyalar ko‘rsating.

## **4-MAVZU: MAXSUS (PSIXOLOGIYA) FANLARNI O‘QITISHDA**

### **RIVOJLANTIRUVCHI VA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRUVCHI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI**

#### **Reja:**

1. Rivojlantiruvchi ta’limning maqsad va vazifalari.
2. Tanqidiy tafakkurining o‘ziga xosligi.
3. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rnini.
4. Tanqidiy fikrlashni o‘stiruvchi faol metodlar.
5. Tanqidiy fikrlash» metodining ta’lim oluvchiga psixologik ta’siri.

#### **Rivojlantiruvchi ta’limning maqsad va vazifalari**

Bugungi zamonaviy ta’limning asosini tashkil etayotgan rivojlantiruvchi ta’limda shaxs o‘qitishning diqqat markazida bo‘lib, shunga binoan, ta’lim maqsadi, mazmuni va shakllari o‘quvchiga, uning shaxsiga qaratilganligi bilan o‘zgacha mazmun kasb etadi.

Bu ta’limning **maqsadi** mazmunida shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlarini asosiy ko‘rsatkichlar sifatida qabul qilinib, ushbu jihatlar bo‘lajak mutaxassis shaxsida kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish bilan birga, o‘quv topshiriqlari, ularni tahlil etish va yechish borasidagi zaruriy ko‘nikma hisoblangan ijodiy tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish kabi vazifalarni amalgalashiradi.

**Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy tamoyillaridan** biri o‘qitishda ko‘proq axborot shaklidan ilmiy izlanish, o‘quvchilarining mustaqil ishlari, imkoniyatlaridan keng foydalanish asosida o‘qitishning faol metod va shakllariga o‘tishni, boshqacha qilib aytganda, “qayta takrorlash”dan “tushunish, fikrlash”ga o‘tishni ko‘zda tutadi. Bu o‘zgarishlarni:

- mavjud ta’lim mazmunini modernizatsiyalash;
- uning tashkiliy shakllariga nisbatan texnologik yondashuvni shakllantirish;

- ta'lim oluvchi shaxsining individualligi, o'ziga xosligi va ehtiyojlari doirasidan kelib chiqib o'kitishni tashkil etishga xizmat qiluvchi yangicha ta'lim shakllari tizimini yaratish tamoyillari tashkil etadi.

Zamon talablariga mos holda ma'ruzalarning rivojlana borishi an'anaviy ta'lim modeli doirasida cheklangandir. Chunki ma'ruzaga faqat o'qitishning bir tashkiliy formasi sifatida emas, balki talabalar mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlardan chiqishda mustaqil qarorlar qabul qilishlarida amaliy ko'nkmalar hosil qilishlarining boshqaruvchi vositasi sifatida ham qarash lozimdir. Buning uchun rivojlantiruvchi ta'lim, ushbu ta'lim modelida ma'ruzaning tutgan o'mi va funksional vazifasi to'g'risida to'xtalib o'tish lozim hisoblanadi. Zamonaviy ma'ruzalarni ta'lim jarayonida tutgan o'mi, mohiyati va funksional vazifasini aniqlash uchun rivojlantiruvchi ta'limning quyidagi ikki modelini qisqa tahlil qilish chiqamiz.

## 1. Rivojlantiruvchi ta'limning siklik modeli

## 2. Faoliyatni rivojlantirish modeli

Rivojlantiruvchi ta'larning siklik modeli. Andragogikaning asosiy konsepsiyasiga muvofiq katta yoshdagilarni o'qitish bir necha sikllarni o'z ichiga oladi. O'qitish va ta'lumni rivojlantirish siklik jarayon davomida yuzaga kelib, tajribalarga asoslanadi va quyidagi bosqichlardan tashkil topadi (1-rasm):

1. aniq tajribalar o'quvchining shaxsiy tajribasi va kuzatishlari natijasida olingan ma'lumotlarni to'plashdan boshlanadi.
  2. refleksiv kuzatish to'plangan ma'lumotlarning ma'nosini va mohiyatini izlash, tahlil qilish va fikrlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.
  3. abstrakt konsepsiyalashda aniqlangan muammolarni hal qilish modeli va yo'llari konsepsiysi yaratiladi.
  4. faol tajriba- amaliy tajribalar o'tkaziladi.



### **1-Rasm. O'qitish sikli modeli (Kolb, Fray)**

Quyidagi model o'ziga xos muhim xususiyatlarga ega bo'lib, bunda o'qitish bir-biri bilan ketma-ket bog'langan bosqichlardan iborat siklik jarayon shaklida tashkil etiladi. Jarayon tajribadan boshlanadi va hech vaqt bosqichlar o'rtaida uzilish bo'lmaydi. Sikllar nafaqat ma'lum ketma-ketlik asosida bir-birini almashadiradi, balki bir-biriga qarama-qarshi ham turadi. Masalan, aniq tajribalarga abstrakt konsepsiyalash qarshi tursa, faol tajribaga refleksiv kuzatish qarshi bo'ladi. O'qitish jarayonida turli pedagoglar ushbu siklning u yoki bu boqichiga ko'proq e'tibor qaratishadi va bu holatni Kolb va Fray "o'qitish stili" deb ko'rsatadi.

Ushbu modelga muvofiq o'quvchi o'z tajribasi va bilimining qaysi sohada yetarli emasligini aniqlashtiradi, qiynalayotgan muammolarini shakllantiradi hamda Ushbu muammolarni hal etish vositalari va yo'llarini belgilaydi, o'quv maqsadini aniqlab oladi.

**Faoliyatni rivojlantirish modeli.** Oddiy o'qitishdan farqli o'laroq, oly ta'limda talabalarga nafaqat fan bo'yicha yangi bilim va ma'lumotlar beriladi, balki olingan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, bilimlarni rivojlantirish va qayta ishlashga ham o'rgatiladi. Ta'lim berish jarayonida modellar o'mi almashadi – kasbiy faoliyat ko'rinishi o'zgaradi, talabaning qobiliyati, uquvi rivojlanadi, o'quv maqsadi o'zgaradi. Ta'lim faoliyatining rivojlanish samarasini ham aynan shu bilan xarakterlanadi. Rivojlanuvchi faoliyat quyidagi uch xil yo'nalishda amalgalashadi:

1. Shaxsiy faoliyatda
2. Faoliyat refleksiyasida
3. Metodologik muhitda

Bu yerda metodologiya bilim olishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarga qaratilgan g'oyalar, konsepsiylar, uslublar va vositalar majmui sifatida qaraladi. Ta'lim jarayoni nuqtai nazaridan ushbu modelni quyidagicha o'qish mumkin: talaba o'z faoliyatini davomida refleksiv holatga olib chiquvchi bir qancha muammolarga duch keladi va ketma-ket ravishda quyidagi uch jarayonni amalgalashiradi:

- *tahlil* – o'z faoliyatini tadqiq qilish, ya'ni faoliyatni qayta shakllantirish va o'zlashtirishdagi muammoli vaziyatlarni aniqlash;
- *tanqid* – o'zlashtirishdagi muammolar sababini aniqlash;
- *me'yorlashtirish* –faoliyatni rivojlantirish. Muammoni barataraf etishga qaratilgan g'oyalar, gipotezalar va usullarni o'ylab topish, yangi me'yormoni tuzish.

An'anaviy va rivojlantiruvchi ta'lim modellarini taqqoslاب quyidagilarni aniqlashimiz mumkin:

*An'anaviy ta'lif modelining maqsadi* va natijasi standart vazifalarni yechish bo'yicha bilimlar berish hamda amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

*Rivojlantiruvchi ta'lifning maqsadi* va natijasi bo'lajak mutaxassislarini aniq ishlab chiqarish sharoitida muvaffaqiyatli faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan kompetentligini rivojlantirish, nafaqat standart vaziyatlarda, balki o'zgaruvchan nostonart vaziyatlarda ham mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha bilimlar berish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Rivojlantiruvchi ta'lif modelida ma'ruza dialog shaklida olib boriladi va talabada ma'ruza mazmuni bo'yicha tahlil qilish, izlanish, yangi g'oyalar hosil bo'lish, o'z g'oya va fikrlarini bayon etish, boshqa talabalarning ushbu muammo bo'yicha fikrlarini tinglash va unga o'z munosabatlarini bildirish imkoniyati yaratiladi.

### **Tanqidiy tafakkurining o'ziga xosligi**

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqiydiligidan namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda, insonning o'z oldida yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda, yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarni kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishini nazarda tutamiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni tez izlab topishda, ularni saralashda, ana shu usullar va vositalarni o'z o'mida aniq qo'llashda, trafaretga aylangan, eski yo'l hamda usullardan forig' bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

O'zining va o'zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo'lgan mulohazalarga, muhokamalarga, muammotik vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiyligi muhim rol o'ynaydi. Tafakkurning tanqidiyligi ob'ektiv va sub'ektiv ravishda ifodalanishi mumkin. Mazkur sifat insonni baholash o'z-o'zini baholash kabi tafakkurning individual xususiyatlari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to'g'ri ochilishiga (ba'zan etalonga) asoslanib amalga oshsa, unday tanqidiylik ob'ektiv tanqidiylik deb ataladi. Mabodo tafakkurning tanqidiyligi sub'ektiv xatolarga, umuman sub'ektivizmga og'ib ketsa, bunday holda sub'ektiv tanqiydilik deyiladi. Sub'ektiv tanqidiylik salbiy oqibatga olib keladi, shuningdek, insonlar o'rtasida «anglashilmovchilik g'ovi» ni vujudga keltiradi, ikki shaxs o'rtasida kutilmaganda ziddiyat paydo bo'ladi. Insonda tafakkurning tanqidiyligi oqilona, ratsional tarzda vujudga kelsa, unda shaxs muhim sifat bilan boyiydi, deb atish mumkin.

Maqsad, muammo va vazifalar o'zga shaxslar tomonidan qo'yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o'zga kishilarning bevosita yordami bilan

amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan tafakkur nomustaqlil tafakkur deb ataladi. Nomustaqlil tafakkurlari kishilar «tayyor mahsulotlar quli» ga aylanadilar o'sishdan orqada qolish xavfi tug'iladi. Natijada aql-zakovatli inson bo'lish o'miga kaltabin, aqlan erinchqoq, behafsala odam bo'lib voyaga yetadi. Demak, tafakkurning nomustaqlilik illati jahon progressiga to'siq bo'lib, yakka shaxs uchun esa tragediya rolini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldarligi (samaradorligi) bilan uzviy bog'langan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyanomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday kishining tafakkuri sermahsul tafakkur deb ataladi. Demak, vaqt oralig'ida bajarilgan ish ko'lami va sifatiga oqilona baho berish- tafakkur mahsuldarligini o'chash mezonni sifatida xizmat qiladi.

Tafakkurning ixchamligi deganda, muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi (plani) mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo'lsa, hech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilmog'imiz shart. Fikrning operativ jihatdan, tezkorlik bilan o'zgartishdan va to'g'ri yo'nalishiga yo'llab yuborishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Masalan, «Talaba imtihonda avval g'oyani noto'g'ri yoritayotib, o'z-o'ziga «birdaniga» xatosini anglab, to'g'ri javob bera boshlashi» kabilar. Demak, tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, inshaklisiyalarni tinglovchilarga xato va kamchiliksiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator faktorlarga: jumladan, fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, tafakkurning tezligi boshqa shartlarga: insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mayjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara bergenligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o'quvchilarga juda zarur psixologik quroq bo'lib xizmat qiladi. Imitihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib, o'zini yo'qotib qo'yadi. O'rinsiz, salbiy emotsiyalar (his-tuyg'ular) uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya'ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar, aksincha, imtihonda hayajonlanib, fikrlari ravonlashadi. Qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta'sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg'onib funksiyasi jadallahish ketadi va fikr «birdaniga» ravshanlanishi mumkin. Shuning uchun o'qitish jarayonida talaba va

o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda ularning individual topologik xususiyatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

*Ta'lim oluvchining tafakkur tiplari ham o'zlashirish va fikrlash jarayoniga ta'sir etishi tabiiy. Tafakkur qilishga odatlar – 16 aqliy xulq harakatlar. Tafakkur qilishga odatlar – intellektual xulqning xillarixususida amerikalik olimlar doktor Arthur Costa va Dr Bena Kallickning to'rttumlik "Tafakkur qilishga odatlar": Rivojlanish bilan bog'langan qator (2000) nomli asarida keltirilgan. ularning fikricha, maktablar va firmalarda odamlar xalqaro tarmog'ini yaratish, to'la fikrlashni o'rganish uchun qandaydir tuzilish jamg'arma va uyushmalarni yaratish kerak.*

*"Tafakkur qilishga odat" ning ma'nosi - muammolar bilan to'qnashganda va tayyor javoblar bo'lmagan darhol ma'lum bo'ladi. Tafakkur qilishga odat talabalarga maktabda va kundalik hayotida yordam berishi mumkin, chunki ular muammolar, dilemmalar va topishmoqlar bilan har kuni to'qnashadilar. Bu odat qachonki siz javobni bilmasangizda o'zingizni qanday tutish kerakligini ko'rsatadi. Costa va Kallick tasdiqlaydilarlarki, "tanqidiy fikrlashning nafaqat axboroti ma'lum, balki qanday harakat qilish kerakligi ham mavjuddir".*

*"Qachon o'qituvchilar ataylab tanqidiy fikrlashni qabul qiladilar va baholaydilar, bu ularning loyiha harakatlarini o'zgartiradi, ularni mazmun tanlashni aniqlaydi va ular baholashini oshiradi. Natijalar yashaydigan doira qancha keng bo'sa, shuncha har bir odatning qadriyatlariga ularning ta'siri kattaroq imkoniyatlarini ko'rish mumkin"<sup>3</sup>. Art Costa*

### **Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni**

Tanqidiy fikr – bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Yana bu qoidaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, fikrlash – bu o'qish, yozish, so'lash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiglashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

*Tanqidiy (tahliliy) fikr shu bilan ahamiyatlidir:*

- hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib yetishga yordam beradi;
- jamoaning ochiq fikrini rag'batlantiradi;
- shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi va boshqalar.

*Ta'lim jarayonida tanqidiy (tahliliy) fikrlashning asoslanishi:*

<sup>3</sup>Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10p

1. O'qituvchi (pedagog) o'quvchi-talaba o'rtasida hamda o'quvchi-talabaning o'zaro hurmatini tarbiyalaydi.
2. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talaba tajribasidan foydalilaniladi.
3. O'quv mazmuni o'quvchi-talabaning talablariga mos va aniq belgilanadi.
4. Muammoni hal qilishda o'quv materiallaridan foydalilaniladi.
5. Har xil buyum va qarashlar integrasiyalashadi.
6. Dastlabki shart-sharoitlar qabul qilinadi va tekshirib ko'rildi.
7. Ta'lif o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba, o'quvchi- talabani o'zaro munosabati orqali berib boriladi.

8. O'quvchi-talaba mustaqil ta'lif olishi uchun sharoit yaratiladi – o'quvchi-talabani tayyorlash darajasiga muvofiq metodlar tanlanadi.

Mashg'ulotlar jarayonida foydalilaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasb-hunarga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahsil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin hozirlaydi.

O'quv dasturlaridan o'rinni olgan muammoli mavzular muammoli ta'lif texnologiyalaridan foydalangan holda muammoli dars «aqliy hujum» shaklida o'rganilishi tavsiya etiladi va munozarali mavzular munozarali dars shaklida o'rganilishi maqsadga muvofiq. O'quv jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara va erkin fikrlash darslaridan foydalilaniladi.

Interfaol metodlar - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, noverbal va verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlar o'zaro ta'sir asosida qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir, turki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin.

Ta'lif mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lif manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi **interfaol metodlar** qo'llaniladi:

- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodi.

*Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:*

1. O'quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

2. O'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

3. O'quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalilanadi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar va boshqa usullardan foydalinish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo'llash rag'batlanтирiladi.

Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash, talabalar ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlash, ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o'rgatish, talabalar intellektual, zukkolik xislatlarini shakllantirish va ma'lum yo'nalishda yanada yuqori darajada rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalilanadi.

Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq e'lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun talaba bor bilim va ko'nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba shaxsida ma'lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdaq muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko'nikmalarni izlash muammosi paydo bo'ladi. Ana shu vaziyat esa, muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e'tibor bilan kuzatadi, kerak bo'lganda jonli muloqotga chorlaydi. Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinib tahsil oxirida faol talabalarga qo'yilgan ballar yoki baholarni e'lon qiladi.

Talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish, o'z tajribalarini tanqidiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalilanadi.

Ma'lumki, har qanday fan o'qitilishi uchun, belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni, o'zlashtirish uchun mos metodlari, o'quv vositalari va ularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi.

Talabalarning psixologik tayyorgarliklari, fikrlash darajalari yoki olgan bilimlarini o'zlashtirish darajalariga qarab, har bir ta'lim bosqichi uchun mos

mazmun va metodlar tanlanadi. Ta'limga har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ta'limga metodlaridagi muammolar «Kimni qanday o'qitamiz?» degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan ta'limga metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Bu ikki muammo o'zaro qarama-qarshilikda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi.

Metodikaning maqsadi mazkur fandan yangi o'quv fani (o'quv predmeti)ni yaratish va bu fanning o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunday o'quv fanlari talabaning barcha talab va ehtiyojlarini qoniqtirishi, zamonaviy pedagogik texnologiya talablari asosida avval «o'qish so'ngra, bu o'qishga o'rgatish uchun o'qitish» tamoyiliga asoslanishi, talabaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi darajalari, nazariy va amaliy bilimlarini egallashda «soddadan-murakkabga» qoidasiga asoslangan nazorat topshiriqlarini belgilash talabalarga individual va tabaqalashgan yondashuv xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

An'anaviy metodikada talaba shaxsining rivojlanishini hisobga olgan holda uning bilimi ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishiga ahamiyat berilmasligi ayon. O'qituvchi talabaga iloji boricha o'rganilayotgan mavzudan ko'proq axborot berishga harakat qiladi. O'qituvchi: axborotlarni to'plash, tanlash, qayta ishslash va o'rganilgan axborotlarni qo'llash kabi bilishning uchta bosqichdan iborat modeliga rioxanasi qilavermaydi. Keyingi navbatda talabaning bilish faoliyatini (olgan bilimi) uning yangi pog'onasiga, ya'ni bilish faoliyatining faollashuv jarayoniga o'tishi kerak. Shundagina bilim ko'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanadi. Talabalar bilish faoliyatining faollashuvini qator tamoyillarga tayanadi: fanni o'rganishga qiziqtirish, tayanch iboralarga asoslanish, muammoli metodlarni qo'llash, mustaqil ishlarni tashkil etish, yalpi va yakka ishlarni tashkillashtirish, ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanish, ta'limga mazmunini turmush bilan bog'lash, fanlararo aloqadorlikni o'matish va hokazo. Bundan esa, ta'limga jarayonida o'qituvchi rioxanasi qilishi kerak bo'ladigan asosiy tamoyillar kelib chiqadi:

- talabada o'z kuchiga ishonish hissiyotini uyg'otish;
- talabaga o'z vaqtida kerakli yordam berish.

*Talabalarning fanlarga oid tanqidiy fikrini bilish maqsadida quyidagi varaqalar tarqatiladi:*

1. Ma'ruzani eshitib yozib bordim, lekin o'zlashtirilayotgan material mohiyatini bir davrning o'zida to'liq tushunib yetmadim.
2. Oliy ta'limga mazmun va shakli o'rta maktabnikidan nimasi bilandir farq qiladi.
3. Ilmiy tushunchalar, atamalar va ta'riflardan foydalanishda qiyinchiliklarni his qilaman.

4. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarining mohiyatini tushuna olmayman.
5. Nazariy bilimlar bilan amaliyot o'tasida birmuncha nomutanosibliklar mavjud.
6. Mustaqil faoliyatni rejalashtirishning oqilona usullari yetishmaydi.
7. Mustaqil bilim olish uchun juda oz vaqt qoladi.
8. O'quv yili davomida bir qancha materiallar individual ishlashga yig'ilib qoladi.
9. Reyting nazoratida his-tuyg'u barqarorligining yetishmasligi sababli diqqatni bir joyga to'play olmayman.

10. Seminar mashg'ulotlari va reyting nazoratiga tayyorlanish uchun birlamchi manbalarning yo'qligi yomon oqibatlarga olib keladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Ammo tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlar to'plami mavjud.

*Tanqidiy fikrlash tajribasini egallashga quyidagilar kiradi:*

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- har bir talabani tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o'ziga ishonchni orttirish, o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- ta'lim jarayonida faol ishtirop etish;
- turli fikr va g'oyalarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga va undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Tanqidiy (tahliliy) fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlariga o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. Ta'lim jarayonidagi talabalarning faol ishtiropi va ta'limga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi, tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyasi va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stradi.

Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalarning fikrlari, tanqidiy tahvil natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi

(pedagog) talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalar g'oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish kerak. Talabalarning o'zlarini ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari hamda masalalarni muhokama qilish jarayonida o'ta muhim vazifa ekanligini tan olishlari kerak.

Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro bir-birlari bilan fikr almashishlarini ko'zda tutadi. O'zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'rovchiga zo'r lab o'tkazish va boshqa so'zlovchilar fikrini tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ulami o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud, ya'ni: o'ziga ishonch hosil qilish, ishda faol ishtirok etish, o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr almashish, o'zgalar fikrini tinglay olish va boshqalar.

### Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlar

«Taqnidiy fikrlash metodi»ning mohiyati jamoa hamkorligi asosida, axborotlarni qabul qilish, ularga o'z munosabatini bildirish, xatolik va nomunofiqlarni izlash, o'z mulohazalarida nuqsonlarga yo'l qo'ymaslikka intilish, o'z tushunmovchiliklарini anglash, farqlash, aniq xulosalar chikarishga yo'llashdan iborat.

«Taqnidiy fikrlash» - ongli mustaqil tahliliy fikrlash jarayoni bo'lib, bunda – o'quvchi o'ziga taklif etilgan ma'lumotlar, axborotlar, nuqtai-nazar va axloq kodekslari to'g'risida sog'lom fikr yuritish imkoniyatini beradigan metoddir. «Insonning sharoitlar va tajriba natijalariga nishbatan tanqidiy fikrlashgina shaxs istagi va qiziqishlarini to'g'ri yo'lga sola oladi». Shuningdek, «Taqnidiy fikrlash» - o'qitishning oxirgi bosqichi bo'limasdan, axborotlarni oddiy tarzda tushunish, boshlang'ich uzatish bo'lgani sababli, xir bir ishtirokchini ongli, tahliliy fikrlashga o'rgatadi. Natijada ishtirokchi vazminlik bilan mantiqli, maqsadli fikrlash qobiliyatini o'zida tarbiyalashga harakat qiladi. Demokratik jamiyatda bunday shaxsnı tarbiyalash muhimdir, shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» vazifalarini oqilona hal etish uchun ham bu metod ahamiyatlidir.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash, axborotlarni qabul qilishdan boshlanib, karor qabul qilish bilan tugaydigan fikrlash, uylash jarayoni ekan, bu jarayonda

ta'lif oluvchilar bahsli muammolarni yechish vaqtida tinglash, muloqotga kirishish madaniyatini o'rganadilar, turlicha nuqtai nazarlarni taqqoslaydilar, xulosalar chiqaradilar, o'zgalar fikriga besarq qaramaydigan, analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga intiladigan insonlar bo'lishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham bu metod faoldir.

«O'qitish va yozish» uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturining asoschilari o'qitishning tayanch modelini uch bosqichga ajratadilar – chaqiruv, mazmunni anglash, fikrlash.

Tajribaning ko'rsatishicha bu bosqichlarda o'qituvchi o'qitishning interfaol metodlarini aniq tanlasa va qo'llasa, dars samaradorligi oshadi, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

Chaqiruv bosqichida, o'qituvchi o'quvchi talablarining yangi mavzuga oid dastlabki tushunchalarini aniqlaydi. Bunda u albatta o'quvchilarning boshlang'ich, oldingi bilimlariga tayanish va ular hisobga olish lozim. Agar o'quvchi yangi bilimlarni, oldingi egallangan bilimlarga tayanib, ular bilan bog'lab olib bormasa, axborotlar o'z kuchini yo'qotadi va faoliyat samarasiz bo'ladi. Aynan, shu bosqichda tushunmovchiliklar, bilim olishdagি xatoliklar aniqlanadi, bu esa o'z navbatida tanqidiy fikrlash uchun harakatlanuvchi kuch bo'ladi.

**Chaqiriq bosqichining maqsadi:** dastlabki ma'lumotlarni aniq, erkin namoyon qilish orqali, o'quvchilarni faollashtirish;

- qiziqishlarni oshirish, o'qitish matnlarini hosil qilishdan iborat.

**Mazmunni anglash bosqichida** o'quvchi yangi tushunchalar, g'oyalar bilan to'qnashadi.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning dastlabki egallagan ma'lumotlari, tushunchalariga tayanib, ularni yangi bilim bilan boyitishi kerak ya'ni o'qituvchining bilgan va bilmagan ma'lumoti to'ldiriladi. Bunda o'quvchilar bilmayman, bilmogchiman, bilib oldim qoidasi asosida ish tutishi lozim. Buning uchun matn mazmunini o'qish, diafilm, kinofilmdan parchalar namoyish etish, ma'ruba (albatta bolalar tomonidan) va nutq eshitish, tajribalar o'tkazish kabi ishlar amalga oshirilishi mumkin. O'quvchi ushbu ishlarni o'tkazishi jarayonida mustaqil va faol qatnashib, o'z bilimlari, fikrlari nuqtai-nazarlariga tayanib, yangi bilimlarni taqqoslaydilar, solishtirib ko'radilar, mohiyatini tushunib yetishga harakat qiladilar. Oldingi bilimlari bilan yangilarni bog'laydilar, sintezlaydilar, taqqoslaydilar va tahlil qiladilar shunga ko'ra mazmunni anglash bosqichining maqsadi:

- dastlabki ma'lumotlarni yangilari bilan to'ldirish;

- o'quvchilarda ishlarni bajarishda qiziqishni orttirish;

- taqqoslashga, mohiyatini tushunishga tahlil qilishga o'rgatish;

- yangi masalani yangicha bayon etish, ya'ni yangi darsni bayon etishdan iborat bo'lishi lozim.

Fikrlash bosqichida yangi olingen bilimlar tanqidiy fikrlashlar yordamida, yangi g'oyalar, axborotlar mustahkamlanadi, to'ldirilgan tushuncha, ma'lumotlar tahlil qilinadi, ular mohiyati ustida fikr yuritiladi. O'zaro fikr almashish, o'zgalar taqdim etgan ma'lumotlar bilan tanishish asosida o'quvchilarda so'z boyligi oshish imkoniyatlari yaratiladi.

Bunda o'quvchilar erkin, mustaqil holda o'tilgan mashg'ulot, yangi mavzu to'g'risida o'z fikrlarini bildiradilar va tanqidiy fikrlashni o'rganadilar.

«*Tanqidiy fikrlash*» metodi. O'rtaqa tashlagan masala yoki muammo yuzasidan fikr aytish, o'zgalar fikrini tanqidiy idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga undaydigan texnologiyadir.

Bu metoddan babs-munozara xususiyatiga ega bo'lgan masalalar muhokamasida foydalaniladi.

Babs-munozara xususiyatiga ega bo'lgan muammo yoki topshiriq qo'shilib savollar o'rtaqa tashlanadi.

Ta'lim oluvchiga o'z nuqtai nazarini aniqlash, fikrlash bir joyga tuplash uchun vaqt beriladi.

Ta'lim oluvchi o'z nuqtai-nazarini asoslaydi, dalillar keltiradi.

Muhokama qiliniyotgan masala yuzasidan o'z fikrlarini erkin bildirishlari uchun o'quvchi-talabalarga imkon yaratiladi.

Bildirilgan fikrlar, nuqtai-nazarlar ta'lim oluvchilar hamkorligida muhokama qilinadi.

O'zaro fikr olishish ta'lim oluvchilardan hamsuhbatini diqqat bilan tinglash, uning so'zini bo'imaslik, so'z qo'shmaslik talab etiladi.

Muhokama qilingan axborotni tahlil qilish, izohlash, g'oyalardan yakuniy xulosa chiqarish bilan yakunlanadi.

**“*Tanqidiy fikrlash*” metodini qo'llash qoidalari:**

Tanqidiy fikrlash uchun vaziyat yaratish.

O'quvchilarning fikr-g'oyalarini asoslash uchun guruhlarni tashkil qilish.

Har bir guruh fikrini aniq yoxud muhokama jarayoniga axborotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish uchun kuzatuvchi (ekspert)lar tayinlash.

Aniq xulosalar, tahlil fikrlar kuzatuvchilar (ekspertlar) tomonidan rag'batlantirishga imkon yaratish.

**6. “*Tanqidiy fikrlash*” metodining ta'lim oluvchiga psixologik ta'siri**

“*Tanqidiy fikrlash*” bahsli-tortishuvlarga sabab bo'ladigan muammolarni yechishga qaratilganligi sababli, ta'lim oluvchilarda tinglash, o'zgalar fikrini

bo'limaslik, unga tanqidiy ko'z bilan qarash, taqqoslash, tegishli hukm chiqarishga e'tiborni qaratish lozim. Uning natijasida har qanday ta'lif oluvchida:

- o'ziga ishonch ko'zi bilan qarash;
- munozarada faol ishtirot etish;
- o'zgalar fikriga va taqdiriga befarq bo'limaslik;
- tengdoshlari, kuzatuvchi (ekspert)lar bilan fikr tortishish;
- o'z nuqtai-nazarini, fikrini dalillashga intilish his-tuyg'ulari tarbiyalanadi.

Bu o'z navbatida analistik fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga, hosqichma-boqich tafakkur yurgizish bir-birlarini chuqurroq o'rganish imkoniyatining yaratilishiga hamda o'zgaruvchan tanqidiy fikrlashga olib keladi. Oqibat-natijada o'quvchilarining fikrlashi faollashadi, qiziqish kuchayadi, o'zini ifoda etish ishonchi uyg'onadi, tanqidiy fikrlash rivojlanib boradi.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: **Tanqidiy fikrlash nima?**

**Fikrlash** – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiglashtiruvchi shunday jarayonki, unda o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas.

Tanqidiy fikrlash ta'limi dastur yoki kundalik hayotning umumiyligi kontekstdidan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lif oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar.

Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida talabalarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).

2.O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O'rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik, 1987).

4. O'rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi (Ros, 1990).

5. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtidagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash «yakkayu yagona to'g'ri javob»ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

#### **Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish**

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q.

Lekin tanqidiy fikrlovchilarining shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- *talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;*
- *turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;*
- *talabalarning o'kuv jarayonidagi faolligini ta'minlash;*
- *talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak;*
- *har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;*
- *tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.*

Shu munosabat bilan talabalar:

- *o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;*
- *o'quv jarayonida faol ishtirok etish;*
- *turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;*
- *o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.*

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi.

Pirson, Xansen, Gordon (1979)lar ta'kidlashadiki, o'z fiklarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- *fiklarini o'z so'zları bilan ifodalash;*
- *o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;*
- *o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;*
- *fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.*

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari

lozim. Talabalar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan va do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

**Rang-baranglik.** Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi.

Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yildi. Faqat birligina javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

**Faollik.** Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odadta, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lismasi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o'stiradi.

Mixali Chikjentmixaliy (1975) ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'kuv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

**Tavakkalchilik** Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqlay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «ahmoqona g'oyalar» aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi uni o'quv jarayonini tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim.

Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkonи bo'lgan muhitda o'ylash lozimligini ularda ishonch hosil qilish zarur.

**Qadrlash.** Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog'dagina chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar.

Talabalar o‘z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiliadi, unga va uning oqibatlari nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar.

**Qimmatilik.** Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o‘z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O‘qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo‘lishi lozim. Bu esa talabalarda o‘zgalar g‘oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o‘z fikri, o‘ziga taalluqli bo‘lgan g‘oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko‘rsata olish zarur. Talabalarning o‘zlarini ham o‘z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o‘z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o‘ta muhim, shuningdek, katta hissa bo‘lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

**O‘zaro fikr olishuv.** Fikrlash jarayoni talabalarning o‘zaro fikr olishuvini ko‘zda tutadi. Talabalarning o‘zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o‘rganishdagi o‘rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o‘zlarida bo‘lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo‘lgan qobiliyatlarini boshqalarga oolib berish talab etiladi.

O‘zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlar tizimini so‘zlovchiga zo‘rlab o‘tkazish va boshqa so‘zlovchilarni tuzatib turishdan o‘zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o‘laroq talabalar o‘zlariga tegishli bo‘lgan g‘oyalarini tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ulami o‘z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g‘oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o‘tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- *o‘ziga ishonch hosil qilish;*
- *ishda faol ishtirot etish;*
- *o‘rtoqlar va o‘qituvchi bilan fikr olishish;*
- *o‘zgalar fikrini tinglay olish.*

**Tanqidiy fikrlashni ta‘minlovchi savollar.** Tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni tahlil qilish va izohlash, g‘oyalarini tahlil qilish, o‘rganilayotgan hikoyalarni o‘z taxminiy rejalari bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Qo‘llanmada tahlil qilinayotgan bu masalalar Senders (1969) ifodalari va Blum tizimli savollaridan olindi. Bu savollar turli sathdagiligi yiqinchilikda fikrlashning turli ko‘rinishlarini ta‘minlashda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Eslab qolishga xizmat qiladigan savollar yoki formal sathdagiligi savollar eng kuyi sathdagiligi savollarga taalluqlidir. Baholash yoki hukm chiqarish beriladigan savollar fikrlashni ta‘minlaydigan ikkinchi sathdagiligi savollar sifatida qaraladi.

**Formal satb savollari faktologik axborotlar olish maqsadida beriladi. Ular faqat mexanik eslashni va talabalarda yaxshi javob berish uchun qisqa muddatda ma'lum predmetlar bo'yicha bilim qismlari (fragment)ni talab qiladi.**

Axborotlarni bir shakldan ikkinchi shaklga ko'chirish talabalardan uni ko'chim (tranformatsiya) qilishni talab qiladi. Ko'chirish savollari talabalarga o'rganayotgan, tavsiflagan va ko'rgan vaziyatlari, sahnalarini va voqealarini o'zlarini namoyish eta olishlari uchun beriladi. Ko'chirish savollari talabalarni axborotlarni qayta ishslash yoki boshqa shakllarga ko'chish qilishga ilhomlantiradi. Talabalarga sezish, ko'rish (sensor) tajribasini yaratish, shundan so'ng esa boshqalarga o'z ko'rganlarini yetkazish uchun uni e'lon qilish zarur. Bu fikrlashga tortishning faol ijodiy jarayonidir.

Talabalarga g'oyalar, faktlar, qaydlar va qadriyatlar orasidagi bog'janishlarni ochish uchun izohlashga qaratilgan savollar beriladi. Sendrs izohlashga qaratilgan savollarga nisbatan yuqori darajadagi fikrlashni talab qiladigan tayanch savollar deb qaraydi, boshqalari esa (Vogn va Estes) tushunishning o'ziga izohlashdir, deb hisoblaydilar.

Tatbiq qilishga qaratilgan savollar o'qish (talaffuz) jarayoni yoki o'rganish tajribasida uchraydigan mantiq muammolarini yechish va chuqr o'rganish uchun imkoniyat beradi.

Tahlil etishga qaratilgan savollar talabalardan u yoki bu voqeanning ahamiyati yetarli darajada yaxshi yoritilganmi, yo'qmi degan savolga javob berishga undaydi.

Sintez qilishga qaratilgan savollar yangicha fikrlash asosida ijodiy muammolarni hal qilishga da'vat etadi. Sintez savollari talabalarga o'zining barcha bilim va tajribalarini muammoning ijodiy yechilishida foydalanishga imkon beradi. Sintez savollari muqobil ssenariylar yaratishni ham taqozo qilishi mumkin.

Baholash savollari yaxshi va yomon, adolatli va adolatsizlik to'g'risida hukm chiqarish uchun beriladi.


Baholash savollari talabalar, axborotlar sifatini, yangi axborotlarga nisbatan o'z munosabatini baholay olishi, ularni qadrlay olishi uchun beriladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 tipini farqlaydilar:

*Yaxlitligicha idrok etish.* Mavzu yoki fan to'g'risida umumiyl bilim beradigan idrokning shaklidir.

*Izohli idrok etish.* Bu Blum izohlari darajasiga aynandir. Idrokning bu tipida talaba g'oya va hodisalamning o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli sohalariga oid g'oya va axborotlarni hatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarini birlashtiradi.

*Shaxsiy idrok etish.* Talabalar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bog'lab tushunish jarayoni aks ettiradi.



*Tanqidiy idrok etish.* Mazmunni bir tomoniga qo'yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmatini, to'g'riligini, foydaliligini va talabalarning bilishi, tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir.

Shunday qilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

- *talabalarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;*
- *mashg'ulotlarda faolligini ta'minlaydi;*

- *samarali munozaraga chorlaydi;*
- *talabalarning o'zlar savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;*
- *talabalarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;*
- *talabalarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi;*
- *har qanday fikrlarga bo'lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;*
- *talabalarda personajlarga bo'ladigan iztirobini o'stirishga yordam beradi;*
- *talabalar qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;*
- *talabalarning tanqidiy jalg qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.*

**Sinkveyn.** Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g'oyalarni, sezgilarни, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkoniyati muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o'ylangan refleksiyani talab qiladi. Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqeа munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishni talab etadi.

**Sinkveyn** so'zi fransuzcha so'z bo'lib, besh degan tarjimani beradi. Demak, sinkveyn besh qatordan iborat she'rdir.

*Sinkveynni yozib chiqish qoidasi quyidagicha:*

1. Birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkumidagi oid so'z bilan).
2. Ikkinci qatorda mavzu ikki so'z bilan tavsif qilinadi (sifat turkumiga oid ikki so'z bilan).
3. Uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha xatti-harakatlar uch so'z bilan tavsif etiladi.
4. To'rtinchи qatorda temaga aloqadorlikni ko'rsatuvchi 4 so'zdan iborat gap (ibora) yoziladi.
5. Besinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat sinonimdir

*Amaliyotda sinkveyn:*

- *murakkab axborotni sintezlash quroli;*
- *talabalar tushunchalar zahirasini baholash vositasi;*
- *ijodiy ifodalilik vositasi sisfatida juda foydalidir.*

**Sinkveyn tushunchalar va axborotlarni refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor, ayni zamonda qudratli qurollari hisoblanadi.**

**Nazorat uchun savollar:**

1. Rivojlantiruvchi ta'limning maqsad va vazifalari tushuntiring.

2. Tanqidiy tafakkurining o'ziga xosligi nimadan iborat?
3. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda qanday interfaol metodlarini bilasiz?
4. Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlarini izohlang.

## **5-MAVZU: PSIXOLOGIYA FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLARI**

**Reja:**

1. Interfaol ta'lif metodlari.
2. Interfaol ta'lif texnologiyalari.
3. Psixologiya fanlarini o'qitishda interfaol usullarning qo'llanilishi

### **Interfaol ta'lif metodlari**

Zamonaviy sharoitda ta'lif samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lif jarayonida interfaol metodlarning o'rinni, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi.

Yuqoridaq savollarga javob topishda eng to'g'ri qadam tayanch tushuncha – "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishishdir.


**"Interfaol"** tushunchasi ingliz tilida "interact"(rus tilida "interaktiv") ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan "inter" – o'zaro, ikki taraflama, "act" – harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi

**Interfaol ta'lif** – ta'lif jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birligida, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lif

**Interfaollik ta'lif** jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birligida, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:




An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (talaba)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (talaba)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinnarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

An'anaviy ta'limdagi bir tomonlamalik oliy ta'lim tizimidagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, "etkazib beruvchi" rolida endi o'qituvchi emas, balki o'quvchi (talaba) namoyon bo'ladi. O'quvchi (talaba), asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinnarda savollar bilan murojaat qiladi. O'quvchi (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda o'quvchi (talaba) yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs: manbanı o'zi o'qiganida 10%; ma'lumotni eshitganida 20%; sodir bo'lgan voqeа, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30%; sodir bo'lgan voqeа, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50%; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80%; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90% hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

Shunga ko'ra interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil


etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab- quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lislari, ruhiy birlikka erishishlari kabilalar bilan tavsiflanadi".

Zamonaviy ta'lim, shu jumladan, uning tobora ommalashib borayotgan shakli – interfaol o'qitishda esa shaxslar o'tasidagi suhbat (dialog) quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi:




Interfaol ta'lim mohiyatiga ko'ra suhbatning "o'quvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi o'quvchi (talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

O'qitishning interfaol ta'limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, bunda o'qituvchining ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi:



Shu bilan birga ta'limga interfaol ta'limning samaradorligi quyidagi ikkilamchi omillarga ham bog'liq:



O'qituvchi ta'limga jarayonida interfaol ta'limga yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqsa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimmi, interfaol metodlami qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiylarini maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'liga kiritadi.

Odatda interfaol metodlarga asoslangan ta'limiylar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:  
individual; juftlik; guruh; jamaa bilan ishlash


#### Interfaol ta'limga jarayonida o'quvchi (talaba)lar:

- guruh yoki jamaa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamaadooshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqsa olishi kunnikmalariini uzlaشتirish kabi imkoniyatlarga ega buladi

### **Interfaol ta'lism:**

- ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)larda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
- har bir o'quvchi (talaba)ning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- o'quvchi (talaba)larga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabati uyg'otadi;
- o'quvchi (talaba)larda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- o'quvchi (talaba)larning xulq-atvorini ijobiy tomoniga o'zgartirilishini tazminlайди

Interfaol ta'limning asosiy belgilari quyidagilardir:



**Izoh:** Refleksiya (lotincha "reflexio" – ortga qaytish, aks etish): kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyi; bilishning alohida faoliyi; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash).

### **Interfaol ta'lism quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiyligi ishi.
2. Guruhning tajribasi o'qituvchi (pedagog)ning tajribasidan ko'p.
3. O'quvchilar yosh, ijtimoiy mavqei va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir o'quvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda o'quvchi shaxsi tangid qilinmaydi (fikr tangid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g'oymalar o'quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi

Ta'limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror topshirish uchun o'qituvchi (pedagog)lar bir qator shartlarga rivoja eta olishlari zarur. Ular:

Asosiy shartlar	
Ta'lim jarayoniga jamoadagi barcha o'quvchilarning to'la qamrab olinishi	O'quvchi (talaba)larning mashg'ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish
O'quvchilar sonining ko'p bo'lmasi (25-30 nafar o'quvchi bilan kichik guruhlarda ishlash samaralidir)	O'quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, "Jonli liniya" kabi shakllarda joylashtiriladi)
Topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi	O'quvchilarning kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi (har bir guruhda faol va nofaol o'quvchilarning teng miqdorda bo'lishi)

Izoh: Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada o'quvchilar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol o'qitishning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum:

Asosiy belgilari	
Ijodiy topshiriqni bajarish	Kichik guruhlarda ishlash
Test o'tkazish	Qaytar aloqa
Masofaviy ta'lim	"Chigal yozdi" mashqlarini tashkil etish
Muammoli vaziyatlarni hal qilish	Treninglar o'tkazish
Didaktik o'yinlar (ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, imitatsiya, trenajyorlar vositasida tashkil etiladigan o'yinlar)	Ijtimoiy loyiha (musobaqa, intervyyu, forum, aksiya, tomosha va ko'rgazma)larni amalga oshirish
Ijtimoiy zahiralardan foydalanish (mutaxassislarni taklif etish, tabiiy va ijtimoiy obyektlarga ekskursiyalar yushtirish)	Yangi materialni o'rGANISH va mustahkamlash (interfaol ma'nuz, ko'sratmali qurollar bilan ishlash, video va audiomateriallardan foydalanish)

Interfaol ta'lism asosini interfaol metodlar tashkil etadi. "Ta'lism jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta'lism oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi". Qo'llanmaning keyingi bo'limida interfaol metodlar, ularning mohiyati, qo'llanish shartlari va didaktik imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritiladi.

### **Interfaol ta'lism texnologiyalari**

Zamonaviy sharoitda ta'lism tizimida innovatsion xarakterga ega metodlar ham qo'llanilmoqda. Ular orasida eng keng ommalashgan metodlar yagona nom bilan nomlanuvchi interfaol metodlar sanaladi.

**Interfaol ta'lism ta'lism samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li** sifatida e'tirof etilayotgan ta'lism turi va o'qitish shakli sanaladi.

**Interfaol ta'lism** (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter" – o'zaro, "act" – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lism

**Interfaol metodlar** – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini hamda o'qituvchi bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar

Bu turdag'i metodlar interfaol ta'lismning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Hozirgi kunda interfaol metodlarning 100 dan ortiq turi mavjud bo'lib, o'quv materialining xarakteri, talabalarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lism jarayonida ularning har biridan samarali foydalanish mumkin.

Mohiyatiga ko'ra interfaollik talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Ta'lism sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lism ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi (1-rasm):


O'qituvchi – talaba

An'anaviy ta'limga asoslangan suhbat  
ishtirokchilari

O'qituvchi – talabalar  
guruhi (jamoasi)

#### 1-rasm. An'anaviy ta'limga asoslangan suhbat

Interfaol ta'lism o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtaida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahsmunozalar, o'zaro fikr almashtirish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimiarni birlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilalar bilan tavsiflanadi.




#### 2-rasm. Interfaol ta'limga asoslangan suhbat (dialog)

Interfaol ta'limga asoslangan suhbat quyidagi shaxslar o'rtaida tashkil etiladi (2-rasm):

Interfaol TT mohiyatiga ko'ra suhbatning "talaba – axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

O'qituvchi interfaol ta'lism yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ulaming fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimmi, interfaol TTni qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiylar maqsadga erishish yo'lida o'zaro

hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naqtirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.



**3-rasm. Interfaol ta'lif samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar**

O'quv jarayonining interfaol TTga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, bunda o'qituvchining ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi (3-rasm):

Shu bilan birga interfaol ta'lif texnologiyalarini qo'llash samaradorligi quyidagi ikkilamchi omillarga ham bog'liq (4-rasm):



**4-rasm. Interfaol ta'lif samaradorligini tayminlovchi asosiy omilllar**


Odatda interfaol ta'lif texnologiyalariga asoslangan ta'limiylar harakatlar quyidagi shakkarda tashkil etiladi:

- individual;
- juftlik;
- guruh;
- jamoa bilan ishlash

Interfaol ta'lif texnologiyalarini qo'llash jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish

Interfaol ta'limga muayyan belgilarga ega. Quyidagilar interfaol ta'limga xos asosiy belgilarni sanaladi (5-rasm):



#### 5-rasm. Interfaol ta'limga asosiy belgilari

ning o'z

xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrashga orqali anglash), o'z-o'zini tahlil qilishi.

Barcha ta'limga turlari kabi interfaol ta'limga ustuvor tamoyillarga ega:

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi pedagogning tajribasidan ko'p.
3. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir talaba o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikr tanqid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g'oyalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrashga uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat olibadi

Interfaol ta'limga quyidagi imkoniyatlarga ega:

- talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
- ta'limga jarayonining har bir ishtiroychisini rag'batlantiradi;
- har bir talabaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining puxta o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- talabalarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- talabalarda mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;
- talabalarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- talabaling xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi

Ta'limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror topshirish uchun pedagoglar bir qator shartlarga rioya eta olishlari zarur. Ular:

1. Ta'lim jarayoniga jamoadagi barcha o'quvchilarning to'la qamrab olinishi.
2. Talabalarning mashg'ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish.
3. Talabalar sonining ko'p bo'imasligi (25-30 nafar o'quvchi bilan kichik guruhlarda ishlash samaralidir).
4. O'quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, "Jonli liniya" kabi shakllarda joylashtiriladi).
5. Topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlalmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi.
6. Talabalarning kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi (har bir guruhda faol, nofaol talabalarning teng miqdorda bo'lishi)

**Izoh:** Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada talabalar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol ta'limning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum (6-rasm):


Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

– **Interfaol metodlar:** "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blis-so'rov", "Modellashтирish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.

2. **Strategiyalar:** "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.

3. **Grafik organayzerlar:** "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b.

## Asosiy shakllar



### 6-rasm. Interfaol ta'limning asosiy shakllari

#### Psixologiya fanlarini o'qitishda interfaol usullarning qo'llanilishi

Psixologiya fanlarini o'qitishda interfaol usullarni ta'lim jarayoniga qo'llashning psixologik jihatlarini mazmunan yoritishga asoslanadi. Shunga muvofiq o'qitish metodikasida o'qitishning asosiy konsepsiyalari ishlab chiqilib interfaol usullarni qo'llanilishi mazkur masalalar negiziga asoslanadi.

Mazkur konsepsiyalardan asosiyalar quydagi lardan iborat;

a) o'qitish uning shakllarini shakllanishi o'qituvchining faol faoliyati - o'quv faoliyati xisoblanib, bunda o'qituvchi bu faoliyatning tashkilotchisi rolida ishtirok etadi.

b) o'quv faoliyatining predmeti va natijasi faoliyatining sub'ekti o'quvchi hisoblanadi, u faoliyat hisobiga qayta tashkil bo'ladi predmet sifatida va o'qitish yakunida o'zgartirilgan ko'rinishda namoyon bo'ladi (o'quv faoliyatining natijasi sifatida).

v) muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash mahoratini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish ilmiy va amaliy muammolarda erkin va mustaqil yo'l topa olishni tushunish hisoblanadi, shu bilan birga bilimlarning fikrlash materiali va vositasi bo'lib xizmat qiladi.

g) o'quv faoliyatining birligi o'quv masalasi hisoblanadi. Hayotda yuzaga keladigan boshqa hamma masalalardan uning predmetini o'zgartirishga emas balki amaldagi sub'ektning o'zini o'zgartirishga birinchi navbatda uning fikrlash harakatlar usullarini egallab olishga qaratilganligi bilan farq qiluvchi o'quv taktikasi hisoblanadi.

d) o'quv faoliyati jarayoni o'quvchining tashqi predmetni mazmunida o'z harakatlarini ichki aqliy ko'rinishga (interiorizatsiya) o'tkazilishi ko'rinishidagi o'quv masalalarini hal etish bo'yicha harakatlaridir, ya'ni ularni o'zining shaxsiy bilimlar, mahorati va ko'nikmalarini hosil qilib olishidir.

ye) bilish mahorat va ko'nikmalarni o'zlashtirish - bu aqliy harakatlar hisoblanadi, ular individ tomonidan shakl obraz ko'rinishida tashqi vositalarga tayanilgan holda (predmetlar yordamida yo'l topish yoki so'z bilan yordamlashish) bajariladi va o'quv faoliyati natijasida o'zlashtirilgan, qayta tashkil etilgan «sobiq» tashqi predmetli harakatlardan iborat.

Interfaol usulni qo'llaganda hammasidan ko'ra bellashuv, raqobat, tortishuv ruhiyatini intellektual faolligiga kuchli ta'sir etadi. Bu insonlar uyushgan holda muammoni yechishni izlaganlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari shunday psixologik omillar ta'sir qiladigan, atrofdagilar tomonidan bildirilgan har qanday fikrga o'zining shunga o'xshash, yaqin yoki aksincha mutlaqo qarama-qarshi fikr bildirishga da'vat etadi.

Bunday mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchidan ancha ko'p ijodkorlik va faoliylik talab etiladi. Oldindan ma'lum yoki ancha ko'p ijodkorlik va faoliylik talab etuvchi kitobdan o'qiganlarini hikoya qilish shaklidagi dars passiv darajada o'tadi. Interfaol usuli nafaqat ta'limda balki, tarbiyada ham ayniqsa yaxshi natija keltiradi, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda o'qituvchi muhokamaga ta'sir qilganda nafaqat fikr bildiradi, balki muammoga o'zining shaxsiy munosabatini, axloqiy mavqeい va dunyoqarashini bildiradi. Talabalar bahsida o'qituvchini ishtiroti turlicha bo'lishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham o'zini fikrini o'tkazmasligi kerak. Yaxshisi bahsni boshqarishda yaxshilab hisoblab chiqilgan usul, sermahsul fikrlashni, yechimini topishda ijodiy izlanuvchanlikni talab etuvchi yo'lni muammoli savol qo'yish orqali boshqarish lozim. O'qituvchi o'z nuqtai nazardan chiqarishda fikr bildiradi, faqat talabalar fikridan xulosa chiqarish bilan isbotlash va xato fikrlarni rad etish kerak. Bu usul bilan bahsni nafaqat mazmuni intellektual - bilish, nazariy savollarni yo'llash mumkin, shuningdek hamkorlikda sermahsul faoliyatlarini tuzish, talabalar shaxsiga o'z ta'siri bilan o'quv faoliyatini o'quv tarbiya jarayoniga aylantirishi mumkin.

Shu tartibda, interfaol o'qitish usuli, talabalarning hamkorlikdagi faoliyati o'qituvchining bahslardagi ishtiroti tufayli dars jarayonini nafaqat hamkorlikdagi faoliyati bo'ladi, balki shaxsning ijtimoiy munosabatlarining real ijodiy sermahsul

taoviyaga aylanadi. O'qishdagi hamkorlik o'z-o'zidan talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, to'g'ridan-to'g'ri ularning ichki dunyosiga ta'sir etadi va dars jarayonini asosiy tarbiyaviy funksiyasi hisoblanadi.

Hamkorlikdan tuzilgan sermahsul faoliyatni uchta alohida faol usul nomi bilan ajratish mumkinmi? Umuman olganda, dars jarayonini tarbiyaviy funksiyasini hisobga olganda mumkin. Lekin bunday qilish kerakmi? Bu maqsadga muvofiq hisoblanmaydi, zero interfaol usul bu o'qituvchi va talabalarning birligidagi ijodiy (sermahsul) faoliyati, shaxsning hamkorlikdagi jarayonigina emas, shuningdek bilish izlanish jarayonini yuzaga kelishi hamdir. O'qituvchi shu narsani doim esda tutishi lozimki, bahsda savollarni o'z holicha qilmasdan, faqat faol bilishning yo'nalishi "talaba-talaba" hamkorligi bilan chegaralanib qolmasdan, doim "o'qituvchi-talaba" tizimini qo'shilishi muhimligini nazarda tutish kerak.

Interfaol o'qitish usuliga quyidagilar kiradi: 1) evrestik suhbat; 2) bahs usuli; 3) aqliy hujum; 4) davra stoli; 5) ishbilarmon o'yinlar usuli; 6) amaliy ish bo'yicha tanlov muhokamasi va boshqa alohida o'qituvchi bilan qo'llanuvchi – zavqli interfaol o'qitish usullari kiradi. Ularning mazmuni bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Interfaol o'qitishning bir usuli everstik suhbat bo'lib, lotincha – "to'playman, izlayman" ma'nolarini anglatadi.. Bu suhbat usuli bo'lib qadimgi grekcha ko'rinishi Suqrot suhbat deb nomlangan o'qitish tizimiga asoslangan. Shu yo'l bilan mohirona savollar tuzish va o'quvchini qo'yilgan savolga mustaqil ravishda to'g'ri javob topishga yo'naltirish kerak. Bu o'qitish usulini Suqrotnikidan farqi uning keng doirada jonligidir. Lekin uning so'zsiz o'xhashlik tomonlari ham mavjud, o'z tavsifiga ko'ra olinayotgan funksiyasi bevosita ularni faol o'ylash orqali o'quvchilarni mohirona savol berishga qaratilganlidir. O'z yo'nalishining psixologik tabiatiga ko'ra – evrestik suhbat bu jamoaviy fikrlash yoki suhbat, muammoni yechimini izlovlchi sifatidagi suhbatdir. Shuning uchun pedagogikada bu usul muammoli o'qitish usullaridan hisoblanadi, shu qatorda muammoli izlanuvchi deb nomlanuvchi suhbatdan everestik suhbat psixologik tomonidan hech ham farq qilmaydi. Pedagogika ular orasida shaxsiy miqdoriy chegara o'tkazadi. Agar evrestik suhbat faqat qaysidir mavzuni bitta elementiga tegishli bo'lsa, muammoli izlanishda esa – muammoli vaziyatlar ko'p. Biroq bunday farqlanish tanqidni ko'tarmaydi, amaliyotda suhbatni haqiqiyisiga aylantirishsa mashg'ulotlarda "faqat bitta" va "ko'p" muammolar orasidagi bu ko'rinas farqni sezish mumkin emas: o'qituvchi va auditoriya orasidagi suhbat ko'p savolli suhbatga aylanadi va mavzuga tegishli suhbat bilinmasdan bahsga o'tadi. Lekin endi bu o'qitishning boshqa usulidir, bunga keyinroq to'xtalamiz. Gap shundaki, suhbatda fikrlab izlanish jamoaviy izlanishga aylanadi va

muammoning yechimini izlashda fikrlar almashinuvi, turli variantlar, orasidagi xulosalar hamkorlik va hamfikriylik bir-birini faollashtiradi.

Shuning uchun mantiqan bu usul interfaol o'qitish usuli sifatida ko'rib chiqiladi.

Suhbatni evrestik suhbatga aylantirish uchun quyilgan savollar ham boshqa muammoli o'qitish usullari rioya qiladigan shartlarga bo'y sunadi. Evrestik suhbatga aylanish jarayonida esa, muammoli vaziyatni keltirib chiqarilgan interfaol o'kитish usullaridan birini amalga oshirishdan bo'lak narsa emas.

So'nggi ishlarda baxs interfaol o'qitish usuli sifatida qo'llanila boshlandi.

**Bahs usuli voki** o'quv bahslari evrestik suhbat kabi namoyon bo'ladi, to'g'riroq'i maxsus dasturlashtirilgan erkin nazariy savollarni muhokama qiladi, odatda savol qo'yish bilan evrestik suhbatni boshlanishi kabi boshlanadi. Uni doimo baxsga aylanish, - darsdagi me'yoriy holatdir. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda bahs qanday xususiyatga ega?

Birinchidan, bahs – bu faoliyatning dialogik shakli bulib, turli fikrlar orasida boradigan shiddatli kurashni, suhbatni yuzaga keltirishdir. Fikrlar almashinuvi oddiy suhbatdagagi kabi izchil va salmoqli ketmaydi, bahsda esa, bir fikrni boshqasi bilan to'qnashuvi bir muncha asabiy ko'rinishga ega. Bahsni alohidaligi shundaki, bahslashuvlarning fikri bu bahslashayotganlarni faol fikrlashlarini yuzaga keltiruvchi yoki fikrni dalil bilan isbotlashdir.

Ikkinchidan psixologik jihatdan shunisi qiziqki, ayni fikrlar to'qnashuvi baxsni yuzaga keltiradi, u esa baxsga olib keluvchi turli xil fikrlarni tug'ilishdir. Bahs va fikrlashni - faoliyatdagagi sababli bog'lanish deb tushunishadi, bunday yondashuv L.S.Vgotskiy tomonidan ilgari surilgan, lekin nutq faoliyatini tekshirganlarida bunga to'xtalib o'tmaganlar, ayniqsa muammoli bahsdagagi fikrlash va diologni o'zaro bog'liqligini analiz qilmaganlar.

Odatda fikrlash orqali bahsda e'tirozchini gapiga javob tug'iladi, shuning uchun turli fikrlar bahsni yuzaga keltiradi, deb taxmin qilinadi. Natijada esa vaziat mutlaqo aksincha: bahs munozara fikrni tug'diradi fikrlashni faollashtiradi, o'quv bahslari esa ustiga ustak o'quv materialini fikrlash mahsuli sifatida anglab o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bunday psixologik alohidalik bahslashuv va fikrlashni o'zaro bog'liqligi A.K.Markov izlanishlarida ko'rsatilgan.

Munozarani vaziyatga aloqadorligi mulohaza qilishni faollashtiradi, ulami dalillar tizimiga aylantiradi. Afsuski psixologning bunday xulosasi natijasida bu usuli na maktab, na pedagogika – psixologiya oliy o'quv yurtlari amaliyotida keng doirada qo'llanilish imkoniyatini bermayapti.

Baxs usuli darslarning guruhiy shaklidagi amaliy mashg'ulotlarda yoki laboratoriya mashg'ulotlariда, talabalar gapirish imkoniyati bo'lgan darslarda foydalaniлади. Ba'zan ma'ruzada ham foydalaniлади, unda ma'ruzachi mavzuga

oid savollar bilan auditoriyaga murojaat qilishi orqali yuzaga keladi. Bahsni ma'ruza darslarida to'la qo'llab bo'lmaydi, lekin auditoriyadan savollarga javoblarni tezlik bilan javob oladigan natijasida, ulardan mazkur muammoga fikr bildirish orqali qo'llash mumkin. Endi bu munozarali savolga javob berish, jamoaviy fikrlash va ma'ruzachini xulosasini tinglash psixologik muhitni yaratadi. Turli xil dars shakllarida bir necha munozarali savollarni qo'yishni namuna sifatida ko'rsatamiz. Dastlab ma'ruzada kullanilgan munozarali savoldan boshlaymiz. Ma'ruzachi tashkiliy qismda nazariy faoliyatiga bag'ishlangan savolni talabalar oldiga qo'yadi. "Biz hozirgina faoliyatni mayjudotni o'rab turgan borliq bilan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan hamkorligi ekanligini aniqladik. Bunday faktlar faoliyatni turli xilligi hisoblanadi: nafaqaxo'r sayr vaqtida oyoqlariga dam berish uchun o'rindiqka o'tirdi; chumoli o'z iniga o'lgan pashshani olib ketayapti; tuyaqush kallasini qo'yniga tiqib olib nafas olayapti; talaba "faoliyat" tushunchasini o'rganayapti, vaholangki unga nima bo'Iganda ham quruq yodlash emas, aksincha tushunib esda olib qolish kerakligini ogohlantirishgandi; o'quvchi adabiyot darsida uyg'a yodlash uchun berilgan she'mni o'rganyapti; qo'mondon o'z qo'shiniga qanday harakat qilish kerakligini aytish uchun; raqibini hammasini kutayapti; ular kutish vaqtida biror bir faoliyat bilan band deb bo'ladimi? Ana shu hamma vaziyat haqida kim nima o'ylayotganini darrov aytishingizni so'rayman". Keyin o'qituvchi aytgan sub'ektlarini harakatini ketma-ketlikda o'tkaza boshladi ("nafaqaxo'r", "chumoli", "tuyaqush", "talaba", "o'quvchi", "qo'mondon") talabalar esa "ha" yoki "yo'q" deb javob berdilar. Barcha "faoliyat" tushunchasini ham ancha tushuntirish talab etishini va bu mavzuga boshqa darslarda yana to'xtalish lozimligiga amin bo'ladilar, lekin bu yetarli bo'lib, ma'ruzachi maqsadga erishadi. U talabalarni faoliyat tushunchasini psixologik asosini faqat lug'aviy ma'nosini yodlab olish emas, balki jiddiy hayotiy vaziyatlarda tahlil qilinadigan ish ekanligiga ishontirdi.

Seminar mashg'ulotida: Talaba mavzu rejasida ko'rsatilgan "Vaqtni idrok qilish" bo'yicha tajriba o'tkazib referat bilan chiqish qildi, psixolog D.B.Elkonin o'tkazgan izlanishlar, vaqtning qadriga yetish bo'yicha turli vaziyatlarda insonlarning vaqtini idrok etishi bo'yicha ma'lumotlarni berdi. O'qituvchi guruh oldiga savol qo'yadi: "Bu ma'lumotlarni o'qituvchi amaliy ishlarda qanday qo'llashi lozim?". "O'quvchilarning vaqtini sub'ektiv baholashga hukm qilishi, darslar qiziqarlimi yoki zerikarlimi?" deb tafsif qilishi mumkinmi? Aytgancha talaba "R" bayon etganlari qancha davom etdi? Birinchidan talaba R. bayon qilganlariga qiziqish uyg'otib, haqiqiy vaqtini kichraytirib baho berishdi.

Ikkinchidan, birdaniga bir qancha talaba psixologlar tomonidan ochilgan qonuniyatlarni qo'llash imkoniyati fikrni asoslashga yordam beradi. Tadqiqot sifatida qo'yidagi ish amalga oshirildi ya'ni maktab o'quvchilariga darslar

qiziqarlimi yoki yo'qmi, qaysi darslarda (qaysi fan o'qituvchisi) dagi zerikarli yoki aksincha qiziqarli va h.k., ularni qanday baxolash mumkin? Lekin baholash keraklimi, foydalimi degan savollar borasida bahslashdilar. Buni kanday urganish mumkin? Kimgadir matematikada o'tirish qiziqarli bo'lmasa, kimgadir kim bilan hech narsa qilish yoqmaydi ba'zi o'qituvchilar darslarni doim qiziqarli o'tadilar. Balki ichimizdan kimdir o'z faniga qiziqish uyg'ota olmasligini sezib qolar? Barchada shu va shunga o'xshash fikrlar savollarga qiziqish uyg'otayotganini bilishimiz mumkin, lekin bahs endi boshqa mavzu bo'yicha ketyapti: idroknii bilish jarayonlaridan biri ekanligi haqida emas, darslar qiziqarli yoki zerikarliligi haqida. Albatta, tashxisni aniqligi bilan bog'liq emas. Kundalik hayotda turli xil vaziyatlarga duch kelamiz va o'z imkoniyatlaringizdan kelib chiqib, ularni o'qib o'rganamiz (kuzatib) tashxis qo'yamiz yoki psixiatrga maslahatga boramiz, bu kitobdan o'qishdan ko'ra yaxshiroqdir. Bularni hammasini amaliyotchi psixolog o'rganishi lozim. Hozir o'z ta'riflaringizni o'qib eshittirish orqali biz bir-birimizdagi mavjud bilimlarimizni almashamiz.

Darslarda ularni ko'rib chiqib, biz so'z mantiqiy tafakkurimizni o'stiramiz, psixologik kuzatuvchanlikni tarkib toptiramiz.

Laboratoriya mashg'ulotida: O'qituvchi matematika fakulteti talabalariga "Tafakkur" mavzusi bo'yicha, mantiqiy tafakkurni baholash uchun matematik materialda bir necha test berdi. Mana ulardan ba'zilari: "o'isht og'irligi 500 g va unga yarimta g'isht qo'shiladi. Umumiy og'irlilik qancha? 3 kg teng baliqni o'chagandan so'ng kesib dumi tomonini sizga berishdi. Boshqa (bosh) ko'rinishidan kichikroq tomoni kimgadir tegdi. Bاليقning og'irligi qancha edi? Agar baliqning dumi 4 kg bo'lsa, boshi ham 4 kg bo'lsa, tanasi dumi, bosh qismining og'irligiga teng bo'lsa, unda baliqning og'irligi qancha?" talabalar matematik bu vazifani yecha oladilarmi? Buni biz hozir muhokama qilmaymiz (zero hech kim birdaniga yechimini topa olmaydi). Bu yerda bizni tafakkur sifatlarining tasnifi haqidagi fikr qiziqtiradi. O'qituvchi tomonidan quyilgan munozarali savol quyidagicha: "Har 3 ta vazifani tez yechishga imkon beradigan, tafakkurlashning umumiy usulini toping va vazifaning har birini tez hal qilishda sizga tafakkurning qaysi sifati yetishmaganini tushuntirib bering". Dastlab, muhokamadagi bu savolga taqlidiga asoslanib, birmuncha sodda javob variantlarini berishdi. Keyin suhbat mulohaza chegarasiga ega bo'la boshladi. O'qituvchining turki beradigan savollaridan: "Nimaga shunday o'ylaysiz?", "Sizning fikringiz nimaga asoslanadi?", "Bu sizning taxminingizmi yoki bu fikr shunday ekanligini isbotlab bera olasizmi?" va h.k. shundan so'ng talabalar o'z fikrlarini asoslash uchun tafakkur psixologiyasi bo'yicha o'z bilimlarini safarbar qilishga urinishadi.

Talabalarning ko'pchiligidagi psixologik atamalarni qo'llashda ishonchsizlik, matematik atamalarni adashtirish kuzatildi (Masalan, tez, to'liq tafakkurlash

yo'nalishida "algebrik" yoki "arifmetik" jarayonlarni tez-tez almashtiradilar). Nihoyat, o'tkazilgan har uchala vazifada ular ishonadigan tushunchalar "yarmini" tashkil etadi, degan xulosaga kelishdi. Bunday umumiylikni namoyon bo'lishi masalani tez hal etishga imkon beradi, zero har qanday butunlik ikkita teng qismdan iborat g'ishtning og'irligi yoki baliqning og'irligining, bu yerda ahamiyati yo'q. Shunga o'xshash masalalarni hal etishning umumiyl usuli tafakkurlashning ham umumiyl usulidir.

Shundan so'ng o'qituvchi testdan olingen ma'lumotlarni izohlashga o'tdi. Ayni vaziyatda talabalami matematik qobiliyatları emas, balki tafakkurning sifatini aniklashga qiziqish uyg'otishini ta'kidlab, o'qituvchi olingen testning natijalarini psixologik mazmunini tushuntiradi. Shunga muvofik u kuyidagicha rasman xulosani aytdi: Ana shu uchta masalani yechishda namoyon bo'lgan tafakkurning bunday umumiyl usulini, mantiqiy tafakkurlash, deb ta'riflash mumkin, biroq bir vaqtning o'zida ham nazariy yoki empirik, ijodiy yoki sermahsul tafakkurlash hamdir. Amaliy foydalanish jarayonida bu usul ilk bor siz uchun ijodiy tafakkurlash hisoblanadi. Agar siz bu usulni o'zlashtirgan bo'lsangiz shunga o'xshash masalalarni yechishda mahsuldarlik yetarli bo'ladi. Har qanday tarkibli turli xil masalalarni yechishda nazariy tafakkurlashdan foydalanish mumkin, zero bu umumiyl ahamiyatga ega. Unda bu tafakkur qachon empirik hisoblanadi? Variantlarni to'g'ri yechishga harakat qiladilar. Keyinchalik, topilgan bu usulni boshqa masalalarda ham qo'llash mumkin va umumiyl xulosa chiqarishda bundan foydalanish mumkin. Shunda empirik topilma nazariy xususiyatga ega degan xulosaga olib keladi va boshqa masalalarni yechishda qo'llanilgan bu tafakkurlashning umumiyl usuli nazariy xususiyatga ega bo'ladi». O'qituvchi yuqoridagi xulosaga tadqiqot natijalari asosida keldi.

Endi shu o'rinda savol tug'iladi: talabalar bilan "Tafakkur" mavzusi bo'yicha yuzaki dars o'tish deyarli mumkin emas, bahs usulini bu yerda nima aloqasi bor? Bunga quyidagicha javob berish mumkin. To'g'ri bu bahsga o'xshamasligi mumkin, lekin asosiy xususiyati shundaki bahslashish xususiyatiga ega talabalarni o'ylashga majbur qilgan, tayyorgarliksiz biror xulosaga keltirgan va ilmiy adabiyotlarni o'qishga yo'naltiruvchi savolni qo'yishishida namoyon bo'ladi. Bunday yo'naltirish o'z o'zidan ahamiyatl dalildir. Lekin baribir asosiysi munozaralar talabalarni o'ylashga majbur qilyapti: tafakkurlashni talab etuvchi va munozarali muammo qanday bo'lish kerak degan savolga, muhim pedagogik muammoni insonni fikrlashga o'rganishini hal etadi. Shuning uchun og'zaki bahs sifatida ham munozara bo'lmasisligi mumkin. Shunday qilib, bahs usuli, hamma dars shakllari, ma'ruzadan tortib laboratoriya mashg'ulotlarigacha qo'llash mumkin. Uni talabalarning qanchalik fikrlashlarini faollashtiradi va o'zlashtirishda rejasini qay darajaga ko'tarilgani, savollarni o'rganishga qiziqish uyg'otishi va

ularni adabiyotlar bilan mustaqil ishlash jarayonida chuqur kirib borishlariga qarab natijasi belgilanadi.

**Aqliy hujum** usuli oliy o'quv yurtlari amaliyotida o'qitish usuli sifatida qo'llashga ulgurgani yo'q, bu usul boshqaruv tizimi, shuningdek ilmiy izlanishlar natijasida kelib chiqqan. U ayniqa iqtisodiy boshqaruv faoliyati, menejmentda keng qo'llaniladi. O'qitishga bog'liq bo'lmagan holda aqliy hujum usulining mazmuni mohiyati nimada? Mutaxassislarning fikricha, muammoning javobini qidirishda bevosita miyaga kelgan fikrlar, taxminlar tasodifiy o'xshatishlar, shuningdek birdan kelib chiqadigan, mavjud kerak va nokerak bog'lanishlarni asoslab berishlarini o'z ichiga oladi. Keyin diktofonga yozib olingen tasodifiy jumla, fikrlarni diqqat bilan taxlil qilish yo'li ayniqa qiziqarli ya'ni aqliy hujum usuliga yaqin bo'lganlari ajratib olinadi va keyinchalik chuqurroq savol quyilib, muhokama qilish uchun foydalaniлади. Aqliy hujumning o'ziga xos oltin qoidasi mavjud bulib – ishtirokchilar suhbati davomida aytishganlardan hech biriga shubha qilmaslik, aksincha har qanday fikri bildirishda to'la erkinlik yaratib berish lozim. Bunday psixologik erkinlik o'zini xotirjam tutishga "guruh fikridan" uyalmaslikka omadsiz luqma tashlash bilan o'zini o'ng'aysiz holatga qo'yishdan qo'rmaslikka imkon beradi. Bunday holatda (ayniqa ishtirokchilar bunga moslashganda) ko'chirishi to'g'ri bo'lgan, hech nimaga yaramaydigan (ayni damda muammoni yechish uchun) ahmoqona, kutilmagan, lekin zarur bo'lgan, haqiqatdan intensiv fikrlar yuzaga keladi. Ana shuning uchun ham aqliy hujum uyuştiliradi. Lekin bu, menejment va ilmiy izlanishlarda tugri yechimni izlash uchun qo'llaniladi. Bu usulni oliy o'quv yurtlarida qanday qo'llash mumkin? Aytish lozimki, imkoniyatlар diapozoni psixologiya o'qitishda qo'llash uchun yetarli emas. Lekin aqliy hujum usuli qaysidir muammo yechimining qiyinchiliklarini tushuntirish maqsadida qo'llash mumkin. Masalan: iqtisodiy ba'zi muammolar (maoshning kechikishi, korxonalarining ixtiyoriy soliq to'lashi va h.k.) sotsiologiyada (siyosiy faoliyat reytingi interpretatsiyasi) pedagogikada (axloq va axloqsizlik o'rtasidagi qarama-qarshilik), psixologiyada psixikani rivojlanish qonuniyatlari va ta'lim-tarbiya amaliyoti va h.k.

Aqliy hujumda, yosh va pedagogik psixologiyani o'qitishda foydalinishda qo'yidagilarni misol qilamiz. Seminar mashg'ulotida o'smirlik psixik rivojlanishida krizisi muammosi muhokama qilinmoqda, pedagogika kollejini tugatib boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoki maktab psixologi bo'lib ishlayotgan sirtqi bo'lim talabalari bunday krizisni amaliy faoliyatları davomida guvohi bo'lganlari uchun ularga bu jarayon yaxshi tanish edi. Bunday o'smirlar bilan ishlash davomida beriladigan tavsiyalarni ham bilar edilar. Alovida tavsiyalar o'zini oqlardi, ulardan ko'pchiligi esa, na ta'limda na tarbiyada kutilgan natijani bermadi. Umuman ularda o'tish davrida bo'ladigan krizisiga uchragan o'smirlar

bilan ishlash davomida ko'plab usullar va turli xil fikrlar ko'p edi. Bu haqida bilgan o'qituvchi aqliy hujum usulini qo'llashdi: har qanday fikrni bildirishga ruxsat beradi, jumladan "zararli" yoki "yaramaydigan" deb tanqid qilinadigan fikrlar shuningdek har qanday yaqqol yoki yashirin tanqidiy fikrlarni bildirishni taqiqlaydi. Bundan tashqari, o'qituvchi "juda qiziqarli", "qiziqarli" va h.k. kabi o'z so'zları bilan ma'qullab turadi. Xo'sh nima bo'pti? Krizisning o'tish davrida o'smirlar bilan qanday ishlash mumkinligi haqida 40 dan ortiq fikrlar bildirildi. Ba'zi fikr shu yerning o'zida boshqa fikrlar bilan bog'liq holda tug'ilди, boshqalar shunchaki aytilgan so'zlar edi, lekin ko'pincha bu shaxsiy malakadan iborat bo'lib, bu nimaga asoslanadi: "tanqid qilgani" tavsiyaga amal qilib, xato yoki nojo'ya maslahatlarni tanqidiy izohsiz, xatto qanday bo'lisdan qat'iy nazar unga o'z munosabatini bildirmay, shunchaki hisoblashidir.

Aqliy hujum nima beradi, ayni vaziyatda – bu usul qo'llanishdan olingan foydaning real natijasi qanday? U shundan iboratki talabalar, bu yoshdag'i bolalar bilan ishlash malakalari yetarli ancha mashhur pedagogik nazarialardan va psixologik o'sishda duch kelanidigan krizisdag'i o'smirlar bilan ishlash usullari bo'yicha maslahat va tavsiyalar berishdi. Bunday tavsiyalar orasida, fan va amaliyatda qo'llasa bo'ladijan, kerakli natijalarga olib keladigan fikrlar ham mavjud. Shu yo'l bilan keyingi faoliyat uchun foydali va asosiysi muloqot psixologiyasini o'rganishga taxminan shunday fikrlar yuzaga keladi. Usul va uslublarda ish ko'p, lekin o'smirlilik davridagi krizis muktabdag'i ta'lim-tarbiyani rad etishda davom etaveradi, zero hamma uslub va usullar muammoni hal etavermaydi.

Bunday manfiy xulosa talabalarini jiddiy psixologik taxlil qilishga undaydi va quyidagi savolga javob berishni talab kiladi. uchun: Nahotki muktabdag'i bu muammodan qutilishning iloji yo'q? Aqliy hujumdan so'ng seminar mashg'ulotida, maktabda tavsiya etiladigan va foydalaniladigan ko'pchilik usullar samarasizligini psixologik sabablari muhokamasi boshlandi. Shu yo'l bilan ayni vaziyatda aqliy hujum o'smirlar bilan ishlashning ko'plab usuli va yo'nalishlarini hisoblab chiqishga yordamlashdi va shu bilan birga talabalarini psixologik muammoni taxlil qilishga fikrashga tayyorlaydi. Bunday mezonlar hozirgi zamон psixologiyasida ko'plab uchraydi, demak aqliy hujum usuli bu kundalik ishimizda uchraydigan muammolarni yechishda talabalarini ijodiy yondashishlarida yordam beradi.

Davra stoli usuli pedagogikaga siyosatshunoslikdan kirib kelgan. "Davra stoli" siyosiy va ilmiy yo'nalish namoyondalari tomonidan tashkil qilinadi. Fikrlar almashinuvni qandaydir tegadigan nuqtalarini topishga imkon beradi, chunki ularning keyingi faoliyatida umumiy xulosani yo'naltirishga – ilmiy haqiqat yoki siyosiy turg'unlikka erishishga xizmat qiladi. Dumaloq stol usuli o'qitishning

nazariy muammolarni turli ilmiy aspektlar, turli kasb mutaxassisliklari yordamida muammoni ko'rib chiqishning samaradorligini oshirishda qo'llaniladi. Mana masalan, yuridik fakulteti talabalari uchun psixologiya bo'limida yurist shaxsi va faoliyatini o'rganayotgan talabalar uchun psixologiya o'qituvchisi "jinoiy xulq psixologiyasi" mavzusini bo'yicha seminar mashg'ulotini davra stoli usuli bo'yicha tekshirdi. Mashg'ulot davomida jinoiy xulq kafedrasidan yurist- o'qituvchi bilan bir xilda savollar berib fikrlami aniqlashtirdi, izoh berdi, misollar keltirdi. Psixologiya o'qituvchisi esa "davra stoli"da boshlovchi hisoblandi, yurist - o'qituvchi fikrlarga ketma-ketlik bilan qo'shimchalar qildi. Bu zarur edi, chunki huquqiy savollar ayniqsa insonlarning aniq huquqlari (jabrланувчи yoki jinoyatchi, sudya, guvoh va hokazo) psixologik bahoni insonlarning jinoiy xulqni bu tomoni butun mashg'ulot predmeti hisoblanadi, zero talaba yuristlarni jinoyatchilikni nafaqat huquqiy tomoni balki, psixologik tomoni ham qiziqtiradi. Bunday psixologik savollarni muhokamasi nafaqat yuridik fan vakili qatnashganligi uchun, balki jinoyatchilik borasidagi o'zlarining huquqiy bilimlarini psixologik tahlil uchun material sifatida qo'llash mumkin bo'lgani uchun ham faol o'tdi. Shu yo'l bilan mavzu ikki tomonдан ko'rib chiqildi – ya'ni xukukiylar va psixologik, shuning uchun mavzu chuqur o'zlashtirilidi. Bu imtihonda o'z isbotini topdi. Boshqa mavzulardan ko'ra, talabalar berilgan mavzudan misollar keltirishdi. Ayniqsa imtihon payitida biletda qanday savol qo'yilishidan qat'iy nazar davra stolida muhokama qilingan jinoyat xulq masalalari atroficha ochib berildi. Yurist shaxsi va faoliyati psixologiyasi yaxshi o'zlashtirilganini ko'rsatdi. Davra stoli usuli boshqa shaklda ham qo'llaniladi. Masalan, psixolog guruhi bilan o'quv-metodik konferensiyani davra stoli usulida o'tkazishi mumkin. Muhimi umumiy psixologik ham sotsiologik chuqur tahlil talab etiladigan, mutaxassislik doirasida qiziqishlari jihatidan har tomonlama ko'rib chiqiladigan (ayni vaziyatda psixologik) mavzu tanlash kerak. Boshqa oliv o'quv yurtidan psixologiya mutaxassisligi bo'yicha taklif qilingan o'qituvchi va talabalar guruhi bilan shunga o'xhash mashg'ulot o'tkazilgan. Masalan: Davra stoli amaliyotda xalqaro Oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan. Germaniyalik yoki Fransiyalik psixolog-talabalar bilan Rossiyalik psixolog talabalar o'rtaida ijtimoiy psixologik muammo millatlararo munosabatlari muammosi muhokama qilindi.

Davra stoli usulini psixologiyani o'qitishda turli-tuman shaklini amalga oshirish mumkin. Agar bu borada muhim shart ya'ni uni qat'iy kuzatib borish – bu anglangan zaruriyat ko'p qirrali nazariy muammolarni diqqat markazdan amaliy hayotdan gavdalantirib ko'rib chiqishni yoddan chiqarilmasa buldi. Agar bunday zaruriyat yo'q yoki bor bo'lsa, lekin har tomonlama anglanilgan bo'lsa, unda davra stoli odatiy, har kim o'zinikini gapiradigan seminarga aylanib qoladi va konkurensiya bo'la olmaydi.

**Ishbilarmon o'vinlar usuli:** dastlab o'qitish tizimlarida emas, balki boshqaruv amaliyotida paydo bo'lgan. Hozirda ishbilarmon o'yin usuli turli jabhalarda qo'llanilyapti, ijodiy faoliyatda loyiha tuzishda, real vaziyatlarda jamoaviy ishlab chiqishda, shuningdek xarbiy ishlarda qo'llanilyapti. Aytmoqchi "Ishbilarmon o'yin" usuli o'qitish usuli sifatida aynan harbiy o'yin hisoblanadi, amaliyotchilar qadimdan qo'shinni o'qitish uchun real jangu jadallarda emas, balki jang shartlariga taqlid qilib o'yin shaklida harbiy harakat olib borganlar.

O'yinlar asosan – bu qo'mondonni qo'shinni boshqarishga o'rgatadigan askarni esa jang sharoitlarda o'zini boshqarishga o'rgatadigan ishbilarmon o'yin usulidir.

Oliy o'quv yurtlarida turli kasb mutaxassislariga ishbilarmon o'yinlari ko'proq boshqaruv faoliyatida o'qitish uchun foydalaniadi. Ba'zan bu usulni boshqaruvda "ishbilarmon o'yinlari" deb ataladi. Umumiy ko'rinishda ishbilarmon o'yini usulining mohiyati – deb yozadi, bu boradagi mutaxassislardan biri Ye.A.Xurskiy – biz intonatsiya usuli (taqlid qilish, aks ettirish) turli vaziyatlarni o'yin yo'li bilan boshqarish deyish mumkin. Vaholanki, bunday aniqlik o'qituvchi uchun o'quv-metodik qo'llanmada berilgan, lekin gap ishbilarmon o'yin usulini real boshqaruv usuli sifatida emas, balki talabalarini boshqarishga o'rganish usuli sifatida ekanligi haqida ketyapti. Bizning nazarimizda ishbilarmon o'yin usulini nafaqat boshqaruvda qo'llash mumkin, shuningdek xulosa chiqarishni boshqarishda ham qo'llash mumkin. Umuman olganda bu usulning psixologik mohiyatini olsak (har qanday) faoliyatga o'rgatish sifatida har qanday o'qitishda qo'llash mumkin.

Ishbilarmon o'yin usulining mohiyati shundaki, o'quvchilarni o'qitish faoliyatini modellashtirish sifatida o'rganishdan iborat, chunki bo'lajak mutaxassislar kasbiy vazifalariga javob berishga o'rgatadi. Agar pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi o'qituvchilarni tayyorlash haqida gapiradigan bo'lsak, unda psixologiyani o'qitishda quyidagicha vaziyatlar asosiy rol o'ynashi mumkin. "Dars", "orqada qolganlar bilan ishslash", o'qishda orqada qolayotgan o'quvchi va xatolarni psixologik tabiatini psixologik sababini, masalan diqqatni yoki matematikadan yozma ishda dars natijalarini tahlil qilish sharti va boshqalar. Bunda talabalar turli rollar bilan chiqish qilishlari mumkin: o'qituvchi, metodist, ta'lim departamenti inspektori, amaliyotchi talaba va hatto o'quvchini (a'lochi, qoloq va h.) bunday ishbilarmon o'yinlar usuli oldindan rejalashtirilishi (ssenariy tuzish, rollarga bo'lish vaziyatni tanlash va h.) va amaliy mashg'ulotlarda o'tkazish mumkin.

Masalan darsda o'quvchilar diqqatining rivojlanishi mavzusidagi amaliy mashg'ulotda ishbilarmon o'yin usuli o'qituvchi tomenidan tashkil qilindi. Unda psixologiya o'qituvchilari va talabalarini ishtirokida muktabda darsni o'tish oldindan

berildi. Bu sinflar rus tilini yaxshi o'zlashtirmayotgan o'quvchilardan tuzilgan. S.V.Ivanov, A.N.Ianova tomonidan ishlab chiqilgan yangi rus orfografiyasi metodikasini tajriba qilish uchun tuzilgan tanlanma sinflari edi.

Keyin talabalar mana shu dars va sinfni kuzatishdan to'plagan materiallari asosida ishbilarmon o'yinlar usuli o'tkazildi, ayni eksperimental xarakterga ega o'qitish qo'yilgan edi. Ular darsga katta qiziqish bilan munosabatda bo'lishdi, demak ularning diqqati ham faolroq bo'lди.

Amaliyotchi talabalar o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini diqqat bilan kuzatadilar, yozib boradilar, ishbilarmon o'yin uchun keyinchalikka material to'playdilar. Ishbilarmon o'yinlar usulida ishtirot etishi uchun talabalarga rollar taqsimlanadi. Shunday qilib 3 ta talabaga o'qituvchi roli berildi (ular 2 soatli psixologiya darsidan amaliy mashg'ulot olib borishlari lozim edi). 7 ta talabaga esa ta'lim departamenti inspektor – metodisti roli berildi va 2 ta talabaga maktab mudiri va ilmiy xodim roli berildi. Shu orqali ish uyini tashkil qilinib o'rta ga tashlangan muammo hal qilinadi.

Ishbilarmon o'yin usuli amaliy mashg'ulotda qanday tashkil qilinadi? O'qituvchi otlarga suffikslarni qo'shish mavzusi bo'yicha dars olib bordi. Boshqalar esa dars metodikasi bo'yicha o'z fikrlarini bildirishdi. Ularning xulosalarida tanqidiylik mavjud edi (asosan ekspremental o'tkazuvchi o'qituvchini ijobiy tomonlarini ko'p qo'llanilganligi uchun) «mudir» va ilmiy xodim esa, o'z o'qituvchilarining xato va kamchiliklarini oqlashga urinishdi. Suhbat nafaqat metodik nuqtai nazardan muvaffaqiyatlari chiqdi, shuningdek, psixologik asoslangan tanqidlar ham ko'p bo'lди. Psixologik tahlil qilish nuqai nazaridan ham diqqatni rivojlantiruvchi ijobiy vaziyatlar namoyon bo'lди. Ishbilarmon o'yin usuli oxirida asosiy xulosaga kelinsa va u quyidagicha shakllangan edi. O'quvchilarning diqqati darsga va o'rgatilayotgan mavzuga nisbatan faol qaratilgan. O'quvchilar vazifani a'loga bajarganlarida va bundan ma'naviy qoniqish olganlaridagina qiziqish hosil bo'ladi.

O'qituvchining diqqati bu faoliyatni to'g'ri bajarishga qaratilgan ichki nazoratdir. Uni o'qituvchi vazifa bajarishga yo'naltirganda boshqariladi deb xulosa qilindi. Bu shuni anglatadiki, diqqatni o'stirish va tarbiyalash uchun o'quvchilarni iloji boricha to'g'ri faoliyat bajarishga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu nafaqat mashg'ulotlarni o'qitishga tegishli, shuningdek har qanday aqliy va amaliy faoliyatni o'rganish uchun ham kerak. Yo'naltirishga asoslangan faoliyat (P.Ya.Galpirin) ayni psixologik sharoitlarni yaratadi.

Ishbilarmon o'yin usuli ayni vaqtida boshqa usullarga ko'ra samaraliroq chiqdi. Chunki u talabalarni real vaziyatlarga qo'yib aniq shaxslarning rolini o'qituvchi, metodist, ilmiy mudir, direktor rollarini o'ynab aniq fikrlashga majbur

qiladi va bu vaziyat o'quvchilar diqqatini, tafakkurini yo'naltiradi, yaxshi o'zlashtirishiga imkoniyat yaratadi.

Talabalarni interfaol o'qitish usullaridan yana biri **trening** hisoblanadi. O'qitishning bu yangi usuli sifatida, birinchidan bizda u haqida ancha vaqtgacha bilishmagan, shunga qaramay g'arbda psixokorreksiya ishlarini bevosita amalga oshirish maqsadida kichik guruhlarda tuzilgan va maxsus munosabat tashkil etish usuli sifatida tarqalgan. Ikkinchidan u psixologiya yoki boshqa fanlarni yangi o'qitish usuli hisoblanmagan, hatto hozir ham shunday bo'lib ulgurgani yo'q. Zero, ba'zi oliv o'quv yurtlarida ijtimoiy psixologiyani o'qitishda trening amaliy mashg'ulotlarda hamkorlikdagi faoliyat jarayonlarini shakllantirish uchun qo'llana boshlaydi. Trening guruhlarda vujudga keladigan turli vaziyatlarni o'rgatuvchi hisoblanadi va shu ma'noda o'quvchilar uchun to'la real vaziyat sifatida namoyon bo'ladi va o'z faoliyati natijasiga javobgarlik bilan harakat qilishi kerak. Javobgarlik hissi faoliyatga kirishganda alohida ahamiyatga egadir. Nafaqat o'zi oldinga intilishi kerak, bu individual o'qitishda hatto gurujni o'qitishning erkin muhokamasida qo'l keladi, lekin guruhdagi sheriklar bilan oldinga intilishi har bir harakat yutug'i – bu butun guruh faoliyatining yutug'inining garovidir.

Bu aspekt treningning ishbilarmon o'yinlarga shunisi bilan o'xshaydiki, undan holi ishtirokchilar bir-biri bilan bog'liq javobgarlik kuchli, lekin o'qitish usullari orasidagi farq yaqqol ko'rindi, ulardan biri nazorat, ishini nazariyaga asoslanganligi, tamoyili bo'yicha amalda qo'llashga o'rgatishga xizmat qiladi, boshqa esa amaliyotda nazariyani o'rganishga (amaliyotda nazariya) xizmat qiladi.

Guruhiy trening usulining ijtimoiy psixologiya fanini o'qitishda qo'llash beziz emas, chunki butun tarkibi nazariy qonuniyatlar guruhlararo va guruh ichidagi munosabatlarga bag'ishlangan, ularni amaliy mashg'ulotning guruhiy shaklida ko'proq yaxshi tushunish va o'zlashtirish mushkul, chunki fanni nazariy ahvoli o'rganilgan boshqa usullarida (ma'ruza ilmiy adabiyotlarni o'qish) shakllangan oliv o'quv yurtlarida fanlarni an'anaviy akademik usulda o'qitish va talabalarda o'sha akademik bilimlarida psixologik texnologiyalarni amaliyotda qo'llanilishi zamon talablariga to'la javob bermaydi. Tarmoqli kasblar (o'qituvchi, rejessyor, trener va boshqalar) egalari bilan ishslashda qanday usullarda tashkil qilinadi.

Trening usuli bilan darslar kamdan-kam o'tkaziladi. Bunday bo'lishiga kuyidagi sabablar mavjud :

- birinchidan, bu o'quv amaliyotida yangi va to'la oqlamagan usuldir;
- ikkinchidan, bu usul bo'yicha mashg'ulotlarni tayyorlash qiyin jarayon va ko'p vaqt talab etadi;
- uchinchidan har doim o'qituvchiga ijtimoiy psixologiyaning qaysi muammolari guruhiy treningga olib kelish kerakligini tushunavermaydi;

Dastlabki ikkita sabab ko'rinishdan ahamiyatsizdek ko'rinsada uchinchisiga kelsak, amalda uni hozir ko'proq o'tkaziladigan trening mavzui va muammosi bilan nomlab bartaraf etish mumkin. Shunday akademik boshqarma yoki yuqori malakali instittlarda talabalar auditoriyasida jamoa mavzusi bo'yicha o'quvchi yoki talabalar jamoasining shiorlari "Tanishuv", "O'zaro tushunish", "Yaxshi kayfiyat mimikasi-xissiy yaqinlik", "Nizolarsiz muloqot", "Nizoni nima qilish kerak", "Vaqtincha to'xtatish, davom etishga quyib berish orqaga surish", "Men va jamoa" va h.k. treninglar tafakkur taraqqiyoti (nutq va uning namoyon bo'lishi) jarayoni guruhdagi individlar hamkorligi va boshqalar bo'yicha intellektual treninglar o'tkaziladi.

Guruhiy trening usuli bilan o'tkaziladigan darslar o'qituvchida boshqa dars shakllari ishbilarmon o'yinlar, davra stoli yoki bahs kabi katta tayyorgarlikni talab etadi. Tayyorgarlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

A) treningning rejasid ustida ishslash;

B) talabalar bilan muammoning yechimini qidirishda faol ishtirokini ta'minlash (odatda bu o'tilayotgan mavzudagi savollarni oldindan berib quyish bilan bog'liq) bo'yicha ishslash;

V) o'qituvchining o'z ustida ishlashi, u o'zining treningda qanday tutishini o'ylab topadi; savollarni qanday quyish va muhokamalarga qanday munosabat bildirishi bahsli vaziyatni drammalashtirish yoki tomonlarning bir-biri bilan kelishishi guruh ishtirokchilarida javob variantlarini talab etishi yoki o'zi aytishi noto'g'ri yechimga guruh qanday munosabatda qachon va qanday umumiy xulosa chiqarish kerak. Trening davomida talabalar faolligi qanday baholanadi va hokazolar;

G) ishtirokchilar orasida rollarni taqsimlash, lekin rollar hammaga yetishmasligi mumkin. Shunda ko'pchilikka tanqidchi va kuzatuvchi rollari beriladi va treningda eng faol ishtirokchini ta'minlash.

Trening davomida bajariladigan rollarning boshqa ishtirokchilariga taqdim etishi mumkin. Rollar turlicha bo'lishi mumkin. Ular mavzudan kelib chiqadi. Masalan, "Jamoa" mavzusi bo'yicha treningda "Nizosiz muloqot yoki nizoni bartaraf qilish" bo'limlarida shunday rollar bo'lishi mumkin. "O'qituvchi", "tashkilotchi", "fikrlar generatori", "usta" (rollar imkon qadar nizoli) "adolat tarafdori", "kuldiruvchi", "tanqidchi", "qo'zg'aluvchi" "an'analar saqlovchisi", "uchinchisi", "ayyor", "mug'ombir" (o'rtacha nizoli) va yaratuvchi, ishtirokchi, dangasa, yaxshi yigit, nozik qiz, administrator (kam nizoli) va h.k.

Ijtimoiy psixologik trening bu oddiy so'z bilan aytganda mashq qandaydir malakalarni egallash emas, balki faol ijtimoiy psixologik shaxsni muloqotda faolligi va yo'nalganligiga qaratilgan va guruhlarda ijtimoiy psixologik ob'ekti sifatida shakllanganligi darajasiga ko'tarilishiga qaratilgan o'qitish usulidir.

O'qitish usuli sifatida guruhiy treningning ahamiyati o'quvchilarni bunday hamkorlikdagi faoliyatni qaysiki oddiy talabalar o'quv guruhini ijtimoiy psixologik ko'rinishga ega modeliga aylantiruvchi muhimi hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiy treningni nazariyada shakllangan ijtimoiy amaliy psixologiyani o'qitishda yordam beruvchi deb hisoblash mumkin. Agar ishbilarmon usul - nazariyadan kelib chiqqan amaliy faoliyatga o'rgatsa, trening esa, amaliy vaziyatlardan kelib chiqib - nazariyani o'rgatishiga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

Faol o'qitish usullari haqida fikrimizni yakunlar ekanmiz o'qituvchilarga shuni eslatishimiz kerakki, bu yerda ko'rib chiqqan o'qitish usullari o'ziga xos alohida misollarga ega. Shuningdek mazkur usullardan dars jarayonida foydalanish o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarni ongli ravishda va samarali o'zlashtirish imkonini beradi.

#### **Nazorat savollari:**

---

1. Interfaol ta'lif metodlari haqida tushuncha bering.
2. Interfaol ta'lif texnologiyalari.
3. Psixologiya fanlarini o'qitishda interfaol usullar.

## **6-MAVZU: MAXSUS (PSIXOLOGIYA) FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM VOSITALARI**

### **Reja:**

1. O'qitishda didaktik vositalardan foydalanish.
2. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.
3. Multimediya vositalari asosida interfaol ma'ruzalar o'qish.
4. Ko'rgazmali qo'llanma va o'qitishning texnik vositalarini qo'llash.

### **O'qitishda didaktik vositalardan foydalanish**

O'qitishning ko'rsatma liliqiga sabab insonning fikrlash xususiyatidir. Bu xususiyat asosan aniqdan abstraktga tomon rivojlanadi. Tushunchalar va obstrakt qonun-qoidalarni aniq kuzatishlar natijalariga asoslansa hamda ular bilan mustahkamansa, ancha oson va tez shakllanadi. Kishilarda tafakkuring rivojlanishi ularning yoshiga, xayot va ish tajribasiga va boshqalarga bog'liq. Ammo bizning tafakkurimiz rivojlanishning qaysi bosqichida bulmasin hamda biz qanchalik murakkab masalalarni urganmaylik, aniq faktlar va timsollardan ajralib qolmasligimiz kerak.

Ko'rsatmalilik prinsipi o'qituvchining xil o'quv qo'llanmalari va o'qitishning audiovizual (eshitish, kurish) texnika vositalaridan foydalanishda ularning pedagogika jihatidan ma'qul tarzda yasalishida aks etadi.

Ko'rsatma qo'llanmalar – o'quvchilarni urganiladigan ob'ektlar, hodisalar, jarayonlar to'g'risida yaqqol tasavvurlar hosil qilish metodida o'qitish maqsadida ishlataladigan vositalar. Uzlashtiriladigan bilimlar xarakteriga, o'quvchilarda mavjud bo'lgan tasavvur, tushuncha, xayot va ish tajribasiga, darsning aniq vazifalariga qarab ko'rsatma qo'llanmalar o'qitishda har xil rolni bajaradi. Ular bilimlar manbai sifatida, shuningdek o'qituvchi so'zlab berish, tushuntirish, suxbat vaqtida foydalanadigan rasm sifatida xizmat qilish mumkin. Ko'pincha, bu ikkala vazifa kompleks tarzda kelishi mumkin.

Ob'ekt, xodisa va jarayonlarni kuzatib o'rganish pedagogika nuktai nazaridan ideal hisoblanadi. Ammo o'rganilishi kerak bo'lganlarning ba'zilaridangina darsda foydalanish mumkin va ma'qul. Shu sababli, o'quv jarayonida tasviriy ko'rsatma qo'llanmalardan keng foydalaniadi. Ulardan quyidagi hollarda foydalaniadi:

o'rganiladigan ob'ektning asli juda katta yoki juda kichik bo'lganda;

o'rganiladigan ob'ekt yoki xodisalarning aslini bevosita kuzatish mumkin bo'lmaganda;

tushunchani grafik tarzda tasvirlash talab etilganda;

murakkab ob'ektlarni oddiylashtirish yoki ishlash jarayonini ko'rsatish zarur bo'lganda.

O'quvchilarga yangi materialni bayon etishda ko'rsatma qo'llanmalardan to'g'ri va uz vaqtida foydalanish katta ahamiyatga ega. Pedagogika fani va ilgor tajriba darsda ko'rsatma qo'llanmalar namoyish qilishga oid metodik talablar ishlab chikdi, bu talablarga rioya qilish ularning didaktik qimmatini oshiradi.

Avvalo shuni esda tutish zarurki, ko'rsatma qo'llanmani namoyish qilish – maqsad bo'lmay, balki vositadir. Qo'llanmani kursatish emas, balki u bilan ishlash kerak.

O'rganilayotgan materialning mazmuni va darsga ajratilgan vaqt taqozo etgan xollardagina ko'rsatma qo'llanmani namoyish qilish tavsiya etiladi. Darsda namoyish qilinadigan qo'llanmalar soni o'quvchilar va o'quv materialini sifatli uzlashtirishi uchun optimal bo'lishi lozim; darsda qo'llanmalardan haddan tashqari ko'p foydalanish yaramaydi.

Namoyish qilinayotganlarini idrok etish jarayonida o'quvchilar sezgi organlarining ko'rish, eshitish, sezish, zarur hollarda esa tam bilish va xid bilish organlarining ko'pini jalb etish kerak. O'qituvchi so'zi bilan ko'rsatmalilikning to'g'ri qo'shib olib borilishi katta ahamiyatga ega. Ko'rsatma qo'llanmalarni idrok etishning asosi birinchi signal sistemadir, ammo ikkinchi signal sistema uning signallariga tartibga soluvchi ta'sir etadi. Har qanday ko'rsatma qo'llanmalar namoyish qilinganda hamma vaqt izoh berib turiladi. Ana shu izoh o'quvchining e'tiborini qo'llanmadagi asosiy va muhim tomonlarga qaratishga, kuzatilayotgan ob'ekt yoki xodisalardan ularning mohiyatini tashkil etuvchilarni ajratib olishga yordam beradi.

O'qitishning texnika vositalari deganda, o'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarni uzlashtirishini osonlashtirish va uning samaradorligini oshirish hamda o'qituvchining o'quvchilarga bilim, o'quv va malakalar berish, ularni mustahkamlash hamda tekshirib ko'rish borasidagi mehnatni yengillashtirish uchun foydalilaniladigan mexanikaviy qurilmalar jamlammasi tushuniladi.

O'qitishning texnika vositalari jumlasiga axborot berishda foydalilaniladigan texnika (kinoproektor va diaproektorlar, epidiaskop, filmoskop, magnitofon hamda televizion kurilmalar va shu kabilar)gina emas, balki tegishli texnika bilan birga foydalilaniladigan uziga xos axborot eltuvchilarning uzi (kinofilmlar, diafilmlar, diapozitivlar, dasturlashtirilgan topshiriqlar tushirilgan teshik-teshik kartalar to'plami va shu kabilar) ham kiradi.

O'qitishning texnika vositalarining imkoniyatlari, metodlari va ishlatilishi usullari sinchiklab urganilgandagina o'quv jarayonida ulardan samarali foydalanish mumkin bo'ladi. Har bir o'qituvchi bu vositalardan foydalanishni bilishi, bu sohada tegishli bilim, o'quv va malakalarga ega bo'lishi kerak. Bilim yurtida

o'qitishning texnika vositalaridan pedagogika jihatidan to'g'ri foydalanish uchun tegishli sharoit yaratilishi zarur.

Ba'zi chet el pedagoglari o'quv jarayonida o'qitishning texnika vositalaridan keng ko'larda foydalanish o'qituvchining mashina va uni boshqaruvchi muhandis bilan almashtirilishiga olib boradi, deb hisoblaydilar. Bunda o'qituvchi tashkilotchi rolini bajaradi, o'qitish vazifasi esa texnika vositalariga yuklanadi. Ammo o'qitish jarayonida faqat bilim berilibgina qolmay, o'qituvchi shaxsining murakkab ta'siri amalga oshiriladi hamki, buning natijasida o'qituvchining dunyoqarashi, xulq – atvor normalari shakllanadi, shaxsning kamol topishi sodir bo'ladi. Bunga esa o'qituvchining ishtirokisiz erishib bulmaydi: uning axloqiy prinsiplari chuqur bilimlar hamda keng saviya bilan birgalikda har gal takrorlanmaydigan intelektual aloqaning shunday sharoitini yaratadiki, bunday sharoitsiz oqibat natijada o'qitish va tarbiyalashda muvaffaqiyat qozonish mumkin bo'lmaydi.

Darslarda yangi materialni bayon etishda o'qituvchi guyo eshittirib fikrlaydi, bunda u o'quvchilarga bilim beribgina kolmasdan, ularga mantikan fikrlash, fan muammolarini hal qilishga ijodiy yondoshish o'quvlarini singdiradi. O'qituvchi o'quvchilar uchun bilimlar manbai va o'quv jarayonini rahbarigina emas, balki taqlid qilish uchun namuna hamdir. O'qituvchini o'qitishning texnika vositalari bilan almashtirish o'quv jarayonida juda muhim narsani – o'quvchiga pedagog shaxsning ta'sirini chiqarib tashlaydi, bu esa o'quv jarayonini juda kambag'allashtirib yuboradi. Barcha texnika vositalarining, shu jumladan, o'qitish mashinalarining ham imkoniyatlari cheklangan – ular faqat o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini oshiradigan quroldir.

Kasb – hunar maktablarida yuqori malakali usta va o'qituvchilar, boy texnikaviy imkoniyatlar, o'quvchilarning texnikaviy ijodiyoti keng rivojlanganligi tufayli o'quv xonalarini o'qitishning texnika vositalari bilan jihozlashga, bu vositalarni bilim yurtlarida tayyorlashga, sanoatda ishlab chiqarilgan texnika vositalarini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Xonalarni o'qitishning texnika vositalari bilan jihozlash ishida quyidagi asosiy texnikaviy-pedagogik talablarga amal qilish kerak:

1. O'quv kabinetlarini o'qitishning texnika vositalari bilan jixozlashda o'quv jarayonida ulardan kompleks tarzda foydalanishini hisobga olishi zarur.
2. O'quv xonasining istagan joyida ko'rish va eshitish uchun yaxshi sharoit ta'minlash lozim.
3. O'quv xonalarida uqtitshning texnika vositalari ishlataliganda shovqin manbalarini yuqotish kerak.
4. Barcha texnikaviy qurilmalar puxta va buzilmay ishlashi darkor.
5. Texnika vositalarining tuzilishi va ishlatalishi oddiy bo'lishi kerak.

6. O'qitishning barcha universal va maxsus texnika vositalaridan birgalikda oqilona foydalanish lozim.

7. Ishlatilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lishi zarur.

O'quv kinosi – o'qitishning eng ko'p tarqalgan texnika vositasi bo'lib, ob'ekt hamda xodisalarni harakatda va rivojlanishda namoyish qilishga, materialni tekshirish va umumlashtirishga, shuningdek, aniq idrok etishdan abstrakt idrok etishga o'tishga imkon beradi. O'quv filmidan o'qituvchi o'quv materialini bayon etishida illyustratsiya sifatida, shuningdek, o'quvchilar uni mustaqil o'rganishi uchun foydalanishi mumkin.

Film bilan ishlashning so'nggi bosqichida o'quvchilar savollar berishiga imkoniyat yaratish kerak. Javob qaytarishga film materialni yaxshi bilib olgan o'quvchilarni jalb etish lozim.

Diafilm va diapositivlar, o'quv kinosi kabi, ko'rsatmalilik vositasi hamda o'quvchilar bilimlarining dastlabki manbai bo'lishi mumkin. Ko'pincha diafilmidan ko'rsatmalilik vositasi sifatida foydalilanadi, bu holda yassi ko'rsatma qo'llanmalarga qanday talablar qo'yilsa, diafilmlarga ham shunday talablar qo'yiladi. Diafilm va diapositivlarga qo'yiladigan o'ziga xos talablardan quyidagilarni ko'rsatib o'tish kerakki, kasb-hunar mакtablarida ularni tayyorlashda bu talablarni hisobga olish zarur.:

diafilm va diapositivlarning mazmuni, avvalo, tasvirlash yo'l bilan berilishi kerak;

subtitrlar (bayonlar, tushuntirish yozuvlari) o'quvchilar ko'zini charchatmasligi lozim;

rangli diafilmlardan rang didaktik masalalarni hal qilishga yordam bera olgan taqdirdagina foydalanish darkor; qora oq tasvirdagi diapositivlar seriyalarini komplektlashda ularga rangli diapositivlar kiritgan ma'ul.

### **Ta'lilda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish**

Hozirgi kunda ta'lif maqsadlariga erishish uchun taraqqiy etgan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni hamda xalqimizning boy milliy ta'lif manbalaridan foydalanib Uzbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lif-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga boradi. Hozirgi kunda ta'lif-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanib, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayonda ham yangilanish ro'y bermoqda, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari kirib kelmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantiradi.

O'quv jarayoniga zamonaviy texnik vositalarni qo'llash tarafdonlari o'qitish sifatini yaxshilash, aynan ana shu vositalarga bog'liq deb hisoblaydilar. Tegishli uslubiy tavsiyalar ham ta'lif jarayonida texnik muhitni yaratishga, ya'ni texnologiya tushunchasini o'qitish jarayoniga qo'llash masalalariga qaratildi. Dastlab "kompyuterli texnologiya" va "yangi axborot texnologiyasi" kabi tushunchalar vujudga keldi. Bular pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun zamonaviy texnik vosita sifatida (texnik vositalar, multimediyalar, elektron kutubxonalar, telekonferensiylar, internetdan foydalanish, elektron o'quv kurslari va masofaviy ta'lif) qo'llanila boshlandi.

Multimedia – zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida matn, tasvir, grafika, animatsiya, jadval, audio, video effektlarini o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazib berish texnologiyasidir.

Bunday texnologiya boshqa axborot texnologiyalaridan quyidagi afzallikkilari bilan ajralib turadi:

1. axborotning xilma-xil turlarini, ya'ni an'anaviy turlaridan (matn, chizma, jadvallar va x.k) tortib, to original turlarigacha (nutq, musiqa, videofilmlar, televizon kadrlar, animatsiyali suratlar va x.k) bitta dasturiy mahsulotda mujassamlashtirish mumkin;

2. bunday axborotlarni foydalanuvchilarga yetkazib berishda turli zamonaviy elektron qurilmardan (mikrofon, audio va videotizimlar, kompakt disklar, televideniya, videomagniton, videokamera, videoproektor, elektron musiqa asboblari va x.k) keng foydalaniladi;

3. bunday axborotlarni kompyuterda tahrir qilish va qayta ishlash imkonini beradi;

4. "odam-kompyuter" muloqoti yangi darajada, ya'ni yanada ko'rgazmaliroq va qulayroq ko'rinishda olib boriladi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzallikkilarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

- ta'lif olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyogi yanada ortadi;

- ta'lif olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtini tejash imkoniyatiga erishiladi;

- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyatda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

- foydalanuvchiga ta'lifni istalgan paytda (masalan, bo'sh vaqtlarida) olish imkonini beradi.

Ta'limning ko'pgina muammolarini yechishdagi tezkor usullardan eng qulayi va har tomonlama zaruriy ma'lumotlarni qisqa vaqtda toplash, taqqoslash, sintez qilish va ularning eng muhimlarini ajratib olishga imkon beruvchilari elektron kutubxonalar, telekonferensiylar va internetdan foydalanish hisoblanadi.

Internet hozirgi kunda axborot texnologiyalari tizimining ajralmas qismi bo'lib, undagi asosiy bo'g'in bu o'zaro bir-biri bilan bog'langan kompyuterlardir. Kompyuterlar aloqa vositalaridan farqli o'laroq, foydalanuvchiga ma'lumotni ko'rish, o'qish va eshitish asosida ma'lumotdan unumli foydalanishga imkon yaratadi. Bundan tashqari unda ma'lumotni uzatish, qabul qilish tezligi o'ta yuqoridir.

Ko'plab yosh mutaxassislarining bilim va malakalarini iloji boricha tez va so'z oshirishga imkon beruvchi pedagogik usullardan biri masofadan o'qitishni yo'nga qo'yish ham bu kundagi dolzarb muammolardan hisoblanadi, chunki ko'plab mamlakatlarda o'qitishning turli xil usullaridan va barcha hozirgi zamon telekommunikatsiyaviy texnologiyalardan foydalanib masofadan o'qitish amalga oshiriladi. Bu esa juda ko'plab talabalar va talabgorlarni bir vaqtda eng so'nggi va dolzarb muammolar bilan qurollantirishga imkon beradi. Bu ularni ta'limning muhim qismlaridan bo'lgan mustaqil ishlashga o'rgatishni ta'minlashga olib boruvchi usuldan iborat.

Masofaviy ta'lim - bu o'qituvchi va o'quvchi bir-biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgani sababli, informatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan ta'lim turidir.

Bu ta'lim turini paydo bo'lishiga asosiy sabab informatsion va kommunikativ texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va ular asosida prinsipial yangi ta'lim texnologiyalar (internet texnologiyalar) yaratilishidir. Internet texnologiyalardan foydalanish bizga o'quv materiallarni cheksiz va juda arzon tarqatish va ko'paytirish, hamda uni o'quvchilarga tezkor va aniq yetkazish imkoniyatlarini yaratib berdi. Shu bilan birga ta'lim interaktiv bo'lganligi sababli, o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashining o'mi juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

### **Multimedia vositalari asosida interfaol ma'ruzalar o'qish**

Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarini, jumladan, ta'limni ham qamrab oldi. Shunga ko'ra kompyuter ta'limning qudratli vositasiga aylanib qoldi. Bu o'qituvchining ba'zi funksiyalarini o'ziga olgan kompyuter, pedagogni o'qitish jarayonidan siqib chiqaradi degani emas. Aksincha, ta'limda inson va kompyuterning hamkorligi o'qitish jarayonini yanada samaraliroq qiladi.

Bu hamkorlik o'qitishning multimedia vositalaridan foydalanib interfaol ma'ruzalar o'qishda o'zini yanada yaqqol namoyon qildi.

Oliy va o'rta, maxsus o'quv yurtlaridagi an'anaviy dars- ma'ruzalarga nisbatan, kompyuter-o'qituvchi mavzuni bayon qiladi, o'quvchilar esa o'quv materialni eshitadi, ko'radi, yodda saqlab qoladi, yoki qisqacha yozib borishadi. Bunday metodika asosida olib borilgan ma'ruzaning eng muhim jihatni uning interfaolligidir. Interfaollik talabalarning o'qitish jarayoniga bevosita aralashishlariga: savollar berish, o'qituvchi bayon qilayotgan o'quv materialining tushunarsiz joylariga oydinliklar kiritishga imkon beradi.

Multimedia vositalari deyilganda insonga axborotni bir vaqtning o'zida bir nechta organlari bilan qabul qilish imkonini beradigan apparat va dasturiy vositalar to'plami tushuniladi. Bunda axborot inson uchun odatiy bo'lgan audioaxborot (ovozli), videoaxborot, animatsiya (multiplikatsiya, jonlantirish) shakllarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining axborotni videoaxborot va animatsiyalar bilan izohlab borishi talabalarning o'quv materialiga nisbatan diqqatlarini faollashtiradi va yangi mavzuga qiziqishlarini orttiradi. O'qitish qiziqarli, ko'tarinki ruhda bo'lib, talabalarga estetik zavq bag'ishlaydi va pedagog tomonidan bayon qilingan axborotning sisatini oshiradi. Pedagogning o'quv jarayonidagi o'rni sezilarli darajada o'zgaradi, u talabalarning diqqatini o'quv materialining murakkabroq qismalarini muhokama qilishga qaratib, ma'ruza vaqtidan unumli foydalanadi.

Interfaol ma'ruza pedagog va kompyuter rahbarligida an'anaviy o'qitish usullarining afzalliklarini o'zida mujassamlashtiradi. Kompyuter o'qituvchining faol yordamchisiga aylanadi. O'qituvchi ma'ruzaga oldinroq tayyorgarlik ko'rib, kompyuterdagи amaliy dasturlar yordamida zarur miqdordagi slaydlarni, ovoz va animatsiya elementlari bo'lgan videoaxborotni ishlab chiqadi. Tabiiyki, bu pedagog malakasiga talablarni oshiradi. U kompyuter texnikasini yetarli darajada bilishi va dasturiy ta'minotlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim bo'ladi.

Interfaol ma'ruza o'qish shartlaridan biri kompyuter texnikasi, vizual va ovozli o'quv materiallарini namoyish qilish vositalari bilan jihozlangan maxsus auditoriyalar bo'lishidir.

Kompyuter texnologiyalari o'qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, uni axborot berishdan o'quvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birlgilikda tadqiqot qilish, o'qitishning yangi shakllariga, bir so'z bilan aytganda ko'proq ijodiy ishga o'tishga imkon beradi.

Kompyuter bizni quyidagilar bilan ta'minlaydi:

- interfaollik;
- multimedia;

- modeling;
- kommunikativlik;
- unumdorlik.

Interfaol so'zi inglizchadan tarjima qilinganda o'zaro muloqot, aloqa degan ma'noni bildiradi. Ta'lif jarayonida interfaollikning roli beqiyos, ayniqsa, bu sohada kompyuter bizga cheksiz imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Oddiy foydalanuvchi hozircha virtual trenajer, stereoshlem va datchikli qo'lqoplarsiz faqatgina «sichqoncha», klaviatura va (kam hollarda) mikrofondan foydalanayapti. Bu vositalar o'rganuvchiga kompyuter taqdim qiladigan audiovizual axborotlarga javob qaytarishi uchun yetarlidir.

Miqdoriy ustunlik informatsion zichlik bo'yicha multimedia muhitning ancha yuqori turishi bilan ifodalanadi. Haqiqatdan ham, bizga ma'lumki, bir bet matn 2 Kbait axborotni o'z ichiga oladi. O'qituvchi bu matnni taxminan 1-2 daqiqa ichida aytib berishi mumkin. Xuddi shu daqiqada to'liq ekranli video 1,2 Gbayt axborotni yetkazib beradi. Mana nima uchun ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi. Agar bu oddiy arifnetikaga yana psixofiziologik omillar qo'shilsa, ana unda biz haqiqiy bahoga ega bo'lamiz.

Ma'lumki, ("Evrolingvist" instituti tadqiqotlari, Gollandiya) ko'pchilik insonlar eshitganlarining 5% ini, ko'rganlarining 20% ini eslab qoladilar. Bir vaqtda audio- va videoaxborotdan foydalanish yodda saqlab kolishni 40-50% ga oshiradi.

**Kommunikativlik** – bu bevosita (on line, deyarli real time) muloqot qilish, axborotni tezkor taqdim etish, jarayon holatini nazorat qilish imkoniyatidir.

Shunday qilib, o'quv jarayonida bir vaqtning o'zida pedagog va kompyutering ishtiroki ta'lif sifatini ancha oshiradi. Taklif qilingan metodikadan foydalanish dars berish jarayonini faollashtiradi, talabalarning o'qitilayotgan fanga qiziqishlarini orttiradi va o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga imkon beradi. Kompyuter va pedagog hamkorligi bir tomonidan turli toifadagi talabalarga o'quv materialini yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi. Boshqa tomonidan u o'qituvchi malakasi va tayyorgarlik darajasiga ancha yuqori talablar qo'yadi. Endi u nafaqat an'anaviy o'qitish usullarini egallashi, balki o'rganuvchilarning xususiyatiga qarab, fan va texnika yutuqlaridan foydalanib ularni modernizatsiya qila olishi lozim bo'ladi.

### **Ko'rgazmali qo'llanma va o'qitishning texnik vositalarini qo'llash**

O'qitishning ko'rgazmalilik prinsipi didaktikaning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. Ko'rgazmalilik tasavvur doirasini boyitadi, ta'lif olishni osonlashtiradi va tushunarli qiladi, hamda o'quv ma'lumotlarini chuqur, puxta o'zlashtirishga yordam beradi.

Bilim olish manbalari bo'yicha o'qitish metodlari og'izaki, namoyish va amaliy turlarga bo'linadi. Namoyish metodiga har xil eksponatlar, rasmlar, tabiiy obektlar, dioximlar, kinofilmlar, videofilmlarni namoyish hamda obraz, qiyofa, tasavvur tushunchalarini shakllantiruvchi og'zaki ko'rgazmalilik asosiy informatsiya manbai hisoblanadi.

Hamma xotira turlari ichida ko'rish xotirasi odamlarda ko'proq rivojlangan bo'ladi. Ammo eng samarali ko'rish-yeshitish xotirasidir. YuNESKOning axborotiga ko'ra odam eshitish orqali so'z informatsiyasini 15 % ni, ko'z orqali ko'rganlarini 25 % ni, ham ko'rish ham eshitish orqali qabul qilingan informatsiyaning 65 % ni xotirada saqlab qolar ekan.

Ko'rgazmalilik o'qitish vositalari va o'qitishning texnik vositalari orqali amalga oshiriladi. O'qitish vositalari turlicha bo'lib, ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- hajmli tabiiy obektlar: tog' jinslari, o'simliklar, mashinalar, mashina qismi, detallar, materiallar;

- obektlarning tasviri. Ma'lumki, hamma tabiiy obektlarni auditoriyada namoyish qilib bo'lmaydi. Masalan, samolyot, teplovoz, katta hajmdagi dastgohlar. Shu sababli o'qitish jarayonida ularning maketlari, modellari, rasmlari namoyish qilinadi. Texnologik jarayonlar, inshootlar, mashinalarning tuzilishi va ishlashini diafilmlar, kinofilmlar, videofilmlar orqali tushuntiriladi.

O'qitish vositalari deganda o'quv jarayonining xilma-xil materiallarini va qurollarini tushunish lozim bo'lib, ulardan foydalanish tufayli o'qitishning qo'yilgan maqsadlariga ancha muvaffaqiyatlari va oqilona qisqa vaqtda erishiladi, vositalarning bosh didaktik vazifasi – o'quv materialining o'zlashtirilishini tezlashtirish, ya'ni o'quv jarayonini yanada samarali tavsiflarga yaqinlashtirishdir.

"O'qitish vositasi" tushunchasi boshqa komponentlar qatori o'qitish jarayoni komponentlaridan birini belgilash uchun didaktikada foydalilanadi. Shuning uchun o'qitish vositalari didaktik tizimning barcha komponentlari bilan o'zaro bog'langandir.

O'qitish vositalari moddiy va ideal obektlarga bo'linib, ular ta'lim jarayonida axborotlarni beruvchi, yetkazuvchi, uzatuvchi sifatida qo'llaniladi va o'quvchi hamda o'qituvchining (pedagogning) faoliyat quroli sifatida foydalilanadi.

O'qitish vositalari xilma-xil bo'lib, uning asosiga qo'yilgan belgilari qarab quyidagicha tasniflanishi mumkin;

Obektlar tarkibi bo'yicha moddiy (xona, jihozlar, mebel, kompyuterlar, dars jadvali hamda ideal (bekami - ko'st) -sonli modellar, xayoliy tajribalar, obrazli ko'rinish, olam modeli va boshqalar);

Manba ko'rinishi bo'yicha - sun'iy (priborlar, rasmlar, darsliklar) va tabiiy


(natural obektlar, preparatlar, gerbariyalar);

Murakkabligi bo'yicha - oddiy (namunalar, modellar, haritalar) va murakkab (videomagnitafonlar, kompyuterlar seti);

Foydalanishi bo'yicha dinamikli (video) va statistik (kodopozitivlar);

Tuzilish xususiyatiga qarab - tekis (kartalar), xajmli, (maketlar), aralash (er modeli), virtualli (multimediya dasturlari);

Tasir etishi harakteriga qarab - vizual (ko'rinishli) diagrammalar, demonstratsiya priborlari, audioalbum, magnitafoilari, radio) ovozli ko'rinishli (televizorlar, videofilmlar).



### Nazorat savollari

- 1.O'qitishda didaktik vositalardan foydalanish.
- 2.Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.
- 3.Multimediya vositalari asosida interfaol ma'ruzalar o'qish.
- 4.Ko'rgazmali qo'llanma va o'qitishning texnik vositalarini qo'llash.

## **7-MAVZU: MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA DARSLARNI TAHLIL QILISH METODIKASI**

1. Darsni tahlil qilish xususiyatlari va ahamiyati.
2. Dars tahlili turlari.
3. Maxsus fanlarni o'qitishda o'zaro darslar, ochiq darslar, ko'rgazmali darslar va mahorat darslari.

### **Darsni tahlil qilish xususiyatlari va ahamiyati**

Bugungi jadal rivojlanish davri va sog'lom raqobat sharoitida ta'llim mazmuniga qo'yiladigan talablar yanada kuchaydi. O'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi aksariyat ta'llim oluvchilarining o'qishga nisbatan qiziqish va ehtiyojlari sezilarli darajada susaygan. Buning sabablardidan biri dars mobaynida o'qituvchi bilan o'quvchi o'tasida maqsadga muvofiq muloqotning tashkil etilmayotganidadir. Shuningdek, hamkorlik pedagogikasi va ta'llim sohasidagi psixologlar xizmati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidadir. Umuman olganda, pedagog o'zining kuchli va zaif tomonlarini har doim anglashi, tahlil qilib borishi kerak. Ayrim pedagoglar o'zlarining zaif tomonlarini, ayniqsa, bilimiining kuchsizligini sezdirmaslik uchun ta'llim oluvchiga ortiqcha talablar qo'yib, noto'g'ri muloqot usullarini qo'llaydilar. O'qituvchining bo'sh tomonini ta'llim oluvchilar tez anglab yetadi, bunday ruhiy kayfiyatni esa ba'zan o'qituvchi sezmaydi.

Hozirgi kunda pedagogik fanlarda ta'llimning tarbiyaviy ahamiyatini olib berish muammosi turibdi. Ta'llimning bugungi sharoitida o'qituvchi va ta'llim oluvchining tashqi qiyofasi ham ba'zan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Lekin bularning ichida eng muhimi va ta'llim oluvchi uchun eng ahamiyatlisi – o'qituvchining kasbiy bilimdonligi, yangilik va dunyoviy bilimlarga chanqoqligi hamda uning so'zi bilan ishining muvofiq kelishi, o'quvchilarni izlanishga, bilimlarni mustaqil egallashga, har bir fanning mohiyatini tushunishga, ijodiy yondoshishga undashi, erkin fikrashi va mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratishi, pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullarni to'g'ri tanlab ishlata olishi bilan belgilanadi.

Ko'p yillik ish tajribasi va kuzatishlar shuni taqozo etadiki, o'qituvchi muntazam o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirib borishi kerak. Pedagogik mahoratini oshirib borishi, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olishi uning faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. O'qituvchining pedagogik faoliyati, uning mahorati hamda mashg'ulot samararadorligi uning darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali aniqlanadi. **Dars tahlili** – o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va uni yuqori darajaga

ko'tarishga qaratilgan faoliyatbo'lib, u faqat o'qituvchi mehnati natijasini baholabgina qolmay, uning bilimi va mahoratini kengaytiradi, yangi ish shakli hamda usullarini egallahsga yordam beradi.

O'qituvchi faoliyati va uning darslarini kuzatish, tahlil etishni ko'pincha o'quv yurti rahbariyati yoki o'qituvchi-metodistlar amalga oshiradilar. Odadta o'qituvchining darsiga kirish lozim deb topilsa, o'qituvchilik kasbi odobiga ko'ra, qachon qaysi darsga kimlar kirishi xaqida (ayniqsa tashqaridan kelgan shaxslarni darsga kiritishdan oldin) ogohlantirilishi lozim. Bunday holda ba'zi bir anglashilmovchiliklar va psixologik to'siqlarning oldi olingen bo'ladi.

O'qituvchi darsiga kirish va tahlil qilishni maqsad qilib qo'ygan shaxs, avvalombor, dars tahliliga kirdungacha tayyorgarligini, dars tahliliga kirish va uni kuzatish vaqtidagi hamda dars tugagandan keyingi harakatlarini aniq belgilab olishi kerak.

Dars tahlili xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- O'qituvchini o'z ustida ishlashga yo'naltiradi;
- O'zaro tajriba almashish, ilg'or tajribalarni o'rganishga yordam beradi;
- O'qituvchining pedagogik faoliyati, o'quv-metodik ishi bilan tanishtiradi;
- O'quv jarayonini faollashtiradi va motivatsiyani rivojlantiradi.

### **Dars tahlili turlari**

#### **Dars tahlilining asosiy tarkibiy qismlari:**

Darsning tashkiliy tahlilida dars o'tiladigan xona, auditorianing darsga tayyorlikholati, tozaligi, jihozlangani, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik holati, talabalar davomatiga e'tibor beriladi. Darsni tahlil qiluvchi tomonidan tashkiliy tahlil birinchi taassurot asosida yuzaki berilmaydi, darsga tayyorgarlik butun mashg'ulot davomida kuzatiladi va tahlil etiladi.

Darsning didaktik tahlili turida o'rganilayotgan mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo'naliishi, ko'rsatmaliligi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, didaktik vosita va tarqatmalardan o'rinali foydalanish, qaytuvchan aloqaning ta'minlanishi tahlil qilinadi.

Darsning metodik (uslubiy) tahlilida darsning maqsad va vazifalari, dars shakli, unda qo'llanilgan o'qitish usullari, tayyorlangan ko'rgazmalar, tatbiq etilgan pedagogik texnologiyalar tahlil etiladi. Birinchidan, o'qituvchining mavzuniqanday usullar asosida o'quvchilarning yoshi va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olganda yetkazib bera olishi, o'quvchilarga fikrlash va izlanish uchun sharoit yaratishi, ikkinchidan, pedagogik tajribalari qay darajada ekanligini namoyish etish. Mana shu ikkinchi qismida o'qituvchining ijodkorligi,

metodik mahorati ko'zga tashlanishi lozim. Ilg'or pedagogik va novatorlik tajribalari mana shu faoliyatdan boshlanadi.

Darsning psixologik tahlili. Guruhdagi psixologik muhit, ta'lif oluvchilarning kayfiyati, fanga bo'lgan qiziqishi, o'quv motivatsiyasi, faolligi, o'zaro muloqoti, ruhiy holati, jarayonlari vaxsususiyatlarining e'tiborga olinishi va rivojlantirilishi tahlil qilinadi.

Darsning pedagogik tahlili ancha ma'suliyatlari bo'lib, o'qituvchining pedagogik mahorati – tashqiqiyofasi, ta'lif oluvchilar guruhi bilan muloqoti, madaniyati, pedagogik texnikasi, tarbiyaviy ta'siri, nutq mahorati, favqulodda vujudga kelgan vaziyatlardan chiqa olishi, o'zini boshqara olishi kabilalar tahlil qilinadi.

Darsning yakuniy tahlili yoki xulosa qismida o'qituvchining darsni yakunlashi va xulosa yasashi, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar berishi, mashg'ulot maqsadiga ko'ra natijalari tahlil etiladi hamda darsni tahlil qiluvchining mutaxassis sifatidagi mulohaza, taklif, tavsiya va yo'l-yo'riqlari bayon etiladi.

- **Maxsus fanlarni o'qitishda o'zaro darslar, ochiq darslar, ko'rgazmali darslar va mahorat darslari**

Maxsus fanlarni o'qitishda o'zaro darslar, ko'rgazmali darslar, mahorat darslari va ochiq darslar tashkil qilinadi:

**O'zaro darslar** o'qituvchilar jamoasi tarkibida reja asosida istalgan o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi, o'zaro darslarda ixtiyoriy tarzda tahlilchi sifatida qatnashishi mumkin.

**Ko'rgazmali darslar** kafedranging etakchi katta o'qituvchisi, dotsent va professorlar o'qituvchilaritomonidan tashkil etiladi.

**Mahorat darslari** malaka oshirish kurslarini o'qib tugatgan, anjuman yoki seminarlarda qatnashgan, stajirovkadan o'tgan, yangi bilim va tajribalar bilan kelgano'qituvchilar tomonidan tashkil etiladi.

**Ochiq darslar** yosh yoki ish faoliyatini yangi boshlagan o'qituvchilar tomonidan tashkil etiladi.

**Amaliyot darslarida** amaliyotda bo'lgan talabalarga biriktirilgan o'qituvchilarning darslari ular tomonidan tahlil etiladi.

Dars tahlilida quyidagi jarayonlar kuzatiladi:

- Guruh va talabalarning darsga tayyorgarligi;
- O'qituvchining tashqi qiyofasi, muomalasi;
- Uslubiy material (ma'ruzalar matni, kalendar-mavzu rejasi, fanni o'qitish texnologiyasi, guruh jurnali, tarqatma materiallari)ning mavjudligi;
- Darsning tashkil etilishi va boshqarilishi;
- Ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanganligi;

- Test va tarqatma materiallardan foydalanish;
- Mavzuning talabalar tomonidan muhokama qilingani va mustahkamlanganligi;
- Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashi va nutqini rivojlantirish;
- Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- Yo'naltiruvchi, muammoli savollar qo'yilishi, javoblar sifati;
- Talabalar bilimini xolisona baxolash va izohlash;
- Darsga yakun yasash, xulosa qilish.

Dars tahlili o'zaro uzviy bog'langan quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

1. o'quv materiali maqsadi va mazmunini tahlil etish;
2. talabaning o'qish, o'zlashtirish faoliyatini tahlil etish;
3. o'qituvchining pedagogik mahoratini tahlil etish;
4. ta'lim turi, metodlari va shakllarini tahlil etish;
5. ta'lim jarayonida foydalilaniladigan vositalarni tahlil etish.

#### **Nazorat savollari:**

1. Dars tahlili qanday faoliyat?
2. Dars tahlilining xususiyatlarini ayтиb bering.
3. Dars tahlili qanday turlarga bo'linadi?
4. Dars tahlili uchun kimlar tomonidan qanday darslar tashkil qilinadi?

### **8-MAVZU: MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

#### **Reja:**

1. Modulli o'qitish texnologiyasi.
2. Modulli o'qitishning tamoyillari.
3. Xorijiy davlatlardagi kredit ta'lif tizimlari.
4. Kredit-modul tizimining afzallik va muammoli jihatlari.
5. Kredit tizimi asosida ta'lif jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari.
6. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati.

#### **Modulli o'qitish texnologiyasi**

"Modulli o'qitish" termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog'liq bo'lib ("modul", lat. modulus), uning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u

modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

**Modul** – bu fanning fundamental tushunchasini takdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni, bo'limi, muayyan katta mavzu, o'zaro bog'liq tushunchalar guruhidir.

**Modul** – bu fanning bir yoki bir necha tushunchalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o'quv materialidir.

1982 y. YuNESKOning anjumandagi ma'rzasida modulga "Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o'rganish orqali individual yoki guruh mashg'ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo'lish uchun mo'ljallangan alohida o'rgatuvchi paket (to'plam)" deb ta'rif berilgan edi.

**Modulli o'qitish** – o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasingin o'zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir.

***Modulli o'qitish asosan inson bosh miyasi to'qimalarining  
modulli tashkil etilganligiga tayanadi***

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalaniib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

**Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik.**

<b>An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan</b>	<b>Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan</b>
Bir tomonga yo'naltirilgan axborot. Bir tomonlama muloqot (darslik→o'qituvchi→o'quvchi) <ul style="list-style-type: none"><li>Axborot olish</li><li>Xotirada saqlash</li></ul> Ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash.	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish. <ul style="list-style-type: none"><li>Ikki tomonlama muloqot</li><li>Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish</li><li>Bilim va ko'nikmalarni namoyish etish</li><li>Mazmunni tushunish va hayotga bog'lash.</li></ul>

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lif an'anaviy ta'lifdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

Modulli o'qitish ta'lifning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi:

- o modul – faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- o o'qitishni individuallashtirish;
- o amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- o kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- o ta'lif muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- o malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
- o talabalar tayyorlarligi darajasiga;
- o kutiladigan natijalar bahosiga;
- o didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- o modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqlash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning uzlusizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

**Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:**

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o'quv o'yinlar;

-loyihalash va yo‘naltiruvchi matnlar va hokazo.

O‘qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

-fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o‘qitish uzuksizligini ta’minlanishi;

-har bir modul ichida va ular orasida o‘quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o‘rnatalishi;

-fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;

-talabalar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so‘ng) qilinishi;

-talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko‘ra tabaqlanishi (dastlabki modullardan so‘ng o‘qituvchi ayrim talabalarga fanni individuallashtirishni tavsiya etishi mumkin);

-axborotni “siqib” berish natijasida o‘qitishni jadallashtirish auditoriya soatlardan samarali foydalanish va o‘quv vaqtini tarkibini ma’ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg‘ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Buning natijasida talabaetarli bilimlarga ko‘nikmaga ega bo‘ladi.

Modulli metodika asosida o‘qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

### **Modulli o‘qitishning tamoyillari**

*O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra modulli metodika asosida o‘qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi.*

**1. Faoliyatlichkeit tamoyili:** Bu tamoyil mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko‘ra modullar fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuv asosida tuzilishi mumkin. Modulli o‘qitish texnologiyasiga fan bo‘yicha faoliyat yondashuvida modullarni o‘quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida modullar bloki mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi.

**2. Tizimli kvantlash usuli** - bu prinsip didaktik birliklar umumlashtirilgan nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Modulda tizimli kvantlash tamoyili o‘quv materialining tegishli tuzilmasini tuzish yo‘li bilan erishiladi. Modul umumiy ko‘rinishda quyidagi elementlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- tarixiy - bu muammo teorema masala kashfiyot va tushunchalarining tarixiga qisqacha sharh berish;

- muammoli - bu muammoni shakllantirish;
- tizimli - bu modul tarkibi tizimini namoyon etish;
- faollashtirish - bu yangi o'quv materialini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko'rsatish;
- nazariy - bu asosiy o'quv materiali bo'lib, unda - didaktik maqsadlar muammoni ifodalash gipotezani asoslash muammoni yechish yo'llari ochib ko'rsatiladi;
- tajribaviy - bu tajribaviy materialni (o'quv tajribasi tajribaviy ishni) bayon etish;
- umumlashtirish - bu muammo yechimini va modul mazmunini umumlashtirish;
- joriy etish - bu harakatlarning yangi usullarini ishlab chiqish va o'r ganilgan materialni amaliyotda qo'llash;
- xatoliklar - talabalarning modul mazmunini o'rganishdagi o'zlashtirishda kuzatiladigan xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo'llarini ko'rsatish;
- bog'liqlik - o'tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog'liqligini namoyon etish;
- test va topshiriqlar yordamida baholash - modul mazmunini talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash.

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi modul mazmunining boshqa modullar bilan bog'liqligi shu modulni o'rganishdagi talabalarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

**3. Qiziqtirish tamoyili** - bu tamoyilning mohiyati ta'lif oluvchining bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ishtiroy etish, ijodiy fikr lashga da'vat etish modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

**4. Modullilik tamoyili** - bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

*Birinchidan* modulning dinamik tuzilmasi fan mazmunini uch xil ya'ni to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi. O'qitishning u yoki bu turini tanlash talabaning o'ziga havola qilinadi.

*Ikkinchidan* modul mazmunini o'zlashtirishda o'qitish usuli va shakllarning turliligidagi ham modullilik namoyon bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirishga shakl va usullar (dialog, mustaqil o'qish, o'quv, imitatsion o'yinlar va hokazo) hamda muammoli ma'ruzalar seminarlar maslahatlar bo'lishi mumkin.

*Uchinchidan* modullilik yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishda ta'minlanadi, ya'ni har bir fan va har bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi.

*To'rtinchidan* modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati tug'iladi.

**5. Muammolilik tamoyili-** muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi o'quv materialining o'zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi.

Mashg'ulotlar paytida gipoteza qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va muammoning yechimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar. Masalan AQShda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'yan muammoning yechim yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni u tadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi navbatda ayniqsa ana shu narsa talabani qiziqtirib qo'yadi unda ijodiy fikrlash va faoliytni tug'diradi.

**6. Kognitiv vizuallik (ko'z bilan kuzatiladigan) tamoyili-bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi. O'qitishdagi ko'rgazmalar nafaqat so'roq vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o'zlashtirish unumdarligini oshiradi. Aynan shuning uchun kognitiv grafika-sun'iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo'lib, murakkab ob'ektlar kompyuter sur'atchalari ko'rinishida tasvirlanadi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo'lib rangli bajarilgan kognitiv-grafik o'quv elementlari xizmat qiladi. Shuning uchun rasmlar modulning asosiy bosh elementi hisoblanadi. Bu esa:**

Birinchidan talabaning ko'rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

Ikkinchidan o'quv materiali mazmunini o'zida zinch joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi rasm talabada tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan rangli suratlar o'quv materialini qabul qilish va eslash samarasini oshiradi hamda talabalarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazmali ma'lumot og'zaki ma'lumotdan ko'ra ahamiyatiroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining ma'lumotni o'tkazish qobiliyati eshitishnikidan ko'ra ancha yuqoridir. Bu esa o'z navbatida, ko'rish tizimiga inson qabul qilinadigan ma'lumotning qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali ma'lumot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun ma'lumotni qabul qilish va eslashga og'zaki ma'lumotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali ma'lumot ishlataliganda taassurot hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi.

Insonning ko'rgazmali ma'lumotga ishonchi, og'zaki ma'lumotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun "yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir" deb bezij aytilmagan.

Shu bilan birga ko'rgazmali ma'lumotda qabul qilish va eslash unumi uni ko'rsatilishi orasidagi muddati uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi.Og'zaki ma'lumotning o'zlashtirilishi esa, bunga bog'liq bo'ladi.O'mni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko'rgazmali ma'lumotni qabul etish o'qitish samarasini oshiradi ya'ni o'quv-ilmiy adabiyyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan ma'lumotni ko'paytirish uchun shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.



**7. Xatoliklarga tayaniш tamoyili** - bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga talabalarning ruhiy faoliyati funksional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi talabada tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

**8. O'quv vaqtini tejash tamoyili** - bu tamoyil talabalarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zaxirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi. To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish o'qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli o'qitishning barcha tamoyillari to'la amalga oshirilganda,o'quvjarayoni kompyuterlashtirilganda yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

O'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar natijasida modulli o'qitish – talabalarning bilim imkoniyatlarini ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlanadirishda ijobiy samara berishi aniqlandi. Modulli metodika asosida o'qitishda fan tarkibidagi modular orasidagi uzviylikni ta'minlashga o'qitishni jadallashtirishga talabalarning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilishga va baholashga qiziqtirish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishga hamda o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi.

## **Xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi**

**PF-4947сонли Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda**

**O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliv ta'lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari diplomlarini o'zaro tan olishga, o'qituvchi va talabalar bilan almashev dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi 1999-yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish belgilab qo'yilgan.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da oliv ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliv ta'lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo'limgan fanlar sonini 2 barobar qisqartirish, oliv ta'limda o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga o'tkazish, qator oliv ta'lim muassasalarini o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tkazish, ta'lim sohasini to'liq raqamlashtirish, davlat-hususiy sheriklik mehanizmlarini ta'lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta'kidlab o'tilgan.**

**Ushbu murojaatnomada birinchi o'ringa xalqning bilim darajasini oshirish masalasi qo'yilgan, bu esa millatning raqobatbardoshligini belgilovchi omil hisoblanadi. Shu sababli, tabiiyki, ushbu hujjatda zamonaviy talablar va jahon standartlariga javob beradigan milliy ta'lim tizimini yaratish muammosining elementlari ham o'z aksini topgan.**

**1999 yilda 29 ta davlat tomonidan Bolonyada yagona ta'lim muhitini yaratish jarayonida ishtirok etish haqidagi Deklaratsiya imzolandi. Uning maqsadi taqqoslanadigan darajalar tizimini qabul qilish, akademik va kasbiy tan olishni yengillashtirish va bitiruvchilarining ishga joylashish imkoniyatlarini ta'minlashga**

qaratildi. Bolonya jarayoni barcha davlatlar uchun ochiq bo'lib, bugungi kunga kelib ishtirokchi davlatlar soni 50 ga yaqinlashib qoldi.

Bolonya deklaratsiyasini imzolagan barcha davlatlar oliy ta'larning ikki bosqichli (bakalavriat – 3-4 yil, magistratura – 1-2 yil) tizimiga o'tishgan. Oliy ta'lindan keyin doktor (3-4 yil) darajasini olishga imkon yaratiladi.

Xorijda ECTS (European Credit Transfer System) tizimi ta'limgan tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o'quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig'indisi unga mos bo'lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olishga imkon beradi.

Xo'sh, kredit-modul tizimi nimani nazarda tutadi? Bugungi kunda ta'limgan dasturlarini amalga oshirish uchun dunyo tajribasida kredit tizimi deb nomlangan amaliyotdan keng foydalaniladi. Kredit tizimi o'z ichiga ta'limgan va uning uchun sarflanadigan umumiy mehnat xarajatlari miqdorini qamrab oladi. Jahan amaliyotida Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to'plash va o'tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o'tkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS) eng keng tarqalgan tizimlar hisoblanadi.

"Kredit soat" tizimi dastlab AQShda paydo bo'lgan va takomillashgan. 1969 yilda Garvard universiteti Prezidenti, Amerika ta'limgan atoqli namoyandasasi Charlz Eliot birinchi bo'lib "kredit-soat" tushunchasini kiritdi va 1870-1880 yillarda fan hajmini kredit-soatlarda o'chashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi. 1892 yildan "kredit-soat" tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSh milliy ta'limgan qo'mitasi "kollej-maktab" bo'g'inni yaxshilash, o'rta maktablarda o'quv dasturlarini standartlash maqsadida nafaqat kollejlarda, balki o'rta maktablar uchun ham "kredit" tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalavriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta'limgan bosqichlariga kengaytirdi.

Bakalavr darajasini (Bachelor of Arts - BA yoki Bachelor of Science - BSc) olish 4 yil o'qishni nazarda tutadi. Bu davr ichida talaba o'rtacha har biri 3 kreditlik 40 tacha fanni o'zlashtirishi zarur bo'ladi. Birinchi va ikkinchi yil tayanch bilimlarni olish uchun ajratiladi (ta'minan, 60-68 kredit) va u oraliq daraja (Associates) bilan yakunlanadi, uchinchi va to'rtinchi yillarda mutaxassislik fanlarini jadal o'rganishga bag'ishlanadi va bu jarayon malakaviy imtihon bilan tugallanadi.

Oliy ta'limgan ikkinchi bosqichi (Graduate Level) – bu o'rta hisobda ikki yillik o'qish natijasida magistr darajasini (Master of Arts - MA yoki Master of Science - MSc) olish uchun mo'ljallangan magistrlik dasturlaridir.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning ikkinchi bosqichi va uchinchi pog'onasi – doktorlik dasturlari bo'yicha o'qish bo'lib, u tor mutaxassislikga o'qish va mustaqil ilmiy izlanuvchilikga yo'naltilgandir.

Darajani olish uchun talaba belgilangan miqdordagi kredit-soatlarni to'plashi zarur. AQSh da qabul qilingan USCS (US Credit System) tizimida kredit-soat – bu o'qish vaqtiga asoslangan o'Ichovdir. Masalan, bakalavriyatda 1 kredit-soat talabaning semestr davomida har haftadagi 1 akademik soat auditoriya ishiga teng. Bundan tashqari har bir auditoriya mashg'ulotiga 2 soat (100 minut) mustaqil ish qo'shib beriladi. Magistraturada, va ayniqsa doktoranturada bu mehnat hajmida mustaqil ishning hissasi ko'payib borishi nazarda tutiladi.

AQSh da bakalavr darajasini olish uchun 4 yilda kamida 120 kredit-soat, magistr uchun 1-2 yilda mos ravishda 30-60 kredit-soat, doktorlik dasturlarida esa 3-4 yilda mos ravishda 60-90 kredit-soat to'plash talab etiladi.

Oliy ta'lim tizimida kredit-soat tushunchasi dars jadvalini tuzish, GPA o'rtacha ballini hisoblash, kafedralar, o'qituvchilar va talabalarning yuklamasini aniqlash uchun asos hisoblanadi.

USCS tizimi Amerika talabalarining mobilligini oshiradi, chunki bir universitetda olingan kreditlar boshqalarida ham hisobga olinadi va talabalar o'qishlarini bir oliy o'quv yurtidan boshqasiga sinov birliklarini saqlagan holda ko'chirishlari mumkin. Bunday amaliyot qoldirilgan o'qish va o'qishga tiklash jarayonlarini o'zaro bog'lash uchun ham qo'llaniladi.

Ispaniyada universitet ta'limi ko'p pog'onali bo'lib quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

- birinchi ta'lim davri: u kamida 3 yil davom etadi va 180-270 ispan kreditlariga teng bo'ladi;
- birlashtirilgan birinchi va ikkinchi davrlar: 4-5 yilga mo'ljallangan bo'lib (tibbiyot mutaxassisliklari uchun 6 yil), birinchi davr - 2-3 yil, ikkinchisi - 2 yil davom etadi. Ko'rsatilgan 4,5 va 6 yilda talabalar 300-500 kredit to'plashadi.
- ikkinchi davr – yakka tartibda;
- uchinchi davr – doktorantura.

Birinchi davr yakunida talabalarga Diplomado, Arquitecto Tecnico va Ingeniero Tecnico kabi akademik darajalar berilishi mumkin. Ikkinchi davr yakunida esa - Licenciado, Arquitecto yoki Ingeniero Superior darajalari berilishi mumkin. Doktorlik darajasi uchinchi davrda o'qishni yakunlagan va dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan talabalarga beriladi.

Ispaniyada "kredit"ni aniqlashga o'zgacha yondashiladi – har bir kredit 10 soat auditoriya mashg'ulotlariga mos keladi, to'plangan kreditlar yig'indisiga qarab talabaning o'zlashtirishi baholanadi. Talabalar tomonidan nazariy va amaliy

masng uiotlar bo'yicha alohida kreditlar to'planadi, ularni hatto auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari boshqa o'quv ishlarni bajarib ham olish mumkin.

Shvesiyada 1 shved krediti universitetda 1 hafta o'qishga teng deb qabul qilingan. Bu tizim o'quv rejalarini tuzishni va talabalarning bajargan o'quv soatlarni hisoblashni yengillashtirish uchun joriy etilgan. Shvesiya universitetlarida o'quv yili 40 hafta davom etadi va kuzgi hamda bahorgi semestrlardan iborat bo'ladi. Shunday qilib, talaba o'quv yili davomida ma'ruba, yakka tartibdagi ishlar va boshqa ishlarni ham qo'shib hisoblaganda 40 kredit to'playdi.

Bakalavr darajasini olish uchun 3 yillik o'qish davomida 120 kredit olish kerak. Magistraturada o'qish 1-1,5 yil (60 kredit), doktoranturada esa – 2-4 yil davom etadi.

Shvesiya kreditlarini Yevropa ECTS kreditlari bilan taqqoslash uchun ular 1,5 ga ko'paytiriladi. Masalan bakalavriatdagi 120 Shvesiya krediti 180 ECTS kreditiga, magistraturadagi 60 Shvesiya krediti - 90 ECTS kreditiga teng bo'ladi.

Shvesiya universitetlarida ta'lim jarayonlari ma'ruzalar, seminarlar, bahsmunozaralar (o'qituvchi ishtirokida yoki ishtirokisiz) shaklida tashkil qilinadi. Har bir kurs yakunida imtihon seminarları, auditoriyada topshiriqlarni bajarish va yozish ko'rinishidagi imtihonlarni topshirish nazarda tutiladi.

Belgiyada kredit ta'lim tizimi Yevropa ECTS kredit tizimlariga moslashtirilgan va halqaro hamkorlik doirasida qo'llaniladigan ko'rinishda taqdim etilgan.

Buyuk Britaniyada ta'lim tizimi Birlashgan Qirollikning CATS (Credit Accumulation and Transfer Scheme/System – Kreditlarni to'plash va ko'chirish sxemasi/tizimi) tizimiga asoslangan bo'lib, uning maqsadi ko'p sonli malaka hujjatlari tizimini har bir tur uchun alohida kreditlar belgilash orqali tartibga solish va yagonalashtirishdir. CATS tizimi Birlashgan Qirollikda, Janubiy Afrikada va Yangi Zellandiyada keng tarqalgan.

CATS bo'yicha akademik yil 1200 shartli o'quv soatlari yoki 120 kreditni o'z ichiga oladi, 1 britaniya krediti 10 shartli o'quv soatlariiga teng. Shartli o'quv vaqt deyilganda, talaba fanni o'zlashtirishi uchun sarflaydigan soatlar miqdori tushuniladi. Shartli vaqt auditoriya mashg'ulotlari, asosiy amaliy ishlar, loyiha ustida ishslash, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini, imtihonlarga tayyorgarlik va ularni topshirish kabi faoliyatlarini, ya'ni barcha turdag'i o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Britaniya universitetlarida bakalavr darajasini olish uchun 3 yil davomida 360 britaniya kreditlarini qo'lga kiritish kerak. To'rtinch yil talabalarga "imtiyozli bakalavr" (Bachelor with Honours) darajasini olishga imkon beriladi.

20-asning so'nggi o'n yilliklarida Yevropada oliy o'quv yurtlarining halqaro ta'lif dasturlaridagi ishtiroki muhim masalaga aylandi, oliy ta'lif o'quv dasturlarini internatsionallashtirish taraqqiyotning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. 1987 yilda Yevropa Ittifoqi asos solgan talabalar almashishning ERASMUS (European Community Action Scheme for Mobility of University Students) ta'lif dasturi eng namunali deb topib asos sifatida qabul qilindi va Yevropaning 12 ta davlatida joriy etildi. To'plangan tajribalar qayta ishlani barcha yosh guruhlari ta'lifiga ixtisoslashgan yangi SOCRATES dasturi uchun asos sifatida qabul qilindi. Bu dastur 2006 yilgacha rejalashtirildi va 31 davlatda amal qildi. Bularidan tashqari, Yevropada talabalar almashish dasturi bo'yicha Yevropaning ilm-fan va universitetlar beshigi sifatidagi mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan Leonardo Da Vinci va Tempus-Tasis ta'lif dasturlari amalga oshirildi.

Bu dasturlari amalga oshirishda Yevropada turli xillik va o'zaro mos kelmaslik holatlari yuzaga chiqdi, umumlashtirishda qiyinchiliklar paydo bo'ldi. Shunday instrument ishlab chiqish zarur edi, u milliy ta'lif tizimlarini amalda yaqinlashtirishi, moslashuvchan va shaffof qilishi, ta'lifdagi hujjatlar esa – oson taqqoslanadigan bo'lishi kerak edi. Bunday tizim sifatida ERASMUS dasturining tajriba loyihasi sifatida yuzaga kelgan va 1989-1995 yillarda 6 yil davomida eksperimental tekshiruvdan o'tgan ECTS (European Credit Transfer System) tizimi tan olindi. Unda Yevropaning 145 ta oliy o'quv yurti ishtirok etdi.

1999 yilning iyunida 29 ta Yevropa davlatlarining ta'lif vazirlari Bolonya deklaratasiyasini imzolashdi, unda asosiy e'tibor ECTS va umumevropa diplom ilovasiga qaratildi. Bunda ECTS ning vazifasi etib 2010 yilda yagonalashtirilgan oliy ta'lif tizimini yaratish emas, balki xalqaro "shaffoflik" ka erishish va mavjud ta'lif tizimlarini va malakalarini davlatlar va oliy o'quv yurtlarining ta'lif siyosati sohasidagi avtonomligini saqlab qolgan holda moslashtirish belgilandi. Hozirgi kungacha deyarli barcha Yevropa davlatlari o'z milliy oliy ta'lif tizimlarida islohotlar o'tkazishdi, kredit ta'lif tizimini joriy qilishdi. Biroq, ular milliy ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yechimiga qaratilganligi sababli o'zaro jiddiy farq qilishadi. Har bir davlat o'zining noyob ta'lif tizimini, milliy, tarixiy va madaniy an'analarini saqlab qolishga harakat qilgan.

Shunday qilib, Yevropada mantiqan rad etib bo'lmaydigan, maksimal darajada yaqinlashish va milliy tizimlarning baholash shkalalarini umumevropa andozasi bo'yicha tenglashtirish uchun zarur bo'lgan ECTS tizimi paydo bo'ldi. Unga ko'ra Yevropa krediti – tyutor va talaba kontakt soatlari hajmining shartli birligi hisoblanadi. O'rta hisobda bir o'quv yilida talaba 60 Yevropa kreditlarini to'plashi shart.

semestrda auditoriyadagi 12-18 soat mashg'ulotga teng) bilan taqqoslash uchun aytish mumkinki, Yevropa davlatlarida talabalar taxminan xuddi shuncha miqdorda auditoriyada shug'ullanishadi, qolgan vaqtni o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ish deb hisoblash mumkin. ECTS kredit – fanning o'quv yuklamalarini o'zlashtirish uchun mehnat sarfini ifodalaydi, ish soatlari deganda esa – barcha turdag'i kontakt soatlari tushuniladi, deb aytish mumkin.

Kredit tizimlarining yuzaga kelgan keng qamrovli diversifikatsiyasi sharoitida ECTS tizimi ko'p millatli Yevropa an'analarini inobatga olgan holda turli ta'lif tizimlarini yaqinlashtiradi. O'zbekistonda kredit ta'lif tizimiga asoslangan milliy modelni ishlab chiqishda, Yevropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan holda yuqori ta'lif sifatini va dunyo ta'lif jarayonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan dunyo ta'lif tizimlari tahlilidan kelib chiqib Amerika kreditlari (USCS) ni Yevropa (ECTS) va Osiyo-Tinch Okeani (UCTS) kreditlariga aylantirish ancha oson: 1 Amerika kredit-soati = 1 Xitoy krediti = 1 Yapon sinov birligi = 2 Yevropa krediti = 2 Osiyo-Tinch Okeani krediti = 4 Britaniya krediti.

Kredit ta'lif tizimini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit ta'lif tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi uning ko'plab dunyo davlatlari ta'lif tizimlarida ko'proq tarqalganligi bilan asoslaniladi, chunki ta'lif dasturlarining talabalarda mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faoliytni va bilim olishga o'zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta'lif sifatini oshirishga imkon beradi.

### **Kredit tizimi asosida ta'lif jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari.**

Oliy mактабдаги о'кув jarayoni oliy malakali mutaxassisni tayyorlashdagi tashkiliy, boshqaruv, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi ko'p qirralarni o'z ichiga oluvchi murakkab jarayondir.

O'кув jarayoni asosan o'кув mashg'ulotlari va nazorat jarayonlaridan tashkil topgan. O'кув mashg'ulotlari barcha turdag'i akademik mashg'ulotlarni, talabalarning mustaqil ta'limi va malakaviy amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Nazorat jarayonlari talabalarning ta'lif dasturini qay darajada o'zlashtirganligini ko'rsatadi.

O'кув jarayonini rejalashtirish oliy o'кув yurtining o'кув faoliyatini boshqarishda muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- dastlab o'quv yili davomidagi asosiy o'quv jarayonlari va ularni amalga oshirish muddatlari aks ettirilgan akademik taqvim tuziladi;
- namunaviy o'quv rejaga qo'shimcha ravishda tanlov fanlarining ro'yxati shakllantiriladi;
- namunaviy o'quv reja va tanlov fanlari ro'yxatiga mos ravishda edvayzerlar yordami bilan, Registrator Ofisi va dekan nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy o'quv rejasi shakllantiriladi;
- ishchi o'quv rejalarini tuziladi;
- fanlarning ishchi o'quv dasturlari (syllabus) ishlab chiqiladi;
- yo'nalish va mutaxassisliklarning ishchi o'quv rejalariga mos ravishda kafedralarning o'quv yuklamalari rejalashtiriladi va professoro'qituvchilarining shtat jadvali hamda ularga taqsimlangan kreditlar tasdiqlanadi;
- akademik potoklar va guruuhlar kesimida dars jadvallari tuziladi.

Bakalavriat namunaviy o'quv rejalarini 4 ta blokdan iborat bo'ladi:

- 1) tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar bloki;
- 2) umumkasbiy fanlar bloki; 3) ixtisoslik fanlari bloki; 4) qo'shimcha fanlar bloki.

Magistratura namunaviy o'quv rejalarini 2 ta asosiy blokdan iborat bo'ladi:

- 1) umummetodologik fanlar bloki; 2) mutaxassislik fanlari bloki.

Fan bloklaridagi fanlar majburiy va tanlov fanlari bo'lishi mumkin. Majburiy fanlarga malaka talablarida keltirilgan, o'zlashtirilishi shart bo'lgan fanlar kiradi. Tanlov fanlariga kadrlar buyurtmachilari talabi bilan oliv o'quv yurti tomonidan taklif etiladigan fanlar kiradi.

Namunaviy o'quv rejalarida majburiy o'zlashtiriladigan fanlar ularga ajratilgan kreditlar bilan birga keltiriladi. Tanlov fanlari bo'yicha kreditlar oliv o'quv yurtlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Yo'nalish va mutaxassislikning ishchi o'quv rejalarini xarajatlarni optimallashtirish maqsadida eng ko'p talabalar kontingentining shaxsiy o'quv rejalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Ishchi o'quv rejalarining talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyatini to'laroq qamrab olgan holda katta kontingentga moslashtirilishi, o'quv jarayonining samarasini oshiradi.

Kredit ta'lif tizimida o'quv ishlari hajmi o'qitiladigan material hajmi bo'yicha aniqlanadi va kreditlarda o'chanadi.

Kredit – o'quv ishlari hajminining o'chanov birligi bo'lib, 30 akademik soatga teng bo'lishi mumkin (15 haftalik semestrda). Bunda auditoriya va mustaqil ta'lif soatlari bakalavriat va magistraturada – 1:1 nisbatda bo'lishi mumkin.

Har bir fanning hajmi butun sonli kreditlar bilan ifodalananadi. O'rta hisobda fanlar soni 40 tadan oshmasligi sharti bilan bitta fanga o'rtacha  $240/40=6$  kredit

ajratilishi mumkin, fanlar uchun kreditlar undan kam yoki ko'p ham bo'lishi mumkin.

Ishchi o'quv rejalarida auditoriya mashg'ulotlarining nisbatlari (ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va h.k.) fanning o'qitilish usullaridan kelib chiqqan holda oliv o'quv yurtining ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan komissiyalar xulosasiga ko'ra belgilanadi.

O'quv rejasining har bir fani o'ziga xos betakror nomga ega bo'lishi lozim. O'quv rejasida har bir fanga harfli va raqamli yagona kodlash tizimini qo'llash lozim. Bunda fanning kodi uning nomiga mos bir nechta lotin harfi va tartibini ifodalovchi raqamlaridan iborat bo'lishi va harfli kodini belgilashda xalqaro nomlanishdan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Masalan, MATS203 kodi 2-kursda o'qitiladigan matematikaning uchinchisi murakkab bo'limini ("Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika") anglatadi. Magistraturada o'qitiladigan "Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi" fani RESM101 kodi bilan belgilanishi mumkin.

Bakalavriyatda fanlar soni kamroq va yirik hajmli bo'lishi maqsadga muvofiq. O'quv rejadagi majburiy va tanlov fanlari ulushini belgilashda mutaxassisning tayyorgarlik darajasiga bo'lgan talablar, fanlar mazmuni va ta'lif natijalari, fanlar tuzilmasi va ularning o'zaro aloqadorligi va unifikatsiyalanish darajasi hamda xalqaro tajribalardan kelib chiqish maqsadga muvofiq.

Barcha turdag'i amaliyotlar va diplom ishlari, qo'shimcha fanlar ta'lif dasturi doirasida amalga oshiriladi va umumiyligida kiritiladi. Bunda bitiruv semestrda amaliyotlar uchun 15 kredit va bitiruv ishini bajarish uchun 15 kredit ajratilishi maqsadga muvofiq. Jismoniy tarbiya fani qo'shimcha fanlar hisobidan, sport seksiyalarida o'qitilishi maqsadga muvofiq.

Umumiy haftalik yuklama bakalavriyatda 60 soatni tashkil etadi, undan 30 soati auditoriyada va 30 soati talabaning mustaqil ta'limga ajratiladi, shu jumladan 8-14 soati o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ishiga ajratilishi maqsadga muvofiq.

1-jadvalga muvofiq talabaning vaqt byudjeti quyidagicha bo'ladi: nazariy ta'lif –  $240 \times 30 = 7200$  soat, shu jumladan auditoriyada –  $15 \times 240 = 3600$  soat va mustaqil ta'lif shaklida shug'ullanish uchun –  $15 \times 240 = 3600$  soat ko'zda tutiladi.

Bundan ko'rish mumkinki, talabaning semestrda o'quv yuklamasi auditoriya va mustaqil ta'lif yuklamalarining 1:1 nisbatdagi yig'indisi sifatida 30 kreditni tashkil qiladi (240 kredit : 8 semestr = 30 kredit).

Kredit ta'lif tizimi joriy o'quv yili uchun professor-o'qituvchilarining hamda talabalarning shaxsiy ta'lif traektoriyasidagi o'quv faoliyatlarini rejalashtirishni nazarda tutadi.

Har qanday o'quv jarayoni asosida talabaning shaxsiy o'quv rejasini yotadi, u o'quv jarayonlari boshlanishidan oldin talaba tomonidan edvayzerning maslahati

bilan tuziladi. Uni tuzish uchun namunaviy o'quv rejasi asos bo'ladi, uning tarkibiga malaka talablarida ko'rsatilgan majburiy fanlar va tanlov fanlari kiradi.

Shaxsiy o'quv rejalarida mehnat bozorining ehtiyojlari, ish beruvchilarning talablari va talabalarning qiziqishlari aks ettirilishi lozim. Shu bilan birga ular bakalavrлarning mehnat bozorida erkin mo'ljal olishlari va kelgusida ta'llimni davom ettirishlari uchun umumiy savodxonlikning, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, umumilmiy, kasbiy va ixtisoslik ma'lakalarining shakllanishiga yordam beradi. Shunga ko'ra, oliv o'quv yurtlarining aniq yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha shaxsiy o'quv rejalarini tuzishda talabalarga davlat ta'llim standartlari va malaka talablarida belgilangan kasbiy malakalarni to'liq egallashga imkon beradigan fanlar ro'yxati tavsija qilinadi. Masalan, texnik yo'nalishdagi bakalavrлarni kasbga tayyorlashda ularning tabiiy-ilmiy fanlar, axborot texnologiyalari, muhandislik grafikasi fanlarida o'qitiladigan umumtexnik bilimlarini olishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra, umumta'llim fanlari blokinining tanlov qismiga kasbiy faoliyat uchun asos bo'ladigan fanlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Ishchi o'quv rejalar barcha talabalarning tasdiqlangan shaxsiy o'quv rejalarini asosida tuziladi. Bunda talabalarning ongli ravishda yondashishi uchun sharoitlar yaratish juda muhim. Bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi talabalarning ta'llim traktoriyasi qanchalik puxta o'ylanganligi va mukammalligiga bog'liq. Shu sababli, oliv o'quv yurtlari o'z tashkiliy tuzilmasida edvayzerlar xizmatini yo'lga qo'yishlari zarur bo'ladi. Edvayzerlar sifatida talabalarning shaxsiy o'quv rejalarini shakllantirish layoqatiga ega bo'lgan, mutaxassislik kafedralarining tajribali o'qituvchilarini hamda o'rindosh sifatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona mutaxassislari faoliyat yuritishlari mumkin.

Talaba o'zining shaxsiy o'quv rejasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmdagi fanlarni o'zlashtirishni ko'zda tutishi lozim, ular tarkibida namunaviy o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

Bulardan tashqari, talaba fan o'qituvchilarini tanlash huquqiga ham ega. Talabalarga o'qituvchilarining ilmiy darajasi, lavozimi haqida ma'lumotlar hamda ular tomonidan ishlab chiqilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar taqdim etilishi zarur bo'ladi. Talabalarning o'qituvchini tanlashiga sharoit yaratish maqsadida o'quv semestrining dastlabki haftasida fanni o'qitishga talabgor o'qituvchilarining ochiq darslari o'tkaziladi, bu o'qituvchilarining darslari turli vaqtarga rejalashtirilishi maqsadga muvofiq.

Oliy o'quv yurtining va kafedralarning o'quv yuklamalarini rejalashtirish o'quv faoliyatining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. O'quv ishlarini rejalashtirishdan oldin pedagogik yuqlama me'yorlari tasdiqlangan bo'lishi zarur. Hozirgi kunda pedagogik yuqlama me'yorlari oliv va o'rtalik vazirligi

tomonidan tавсиya qилинмоқда. Hoзирги globallashuv va олиy та'limдagi islohotlar muhitida олиy о'quv yurtларining reytingini belgilovchi qator omillar kun тartibiga qо'yilmoқда. Shunday ekan, har bir олиy о'quv yurti ularni inobatga олган holda о'z reytingini oshirish hamda о'quv jarayonini zamonaviy shaklda tashkil etish nuqtai-nazaridan pedagogik yuklama me'yorlariga tuzatishlar kiritishi maqsadga muvofiqdir. Oliy va о'rtा maxsus ta'lim vazirligi tomonidan олиy о'quv yurtларига bunday imkoniyatlarning berilishi pedagogolar faoliyatining samarali bo'lishini hamda олиy та'lim muassasalari reytingining oshishiga mustahkam zamin yaratadi.

Oliy о'quv yurti kesimida kafedra о'quv yuklamalari va shtatlar jadvalini rejalshtirishni bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining ishchi о'quv rejalarasi asosida amalga oshirish lozim. Bunda о'quv yuklamalari hisobi kreditlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Kredit ta'lim tizimi sharoitida о'quv yuklamalarini rejalshtirish akademik potoklar soni va ularning sig'imiga ham bog'liq. Kredit ta'lim tizimida akademik potoklar va guruхlar fanlarga yozilgan talabalar kontingentidan kelib chiqib shakllantiriladi. Bunda о'quv semestrining dastlabki haftasida fanni о'qishga tавсиya etilgan barcha nomzodlar tomonidan talabalarning ixtiyoriy qatnashishi asosida mashg'ulotlar olib boriladi va bu jarayon talabalarning o'zi tanlagan о'qituvchining faniga yozilishi bilan yakunlanadi. Keyingi haftadan boshlab akademik potoklar va guruхlar talaba tanlovi asosida shakllantiriladi.

Akademik potoklar va guruхlar sonini aniqlash uchun олиy о'quv yurti fanlarning ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha talabalar sonining ruxsat etilgan chegaralarini oldindan belgilab olishi lozim.

Lavozimlar bo'yicha professor-o'qituvchilar shtati о'quv yuklama turlariga bog'liq bo'ladi. Barcha о'qituvchilik lavozimlari kredit ta'lim tizimiga о'tilishi munosabati bilan professor-dotsent-assistent ierarxiyasi qayta ko'rib chiqilishi lozim. Qoidaga ko'ra professor yoki dotsent – lektorlik, assistentlar – tyutorlik qilishlari mumkin. Bunda lektorlik va tyutorlik shtatlari ma'ruza va boshqa turdagи mashg'ulotlarning nisbatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Oliy о'quv yurti bo'yicha jami о'quv yuklamalari hajmining professoro'qituvchilar soniga nisbati bitta professor-o'qituvchi uchun to'g'ri keladigan о'rtacha yuklamani belgilaydi. Oliy о'quv yurti kafedralarining professoro'qituvchilar shtatlari soni, an'anaga ko'ra, о'quv yuklamasini bitta professor-o'qituvchi uchun to'g'ri keladigan о'rtacha yuklamaga bo'lish va natijani 0,25 ga yaxlitlash orqali aniqlanadi.

Kafedra professor-o'qituvchisining о'rtacha yuklamasi professor, dotsent, katta о'qituvchi va assistant lavozimlari bo'yicha differensial tarzda taqsimlanishi maqsadga muvofiq. Shundan so'ng kafedralar berilgan yuklamalardan kelib chiqqan holda professor-o'qituvchilar tarkibi rejalshtirishni va pedagoglarga

taqsimlashni boshlashadi. Bunda bir semestrda to'liq shtatdagi bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan fanlar soni mutaxassislik kafedralarida 3-6 bo'lishi tavsiya etiladi.

O'qituvchilarning umumiy pedagogik yuklamasiga barcha turdag'i auditoriya yuklamalari (ma'ruza, amaliy, laboratoriya va h.k.), o'qituvchi rahbarligidagi talabalarning mustaqil ish turlari (hisob ishlari, kurs ishlari, bitiruv ishlari, magistrlerning ilmiy-pedagogik faoliyatiga va magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik va sh.k.), malakaviy amaliyotlar va boshqalar kiradi.

Akademik yilni rejalashtirish jarayoni dars jadvallarini tuzish bilan yakunlanadi, ularning nusxalari o'qituvchi va talabalarga tarqatiladi. Dars jadvallarini tuzishda o'qituvchi va talabalarning yuklamalari hafta davomida bir tekisda taqsimlanishi tavsiya etiladi.

**O'quv jarayonini tashkil etish.** O'quv jarayoni tasdiqlangan o'quv rejali, akademik taqvim, professor-o'qituvchilar shtatlari jadvali, akademik potok va guruuhlar, darslar jadvali va talabalarning o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ishlari asosida tashkil qilinadi. O'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha barcha ma'lumotlar fakultet va kafedralarning oynalariga, hamda oliy o'quv yurtining saytiga joylanadi.

Kredit ta'lif tizimida faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurti o'z talabalariga Davlat ta'lif standartlari va malaka talablari doirasida mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishlari hamda o'qishni muvaffaqiyatlari yakunlab akademik daraja olishlari uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratishi lozim. Bunda oliy o'quv yurti o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti uchun javobgar hisoblanadi.

Shu maqsadda quyidagilar ishlab chiqiladi:

- 1) har bir talaba uchun ma'lumotnomalar- yo'rqnoma;
- 2) har bir fan bo'yicha sillabuslar (ishchi o'quv dasturlari);
- 3) fanlar bo'yicha auditoriya mashg'ulotlari uchun o'quv materialllari (ma'ruza matnlari, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bayoni, interfaol tarqatma materialllar, multimedia ilovalari va h.k.);
- 4) talabalarning o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'limi uchun materialllar (uy vazifalari va topshiriqlari, o'z-o'zini baholash uchun nazorat materialllari, referat va kurs ishlari (loyihalari) mavzulari va ularni bajarish bo'yicha uslubiy materialllar, elektron o'quv materialllari);
- 5) bilimlarni tekshirish uchun materialllar (yozma nazorat topshiriqlari, yozma va elektron testlar, imtihon biletlari);
- 6) malakaviy amaliyotlarda qo'llaniladigan materialllar (amaliyot o'tkazish rejali va dasturlari, kundaliklar, hisobot hujjatlari shakllari);
- 7) talabalarning mustaqil ishi uchun materialllar (dayjestlar, ko'p so'raladigan savol-javoblar banki (FAQ), o'rgatuvchi dasturlar, masofaviy ta'lif platformasi va forumlar).

Dars jadvali yozgi semestrغا jalb qilingan lektor va tyutorlarning bo'sh vaqtiga qarab tuziladi;

- yozgi semestr amaldagi baholash tizimi va talabalarning mustaqil baholanishi tamoyiliga ko'ra tashkil qilinadi; o'quv rejasidan tashqari, talabalarning qiziqishlari asosida tashkil qilingan fanlar bo'yicha yakuniy baholashlarni yozgi semestrda dars olib borgan lektor va tyutorlar amalga oshirishlari mumkin;
- RO yozgi semestr uchun to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Yo'naliш va mutaxassisliklar o'quv rejalarini fanlari bo'yicha yozgi semestrda o'zlashtirilgan imtihon natijalarini keyingi o'quv yili uchun GPA darajasini belgilaydi.

#### **Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati**

Kredit-modul tizimida akademik faoliyat turlari. Kredit ta'lim tizimini joriy etishning yangi sharoitlarida professor-o'qituvchilarning roli ham sezilarli darajada o'zgaradi.

Kredit ta'lim tizimida o'qituvchi (pedagog) o'zining vazifasiga ko'ra ta'lim jarayonining quyidagi sub'ektlari sifatida faoliyat olib borishi mumkin:

- lektor;
- tyutor;
- edvayzer;
- maxsus komissiya a'zosi.

Lektor sifatida yuqori akademik professorlar yoki dotsentlar safidan malakali o'qituvchilar tayinlanadi. Ular ma'ruza darslarini yuqori ilmiyuslubiy darajada olib borishadi.

Ma'ruzalar akademik potoklarga, ya'ni mutaxassisligi yaqin bo'lgan bir nechta guruhlarga o'qiladi. Auditoriyadagi talabalar soni lektorning malakasidan va auditoriyaning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Professor va dotsentlar o'zlarining ilmiy saviyasi, ilmiy izlanish yo'naliшlari va pedagogik mahoratidan kelib chiqib bir mutaxassislik ichida bir nechta fanlaridan ma'ruza o'qishlari mumkin.

Oliy o'quv yurtining Ilmiy kengashi qaroriga ko'ra ma'ruza o'qish huquqi ilmiy darajasiz, lekin eng tajribali va yuqori malakali o'qituvchilarga ham beriladi. **Lektor, tyutor, edvayzer va boshqa sub'ektlarning vazifalari.** Lektor o'zining har bir ma'ruza mashg'uloti bo'yicha o'qituvchi rahbarligisiz amalga oshiriladigan talabaning mustaqil ta'limiga (TMT) ga 0,5-1 soat oralig'ida vaqt ajratishi maqsadga muvofiq.

Tyutor – fan o'qituvchisi sifatida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib boradi, maslahat beradi, O'RTMI ni tashkil qiladi va amalga oshiradi, kurs ishlariiga rahbarlik qiladi, amaliyotlarni tashkil qiladi.

Tyutor har bir talabaning fanni o'rganishini nazorat qiladi, shaxsiy topshiriqlarni bajarishini va amaliy mashg'ulotlardagi faoliyatini baholaydi va zarur bo'lsa yordam ko'rsatadi. Shuningdek, tyutor talabaning aniq bir fanni o'rganishdagi faoliyatini umumiy tahlil qilishi mumkin.

Tyutorlar quyidagi sifatlarga ega bo'lislari lozim: o o'qituvchilik: amaliy mashg'ulotlarni talab darajasida olib borish, talabalarga kasbiy o'zini anglashda yordam berish, fanning o'quv-uslubiy materiallaridan to'g'ri va samarali foydalanishlarini ta'minlash;

o maslahatchilik: talabalarning bilish jarayonlarini muvofiqlashtirish, guruhli maslahat va muloqot darslarini olib borish, fanning turli masalalari bo'yicha talabalarga yakka tartibda maslahatlar berish; o menejerlik: talabalar guruhlarini yig'ish va shakllantirish, guruhli mashg'ulotlarni boshqarish, talabalarning fanni o'zlashtirishini nazorat qilish.

Tyutorming vazifalari quyidagilardan iborat: o talabaning o'qishi maksimal darajada samarali bo'lismiga yordam

berish; o talabalarning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilish; o bajarilgan topshiriqlar bo'yicha talaba bilan aloqani ta'minlash; o guruhli va yakka tartibda maslahatlar berish; o butun o'qish davrida o'qishga bo'lgan qiziqishini ta'minlash.

Tyutor O'RTMI uchun har bir amaliy mashg'ulotga nisbatan 0,5-1 soat oraliq'ida vaqt ajratishi tavsiya etiladi.

Shaxsiy o'quv traektoriyasini tanlash va amalga oshirish, shuningdek o'quv rejalarining mobilligi va moslashuvchanligini ta'minlash uchun kredit ta'lim tizimi sharoitida oliv o'quv yurtlarida maslahat xizmati, ya'ni edvayzerlar – akademik maslahatchilar xizmati tashkil qilinadi. Ularning soni fakultetdagi talabalarning sonidan kelib chiqib aniqlanadi.

Edvayzerlar talabalarning akademik manfaatlarini himoya qilishi va o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha barcha zarur axborot materiallarini tayyorlashda ishtirok etishi, ularni talabalarga elektron shaklda taqdim etishi va ularning shaxsiy o'quv rejalarini tuzish va tuzatish kiritishda yordam berishi, uslubiy materiallarning o'z vaqtida tayyorlanishi va mavjudligini, yo'nalishning barcha fanlari bo'yicha oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazish qoidalarining bajarilishini nazorat qilishi zarur.

Edvayzer – o'qish davri bo'yicha shaxsiy o'quv traektoriyasini tanlash va ta'lim dasturini o'zlashtirishga yordam beruvchi o'qituvchi hisoblanadi. Bundan tashqari, edvayzer talabaga kelgusidagi karerasiga oid masalalarni yechishda,

bitiruv ishi mavzusini tanlashda, kasbiy amaliyot bazalarini aniqlashda maslahat yordamini ko'rsatishi mumkin.

Edvayzerning vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- talabalarga shaxsiy o'quv traektoriyalarini aniqlash va ta'lim dasturini o'zlashtirishda yordam ko'rsatish;
- o'quv traektoriyasini tanlashda talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va istaklarini aniqlash;
- talabalarga fanlarni tanlashda maslahatlar berish;
- talabalarga shaxsiy o'quv rejalarini tuzish va zarur bo'lsa tuzatishga yordam berish;
- talabalarning o'zlashtirishi va akademik mavqei masalalari bo'yicha ekspert komissiyalari ishida ishtirok etish.

Edvayzerlar kafedra mudirlari bilan kelishilgan holda oliv o'quv yurti rektori buyrug'i bilan tayinlanadi.

Edvayzer talabalarini oliv o'quv yurtining o'ziga xos jihatlari, ishchi o'quv rejasi mazmuni, diplom olish uchun qo'yiladigan talablar, tanlangan yo'nalishning imkoniyatlari bilan tanishtiradi va talabalarning moyilligi, imkoniyatlari, qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq shaxsiy o'quv traektoriyalarini tanlashda yordamchi hisoblanadi.

Edvayzer qayd qilish tadbirlarida ishtirok etadi. Har bir edvayzerga RO tomonidan ma'lum miqdorda talabalar biriktiriladi. Talabalar biriktirilgandan so'ng edvayzer ular bilan shaxsiy rejimda ishslashga o'tadi.

Edvayzer tashkiliy-uslubiy ishlarda ishtirok etadi hamda fanlarni tanlash va ularga yozilish bo'yicha maslahatlar beradi, yo'nalishning tanlov fanlari kataloglari va ishchi o'quv dasturlari bilan tanishtiradi.

O'quv yili davomida edvayzer fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadigan maslahat jadvallariga muvofiq ishlaydi. Talabalarning shoshilinch akademik muammolarini hal qilish maqsadida edvayzer ish jadvalidan tashqari shaxsiy uchrashuvlarni ham belgilashi mumkin.

Edvayzerning maslahatchilik faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabalarini ta'lim jarayonining qoidalari bilan tanishtirish;
- talabalarning qarashlari, qadriyatlar, ularning moyilligi va imkoniyatlarini aniqlash;
- namunaviy o'quv reja va tanlov fanlari katalogi bilan tanishtirish (majburiy, tanlov fanlari ro'yxatini, fanlarning prerekvizitlarini tuzishga qo'yiladigan talablar bilan);
- kreditlar miqdori va ularni o'zlashtirish bo'yicha tushuntirishlar olib borish

Kredit-modul tizimida xorijda keng tarqalgan supervayzerlik, moderatorlik, fasilitatorlik kabi faoliyat turlari ham ko'zda tutilishi mumkin.

Fasilitator - (ingliz tilida facilitator, latincha facilis-engil, qulay) - guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi komunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

Moderator - qabul qilingan qoidalarga amal qilish tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Supervayzer - quyidagi to'rt fazifani bajaradi: o'qituvchi sifatida o'rgatadi, fasilitatorlik, maslahatchi, ekspert vazifani bajaradi.

Bizning ta'lilda ushbu faoliyatlarning hammasi professoro'qituvchilar tomonidan bajariladi. O'qituvchilik faoliyatini bunday turlarga ajratish bu faoliyat turining samarasini yanada oshiradi.

**O'quv rejaları, ishchi o'quv dasturi, talabaning mustaqil ishi sifatini nazorat qilish bo'yicha komissiyalar.** Kredit ta'lím tizimida oliv o'quv yurtlarida o'quv jarayonini samarali tashkil qilishga yordam beruvchi turli komissiyalar tuzilishi maqsadga muvofiq. Tajribalarni o'rghanish shuni ko'rsatadiki, qator xorijiy oliv o'quv yurtlarida bunday komissiyalar sifatida: o'quv rejaları bo'yicha, ishchi dasturları bo'yicha, TMI sifatini nazorat qilish, o'qituvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash, kasbga yo'naltirish, o'quv jarayoniga ilmiy yutuqlarni tatbiq etish bo'yicha komissiyalar joriy etilishi mumkin.

**O'quv rejaları bo'yicha komissiya.** Komissiya faoliyatining maqsadi – butun o'quv davri uchun yo'nalishlar bo'yicha ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqishdir. Komissiya faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) tanlov fanlari ro'yxatini shakllantirish va tizimga solish;

2) kafedralarga yo'nalishlar bo'yicha prerekvizitlarni aniqlashda yordam berish;

3) ishchi o'quv rejalarini tuzish.

Komissiya a'zolarining majburiyatları quyidagilardan iborat:

1) o'quv rejaları bo'yicha komissiya ishida muntazam ishtirok etish;

2) talabaning o'quv traektoriyasini shakllantirish bo'yicha seminarlar ishida ishtirok etish;

3) tanlov fanlarini tanlash bo'yicha asosiy holatlarni muntazam ravishda ishlab chiqish;

4) tanlov fanlari ro'yxatiga kiritish uchun fanlarning tayyorligini ekspertiza qilish;

5) prerekvizitlar tizimini shakllantirish bo'yicha asosiy yondashuvlarni ishlab chiqish.

**Ishchi o'quv dasturi bo'yicha komissiya.** Ushbu komissiya ishchi o'quv dasturi bo'yicha, dasturlarni ishlab chiqish sifatini nazorat qilish maqsadida tashkil qilinadi. Komissiya faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) ishchi o'quv dasturi tuzilmasini shakllantirish; 2) ishchi o'quv dasturlarini tuzishni tashkil qilish; 3) o'quv dasturlari katalogini ishlab chiqish.

Komissiya a'zolarining majburiyatları quyidagilardan iborat:

1) fanlar bo'yicha ishchi dasturlarni ishlab chiqish va ularni muhokama qilish;

2) o'quv dasturlari katalogini tuzish;

3) barcha fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlari sifatini baholash.

**TMI sifatini nazorat qilish bo'yicha komissiya.** TMI sifatini nazorat qilish bo'yicha komissiya fanlar kesimida TMI larini tashkil qilish va rejalashtirish, ularni tarqatish, topshirish muddatlarini va sifatini nazorat qilish va uslubiy ta'minotini yaxshilash maqsadida tashkil qilinadi.

Komissiya a'zolarining vazifalari quyidagilardan iborat:

1) O'RTMI jadvallarini tuzishni nazorat qilish;

2) fakultet yo'naliishlari fanlari bo'yicha semesrda O'RTMI larni o'tkazish jadvallarini muvofiqlashtirish;

3) mustaqil ishlarning talabalar tomonidan bajarilishini baholash va nazorat qilish usullarini ishlab chiqish;

4) butun semestr uchun alohida fanlarning ish sig'imi bo'yicha O'RTMI jadvallarini tahlil qilish;

5) O'RTMI larini topshirishning yagona jadvallarini ishlab chiqish va optimallashtirish;

6) alohida fanlar bo'yicha topshiriqlar sifatini baholash;

7) TMI shakllarini tanlashning to'g'rilingiga baho berish;

8) topshiriqlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar mavjudligini tahlil qilish va ularni ekspert baholash;

9) o'zlashtirish tahlili natijalaridan kelib chiqib TMI ni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;

10) TMI ni tashkil qilish masalalari va ularning uslubiy ta'minoti bo'yicha professor-o'qituvchilar jamoasi bilan seminar va maslahatlarni tashkil qilishda ishtiroy etish;

11) turli ko'rinishdagi TMI bo'yicha yondashuvlarni va baholash me'yorlarini aniqlashda ishtiroy etish.

Amaldagi ta'lim tizimida bunday vazifalar o'quv-metodik birlashmalar zimmasiga yuklab kelingan. Biroq, so'nggi yillarda bu tuzilmaning faoliyati sustlashib qoldi.

Ushbu tavsiya qilingan komissiyalar Oliy ta'lim muassasasining ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil qilinadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Modulli-kredit tizimining mohiyati nimadan iborat?
2. Modul-kredit tizimi qanday tamoyillarga tayanadi?
3. Psixologiya fanlarini o'qitishda modulli ta'lim texnologiyalarining afzalliliklari.
4. ECTS nima?
5. Kredit-modul tizimida "kredit" atamasi qanday ma'noni anglatadi?
6. Kredit-modul tizimiga o'tish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi uchun nimaga kerak?
7. AQSh oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
8. Fransiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
9. Belgiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
10. Germaniya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
11. Shvesiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
12. Gollandiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
13. Yaponiya oliy ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
14. Kredit-modul tizimida qanday qilib umumiyligi o'quv yuklamalari hajmini kamaytirish mumkin?
15. Talabaning mustaqil ta'limi (TMT) haqida ma'lumot bering/
16. Kredit-modul tizimida ta'lim mazmunini rejalashtirish qanday amalga oshirilishi mumkin?
17. Kredit-modul tizimida talabalarni tabaqaqlab o'qitishni qanday tashkil qilish mumkin?
18. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
19. Kredit-modul tizimida talabaning vaqt byudjeti qanday aniqlanadi?
20. Kimlar lektorlik qilishlari mumkin?
21. Kimlar tyutorlik qilishlari mumkin?
22. Kimlar edvayzerlik qilishlari mumkin?
23. Lektor TMT turiga qancha vaqt rejalashtirishi lozim?
24. Tyutor qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanadi?
25. O'quv rejalar bo'yicha komissiya nima bilan shug'ullanadi?
26. Moderatorlik qanday faoliyat turi hisoblanadi?

## **9 - MAVZU: MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION TEKNOLOGIYA: LOYIHA METODI**

**Reja:**

1. Loyihaviy ta'larning asoslari.
2. Talabalar o'quv loyihaviy faoliyatini bosqichlari.
3. O'quv loyihaviy faoliyat turlari.

### **1.Loyihaviy ta'larning asoslari**

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o'quv loyihalarning tayyorlanishiga e'tibor qaratilmoqda. Xo'sh, o'quv loyihasining o'zi nima? O'quv loyihalarini tayyorlash jarayoni qanday kechadi?


**O'quv loyihasi** – 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli;  
2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasi;  
3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakkantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita

Loyiha ta'limi texnologiyalaridan o'quv amaliyotida foydalanishda “o'quv loyihaviy faoliyat” tushunchasi ham qo'llaniladi. **O'quv loyihaviy faoliyat** – o'quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo'lida talabalar tomonidan izchil amalgalashishga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi.

### **2.Talabalar o'quv loyihaviy faoliyati bosqichlari**


Talabalarning o'quv loyihaviy faoliyati muayyan bosqichlarda tashkil etiladi.

Ular quyidagilardir (1-rasm):




**1-rasm. Talabalar o'quv loyihaviy faoliyati bosqichlari**

Talabalar tomonidan juftlik, kichik guruhlar yoki jamoa axosida turli mavzularda o'quv loyihamini tayyorlash quyidagi bosqichlarda kechadi (2-rasm):



**2-rasm. Talabalar tomonidan o'quv loyihamini tayyorlash bosqichlari**

O'quv loyihami faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo'yicha tayyorlanishiga ko'ra quyidagicha turlanadi (3-rasm):



**3-rasm. O'quv loyihalaring turlari**

Har bir o'quv loyihasi o'z maqsadi va kutiladigan natijasiga ko'ra muayyan turga mansub bo'ladi. O'quv loyihalining asosiy turlari quyidagilardir (1-jadval):

### 3.O'quv loyibaviy faoliyat turlari

#### 1-jadval. O'quv loyihalari turlarining mohiyati

Axborotli loyihalar	Tadqiqot loyihalar	Amaliy loyihalar
<b>Maqsadi</b>		
Muammoga oid ma'lumotlarni toplash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash	Tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash	Muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish
<b>Natijasi</b>		
Maqola, referat, ma'ruza, keys va b.	Hisobot, ma'ruza, keys va b.	Harakatlar dasturi, biznes-reja, keys, strategiya, tavsiya, ma'lumotnomalarini to'plami va b.
<b>Loyiba mavzusi (namuna)</b>		
Pedagogning ta'limgarayoniga innovatsion yondashuvi o'qitish sifati va samaradorligini kafolatlay oladimi? Pedagogning innovatsion faoliyati aynan nimalarda aks etadi?	Ish tajribasidan qat'iy nazar har bir pedagog innovator bo'la oladimi? Pedagogning innovatorlik faoliyati darajasi	Pedagogning innovatsion faoliyat malakalarini o'zlashtirish dasturi. Pedagogning innovatsion faoliyatni tashkil etish strategiyasi
Modul	Modul	

O'quv loyihalari muayyan topshiriq bo'lib, uning natijasi oddiy bir mahsulotni tayyorlash (m: texnologik xaritani tayyorlash, biror-biror model, deylik, dizaynerlik modelini yaratishdan iborat bo'ladi). Biroq, ayni o'rinda shuni ham qayd etish kerak, "loyiha" tushunchasi negizida hamisha ham amaliy harakatlar natijasiga tayyorlangan biror-bir mahsulot tushunilmaydi. Chunki loyiha doirasida nazariy, amaliy va metodik xarakterdag'i g'oyalarni yaratish negizida mahsulotni yaratishga to'g'ri keladi.

O'quv loyihalarini tayyorlashda amaliyot o'qituvchisi muhim o'rinni egallaydi. Uning zimmasiga bir qator vazifalar yuklatiladi. Ular:

- loyiha ishi uchun muayyan mavzu, muammoni belgilash;
- loyiha topshiriqlarini ishlab chiqarish;
- loyiha ishini o'quv jadvaliga kiritishi;
- loyiha jarayonini modelini avvaldan ishlab chiqish, topshiriqlarni talabalarning imkoniyatlariga moslashtirish;
- talabalmi loyiha ishi bilan tanishtirish;
- ularning amaliy faoliyatları nazorat qilib turish

Amaliyot o'qituvchisi avvaldan quyidagi material va hujjatlarni tayyorlab olishi lozim:

- loyiha (chizma, elektronsxema)lar;
- loyiha ga taalluqli topshiriqlar bayoni;
- ma'lumot yig'ishga oid yo'naltiruvchi savollar;
- o'quv maqsadlarni yoriuvchi ma'lumotlar

Amaliyot o'qituvchisi ta'lif jarayonida talabalarning faoliyatlarini nazorat qilib borai va nazorat natijalarini "Nazorat protokoli"ga qayd etadi. Protokol talabalarning faoliyatini baholashga doir mezonlarga ega bo'lishi lozim.

### Nazorat savollari

- Loyihaviy ta'limming asoslari haqida tushuncha bering.
- O'quv loyhaviy faoliyat nima?
- Talabalar o'quv loyhaviy faoliyati bosqichlarini ketma ketlikda tushuntiring.

# **10-MAVZU: PSIXOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA KEYS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH “KEYS-STADI” TEXNOLOGIYASI**

**Reja:**

1. “Keys-stadi” texnologiyasining kelib chiqish tarixi, Keyslar tipologiyasi
2. Pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keys.

## **1. “Keys-stadi” texnologiyasining kelib chiqish tarixi, Keyslar tipologiyasi**

So‘nggi vaqtarda “Keys-stadi” metodi xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo’llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika ta’limida ham tobora ommalashib bormoqda. Shu sababli ayni o'rinda ushbu metod (texnologiya)<sup>4</sup> mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

**“Keys-stadi” texnologiyasi** (ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) –

1) talabalarda aniq, real

muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya;

2) real vaziyatlarni bayon etishda qo’llaniladigan o‘qitish texnikasi

Texnologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tahlil ko‘nikmalarini va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta’minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.
5. Noaniqliklar mavjud bo‘lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish


Darhaqiqat, keys-stadi talabalarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiyligi mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim

\* Инновационные технологии в образовании / Муслимов Н.А., Усмонбоеева М.Х., Сайфуров Д.М., Тураев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашириети, 2015. – 81-б.; Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла / Учеб.-мет.пособие. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. – С. 3.

jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va talaba (talaba) o'rtaсидаги та'lими aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

"Keys-stadi" texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo'llanila boshlangan. Keyslarning ilk to'plami 1925 yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan<sup>5</sup>. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi harakatlar mustaqillik yillarda faollashdi.

Zamonaviy o'qitish amaliyotida o'quv keyslarining quyidagi turlari qo'llanilmoqda (1-rasm):



1-rasm. O'quv keyslarining asosiy turlari

Ta'limda qo'llaniladigan "Keys-stadi"ning tayyor variantlari ham mayjud bo'lib, ularni sotib olish mumkin. Biroq, eng samarali yo'l har bir fan bo'yicha keyslarning mustaqil yaratilishiga erishishdir. Birgina Garvard universitetida yiliga 700 ta keys ishlab chiqiladi. Ularning narxi 10 \$. Ammo ba'zi keyslarning narxi 500 ta 1000 \$ gacha. London biznes maktabi va boshqa biznes maktablar o'zlarida 340 nafarga yaqin ishtirokchilarni birlashtirgan holda keyslarni yaratish bilan shug'ullanadi.

Texnologiya talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarни, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlanadir, turli muammoli vaziyatlar

<sup>5</sup> Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения: [http://www.vshu.ru/lectures.php?tab\\_id=3&a=info&id=2600](http://www.vshu.ru/lectures.php?tab_id=3&a=info&id=2600).

va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

"Keys-stadi" yordamida talabalar quyidagi ko'nikma, malakalar<sup>6</sup>ga ega bo'ladi:

- **Tabliliy ko'nikmalar** (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).
- **Amaliy ko'nikmalar** (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish).
- **Ijodiy ko'nikmalar** (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).
- **Muloqot ko'nikmalar** (unga ko'ra talaba bahs-munozara olib borish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur).
- **Ijtimoiy ko'nikmalar** (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikri bildira olish va o'zini boshqara olishi lozim).
- **O'z-o'zini tahlil** (bahs-munozara jarayonida o'zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo'lishi muhim)

Har o'qituvchi keys-stadiga asoslangan o'quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy-didaktik xarakterga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi.

1. Keys (muammo) bilan tanishing.
2. Muammoning dolzarbligini baholang.
3. Muammoning dolzarbligini dalillar yordamida izohlang.
4. Keys (muammo)ni samarali yechish yo'llarini aniqlang.
5. Keys (muammo)ning samarali yechimini belgilovchi metod va texnologiyalami tanlang.
6. Keys (muammo)ning samarali yechimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shaklantiring

O'quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari talabalarga muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan talabalar e'tiboriga adapbiyotlar ro'yxatining taqdim etilishi, ularga metodik ko'rsatma, yo'riqnomalarning berilishi va albatta, o'qituvchi tomonidan muammoning yechimi bo'yicha o'z variantining taqdim etilishi sanaladi.

<sup>6</sup> Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: "Сано стандарт" нашриёти, 2015. – 81-б.

Adabiyotlar ro'yxati o'rganilayotgan muammoga bevosita taalluqli bo'lishi zarur. Keyslami yechishga doir metodik ko'rsatma, yo'riqnomalar taxminan shunday bo'lishi mumkin:

Xorijiy mamlakatlar ta'llimi amaliyotida keyslar amaliy va ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish maqsadida qo'llanilishi sababli ular odatda murakkab tarkibiy tuzilma hamda o'ttacha (Evropa), katta (AQSh) hajmga ega bo'ladi. Ko'p holatlarda keyslar birgina mashg'ulot jarayonida hal qilinmay, balki butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida yechiladi. Ularning bu boradagi tajribalaridan bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat), magistrlik dissertatsiyalari (magistratura), bitiruv loyiha ishlari (malaka oshirish kurslari)da foydalanish maqsadga muvofiqir. O'quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda oddiy, murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo'lмаган, ya'ni mini testlardan ham foydalanish amaliy qiymatga egaligi ta'lim amaliyotida o'z tasdig'ini topgan.

Murakkab keys (muammoli vaziyat)lar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi:

1. Pedagogik annotatsiya.
2. Kirish.
3. Keys (muammo)ning bayoni.
4. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
5. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.
6. Metodik ko'rsatmalar.
7. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
8. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.
9. Keys yechimini tahlil qilish.
10. O'qituvchi (keysolog) ning yechimi

Mini keyslar uchun quyidagi tarkibiy tuzilmaga egalik xarakterlidir:

1. Keys (muammo)ning bayoni.
2. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
3. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.
4. Metodik ko'rsatmalar.
5. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
6. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.
7. Keys yechimini tahlil qilish.
8. O'qituvchi (keysolog)ning yechimi

Aytib o'tilganidek, xorijiy mamlakatlar katta hajmli, murakkab ilmiy-tadqiqot xarakteriga ega keyslar ko'p qo'llaniladi va ularni hal etish butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida amalga oshiriladi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu keyslaran samarali foyalanish mumkin. Shu bilan birga o'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida kichik hajmli, sodda – mini keyslardan ham foydalanish foydadan holi emas. Murakkab va oddiy mini keyslar o'rtaqidagi eng muhim farqlar – ularning hajmi, murakkablik darajasi va tarkibiy tuzilmasida aks etadi.

Anglanganidek, ta'lif jarayonida o'quv keyslarini qo'llashda jarayon (mashg'ulot) yakunida albatta o'qituvchi (keyolog)ning yechimi taqdim etilishi zarur. Buning didaktik ahamiyati bu yechim asosida talabalarning o'z o'quv-bilish harakatlarining qanchalik to'g'ri, samarali, maqsadga muvofiq amalga oshira olganliklarini tahlil qilish, solishtirish, yo'l qo'ygan xatolarini aniqlash imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi.

Keyslar tipologiyasida o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli savolli hamda topshiriqli bo'lishi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra talabalarning e'tiborlariga havola etiladigan keyslar yoki savolli, yoki topshiriqli bo'lishi mumkin.

Agar keys **savolli-keys** bo'lsa, u holda muammo yoki muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechishga oid **bir necha savollar** keltiriladi. M:

1. Yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishining asosiy omillari nimalardan iborat?

2. Yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishlarida OAVning o'rni va rolini qanday aniq dalillar asosida baholay olasiz?

Agar keys **topshiriqli-keys** bo'lsa, u holda keysni yechish jarayonida bajarilishi zarur bo'lgan **topshiriqlar** beriladi. M:

1. Yoshlarni "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoyalash omillarini aniqlang.

2. Yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni samarali shakkantirish yo'llarini belgilang.

Odatda keyslarni tayyorlashda darslik va o'quv qo'llanmalardan, balki ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet materiallaridan ham maqsadli foydalanish mumkin.

Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan keyslarni ularning xarakteriga ko'ra B.B. Blum taksonomiysi (bilish-tushunish-anglash-tahlil-sintez-qo'llash tizimi)ga muvofiq bir necha guruhg'a ajratish mumkin (2-rasm):

Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda ushbu keyslardan samarali, maqsadli va o'rinali foydalanish uchun zarur sharoitlar mavjudligi aniqlandi. Quyidagi misollar ushbu fikrning to'g'riligini tasdiqlaydi.



### **2-rasm. O'quv keyslarining asosiy guruhlari**

#### **1. Pedagogik bilimlardan xabardorlikni aniqlashga yordam beradigan keys.**

**Keys bayoni.** Sobir o'rta maktabning 9-sinfini tamomladi.

Shahodatnomasida "uch" baholar ko'p bo'lganligi, salbiy xulqqa egaligi sababli, Sobir hech bir kasb-hunar kollejiga qabul qilinmadi. Har bir kollejning rahbari Sobirni boshqa akademik litsey va kasb-hunar kollejiga kirishini tavsiya etdi. Biroq, Sobirning ota-onasi har gal o'g'illarini o'zları yashaydigan tumandagi kasb-hunar kollejida ta'lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi.

#### **Keys savollari:**

**1. Aytingchi, kasb-hunar kollejlarining rahbarlari Sobirni o'qishga qabul qilmaslikka haqlimilar?**

**2. Ayni vaziyatda Sobirning qanday huquqlari buzilyapti?**

**O'qituvchining yechimi.** Kasb-hunar kolleji rahbarlari ijtimoiy xavf bo'lmagan holda "uch" bahoga o'qiganligi va xulqida salbiy holatlar ko'zga tashlanishi uchungina Sobirni o'qitishga qabul qilmaslikka haqli emaslar. Ular shaxsning bilim olishga bo'lgan huquqini poymol yetishgan. Qolaversa, kasb-

hunar kollejlarida ta'lif olish majburiy-ixtiyoriy xarakterga ega. Shu sababli Sobir va uning ota-onasi kasb-hunar kollejini o'zları tanlay oladi.

Bordi-yu, kollejga qabul qilish sinov, imtihonlar asosida olib borilsa va Sobirning o'zi ularga puxta tayyorlanmaganligi sababli sinovdan o'ta olmasa, u holda ana shu kasb-hunar kollejiga qabul qilinmaydi.

Bu vaziyatda Sobirning bilim olish huquqi (O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi) poymol etganliklari sababli kasb-hunar kollejlarining rahbarlari ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

## **2. Pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keys.**

**Keys bayoni.** Uzoq yillik ish tajribasiga hamda talabalar o'rtaida alohida hurmatga ega tarix fani o'qituvchi auditoriyaga kirib, doskada o'zining karikatura janrida ishlangan rasmini ko'radi. Karikatura yorqin ishlangan, har bir shtrix aniq ishlangan, qolaversa, rasm juda kulgili chiqqan. Butun guruh o'qituvchining karikaturagaya, uning ijodkoriga nisbatan munosabatini kutyapti. Biroq, o'qituvchi shoshilmasdan, katta qiziqish bilan karikaturani tomosha qiladi va shunday dedi: "Karikatura shunchalik yaxshi chiqibdiki, uni hatto o'chirgim kelmayapti. Rasm ijodkori – yosh rassom uni qog'ozga ko'chirib olishi kerak. Men karikaturist (rassom)ni munosib baholayman!".

**Keys savollari:** 1. O'qituvchining mavjud vaziyatdagi holatini shaxsan Siz qanday baholaysiz?

### **2. Bu vaziyatda o'qituvchi qanday tarbiya metodini qo'lladi?**

**O'qituvchining yechimi.** Bu vaziyatda o'qituvchi o'zining tarjibiali va pedagogik nazokatga egaligini namoyon eta oldi. U karikaturani o'zining ustidan kulish vositasi deb emas, aksincha, san'at asari sifatida qabul qildi. Natijada o'qituvchi aybdor talabani qidirib, unga tanbeh berishni istamadi. Buning o'miga o'zining san'atga bo'lgan muhabbatini ko'rsatdi. Bunday yondashuv talabalarga o'qituvchining irodali, o'ziga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, hissiyotlarini jilovlay olish, o'z-o'zini boshqara bilish qobiliyatiga egaligini ko'rsatdi. Oqibatda talabalar o'qituvchining ruhan barqaror ekantiklarini anglatdi. Shu sababli keyingi safar ular o'qituvchini kansitish yoki ustidan kulishni istashmaydi.

Bayon etilgan vaziyatda o'qituvchi: 1) izohlash (o'zida muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganlikni ifodalovchi hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli); 2) xulq va faoliyatni rag'baqtanitish metodlaridan biri bo'lgan – qo'llab-quvvatlash metodidan foydalandi.

## **3. Ta'lif-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisalarining tarkibiy elementlari o'rtaсидаги о'заро бирлик ва aloqadorlikni anglash hamda tablib qilishga yo'naltirilgan keys.**

**Keys bayoni.** Tarix fani o'qituvchisi bir soatlik darsida quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirdi:

- 1) ma'lumotlarni izchil bayon qildi;
- 2) zarur o'rinnlarda tayanch tushunchalarga alohida urg'u berdi;
- 3) xaritadan tarixiy voqelar sodir bo'lgan joylarni ko'rsatdi;
- 4) vaqtı-vaqtı bilan talabalarga savollar berib, ulardan javoblar oldi;
- 5) o'quv filmi orqali tarixiy voqelikka oid dalillarni namoyish etdi.

**Keys topshirig'i.** O'qituvchining xatti-harakatlari qanday metodlar yordamida amalga oshirilganligini aniqlang.

**O'qituvchining yechimi.** Tarix fani o'qituvchisi qo'llagan metodlar: 1) hikoya; 2) tushuntirish; 3) tasvirlash; 4) suhbat; 5) namoyish.

**4. Ta'lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisaning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalasbni taqozo etadigan keys.**

**Keys bayoni.** Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

- 1) o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv harakatining;
- 2) zarur ko'nikma va malakalar shakllangunicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi;
- 3) dastlabki bajarilishi o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 4) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi.

Ushbu holatda mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari noto'g'ri ko'rsatilgan.

**Keys topshirig'i.** Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlarini zarur izchillikda ifodalang.

**O'qituvchining yechimi.** Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

- 1) o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 2) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi;
- 3) o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;
- 4) zarur ko'nikma va malakalar shakllangunicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

**5. Pedagogik bilimlarni amalda qo'llash, mavjud ko'nikma va malakalarni to'laqonli namoyon etishga doir keys.**

**Keys bayoni.** Og'zaki bayon qilish metodlari talabalarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlash va bilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Keys topshirig'i.** Og'zaki bayon qilish metodi turlarini "Baliq skelet" grafik organayzerida ifodalang.

**Nazorat savollari:**

- “Keys-stadi” texnologiyasining kelib chiqish tarixi.
- Keyslar tipologiyasi
- O‘quv keyslarining asosiy guruhlari

## **11-MAVZU: O‘QUV MASHG‘ULOTLARINING ZAMONAVIY TURLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI.**

### **Reja:**

1. O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlari asosida (aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish.
2. Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.).

### **1. O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlari asosida (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish.**

Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar)ning ma’lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatlarining tashqi ko‘rinishi ta’limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot davrida ta’limning tashkiliy shakllari turlicha bo‘lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o‘qitish keng tarqalgan bo‘lib, u ma’lum ijobjiy jihatlarga ega bo‘lganligi bois hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. O‘rta asrga kelib, kasbiy ta’lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o‘tkazila boshlagan, chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo‘lga qo‘yilayotgan davr edi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A. Komenskiy sinf-dars tizimi maqbulligini nazariy jihatdan isbotlab berdi. Shu paytgacha bu tizimdan keng ko‘lamda foydalanilib kelinmoqda, lekin unga muqobil tizim yaratilganicha yo‘q.

Amaliyotda 80 undan ortiq foiz miqdordagi ta’lim-tarbiya ishlari, yani mashg‘ulotlar sinf-dars tarzida amalga oshirilganligi sababli dars – ta’limtarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi.

Ijtimoiy talablar, ta’limning maqsad va vazifalari, ta’lim oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta’lim-tarbiya qonuniyatları, prinsiplari kabilarga ko‘ra darslarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so‘nggi yutuqlari, ilg‘or, pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib dars tuzilmasini maqbullahtirish;
- darsda barcha didaktik prinsiplarning maqbul nisbati va uyg‘unligini ta’minlash;

- ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda faol, mahsulli o'quv-bilish faoliyatiga shart-sharoit yaratish;
- o'quv materialining mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;
- ta'lim oluvchilar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish;
- ta'lim oluvchilarning barcha ijobjiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quvbilish faoliyatini faollashtirish yo'lli bilan ta'lim oluvchilar shaxsini rivojlantrishga erishish;
- darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va emotsional his-tuyg'ularga asoslanish;
- didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalananish;
- nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish;
- zaruriy bilim, xatti-harakat usullari, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib topdirish;
- ta'lim oluvchilarda muntazam va uzlusiz ravishda o'qib-o'rganish o'zining bilim va kasbiy mahoratini oshira borish ehtiyojini shakllantirish;
- darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat qilish, tashhislash va shu kabilar.

Pedagogikada zamонавиј дарслар бир-бiri билан узвиј bog'liq: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantruvchi maqsadlами uyg'unlashtirish bu sohada aniq maqsadlами belgilab olishni talab etadi.

Darslarga qo'yiladigan didaktik talablar qo'yidagicha.

## Ta'limiy talablar

Harbir darsning vazifalarini aniq belgilab olish.

Ijtimoiy talab va ta'lif oluvchilarining ehtiyojlari, shart-sharoitini hisobga olgan holda ta'lif mazmunini maqbulashtirish.

Samarali pedagogik texnologiyalar asosida ta'lif oluvchilarining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish.

Ilmiy-tadqiqatli turli shakl metod va vositalarining oqilona uyg'unligini ta'minlash.

Dars tuzulmasini ijodiy yondoshgan holda shakllantirish.

Ta'lif oluvchilarining turli o'quv-bilish faoliyatlarini uyg'unlashtirish.

Ta'lif jarayoni ishtirokchilari orasida tezkor teskari aloqani ta'minlash, ta'sirchan tezkor mexanizimni ishlatalish.

Darslarni ilmiy-uslibiy asosda tashkil etish.

1. O'quv materiallarning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlab, ulardan egilona foydalananish.


### Tarbiyaviy talablar

2. Ta'lif mazmuni va maqsadlaridan kelib chiqadigan tarbiyaviy

4. Ta'lif oluvchilar bilan do'stlarcha munosabatda bo'lish.

3. Ta'lif oluvchilarini umuminsonlye naderivatlar a'zalida

Rivojlantiruvchi talablar:



Bundan tashqari ta'lim metodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruuvchilik, maqbul muloqot o'matish, hamkorlik qilish, sanitariyagigienik, axloqiy kabi talablar ham hisobga olinadi.

O'qituvchi o'zi o'qitadigan o'quv predmeti bo'yicha mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ularga puxta tayyorgarlik ko'rishi muhim ahamiyatga ega.

### O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari<sup>7</sup>

<sup>7</sup> Ушбу укуу материалы А.Е.Ибраимов томонидан яратилган "Масофийи үкитишинг дидактик тибии" номли күлпазымаси ясасида тайерланган. (Каранг. А.Е.Ибраимов. Масофийи үкитишинг дидактик тибии. – Тошкент: "Lesson press", 2020, 112 бет.)

### An'anaviy sinf-dars tizimi

- Yangi materialni o'rganish; o'tilgan materiallarni mustahkamlash; nazorat qilish; aralash va boshqa darslar.

### Yakka tartibdagl ta'lif

- Transport vositalarini boshqarishga o'rgatish; Repititorlik ta'lifi.

### Ta'lifning noan'anaviy shakillari

- Teskari sinf, aralash ta'lif, virtual labaratoriya, debat, loyiha, va boshqalar.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lif texnologiyalarini joriy etish ma'lum bir muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Jumladan, hozirgi kunda ta'lif tizimida mavjud bo'lgan didaktik tizimlar, ko'pchilik holatda dars jarayonida ma'ruba qilish, namoyish etish, eshitish va yozib olish kabi o'qitish paradigmasiga asoslangan. Ushbu didaktik tizimda asosiy vazifani tyutor bajaradi, ta'lif oluvchi esa ko'proq passiv bilim oluvchi hisoblanadi. Bunday ma'ruba shaklida o'qitishda ta'lif oluvchilar ko'pincha tyutor tomonidan dars jarayonida bиринчи мarta аytilgan ma'lumotlarini tushunishga harakat qiladi va ular bu ma'lumotlarning mazmun-mohiyati xaqida chuqurroq o'yashga ulgurmaydi va tezkorlik bilan tyutorning so'zlarini yozib olish bilan band bo'ladi. Xalqaro mutaxassislardan biri K.D.Muldrov fikricha, tyutor ma'ruba shaklidagi darsda o'qitishning differensial yondashuvini to'liq amalga oshira olmasligi, har bir ta'lif oluvchining individual xususiyatlarini hisobga olmasligi, o'quv materiallarni o'zlashtirishining tegishli sur'atini ta'minlay olmasligi mumkin. Bu holat hozirgi kunda butun dunyoda muammo sifatida qaralmoqda va mazkur muammoni bartaraf etish uchun ta'lif oluvchilarning mustaqil ta'lif olishini tashkil etishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan muammolarning yechimini topish va ilgari surilgan g'oyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy o'qitish shakllaridan biri — aralash o'qitish (**Blended learning**) hisoblanadi.

Aralash o'qitish — zamonaviy ta'lif texnologiyasi bo'lib, uning asosi "sinf-dars tizimi" bilan elektron ta'lifning birlashuvni konsepsiyasidan iborat. Bu elektron ta'lif, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va zamonaviy o'quv vositalari taqdim qiladigan yangi didaktik imkoniyatlarga asoslanadi. Aralash

o'qitishning keng tarqalgan usullaridan biri — bu “**Flipped Class**” pedagogik texnologiyasi asosida o'qitish hisoblanadi.

“**Flipped Class**” inglizcha so'z bo'lib, ruschada — “Perevernutyy klass”, o'zbekchada “Teskari dars, sinf”, “O'rin almashtirilgan dars, sinf”, “Ilgarilama dars, sinf”, “Oldindan tayyorlanish darsi, sinfi” ma'no- lariga to'g'ri keladi. Bularning orasidan ushbu pedagogik texnologiyaning xaqiqiy mazmun-mohiyatiga eng yaqin bo'lgan nom sifatida o'zbek tilida “Oldindan tayyorlanish darsi, sinfi” nomini tanlash mumkin.

“**Flipped Class**” texnologiyasida o'quv jarayonining asosiy qismlari bo'lgan dars bilan uyga vazifaning o'mni almashtirilib, avval uyga vazifani bajarish jarayonida video, audio va boshqa interfaol materiallar o'rganiladi va bo'lajak darsga tayyorgarlik ko'rildi, keyin darsda mavzu mazmunini amalda qo'llash masalalari ko'rildi.

Ta'lim oluvchi darsgacha bo'lgan vaqtida istalgan joy va vaqtida o'ziga qulay holda o'mashib o'tirib, tyutor tomonidan taqdim etilgan video, audio va boshqa interfaol materialarni o'rganadi. Barcha faktlar va nomlar ixcham videoga bir necha minutga joylangan bo'ladi. Bunga auditoriyada mavzuni tushuntirishga ketadigan vaqtidan kamroq vaqt ketadi. Chunki darsda bo'ladigan turli tashkiliy ishlarga vaqt sarflanmaydi. Darsdan oldin mustaqil o'zlashtirish darsdagi mavzuni yangidan tushuntirishga ketadigan vaqtini tejaydi va ushbu bo'shab qolgan vaqtidan mavzuga tegishli muammolarni hal qilishga, bilimlar va ko'nikmalarni amalda qullashga va ta'lim oluvchilar bilan yangi o'quv mahsulotlar yaratishga yo'naltiriladi. Ushbu masalada soha mutaxassislaridan biri bo'lgan M.Simonovaning fikricha, ushbu texnologiya “darsdan tashqarida mustaqil ishlash, darsda vaqtini tejashga va to'g'ridan-to'g'ri darsda o'quv material mazmunini tushunishni chuqurlashtirishga yordam beradi”.

“**Flipped Class**” atamasi nisbatan yaqinda qo'llanila boshlanganiga qaramay, uning ba'zi tamoyillari uzoq vaqtidan beri tyutorlar tomonidan qo'llanilib kelingan. Jumladan, “**Flipped Class**” texnologiyasidan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalarni XX asrning 90-yillari boshida AQShning Garvard universiteti professori Erik Mazur o'tkazgan. U ta'lim oluvchilarga yangi tushunchalar va atamalar bilan tanishish orqali darsga tayyorlangan holda kelishlari uchun ma'ruza materiallari va maqolalar bergen. Dars boshida esa Erik Mazur kichik so'rov o'tkazgan, uning natijalari esa ta'lim oluvchilarning o'quv materiallarni qanchalik o'zlashtirganligi bo'yicha tyutorga signal bo'lgan. Shu asosida dars jarayonida qaysi masalalarga alohida e'tibor berish kerakligini bilib olgan va keyin o'quv materiallarni chuqur o'rganish va muammolarni hal qilish kichik guruhlarda amalga oshirilgan. Bu usuini qo'llash asosida o'tkazilgan nazorat ishlari natijalari an'anaviy o'quv uslubiga nisbatan yuqori natija kayd

etgan. Ta'limning ushbu shakli AQShda 2004 yildan boshlab rivojlantirilgan (Woodland Park High School, Colorado).

"**Flipped Class**" nomi bilan birinchi bo'lib, 2007 yilda AQShda ikki nafar tyutor — Jonatan Bergman va Aaron Sems tomonidan amaliyotda qo'llanila boshlangan. Ular o'z ta'lim oluvchilariga bosma materiallar emas, balki uya yangi o'quv materiallarini o'rganish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan video darslarni tarqatishgan.

Bergman va Sems ishlagan muktab qishloqda bo'lganligisababli, ta'lim oluvchilar darslarni ko'proq qoldirib yuboradigan bo'lishgan. Dars qoldirgan ta'lim oluvchilarning vaqtini tejash va ular bilan qo'shimcha darslar o'tkazmaslik uchun darslarni videoga yozib olish g'oyasi paydo bo'lgan. Ta'lim oluvchilar dars materiallarini mustaqil o'rganish uchun ular taklif qilgan yondashuvni katta qiziqish bilan qabul qilishgan.

Shuningdek, 2011 yilda tadqiqotchi Endi Shell Michigan shtatidagi "Clintondale High School" muktabida mazkur masala bo'yicha keng tadqiqot o'tkazgan. Bunda 45 daqiqlik ma'ruzaning hammasini konseptlashdan ko'ra davomiyligi 3-6 daqiqedan ortmaydigan videoroliklardan foydalanish yaxshi natija berishi ma'lum bo'lgan.

"**Flipped Class**" pedagogik texnologiyasi zamonaviy kompyuter texnologiyalari va masofaviy o'qitish hamda Internet tarmog'i imkoniyatlari asosida yanada rivojlangan. Bunday format dunyodagi ta'lim oluvchilar va tyutorlar uchun ma'qul bo'lgan va ular o'z videoma'ruzalarini yozib, ta'lim oluvchilari o'rganishlari uchun lokal va global tarmoqlarga joylashtira boshlagan.

Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti mutaxassislari bu soha dunyodagi ta'lim tizimining rivojlanishini tubdan o'zgartirishi mumkin deb hisoblaydilar. Shuningdek, xalqaro ekspertlar hamjamiyati yaqin kelajakda (5-7 yil) ta'lim jarayoni rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan asosiy tendensiyalarni aniqladi (The NMC Horizon Report: 2014 Higher

Education Edition, New Media Consortium, "Educause"). Bular o'quv jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda elektron raqamli qurilmalardan foydalanish va har qanday mobil qurilmadan foydalangan holda turli resurslar bilan ishlash (Bring Your Own Device) hamda "**Flipped Class**" texnologiyasi, turli xil uyinlar va geymifikatsiya shaklida o'qitish (Game, Gamification) kabi texnologiyalar hisoblanishi ta'kidlandi.

Hozirgi kunda "**Flipped Class**" texnologiyasini muvaffaqiyatli qo'llash imaliyoti Pensilvaniya shtati Universitetida (AQSh) 1500 dan ortiq ta'lim oluvchilar ishtirotida olib borilmoqda.

"**Flipped Class**" texnologiyasini amalda qo'llashda quyidagi zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalaniladi.

**Podkast (Podcast)** — bu ovozli fayl (audio ma'ruza) hisoblanadi. Ta'lif oluvchilar podkastni o'zlarining statsionar yoki mobil qurilmalari asosida yoki ma'ruzalarini onlayn rejimida tinglashlari mumkin.

**Vodkast (Vodcast** — bu “video-on-demand”, ya'ni so'rov bo'yicha video ma'nosini bildiradi) ham podkastga o'xshash bo'lib, farqi faqat videofayllarga egaligidan iborat.

**Pre-vodkasting (Pre-Vodcasting)** — bu ta'limiy metod bo'lib, unda pedagog tomonidan ta'lif oluvchilar kelgusi o'rganiladigan mashg'ulotgacha avvaldan mavzu to'g'risida tasavvur olishlari uchun o'z ma'ruzasi bilan birga vodkast yaratiladi.

“Flipped Class”ning asosiy vositasi bu ta'lif oluvchi darsdan tashqari vaqtida mustaqil ravishda o'rganiladigan video, audio va boshqa interfaol materiallar hisoblanadi. Video ma'ruzalar ko'pincha asosiy komponent sifatida ko'rildi.

Mavjud ayrim manbalarda “Flipped Class”ning yagona modeli hali mavjud emasligi, bu texnologiya ta'lif oluvchilarning oldindan yozilgan ma'ruzalarini o'qishi, ko'rishi va tinglashiga asoslanganligi, keyinchalik bevosita ta'lif oluvchilar o'tasida muhokama qilinishi asosida amalga oshirilishi ta'kidlangan bo'lsa, ayrim manbalarda ushbu texnologiya asosida o'qitishning bir nechta modellari keltirilgan.

Jumladan, “Flipped Class”ning klassik modeli ta'lif oluvchini bo'lajak darsning nazariy materiallar bilan oldindan tanishtirishni o'z ichiga oladi. Bunda o'quv materiallar matn, darsliklarning paragrafi, slaydlar, video va audio materiallar shaklida beriladi. Auditoriyada esa tyutor avvaldan o'rganilgan materialni muhokama qilish, murakkab fikrlarni tushuntirish, muammoli savollarga javob berish va interfaol usullardan foydalangan holda dars o'tishdan iborat bo'ladi.

**Virtual laboratoriylar.** Virtual laboratoriya bu eksperimentlarni haqiqiy o'rnatish bilan bevosita aloqada bo'lmasdan yoki uning to'liq yo'qligida amalga oshirishga imkon beradigan dasturiy va apparat kompleksidir.

Virtual laboratoriylar deganda ikki turdag'i apparat va dasturiy tizim tushuniladi:

- masofaviy laboratoriylar - masofadan kirish imkoniyati bo'lgan laboratoriya qurilmalari majmui;
- virtual laboratoriylar - laboratoriya tajribalarini taqlid qilishga imkon beradigan dastur.

Buning uchun foydalanish mumkin:

1) tajriba o'tkazish texnikasi bilan tanishish; 2) ishlashingiz kerak bo'lgan jihozlar bilan tanishish; 3) kuzatuv, hisobot berish ko'nikmalarini egallash.

Bunday komplekslar maksimal aniqlik, eksperiment o'tkazish uchun haqiqiy asbob-uskunalar modeliga mos kelish aniqligini ta'minlaydi. Bu isjni sezilarli darajada osonlashtiradi, vaqtin tejaydi va o'rganilgan uskunani tan olish samarasini yaratadi.

**Virtual laboratoriyalarning afzalliklari:**

- interaktivlik;
- ma'lum bir laboratoriyanadan mustaqillik (kompyuter mavjud bo'lgan joylarda o'tkazish qobiliyati);
- ta'lim muassasasida ko'paytirib bo'lmaydigan yoki vogelikda kuzatib bo'lmaydigan ob'ektlar, jarayonlar, hodisalarni modellashirish qobiliyati;
- Internetdan foydalangan holda masofadan turib vazifalarni bajarish qibiliyati.

**Virtual ishlardan foydalanishning kamchiliklari:**

- haqiqiy izlanishning mumkin emasligi;
- mavzularning ko'rinasmasligi;
- maxsus uskunalar bilan ishlashda amaliy ko'nikmalarning etishmasligi.


STAR (akademiklar va tadqiqotchilar uchun dasturiy vositalar) - Massachusetts texnologiya instituti (MIT) tadqiqot va o'qitish uchun virtual laboratoriyalarni rivojlantirish dasturi. Dasturning faoliyati umumiyligi biologiya, biokimyo, genetika, gidrologiya, taqsimlangan hisoblash sohasidagi o'quv va ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqishdan iborat. Ko'pgina dasturlar java yoki html-da amalga oshiriladi. StarBiochem, StarGenetics, StarORF, StarMolSim, StarBiogene, StarHydro, StarCluster kabi virtual laboratoriylar.

**Debatlar**-ikki qarama-qarshi, o'zaro musobaqalashayotgan komanda (guruh) ishtirokchilarning oldindan tayyorlangan chiqishlariga asoslangan rasmiy muhokama.

## **2. Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.).**

**Kreativ fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari.** Xorijiy mamalakatlarning ta'lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarida shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab metod va strategiyalar qo'llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talaba va ta'lim oluvchilarni o'quv materiallari yuzasidan chuqur o'ylashga majbur qiladi. Shu sababli bu metod va strategiyalarni kreativlik sifatlari nihoyatda past rivojlangan ta'lim oluvchi va talabalar bilan ishlash jarayonida samarali qo'llab bo'lmaydi.

**Skamper ta'lim metodining mazmuni va mohiyati.** bir nazorat ro'yxati shaklidagi oddiy, lekin samarali ijod texnikasıdir. Skamper (ta'lim metodi) texnikasi ishlab chiqarishda keng foydlanib kelingan bo'lib, Scamper so'zi "tez yugurish" degan ma'noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 tajning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.



**Vitagen ta'lim texnologiyasining mohiyati.** Vitagen – vita (lot.) – hayot, genesis (lot.) – tug'ilmoq (hosil bo'lish), ya'ni hayotdan tug'ilgan.

### Tushumchalar orasidagi farq



**Hayot tajribasi** – bu inson tomonidan yashamaydigan, faqat uning ongi bilan bog'liq axborotdir.

**Hayotiy tajriba** – inson o'zi (shu jumladan talaba) boshidan kechirgan, u his qilgan, o'ylab ko'rgan, targ'ib qilgan va uzoq muddatli xotira zaxirasiga saqlangan, u uchun shaxsan muhim bo'lib qolgan ma'lumot.



Talabaning roli

Talaba bilish jarayonining teng huquqli ichtirokchişi, ya'nı nafaqat obyektiv, halki bilish faoliyatining subyekti hamdir.

**Vitagen ta'lism** – shaxs (talaba)ning hayotiy tajribasini aktuallashtirish (talab), uning aqliy (intellektual) va psixologik salohiyatidan o'quv maqsadlarida foydalanish asosida o'qitish.

Vitagenga yo'naltirilgan ta'limga shaxsning intellektual va psixologik potensialini namoyon qilishdan iborat. Bunda shaxsning hayot tajribasini hayotiy tajribaga o'zgartirishni nazarda tutadi.

#### Vitagen ta'lism prinsiplari:

O'qituvchining hayotiy tajribasiga tayanish-bilimlarni qadriyatga aylantirishning asosiy yo'li.

■ Hayotiy tajriba shaxsga ta'lism jarayonida potensial qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

■ Hayot tajribalaridan ko'p o'lcovli foydalanish kerak.

■ Talabaning aqliy(intellektual) salohiyatini faollashtirish shaxsnini hurmat qilishga asoslangan bo'lishi kerak.

#### Vitagen ta'lismi amalga oshirish yo'llari:

■ Vizualizatsiya yordamida vitagen tajribasining tarkibini aniqlash.


■ Turli so'rovlar orqali vitagen tajribasini aniqlash

■ Vitagen tajribasini o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan tasdiqlash orqali aniqlash.

■ Vitagen tajribasini tahlil qilish. Uning tabiatini va hajmini ochib berish, ular o'rtaqidagi aloqani o'rnatish.

■ Vitagen tajribasini tasniflash uchun asosni aniqlash, uni tasniflash. Turli xil bilimlar sohasidagi vitagenga xos bo'lgan ma'lumotlarni birlashtirish.

- Maqsadli pedagogik ta'sir o'tkazish imkoniyatini aniqlash integrallashgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni shakllantirish.
- Turli sohalarda ilmiy bilimlarni qurishda vitagen tajribasidan foydalanish shartlarini aniqlash.
- Ta'lif jarayoniga hayotiy tajribasi yuqori bo'lgan ishtirokchilarni jalgilish orqali talabalarning dunyoqarashlarini kengaytirish.



### Vitagen texnologiyasini amalga oshirish

- Talabalarning muvaffaqiyatga erishish uchun vaziyatlar yaratish;
- Kognitiv (bilish) qiziqishlarni rivojlantirish;
- Ilmiy dunyoqarash asoslarini muvaffaqiyatli shakllantirish;
- Mulqot madaniyatni shakllantirish;
- O'zo'zini nazorat qilish va baholashni shakllantirish;
- Mavjud tajribaga asoslanib hayotiy vaziyatni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

### Nazorat savollari:

- O'quv mashg'ulotlarining zamonaviy turlari asosida (loyiha, aralash ta'lif, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish.
- Talabalarda tanqidiy, o'zini-o'zi (motivatsion, intellektual, amaliy faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish.
- Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.).

### Reja:

1. Psixologiya fanlarini nazorat qilish va baholashni tashkil qilish
2. Psixologiya fanlarini o'qitishda bilimlarni nazorat qilish turlari
3. Psixologiya fanlarin o'qitishda bilimlarni nazorat qilish shakllari

Talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholash tartibi Oliy ta'limgazirligining bo'yrug'i hamda joriy oliy ta'limgaz muassasasining ichki qarori asosida tashkil qilinadi. Biroq oraliq nazoratlari soni va ballarida biroz farq bo'lishi mumkin.

Umumta'limgaz o'rta maxsus va oliy ta'limgaz muassasalarida talabalarni oraliq nazoratdan o'tkazish soni ichki tartib asosida belgilanadi. Joriy va oraliq nazorat haqidagi nizom o'quv muassasasi tomonidan tasdiqlanadi. Umumta'limgaz muktabalarida ko'pincha an'anaviy usul qo'llaniladi ya'ni choraklar, yarim yilliklar ko'rinishida. O'rta maxsus va oliy ta'limgaz muassasalarida esa semestr yakunida yakuniy baholash o'tkaziladi.

O'rta maxsus ta'limgaz muassasalarida talaba bir o'quv yilda 8 -10gacha yakuniy nazoratlar topshirishi lozim. Maxsus ixtisoslashtirilgan ta'limgaz muassasalarida esa uning soni mustaqil ravishda belgilanadi. Bitiruvchi sinflarning davlat imtihoni DAK tomonidan nazorat qilinadi.

Oliy ta'limgaz muassasalarining baholash tartibi o'ziga xos bo'lib ularda joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy ballari taqsimlangan, reyting nizomi Oliy ta'limgaz tomonidan ishlab chiqiladi.

Talabaning bilim, ko'nikma, malakalari joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat orqali tekshirib boriladi. Joriy nazorat kurs o'quv mashg'ulotlari doirasida olib boriladi. Uning shakli va turi o'qituvchi tomonidan aniqlanadi. Oraliq nazorat butun kurs davomida olinishi mumkin. Uning shakli va turlari o'quv muassasasi tomonidan belgilanadi. Bu vozma ish, test og'zaki bo'lishi mumkin. Yakuniv o'quv kursi vakunlanganidan so'ng tashkil qilinadi. Uning shakli va turlari komissiya a'zolari tomonidan belgilanadi.

Nazorat-o'quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, dastlab pedagog tomonidan amalga oshiriladi va keyinchalik o'z-o'zini nazorat qilishga o'tadi.

Strukturaviy tarkibiy qismi:

- Harakat natijasi modeli.
- Obraz va real harakatni birlashish jarayoni.
- Harakatni davom ettirish yoki korreksiya qilish.

- Qayta axborot, uning asosida esa natijaga nisbatan munosabat o'zgaradi va doimiy, oraliq va yakuniy maqsadlarga erishish va o'quv vazifalari yechimini topish usullari ko'rib chiqiladi.

Xususiyatlari.

<ul style="list-style-type: none"> <li>→ to'liqlik.</li> <li>→ .....</li> <li>→ adekvatlik.</li> <li>→ ob'ektivlik.</li> <li>→ aniqlik.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>→ o'z vaqtidaligi .</li> <li>→ amalga oshiriluvchanlik.</li> <li>→ uzviylik.</li> <li>→ tizimlilik.</li> </ul>
--	---

Nazorat turlari.

Ta'lif maqsadining mashtabiga ko'ra.	<ul style="list-style-type: none"> <li>● strategik.</li> <li>● taktik.</li> <li>● operativ.</li> </ul>
Ta'lif bosqichlariga ko'ra.	<ul style="list-style-type: none"> <li>● boshlang'ich (tanlov).</li> <li>● o'quv (oraliq bosqich).</li> <li>● yakuniy.</li> </ul>
Vaqtinchalik yo'nalganlikka ko'ra.	<ul style="list-style-type: none"> <li>● retrospektiv</li> <li>● ogohlantiruvchi.</li> <li>● mavjud.</li> </ul>
Nazorat chastotasiga ko'ra.	<ul style="list-style-type: none"> <li>● bir martalik.</li> <li>● davriy.</li> <li>● tizimli.</li> </ul>
Nazorat qilinayotgan soha kengligiga ko'ra.	<ul style="list-style-type: none"> <li>● lokal.</li> <li>● tanlashga doir.</li> <li>● oddiy.</li> </ul>
Ta'lifni tashkil etish shakllariga ko'ra.	<ul style="list-style-type: none"> <li>● individual.</li> <li>● guruhiy.</li> <li>● frontal.</li> </ul>
Maxsus vositaviylik shakliga ko'ra.	<ul style="list-style-type: none"> <li>● tashqi (ijtimoiy).</li> <li>● aralash (o'zaro nazorat).</li> <li>● ichki (o'z-o'zini nazorat qilish).</li> </ul>
Nazoratni amalga oshirish usullariga ko'ra.	<ul style="list-style-type: none"> <li>● yozma.</li> <li>● og'zaki.</li> <li>● standartlashtirilgan va standarlashtirilmagan.</li> <li>● ma'naviy.</li> <li>● matritsiali va boshqalar.</li> </ul>

O'quv materialini o'zlashtirishga nisbatan o'z-o'zini nazorat qilishning namoyon bo'lish bosqichlari.

(P. P. Blonskiy).

#### Birinchi bosqich

Har qanday o'z-o'zini nazorat qilish usulining yo'qligi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichda o'quvchi ma'lumotni o'zlashtirmaydi va hech nimani nazorat qilmaydi.

#### Ikkinci bosqich

"To'liq o'z-o'zini nazorat qilish" bosqichi. Bunda o'quvchilar o'zlashtirishting ma'lumot reproduksiyasining to'liqligi va to'g'rilingini tekshirishadi.

#### Uchunchi bosqich

Tanlashga doir o'z-o'zini nazorat qilish bosqichi, bunda o'quvchilar eng asosiy masalalami nazorat qilishadi, tekshirishadi.

#### To'rtinchi bosqich

Bunda nazorat o'tmishdagi tajriba asosida amalga oshiriladi.

Ta'linda faktlarga doir natijalarni berilgan norma va etalonlar bilan muvofiqlashtirish tekshirish deb nomlanadi. Faktlarga doir natijalarga bo'lgan munosabat va ularning interpretatsiyasi baholash jarayonini tashkil etadi.

Pedagogik baho agarda qo'ydagи tamoyillardan kelib chiqsa, o'zining rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi funksiyalarini bajaradi.

Sh. A. Amonashvili bo'yicha baholash tamoyillari.

Ahamiyatlilik uning mohiyati shundan iboratki, pedagogik baho yordamida ta'lim oluvchiga uning rivojlanishni ahamiyati, oldinga borish imko- niyatlarini ko'rsatadi.	Insonparvarlik tamoyili o'qituvchining har qanday yoshdagи o'quvchining insoniy xislatlariini hurmat qilishni ko'zda tutadi. Qo'pol munosabat, takning yo'qligi, pedagogik bahoning sub'ektivligi, o'quvchi uchun kamsitishdek tuyulishi mumkin.	Hamkorlik baholash o'qituvchi muloqoti ko'zda tutad
--	--	---

Ko'pincha o'quvchilar va talabalar o'z real o'quv faoliyati muvaffaqiyatini adekvat baholay olmaydilar. O'quvchilar o'z real va potensial imkoniyatlarini adekvat baholashning shakllanishiga o'quvchilarning o'zları o'quv baholash

jarayonida ishtirok etishlarini ko'zda tutuvchi ta'limdi tashkil etish bilan erishish mumkin (V. A. Yakunin). Odatda ta'limdi bunday shaklda tashkil etish uch bosqichdan iborat bo'ladi bu bosqichlarda baholashning tashqi shakllaridan o'z-o'zini baholashga o'tish ifodalanadi.

Baholashning tashqi shakllaridan o'z-o'zini baholashga o'tish bosqichlari.

Birinchi bosqich.

Baholash faoliyatidagi yetakchi rol pedagog tomonida saqlanadi.

Ikkinci bosqich.

O'quvchilarning baholash faoliyatiga jamoaviy o'quv ish sharoitida jaib etish. Bu ish jarayonida har bir o'quvchi o'qituvchi o'z sinfdoshlariga nisbatan nazorat baholash funksiyasini qabul qiladi. Shunday qilib o'quvchilarning o'zaro baholashi baholashdagi hamkorlikning dastlab shakli sifatida bir tomonidan mustaqil baholashning boshlang'ich shakli sifatida boshqa tomonidan yuzaga keladi.

Uchinchi bosqich.

O'z o'quv faoliyati va xulq-atvorini mustaqil baholashga o'tish. Bunda o'z-o'zini baholashga ikki yo'nalishda shakllanadi.

- retrospektiv (o'z faoliyati natijalarini baholash);
- bashoratl (sub'ektning o'z imkoniyatlarini baholash).

O'quv jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni nazorat qilish va baholashning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

■ Yo'naltiruvchi bu funksiva quyidagi tartibda namoyon bo'ladi: joriy nazorat talabalar kursni qanchalik o'zlashtirganlarini bilib oladilar va shu tarzda o'z ustilarida ishlaydilar. Biroq bu faqatgina baholash jarayonida emas yaxshi o'zlashtirgan talabani muntazam rag'baltantirishda ham kuzatiladi. Asosan joriy nazorat shunday vazifani bajaradi.

■ Stimulashtiruvchi funksiva bizga yaxshi ma'lumki bilimlarni tekshirish yoki baholash talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishi uchun stimul bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bog'liq ravishda tizimli holda nazorat shakllarini o'tkazib turish darkor. Imtihon yoki nazorat vaqtidagi o'qituvining mezonlari talabani "nimani" va "qanday" o'quv materialini o'zlashtirishini ko'rsatib beradi. Agar o'qituvchi aniq tushunchalarining izohini, misollarni keltirishi, agar u o'quv materialini faqatgina idrok qilinganlik darajasini emas, uning mohiyatini tushunilganligini bilimlarni amalda qo'llanilishini talab etsa, unda talabalar tayyorgarlik vaqtida shunga asosiy e'tiborni qaratadilar. Tizimli ravishda nazorat ishlarini tashkil etilishi fanni tizimli ravishda o'zlashtirishiga stimul bo'ladi. Joriy nazoratni muntazam ravishda olib borishning muhim jihatni mana shundadir.

■ Attestatsion nazorat qiluvchi. Ushbu funksiya talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarini ta'limga ma'lum vaqtida nazorat qilinishi orqali namoyon bo'ladi. Bu uning kelgusidagi ta'limga yoki mehnat faoliyati uchun muhimdir. Ushbu nazorat ta'limi dastur va ta'limga sifatiga muvofiq maqsadlarga erishilganligini kafolatidir. Bunga oraliq va yakuniy nazoratni kiritish mumkin. O'qituvchi oraliq nazorat vaqtida talabaning bilimini baholash bilan birga uning ushbu kursni o'zlashtirganlik darajasiga kafolat beradi. Qolaversa, ushbu baho talabaning ta'limga dasturi asosidagi tayyorgarligini belgilaydi. Yakuniy nazorat davlat attestatsiya komissiyasi yordamida qabul qilinib, bu talabaning ta'limga dasturidagi maqsadlarda erishilganligini kafolatlaydi.

Ko'pgina yosh va hamda tajribali o'qituvchilar talabalarning bilimini nazorat qilish va baholashni murakkab jarayon deb hisoblaydilar. Hozir biz psixologiya o'qituvchisi qanday muassasa va qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar talabalarning bilimini tekshirish va baholashning asosiy tamoyillarini ko'rib chiqamiz.

■ Ob'ektivlik. Bunda talabaning bilimini baholashda sub'ektiv fikrdan xoli bo'lish nazarda tutiladi. Turli tekshiruv jarayonlari turli darajadagi ob'ektivlikni belgilaydi: a) umumiyligi va noaniq topshirqlardan ko'ra aniq va lo'nda topshirqlardan foydalanish zarur. B) og'zakidan ko'ra yozma v) javobi aniq bo'lgan topriqlar g) birgina imtihon oluvchidan ko'ra bir necha ekspertlar bo'lgani yaxshi. Ko'p vaziyatlarda talabalarning bilimini baholashga o'qituvchining sub'ektiv ustyanovkalari ham ta'sir o'tkazadi. Shu bois ham o'qituvchi o'z xattiharakatini anglagan holda ushbu holatini oldini olishi darkor.

■ Validlik. Talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari haqida ishonchli ma'lumotlarni olish bilan belgilanadi. Buning uchun o'qituvchi nazorat ishini talabaning o'zi 100% mustaqil bajarishlariga amin bo'lishi lozim. Ko'chirish aytib berish va plashatlik eng jiddiy pedagogik muammodir.

■ Ishonchlilik. Bu talabalarning baholangan bilim, ko'nikma va malakalarini uzoq vaqt saqlanib turishi bilan belgilanadi. Bu tamoyilni amalga oshirilishi juda murakkab chunki baholash (muayyan mavzu bo'yicha) 1 marta o'tkaziladi.

■ Differensiallashganlik talabalarning egallagan bilimlarini baholashda ularning darajasi va sifatini differensiallashuviga ahamiyat qaratish zarur. Differensiallashuv darajasi zarurat va ta'limga maqsadiga bog'liq. Ayrim vaziyatlarda imtihonlardagi "o'tdi-o'tmadi" muayyan bir topshirqlarni bajarilishi darajasiga qarab differensiallashadi. Ayrim vaziyatlarda esa yanada aniqroq differensiya, ya'ni "a'llo", "yaxshi", "qoniqarli" talab etiladi. Baholashdagi bunday ko'p miqdordagi baholarni differensiallashuvi o'qituvchining aniq mezonlar asosida imtihonni olib borishni qiyinlashtiradi.

■ Tizimlilik. Fan bo'yicha mavzularni tizimli ravishda so'rab borilishida kuzatiladi. Agar baholashda ushbu tamoyilga amal qilinmasa, imtihon xuddi "lotoreyaga o'hshab qoladi". Ayrim hollarda imtihoni yaxshi topshirishni baxolashning ob'ektivlik ehtimolini kamaytirishi mumkin. Baholashdagi tizimlilikka erishish uchun turli usullar majmuasidan foydalanish zarur. Natijada talabalarning bilimlarini baholanishi bilan birga mustahkamlanib boradi.

■ Muntazamlilik. Kursni o'zlashtirish davomida muntazam ravishda baholash jarayonini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Bu talabalarni muntazam o'z ustilarida mustaqil ishlashlariga va bilimlarni o'zlashtirishlariga stimul bo'ladi. Har bir mavzu bob va fanning yakunida baholash jarayonini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

■ Maxfiylik. O'qituvchi shunday yo'l tutish kerakki bahoni talaba va ta'lif dasturining rahbaridan boshqa hech kim bilmasligi lozim. Bu tamoyilda asosan Amerika universitetida amal qilinadi. Ularda bahoning oshkor qilinishi shaxsiy huquqlarni buzilishi hisoblanadi. Biroq Rossiya va bizning ta'lif tizimida bunga ahamiyat qaratilmaydi. Aksincha, talabalarning o'zlashtirish darajasi, yutuq kamchiliklari jamoani oldida muhokama qilinib, ularning kelgusi faoliyatlar uchun stimul sifatida qo'llaniladi.

O'quv mashg'ulotlari davomida ushbu mezonlarni qo'llanilishi o'zlashtirilgan bilimlarni aniq ko'rsatib beradi. Ushbu mezonlarning maqsadga muvofiqligi va bajarilishi ko'pincha o'qituvchi yoki o'qituvchi va talabalar orasida munozara predmetiga aylandi.


Boshqa fanlar kabi psixologiya fanida ham bilimlarni baholashda 2 ta tip qo'llaniladi:

- normativ baholash;
- natijalarni taqsimlashga asoslangan baholash.

Normativ baholash imtihon oluvchining avvaldan belgilab qo'yan o'zlashtirishning muayyan normalariga muvofiq tarzda talabalarning bilimi baholanadi. Ish bilan birga talaba namoyon qilgan bilimlarning qanchalik to'liqligi, aniqligi, chuqurligi baholanadi. Baholashning bunday strategiyasi orqali o'quvchilar muayyan bilim etaloniga intiladilar va ularga erishadilar. Bunda guruxdag'i ko'pgina talabalar ijobjiy baxolanishlari mumkin. Biroq amalda har yilgi baholash egri normal taqsimlanishiga olib kelinmoqda. Muntazam ravishda ijobjiy bahoning ortishi o'qituvchining talabalarini kamayishidan, aksincha o'qituvchining talabalar bilimiga bo'lgan talabini ortishi qoniqarli hamda qoniqarsiz bahoning ortishiga olib keladi.

Natijalami taqsimlashega asoslangan baholash. Bunday baholash strategiyasini Amerikaliklar "Egri chiziqli baholash" deb ataydilar. "Egri chiziq" deganda ushbu fandan barcha talabalarning olgan baholarini egri taqsimlash

tushuniładi. Bunday taqsimotga ko'ra, qoniqarli va a'lo toifasiga qisman, o'rta darajaga esa aksariyat talabalar mansub bo'ladi. Demak, 1 talabaning bahosiga guruhdagilarining bahosi ham ta'sir qiladi. Bunday baholash strategiyasida muayyan bir bilimlar etaloni yo'q, u baholash jarayonida o'zgarib boradi.



Real muammolardan biri normativ baholashda ob'ektivlikka amal qilish uchun natijalarini o'rtacha taqsimotiga (nisbiylikka) amal qilinishidir.


Psiyologiya fanlarini o'qitishni rejalashtirish vaqtida talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni ham rejalashtirish zarur. O'qituvchi avvaldan quydagi larni ko'rib chiqishi shart:

- o'quv fani bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini baholash uchun qanday mezon va ko'rsatkichlardan foydalaniladi
  - talabalarning davomati va faolligi inobatga olinadimi
  - bilimlarni tekshirish
  - qanday nazorat turlari va shakllari qo'llaniladi
  - bilimlarning tekshirish muddati
  - har bir nazorat shaklining oralig'i qancha muddat bo'ladi va ularga ajratilgan o'quv soatlari
  - joriy nazorat yakuniy nazoratga qanday ta'sir etadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar 1-darsda o'quvchilarga ma'lum qilinishi kerak. Bu ularning tayyorlanib yurishlariga turki bo'ladi.

Psiyologiyani o'qitishda bilimlarni nazorat qilish turlari

Talabalarning bilimlari yoki ularni amalda qo'llash ko'nikmalari tekshirilayotganiga qarab quydagi nazorat turlari farqlanadi: so'rov va amaliy topshiriqlarni bajarish. So'rov orqali talabalarning muayyan bir emperik fakt, nazarivalar, tushunchalarning izohi, misollar tasniflar, ilmiy qonunivatlar hachidagi bilimlari tekshiriladi. Amaliy masalalarni bajarish orqali esa ushbu bilimlarni o'quv va masalalarni hal qilishda qo'llash nazarda tutiladi.



So'rov yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Og'zaki so'rovning yutuqlari:

1) talabalarning bilim darajasini aniqlashtirish uchun savollar berish; 2) tasodifliy baholashning oldi olinishi; 3) talabaning monologik bog'lay olish ko'nikmasini tekshirish mumkin. Albatta bunda talaba savolga mos ravishda tushunib gapirsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki og'zaki so'rov natijalarini baholash biroz sub'ektivroq bo'ladi. Har ikki tomon ham muammoni yechimini baholash bo'yicha sub'ektiv fikrga ega bo'ladi. Agar bu borada 2 tomonning fikri bir-biriga mos kelmasa, bunda ob'ektivlikka erishish mushkul bo'ladi. Ko'p vaziyatlarda o'qituvchi haq bo'lib chiqadi. Yozma so'rovning gulavligi qisqa vaqt ichida ko'pchilikning bilimini baholash imkonini beradi, biroz bajarilgan ishlarni tekshirish ko'p vaqt sarflaydi. Uning shakllari: 1) mashg'ulot davomida olinadigan yozma nazorat ishi; 2) uv ishi (referat, konspekt). Yozma so'rov orqali baholash ob'ektivroqdir, agar talaba olgan bahosidan qoniqmasa apelyatsiyaga berish mumkin. Talabaning yozma javobi uni baholash asosi bo'ladi. Biroq so'rovda og'zaki so'rovdagagi yutuqlar yo'q. (yuqorida berilgan) ta'lif vazirligining fikricha kirish imtihonlarini yozma so'rov shaklida olib borish ob'ektivlikni oshirar ekan.

Amaliy topshiriqlar ham og'zaki va yozma bo'lishi mumkin.

So'rov erkin va dasturlashtirilgan bo'ladi. Erkin so'rovdan keng umumiy savollarga javob berishda qo'llaniladi. Bunda talabandan ilmiy dalillarga tayangan holda mantiqiy mushohada orqali savollarga yozma yoki og'zaki javob berishlari ko'zda tutiladi. Bunday savollar quyidagicha bo'lishi mumkin: "Idrok va uning xususiyatlari", "Xotira va uning turlari", "Psixologiyada shaxs tushunchasi". Biroq bunday so'rov natijalarini baholash biroz qiyinchilik tug'diradi. Dasturlashtirilgan so'rov esa biroz aniqroq savollar qo'yishni talab etadi, masalan; "Qachon tarixda

birinchi marta psixik laboratoriya ochilgan?", "Kim birinchi bo'lib psixoanaliz nazariyasini ishlab chiqqan?", "XX asrlardagi psixologiyaning ilmiy maktablarini sanang?". Bunday savollarning javoblari aniq va baholash ham osonroq. Bularga testlar ham misol bo'ladi.

Amaliy topshiriqlar ham erkin va dasturlashtirilgan bo'lishi mumkin. Birinchi vaziyatda topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondoshuv talab etiladi, M; referat, konspekt, rezyume. 2-vaziyatda esa muayyan algoritmni amalga oshirish talab etiladi, m; keltirilgan psixik vaziyatlar qaysi psixologik tushunchaga mos kelishi topiladi yoki vazifadagi korrelyatsiya koeffitsenti aniqlanadi.

Guruhdagi har bir talaba bilan individual yoki butun guruh bilan birdaniga ishlash orqali ularning bilim va ko'nikmalarini tekshirishni individual va frontal ko'rinishi mavjud. Bu ikki holatda ham yuqorida keltirilgan barcha nazorat turlari bir vaqtda qo'llanilishi mumkin. Frontal usul o'qituvchining vaqtini tejashligi bilan qulay bo'lsa ham har bir talabaga individual yondoshish imkonи yo'q. Ma'ruza seminar, amaliy mashg'ulotlarning boshida yozma frontal ekspress so'rovni qo'llash maqsadga muvofiq. Bunda talaba 5-10 minut ichida bir necha savolga qisqa javob berishi lozim. Bu usulni qo'llash talabalarning mashg'ulotga tayyorlanish motivatsiyasini oshiradi.

Imtihonda talabalar bilimini bir kishi yoki bir necha kishilar tekshirishga qarab personal va ekspert turlarni ajratish mumkin. Personal nazorat bir kishi tomonidan ekspert nazorat esa imtihon oluvchilar guruhi tomonidan tashkil qilinadi. Asosiyasi, ekspert guruhi bahoning ob'ektivligini oshiradi. Shu bois ushbu usul ob'ektivlik juda muhim bo'lgan vaziyatlarda qo'llaniladi.

DAK va BMI, MD himoyasida qo'llaniladi. Biroq bu usul juda ko'p ish kuchini talab etadi. Qolaversa bilimlarni nazorat qilishning bir martalik va taqsimlanganlik turlari ham mavjud. Fan bo'yicha egallangan vaqtida nazorat qilish bir martalikka misol bo'la oladi. Katta o'quv materialini oraliq nazoratning o'tkazish biroz mushkul. Shu boisdan ham oxirida yakuniy imtihon olinadi va bu ko'proq imtihon "lotoreyasiga" aylanib ketadi. Bilimlarni baholashda ishonchlik darajasini oshirish uchun har bir bob, bo'limdan bittadan savol qo'yish zarur. Biroq buning iloji yo'q, chunki vaqt chegaralangan. Nazoratning taqsimlangan turi bilimlarni tekshirish muayyan bir bo'laklar bo'lib chiqishni talab etadi. Demak, kurs bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini nazorat qilish butun semestr JN hamda ON davomida yig'ilib boradi hamda hozir bu usul keng qo'llaniib reyting tizimi deb yuritiladi. Reyting baholash ta'lim muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma, malkalarini to'liq, ishonchli, ob'ektiv baholash uchun reyting baholash tizimi qo'llaniladi.

Bu tizim o'zlashtirishni baholashning "yig'ib borishni" qo'llash asosiga qurilgan. Ushbu tizimning eng muhim yutug'i shundaki talabalar o'quv faoliyatini

miqdor va sifatini majmuaviy hamda differensial baholashni ta'minlaydi, ularning mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, semestr davomida mustaqil o'quv faoliyatini stimullahtiradi.

Reyting tizimida topshiriqlarning murakkablik darajasi inobatga olinadi. Talabalarning semestr davomidagi muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari 100% balli shkala asosida baholanadi. Topshiriqlarning bajarilganlik darajasiga qarab ballanadi.

Fanlar bo'yicha reyting baholash miqdori quyidagilarga bog'liq:

5. semestr davomida talabaning faoliyatining sifat va miqdoriga qarab reyting baholash

6. ON bo'yicha reyting baholash natijalari.

Demak, uyushqoqlik, differensiallik, ko'p qirralilik reyting baholashning harakteri va yutug'idir. Shu bilan birga uning turli ko'rinishlari mavjud.

Psixologiyani o'qitishda bilimlarni nazorat qilish shakllari

Talabalarning bilimlarini nazorat qilishning asosiy shakllari quyidagilar:  
kollokvium, zachvat, imtihon, nazorat ishi, joriy baholash test, reyting baholash, BMI.

Kollokvium joriy nazorat shakli hisoblanadi. U biror bir bo'lim tugagunidan so'ng qo'llaniladi. Kollokvium - bu yangi bilimlarni egallash maqsadida tashkil qilingan talabalar bilan suhbat. Seminardan farqli ravishda kollokvium bilimlarning tizimliligini tekshirishdir. Kollokvium vaqtida seminarda qo'llanilgan savollardan foydalanan mumkin. Kollokvium savollari oldindan tayyorlanganligi bilan talabalarga berib qo'yilmaydi. Kutilayotgan javoblar 1,5-2 daqiqadan oshmasligi kerak, chunki o'qituvchi barchadan so'rashga ulgurishi zarur. Kollokviumda talabalarning javoblari "to'g'ri noto'g'ri" deb baholanib boradi. Kollokviumda hoxishga qarab so'ramaydi. Ijobiy baho olish uchun har bir talaba 2-3 ta savolga javob berishi zarur. Oxirida baholar e'lon qilinadi, xoxlovchilarning bahosi asoslanib beriladi.

Zachyat binar bahoga ega bo'lgan, ya'ni "zachyat" yoki "zachyat emas" kabi baho bilan baholanadi. "zachyat" deb agar o'quv materiali bo'yicha berilgan savollarga to'liq javob berilsa qo'yiladi. "Zachyat emas" deb esa savollarga javob bera olinmasa yoki topshiriqlar bajarilmasa qo'yiladi. Bunda o'qituvchi topshiriqni aniqligini tekshirish lozim. Bunda o'qituvchi va talaba orasidagi tushunmovchilikdan qochishi uchun natijalar bilan talabalarni tanishtirib borishi lozim.

Zachyat eng avvalo amaliy topshiriqlarni bajarilishini baholash uchun qo'llaniladi. Shuning uchun zachyatni fakti sifatida amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlarini baholashni qo'llash mumkin. Bunday vaziyatda talabaning

muayyan kurs bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari tekshiriladi. Biroq, o'qituvchi bunda bajarilgan topshiriqlarni minimal darajasini aniqlab olishi kerak.

Zachyot ba'zida nazariy materialni o'zlashtirishni aniqlash uchun qo'llaniladi. Odatda bu rasmiy cheklovlar bilan chegaralanib qoladi. Bu talabalar bilimini nazorat qilishda differensiatsiyasini kamaytiradi. Buning oldini olish uchun differensiatsiyalashgan zahcyot, ya'ni balli baholash qo'llaniladi.

Tan olish kerakki zahcyot - eng oddiy usul hisoblanadi. Imtihon o'qituvchidan murakkabroq differensiyalashgan baholashni talab etadi, ya'ni "a'lo"(5), "yaxshi"(4), "qoniqarli"(3), "qoniqarsiz"(2), "juda yomon"(1).

Imtihon orqali baholashning differensiyalashgan shakli tadbiq etiladi. Maktab muassasalarida 5 balli tizim asosida baholanadi. Ayrim joylarda harflar yoki turli simvolik belgililar qo'llaniladi.

Imtihon talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini tekshirishning bir martalik jarayonidir. Imtihon yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Og'zaki imtihon an'anaviy usul hisoblanadi. Bunda har bir biletga 3-4 ta savol bo'ladi. O'qituvchining o'zi mustaqil ravishda imtihon savollari, bilimlarini tuzadi. Biletdagi savol miqdori imtihon vaqtini inobatga olgan holda tuziladi. Agar imtihon savollari va topshiriqlarining xajmi, ko'p bo'lsa ularni miqdorini maqsadga muvofiq qisqartirishi kerak. Biroq, bilet bir necha savollardan iborat bo'ladi. Imtihon oluvchi o'qituvchining muhim vazifasi tasodifiy baholardan ya'ni, "lotoreyalardan" ehtiyyot bo'lmog'i lozim. Biletdagi har bir savol shunday tuzilishi kerakli bunda bir xil vaqt va bir xil qiyinchilikka ega bo'lishi lozim. Javoblar qisqa, lo'nda qilib yozilishi lozim. Har bir savol dasturga muvofiq bo'lishi zarur.

Imtihon oluvchi talabalarning javoblarini baholashda quyidagi mezonlarga amal qilish zarur:

- savollarga javoblarni to'liq va mazmundorligi
- qo'yilgan savollarni ochib beruvchi materiallarni tanlay bilish
- savollarni mantiqiy ketma- ketligi
- dalillarni ta'riflashdagi aniqlik, nazariyalarning izohi
- keltirilgan muammo yuzasidan misollar keltira olishi
- xulosa chiqara olish
- belgilangan muddat ichida ulgurish
- savollarga javohni og'zaki gapirib bera olish.

Yozma ish - bu talabalarning bilim, ko'nikmalarini tekshirishga qaratilgan yozma topshiriqlardir. U qo'yilgan savol yoki amaliy topshiriqlarga javob berish bilan belgilanadi. Yozma ishlarda turli harakterdagi topshiriqlar, savollar qo'llanishi mumkin, biroq ular baholash mezoniga javob berishi zarur.

Yozma ishlarning hajmi turlicha bo'lgani bilan muayyan vaqt oralig'ida bajarilishga mo'ljallangan bo'ladi. Yozma ish vaqtini belgilashda talabalarning

diqqat xususiyatlari inobatga oladi. O'quvchilarning yoshi qanchalik kichik bo'lsa, yozma ish vaqt shunchalik kam bo'lishi darkor.

### **13-MAVZU: PSIXOLOGIYA FANLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI**

#### **Reja:**

1. Talabaning mustaqil ishi.
2. Talabaning mustaqil ta'limi.
3. O'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.
4. Mustaqil ish turlarini meyorlashtirish.
5. Talabaning mustaqil ishini masofaviy usulda tashkil qilish va ta'lim natijalarini (Blum taksonomiyasini asosida).
6. Ta'lim natijalarini baholash usullari.
7. Mustaqil ishning uslubiy ta'minoti.

**Talabalarning mustaqil ishi (TMI)** – bu talabaning o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga qiziqitirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan. TMI mazmuni mantiqiy fikrashni, ijodiy faollikni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi.

TMI mazmuni fanning xususiyatidan, oliy o'quv yurtining texnik imkoniyatlaridan va kutubxonaning o'quv-uslubiy ta'minlanganidan kelib chiqib aniqlanadi.

Odatda TMI talabaning mustaqil ta'limi (TMT) bilan birgalikda auditoriyadan tashqarida bajariladigan o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishini (ORTMI) ham o'z ichiga oladi.

Kunduzgi ta'lim shaklida bakalavriatda TMI ning umumiyoq soatlari

fan hajmining yarmini tashkil etadi va uning ham deyarli yarmi ORTMI ga ajratiladi. Sirtqi ta'linda TMI hajmi fan hajmining 4/5 qismini tashkil etishi maqsadga muvofiq.

TMI ni tashkil qilish oliy o'quv yurtining asosiy meyoriy hujjalari, jumladan ishchi o'quv dasturlari (sillabus), fan modullarini mustaqil o'rganish bo'yicha talablarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

TMI quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin:

- talabaning bevosita o'zi tomonidan (mobil qurilmasi orqali) amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari (TMT);
- an'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi;
- elektron shakldagi (mobil qurilmasi orqali) o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

**Talabaning mustaqil ta'limi.** Talabaning bevosita o'zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlariga (TMT) quyidagilarni kiritish mumkin:

- darsga tayyorlanish – ma’ruza matnlari, vodkastlar, video materiallar, amaliy mashg’ulotlar va laboratoriya ishlari bayonlarini o’rganish;
- axborot izlash – o’z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o’rganish;
- FAQ (ko’p so’raladigan savollar) – o’zini qiziqtirgan muammolarga o’rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;
- Forum – fan mavzulari bo‘yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta’lim platformalarida fikr almashish;
- Test yechish – o’rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materialarni mustahkamlash;
- Nazorat ishiga tayyorlanish – fan bo‘yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko‘rish.

**O’qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.** O’RTMI yuklamasi o’qituvchining yuklamasiga to’laligicha kirmaydi, biroq kontakt mashg’ulotlar uchun o’qituvchiga alohida yuklarna belgilanadi (hisob-chizma ishi, kurs ishi, kurs loyihasi, bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy izlanuvchiga rahbarlik, tayanch doktorantga rahbarlik va h.k.).

TMI innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo‘lishi kerak. O’RTMI ning auditoriyadagi shakli berilgan topshiriq doirasida talabarning darslik va birlamchi manbalar, guruhli topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi tahliliy faoliyatlarni ko‘zda tutadi. O’RTMI har bir fan bo‘yicha butun akademik o‘qish davrida sana, vaqt, auditoriyasi va tyutorlarni ko‘rsatgan holda grafik bo‘yicha o’tkaziladi. O’RTMI doirasidagi mashg’ulotlar maslahat va interfaol shakkarda bo‘lishi mumkin, ularning nisbati o’rganilayotgan fanning murakkabligi, ularni o’rganishga ajratilgan audtoriya soatlari hajmi, talabarning tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi.

Yakka tartibda maslahat olgan talaba, o’qituvchilarning mehnatini hisobga olish bo‘yicha jurnalga imzo qo‘yadi. TMIning sifatini kafedra nazorat qiladi, bunda TMI ning hajmi, mazmuni va hisobot turini tasdiqlaydi, ish hajmini, ketma-ketligini va topshirish muddatlarini aniqlaydi, TMI natijalari bo‘yicha talabalar va o’qituvchilarning hisobotlarini ko‘rib chiqadi.

An’anaviy shakldagi o’qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari (O’RTMI):

- masala yechish – amaliy mashg’ulot mavzusi bo‘yicha berilgan masalalarini yechish va uni yozma tarzda taqdim qilish;
- referat – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi;
- kollokvium – o’quv modulining nazariy qismining o’zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;
  - esse – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
  - taqdimot – berilgan mavzu bo‘yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;
  - keys-stadi – ishlab chiqarishdagি muammoli vaziyatlar bo‘yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo‘yicha yechim izlash;

• ish o'yinlari – kasbiy faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko'nikmalar orttirish; • glossariy – berilgan mavzu bo'yicha atamalarni qisqa izohlash.

• guruh loyihasi – 3-5 talabaning hamkorlikda loyiha ishini bajarishi;

• hisob-chizma ishlari – odatda texnik fanlar (muhandislik grafikasi, elektrotexnika, axborot texnologiyalari va h.k.) bo'yicha amalga oshiriladigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan grafik va hisob ishlari;

• kurs ishi – fan yoki fanlar majmuasi (korxonalar iqtisodiyoti, menejment asoslari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, fuqaro himoyasi va h.k.) muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan yozma va hisob ishlari;

• kurs loyihasi – fan yoki fanlar majmuasi (texnik mexanika, texnologik jarayon va qurilmalar, mutaxassislikka oid loyiha ishlari bajariladigan fanlar) muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan grafik chizmalar ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari;

• diplom loyihasi - mutaxassislik faniga oid berilgan mavzu bo'yicha ishlab chiqarish korxonasini yoki uning bo'linmasini loyihalashga qaratilgan, grafik chizmalar va hisob ishlari bilan bayon qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan loyihaviy ish;

• amaliyot hisoboti – o'tkazilgan malakaviy amaliyot (tanishuv, ishlab chiqarish, bitiruv oldi amaliyotlari) bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisobot;

• fan to'garaklarida ishtirok etish – talabaning fan to'garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko'rgazmali materiallarni tayyorlashi;

• tanlovlarda ishtirok etish – talabaning o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi ("Yosh ixtirochi", talabalar startap loyihalari va h.k.);

• fan olimpiadalarida qatnashish – fanlar bo'yicha OTM lar o'rtaida o'tkaziladigan olimpiadalarda ishtirok etish (kimyo, umumiy kimyoiy texnologiya, fizika, axborot texnologiyalari va h.k.);

• ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilish – fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyoslarda o'tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma'ruza qilish;

• ilmiy tezis va maqolalar chop etish – ilmiy anjumanlarning to'plamlarida tezislari va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha maqolalar chop qilish;

• o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish – darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va boshqa o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etish; Elektron shakldagi O'RTMI lar:

• Link – internet havolasini ochib unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash;

• Chart – jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish.

- Q/A – masofaviy ta'lif platformasida o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish;
- Review – taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish.
- SWOT – talaba biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlil qiladi;
- Interview – muammoni tadqiq qilish bo'yicha suhbat uyuştirish va uni masofaviy ta'lif platformasiga yuklash;
- Google Apps – Google Classroom platformasida hamkorlikda slaydlar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish;
- Dayjest – berilgan mavzu bo'yicha internet-havolalar to'plamini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlash;
- Report – talabalar laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha hisobotlarini masofaviy ta'lif platformasiga kiritishadi.

O'RTMI lar ularning bayoni, mavzulari, topshiriqlari, o'tkazish shakllari, soatlar hajmini ham ko'rsatgan holda fanning sillabusida fan modullari bo'yicha keltiriladi.

**Mustaqil ish turlarini meyorlashtirish.** Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ish turlarining hajmi 50-60% gacha oshadi, amaldagi ta'lif tizimida bu ko'rsatkich deyarli 40% ni tashkil etadi. Shu sababli, mustaqil ta'limga yetarlicha e'tiborni qaratmasdan, uning uslubiy turlarini shakllantirmasdan kredit-modul tizimini to'laqonli tatbiq qilib bo'lmaydi.

Amaldagi ta'lif tizimiga nisbatan oladigan bo'lsak o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ish turlarini meyorlangan va meyorlanmagan turlarga ajratish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 2018 yil 10-sentabrdagi 20-2018-sonli buyrug'iga ilova qilingan "Oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt meyorlari"da quyidagi o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ish (O'RTMI) turlari meyorlab qo'yilgan:

- **3-ish turi:** Kurs ishlari va kurs loyihibariga rahbarlik qilish va ular bo'yicha maslahatlar berish; bitta KI uchun 2 soat va KL uchun 3 soat ajratilgan. Shuningdek, bitta professor-o'qituvchi bir semestr davomida 50 tagacha rahbarlik qilishi va maslahat berishi mumkin.

- **6-ish turi:** Namunaviy o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan nazorat, hisoblash va hisob-grafik ishlari tekshirish, maslahatlar berish, taqrib yozish va qabul qilish; bitta topshiriq uchun 0,3 soat, biroq, bitta fanga ko'pi bilan 1 soatgacha vaqt ajratilgan. Bitta professor-o'qituvchi ko'pi bilan 3 tagacha akademik guruh biriktirilishi mumkin.

- **8-ish turi:** Bakalavriat ta'lif yo'naliishi talabalarini amaliyotlariga rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini tekshirish va baholash. Malakaviy amaliyot o'tayotgan har bir talaba uchun bir ish kuniga – 0,5 soat belgilangan. Bunda 1 akademik guruh uchun bir ish kuniga – 6 soat, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotga rahbarlik qilishga 1 akademik guruh uchun ta'lif muassasasi joylashgan hududda kuniga – 3 soat, hududdan tashqarida – 6 soat etib belgilangan. Individual holda o'tkaziladigan amaliyotlarda butun amaliyot davriga

bir talaba uchun – 2 soat ajratilgan. Ushbu ish turi bo'yicha yuklama hajmi professor-o'qituvchining o'quv ishlari yuklamasining 20% idan oshmasligi ham belgilab qo'yilgan.

- 9-ish turi: Bakalavriat ta'lif yo'nalishi talabalarining bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilish, xulosalar yozish; bir o'quv yiliga har bir talaba uchun 25 soat, texnik yo'nalishlarda esa – 30 soat etib belgilangan. Bunda bir o'quv yilida bitta professor-o'qituvchiga 7 nafargacha talaba biriktiriladi.

- 11-ish turi: Magistratura talabalarining ilmiy-pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlik qilish bir o'quv yiliga bitta talaba uchun – 50 soat belgilangan. Bunda professor yoki fan doktori – 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis – 3 nafargacha talabaga rahbarlik qilishi mumkin.

- 12-ish turi: Magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy-tadqiqot ishiga rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilish uchun bir o'quv yiliga bitta talaba uchun – 50 soat belgilangan. Bunda professor yoki fan doktori – 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis – 3 nafargacha talabaning magistrlik dissertatsiyasi va stajirovkasiga rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilishi mumkin.

- 14-ish turi: Oliy ta'lif muassasalaridagi doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilish. Bunda bir nafar doktorant uchun bir o'quv yiliga – 100 soat, bir nafar mustaqil izlanuvchi uchun bir o'quv yiliga – 50 soat belgilangan. Professor, fan doktori, dotsent, fan nomzodi o'zi ishlayotgan oliy ta'lif muassasasida 3 nafargacha doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan O'RTMI turlaridan masala yechish, referat yozish, kolokvium, esse, taqdimot, keys-stadi, ish o'yinlari, glossariy, guruh loyihasi va boshqalar uchun vaqt meyorlari ko'zda tutilmagan. Chunki, ular bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi va maslahatlarni auditoriya mashg'ulotlarida (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya) amalga oshirish mumkin.

Talabalarning fan to'garaklarida, tanlovlarda, fan olimpiadalarida ishtirok etishi, ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilishi, ilmiy tezis va maqolalar chop etishi kabi yuklamalarga ham vaqt meyorlari ko'zda tutilmagan, ularni bajarish "Oliy ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilarining o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ish turlarida ko'zda tutilgan.

Talabalar tomonidan masofaviy ta'limda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan Link, Chart, Q/A, Review, SWOT, Interview, Google Apps, Dayjest, Report kabi o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ish turlari uchun maslahatlarni kontakt soatlari (auditoriya mashg'ulotlari) uchun ajratilgan vaqt hisobidan amalga oshirish mumkin.

**Mustaqil ishning uslubiy ta'minoti.** Talabaning mustaqil ishlashi uchun yo'nalishga oid Davlat ta'lif standartlari, Malaka talablari, o'quv rejalarini bo'yicha ma'lumotlarning ixchamlashtirilgan variantlari, tanlov fanlari katalogi va fanning o'quv-uslubiy majmuasi to'liq yetkazilishi zarur.

Shuningdek, kredit-ta'lism tizimida talabaning axborot paketini shakllantirish zarur bo'ladi. U o'z ichiga ma'lumotnoma-ko'rsatkich va talabaning o'quv-uslubiy majmuasini (TO'UM) o'z ichiga oladi.

Kredit-modul tizimining asosiy farqli jihatlaridan biri faqat talabalarni zarur o'quv hujjatlari bilan ta'minlashdan iborat bo'lib qolmasdan, shuningdek, oliy ta'lism muassasasi talabaga oliy ta'lism muassasasi, yo'nalishlar, mutaxassisliklar, o'quv jarayonining tashkil qilinishi va bilimlarni nazorat qilish, mustaqil o'qishga tayyorlanish, dam olish va har tomonlama rivojlanish sharoitlari haqida to'liq axborotni taqdim qilishi kerak.

Ma'lumotnoma-ko'rsatkich salohiyatli hamkorlar va talabalar, shuningdek, hamkor oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilar jamoasiga o'quv va ma'muriy tadbirlar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumotnoma-ko'rsatkichdagi axborotlar ta'lism jarayoni va qo'shimcha tadbirlarning shaffofligini oshirish, talabalarni mos dasturlarni tanlashga yo'naltirishdagi o'quvchilar mehnatini yengillashtirish va mamlakat oliy ta'lism muassasasalarida va xorijda ularning o'qishini rejalashtirish hamda talabaga amaliy axborotlarni taqdim qilish uchun mo'ljallangan.

Unda shuningdek, oliy ta'lism muassasasi, uning joylashishi, talabalarning yashash tarzi, qayd qilish uchun zarur ma'muriy tadbirlar haqidagi umumiy axborotlar va akademik kalendar ham mavjud bo'ladi. Unga yana shuningdek, oliy o'quv yurtiga qabul qilish tartibi haqidagi ma'lumotlar, mashg'ulot turlari va nazorat shakllari, o'qitish usullari va texnologiyalari, fanlarning kredit hajmi va ularning tuzilmasi, fanlarni o'qitishni tashkil qiluvchi fakultetlar va bo'limlar nomlari ham kiritilgan. Ma'lumotnoma nashriga imtihonlarni o'tkazish sharoitlari va ularni baholash, oliy o'quv yurtini tugatgandan keyin beriladigan akademik darajalar ham kiritiladi.

Ma'lumotnoma-ko'rsatkich quyidagilardan tarkib topadi:

- Kirish.

Kirish tashkilotning asosiy nizomini, tuzilmasini, darajalarini, yo'nalish va mutaxassisliklarini va O'zbekiston Respublikasida, shuningdek, oliy o'quv yurtidagi mavjud malakalarini o'zida aks ettirishi o'zida aks ettirishi zarur.

- Oliy o'quv yurti haqida umumiy ma'lumotlar

Bu bo'limda oliy o'quv yurtining missiyasi, uning qisqa tarixi, tashkiliy-huquqiy shakli, belgilovchi hujjatlarning huquqlari, davlat va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

- Akademik kalendar

Akademik kalendar dam olish kunlari (ta'tillar) ko'rsatilgan o'quv yili davomidagi o'quv mashg'ulotlari va nazorat tadbirlarini o'tkazish jadvalidan iborat.

- Talaba kalendari

Talaba kalendari yil davomida oliy o'quv yurti tomonidan tashkil etiladigan tashkiliy-ommavy tadbirlarning jadvalidan iborat.

- Kredit ta'lism tizimini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

Bu bo'limda ta'lif jarayonini tashkil qilishning quyidagi asosiy holatlari va qoidalari aks ettilishi kerak:

- fanlami o'zlashtirishni nazorat qilish va baholash tizimi.
- oliv o'quv yurtining laboratoriya-kompyuter, sport-ko'ngil ochish va axborot-texnik bazasidan foydalanish qoidalari (kutubxona, nusxa ko'chirish xizmatlari, kompyuterlar, internet, WiFi).

• talabaning harakatlari, huquqlari va majburiyatları (etika va burch kodeksi).

Talabaning o'zi xorijda o'qish dasturini rejalashtirishi va tashkil qilishi uchun oliv o'quv yurtiga ma'lumotnoma-ko'rsatkichni davlat, rus va ingliz tillarida tayyorlash tavsija qilinadi.

Talabaning O'UM uning yangi akademik talablarga moslashuvchanligini, o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish maqsadida "teskari aloqa"ni jadallashtirish va oliv ta'lif muassasasi sharoitlarida ta'lif mazmuniga oid ilg'or tajribalarni joriy qilish maqsadida ishlab chiqiladi.

Talabaning O'UM kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va dekan tomonidan tasdiqlanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabaning shaxsiy o'quv rejasi (SHO'R);
- tanlov fanlari katalogi (TFK);
- ishchi o'quv dasturlari (Syllabus);
- TMI, jumladan O'RTMI bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar; • barcha turdag'i nazoratlar uchun test topshiriqlari;
- amaliyot uchun materiallar.

### Nazorat savollari

1. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy usullari.
2. Talaba mustaqil ishini tashkillashtirish bosqichlari.

## ILOVALAR TA'LIM METODLARI 1-ILOVA TA'LIM METODLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Ta'lif metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi.

Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'lif metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda.

Muayyan ta'lif-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lif metodini hosil qiladi.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytildi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, mакtabda o'rgatish, maktabgacha ta'lim muassasasida o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xshash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda har turli metodlarni qo'llaniladi.

Masalan, savod o'rgatish maqsadida yuqorida aytilgan yo'llardan istalgani tanlangandan keyin, shu har bir yo'l uchun maqsadga muvofiq deb hisoblangan metodlarni qo'llaniladi. Bular, oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida, mакtabda savod o'rgatishni amalga oshrishda o'qituvchining, tarbiyachining qo'llaydigan ish usullarini; kompyuter, kitob va boshqa ta'lim-tarbiya vositalarini belgilangan maqsadga muvofiq qo'llash metodlarini o'z ichiga oladi. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatish yuzasidan ham tanlangan har bir yo'l o'ziga xos metodlarni qo'llashni nazarda tutadi. Demak har bir harakat ma'lum yo'lda va shunga muvofiq metoddha amalga oshiriladi.

Biror metodni qo'llashdagi harakatni amalga oshirish ko'rinishi deb shu harakatni batafsil tasvirlovchi ko'rinishga aytildi. Bunda harakatning kuzatiladigan o'zgarishlari, vaziyatlari, tezligi va uning ortishi yoki sekinlashuvi, to'xtashlari, bir nechta harakatlarning bir vaqtligi yoki ularning vaqt oraliqlari, harakatlar natijasi, amaliy ishlar bajarish mashg'ulotlarida esa, ishlov berilayotgan shakllar, fazoviy holatlar, ranglar, qattiq-yumshoqlik, sirlarning tekisligi yoki g'adir-budurligi o'zgarishlari va boshqa kuzatish mumkin bo'lgan turli harakat ko'rinishlari nazarda tutiladi.

Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalaniladi. Bu metodlarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operatsiyalarining yoki yo'llarining yig'indisi deyish mumkin. Ushbu qo'llanmada metod tushunchasini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq jihatlardan ko'rib chiqiladi. Shunga muvofiq ta'lim metodlari bilan bog'liq eng asosiy tushunchalarning izohlarini ko'rib chiqamiz.

**Metod** – (grekcha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, yo'l, axloq usuli ma'nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

**Ta'lim metodi** – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va

ta'lif oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

**Metodika** – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilalar.

**Usul** – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

**Uslub** – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

**Yo'l** (ruscha - priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rindiki, har bir ta'lif metodi tarkibiga muayyan ta'lif-tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgan ish-harakat usullari, yo'llari kiradi.

### TA'LIM METODLARINING TARKIBIY TUZILISHI

Ta'lif metodlaridan tegishli maqsadlarda samarali foydalanish uchun har bir metodning tarkibiy tuzilishi to'g'risida zarur tushunchalarga ega bo'lish talab qilinadi. Ta'lif metodlari ta'lif-tarbiya jarayonini amalga oshirishning tegishli pedagogik-psixologik va ilmiy-metodik asoslariga ega. Ular ko'zlangan maqsadlarga erishish yo'llidagi murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga, xususiyatlarga ega bo'lgan faoliyat turidir. Shu munosabat bilan ta'lif metodlarining tarkibiy tuzilishiga doir umumiy ma'lumotlarni qisqacha keltirib o'tamiz.

Ta'lif metodlari turli tarkibiy tuzilishga ega bo'lib, ular usul, yo'l, bosqich, bo'lak, qism, modul, algoritm kabi tushunchalar bilan ifodalanadigan tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida usullar alohida ajralib turadi. Quyida ularning qisqacha ta'riflarini keltiramiz:

**Usul** – metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirish bo'yicha qo'llanadigan harakatlarning turlarini belgilaydi.

**Yo'l** – metodni amalga oshirish bo'yicha qo'llanadigan harakatlarni bajarish shaklini belgilaydi.

**Bosqich** – metodni amalga oshirish jarayonining mazmun va vaqt bo'yicha muayyan darajadagi ketma-ketligini bildiradi.

**Bo'lak** – metodning tarkibini istalgan turli kattalikda taqsimlanishi natijasida hosil bo'ladi.

**Qism** – metodning tarkibini muayyan mantiqiy asosda taqsimlanishi natijasida hosil bo'ladi.

**Modul** – metodni hosil qiluvchi eng kichik tarkibiy bo'laklarini bildiradi.

**Algoritm** – metodning tarkibiy tuzilishidagi muayyan tartibda takrorlanuvchi modullari yig'indisini hamda metodni amalga oshirish jarayonidagi harakatlarning muayyan tartibda takrorlanib turuvchi majmuasini bildiradi.

Ta'lim metodlarida o'qitishning ob'ektiv qonuniyatları, maqsadları, mazmuni, tamoyilları, shaklları o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga uzviy bog'liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli, hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga tegishlicha ta'sir ko'rsatadi.

Har bir ta'lim metodining tarkibiy tuzilishida shu metodning o'ziga xos bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv jihatlar ajralib turadi.

Metodlarning ob'ektiv jihatlarida barcha didaktik qoidalar, qonunlar va qonuniyatlar, tamoyillar va ta'riflar, shuningdek, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining shakllariga xos bo'lgan umumiy jihatlar aks etadi.

Metodlarning sub'ektiv jihatni pedagog shaxsi, ta'lim oluvchilarning o'ziga xosligiga va mavjud sharoitga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim metodlari **ko'p parametrlarga ega** va **ko'p o'lchovli** bo'lib, ularning bu xususiyatlari ta'lim-tarbiyaviy maqsad va vazifalar hamda ularni amalga oshirish shakllarining turli-tumanligi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan ta'lim metodlarini tasniflashda ham har turli yondashuvlar mavjud. Buning natijasida ta'lim metodlarining ko'plab tasniflari kelib chiqqan. Quyida ularni qisqacha ko'rib chiqamiz.

**Ta'lim metodlari tasnifi** – bu muayyan belgilar asosida tartibga solingan tizimdir. Ma'lumki, didaktik tadqiqotlar o'qitishni dialektik jarayon sifatida o'rganadi. Bunga ko'ra ta'lim metodlari tizimi o'sish, o'zgarishda, harakatda bo'lib, ta'lim mazmunida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda rivojlanb borishi hisobga olinadi. Shunga muvofiq ularni tasniflashda ham ushbu ro'y berayotgan o'zgarishlar tegishlicha aks etib boradi.

Ta'lim metodlarini tasniflashda ularning an'anaviyligi, didaktik maqsadi, bilish faoliyati xarakteri, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish xususiyatlari, o'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va stimullash xususiyatlari, o'quv-bilish faoliyatining samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish xususiyatlari kabi belgilariga asoslaniladi.

Ta'lim metodlarini tasniflash shakllariga doir ayrim misollarni ko'rib chiqamiz.

**1. An'anaviy ta'lim metodlari tasnifi.** Bu metodlarning ibtidosini ilk falsafiy va pedagogik tizimlar tashkil etadi. Hozirgi davrda ulardan beshtasi inobatga olinadi: *amaliy, ko'rgazmali, ifodali, kitob bilan ishlash va video metodlar*.

## **2. Didaktik maqsadi bo'yicha tasnifi.**

- *ilk bor bilimlarni o'zlashtirish metodlari;*
- *egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish metodlari.*

## **3. Ta'larning umumiy maqsadiga ko'ra metodlar tasnifi:**

- *bilimlarni egallash;*
- *malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;*
- *bilimlarni qo'llash;*
- *ijodiy faoliyat;*
- *mustahkamlash metodlari;*
- *bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari.*

## **4. Idrok etish – bilish faoliyati xarakteriga ko'ra metodlar tasnifi:**

• *tushuntirish – illyustrativ (axborot – retseptiv).* Ularning xarakterli xususiyatlari: bilimlar “tayyor holda” tavsiya etiladi; bunda bilimlarni idrok qilish tashkil etiladi; bilimlar idrok (retsepsiya) qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi;

• *reproduktiv metod:* bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o'zlashtiriladi, ularning tushunilishi va eslab qolinishiga erishiladi hamda bilimlarning mustahkamligi tez-tez takrorlash yo'li bilan ta'minlanadi.

• *muammoli bayon qilish metodi;*

• *qisman ijodiy (evristik) metod.* Bilim tayyor holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; bilish vazifalari bo'yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi va hal qilinadi;

• *tadqiqiy metod.* Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilimlar egallanadi.

## **5. Ta'lim metodlarining binar (qo'sh) va polinar (ko'pqirrali) tasnifi.**

Binar tizim *dars berish metodi* va *o'rganish metodi* majmuidan iborat. Uni quyidagi jadval ko'rinishida yaqqol ifodalash mumkin (1-jadval).

I-jadval

### **O'qitish metodlari**

Dars berish metodi	O'rganish metodi
Axborot berish – bayon qilish	Ijro etish
Tushuntirish	Reproduktiv
Ko'rsatma berish – amaliy	Produktiv – amaliy
Tushuntirish – ishontirish	Qisman ijodiy
Ishontirish	Ijodiy

O'qitishning polinar, ya'ni ko'pqirrali tasnifi bilimlar manbai, bilish faolligi darajasi, o'quv bilimlarining mantiqiy yo'llari va o'qitishning *monologik, hamkorlik va dialogik* metodlar yig'indisidan tarkib topadi ( 2-jadval).

2-jadval

Monologik metodlar	Hamkorlik metodlari	Dialogik metodlar
Ma'ruza	Individual (o'zaro)	Suhbat
Hikoya	Guruqli	Munozara
Namoyish qilish	Frontal Jamoa (kollektiv)	Muzokara

Pedagogik adabiyotlarda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish metodlarining quyidagi uch guruhi mavjudligi bayon etilgan:

- o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari ( -jadval);
- o'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va stimullash metodlari ( -jadval);
- o'quv-bilish faoliyatining samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish ( 3-jadval).

3-jadval

**O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari hamda asoslari**

Ifodali, ko'rgazmali, amaliy metodlar	Induktiv deduktiv metodlar	Reproduktiv va muammoli-ijodiy metodlar	O'qituvchi rahbarligida mustaqil ish metodlari
Manbalar	Mantiq	Tafakkur	Boshqaruv

4-jadval

**O'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va stimullash metodlari**

O'rganishga qiziqish uyg'otishni stimullash va motivatsiyalash metodlari	O'rganishda burch va mas'uliyatni stimullash va motivatsiyalash metodlari
--	--

5-jadval

**O'quv-bilish faoliyatining samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini  
nazorat qilish metodlari**

Og'zaki nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari	Yozma nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari	O'z-o'zini nazorat qilishning laboratoriya- amaliy metodlari
---	---	--

Shunday qilib, kasbiy ta'lif didaktikasi tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan metodlar va alohida funksional yondashuv metodlari tizimini yaratish uchun tegishli ta'lif muassasasidagi pedagogik faoliyat asos bo'lib xizmat qiladi. Unda qo'llaniladigan kasbiy ta'lif metodlari didaktik maqsadlarga erishishning nisbatan alohida yo'llari va metodlari sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lif muassasalaridagi o'qitish metodlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, nafaqt dars berish usullari va uslublarini birlashtiradi, balki ular bilimlarni o'zlashtirishning o'quv va ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan tizimini ham anglatadi. Shunday savol tug'iladi: oliy ta'lif muassasalaridagi o'qitish metodlari maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejidagi o'qitish metodlaridan qay jihatlari bilan farqlanadi?

Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida fan asoslari o'rganiladi. Oliy ta'lif muassasasida talaba zamonaviy fanni o'rganadi va ixtisoslik bo'yicha ta'lif oladi. Shuning uchun ham oliy ta'lif muassasalaridagi o'qitish metodlari bilimlarni yetkazish va anglashning usullarigina emas, balki fan taraqqiyoti jarayoniga tobora kirib borish, uning metodologik va g'oyaviy asosini ochish metodi hamdir.

Oliy ta'lif muassasalaridagi o'qitish metodlarini asoslashda didaktika bilan shug'ullanuvchi olimlar oliy ta'lif muassasalaridagi o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va talabalarning bilish faoliyatini qamrab oladilar hamda talabalarning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi masalalariga katta ahamiyat beradilar. Talabalarning faol ijodiy bilish faoliyati hamda ularning mustaqil ishlardan iborat kasbiy ta'lif jarayoni ta'lif metodlarining *o'qitish metodlari va o'rganish metodlaridan iborat* ikki guruhini bir-biridan farqlashni taqozo qiladi:

**O'qitish metodlari** bilimlarni berish usullari sifatida qaraladi va talabalaring ilmiy bilish faoliyatiga rahbarlik qilishga qaratilgan bo'ladi hamda o'quv jarayonida pedagogning talabalarga ta'sir ko'rsatish usullarini shakllantiradi.

**O'rganish metodlari** bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallashga hamda metodik va g'oyaviy-siyosiy e'tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

Oliy ta'lif muassasalaridagi ta'lif xususiyati o'quv jarayonini tashkil etishda namoyon bo'ladi. Bunda maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejidagi ta'lif metodlarini belgilash va o'qitish shakllarini ham tashkil qilishni lavsiya etadi. Oliy ta'lif muassasalarida ushbu o'qitish metodlari va shakllari qo'shilib ketadi, ya'ni oliy ta'lif muassasalaridagi dars berish metodi ayni zamonda o'qitishniig tashkiliy shakli ham hisoblanadi. Oliy ta'lif muassasalaridagi o'qitish metodlari o'ziga qo'shimcha yuklama-mashg'ulotni tashkil etishni ham qamrab oladi.

Oliy ta'lif muassasalaridagi o'qitish metodlari tasnifi masalasi o'zining dolzarbligini saqlab qoladi. Oliy ta'lifdagi o'qitish metodlari tasnifiga didaktik yondashuvlar, umumdidaktik yondashuvlarga monelik qilmaydi, balki ularni rivojlantiradi. Ular oliy ta'lif tizimidagi o'quv jarayonining xususiyatlari, ularning didaktik vazifalari xarakteriga asoslanadi.

Oliy ta'lif muassasalarida o'qitish va o'rganish metodlari quyidagi keng tarqalgan tasniflarga borib taqaladi:

1. *Bilimlarni berish, idrok etish va o'zlashtirish hamda e'tiqodni shakllantirishni ta'minlovchi metodlar.* Bu metodlarga ma'ruza, talabalarning mustaqil ishlari, mustaqil ta'lif olish bo'yicha ishlari, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish, maslahatlar, ko'rsatma berish, ommaviy axborot vositalari, dasturlashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. *Bilimlarni tatbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish hamda e'tiqodni chugurlashtirish metodlari.* Bunga seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, o'quv xonalaridagi dasturlashtirilgan mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti kiradi.

3. *Bilimlar, e'tiqodlarni shakllantirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash metodlari.* Bu o'quv jarayonining reyting baholari, kollokviumlar, suhbat o'tkazish, kurs va diplom ishlari loyihalari hamda davlat attestatsiyasi natijalarini baholashdir.

Bu tasnif konkret metodlar imkoniyatlarini belgilovchi eng muhim sifatlar asosiga qurilgan. Bunda ushbu tasnif bo'yicha birinchi guruhdagi shunday sifatlarga bilimlarni idrok qilish va o'zlashtirish, ikkinchi guruhga – **tatbiq etish va mustahkamlash**, uchinchi guruhga esa – **attestatsiya va bilimlarni aniqlash** taalluqlidir.

Oliy ta'lif tizimidagi o'qitish metodlari tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- *metodlar tizimi ta'limi funksiyaga ega bo'lishi lozim.* Bu didaktik maqsadlar va o'qitish vazifalariga erishishning eng qulay usulidir;

- *metodlar tizimi tarbiyalash-rivojlantirish funksiyasiga ega bo'lishi lozim.* Bunda talabalarning mustaqil ishlari, vazifalari, ularning ishgaga ijodiy yondashushi hal qilinadi, talabalarning shaxsiy sifatlari, bilim, malaka va ko'nikmalarni egallahsha bo'lgan ehtiyojlar shakllanadi hamda ularning diqqati, irodasi, hissiyoti, xotirasi, tafakkuri o'sadi.

## **HOZIRGI TA'LIM METODLARINING ASOSIY TURLARI**

Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan ta'lif metodlari xilma-xil hamda ko'p sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, ta'lif-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va boshqa

sifatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu metodlarning har biri muayyan ta'lif-tarbiyaviy maqsadlar uchun mos bo'lib, uning o'miga boshqa metodni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Chunki boshqa metod ushbu maqsad uchun mos emas ekanligi ma'lum.

Shu sababli ta'lif metodlarining qaysinisidan qaysi maqsad uchun foydalanish ko'zda tutilgan samaranı berishini bilish muhim ahamiyatga ega. Lekin bu masala hozirgacha to'liq o'rganilgan emas. Bu masala avvalo ta'lif metodlarini ma'lum belgilariiga ko'ra turlarga ajratib olish va ularning asosiy xarakteristikalarini aniqlashni talab qiladi. Shuni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lif metodlarini turlarga ajratish dolzarb masaladir. Buni hal qilish uchun zamonaviy ta'lif metodlarining turlarga ajratish uchun zarur bo'lgan asosiy belgilari aniqlab olish lozim. Bu belgilari quyidagilar bo'lishi mumkin:

Bajaradigan vazifasiga, ko'zda tutiladigan natijaga, ta'lifiy va tarbiyaviy maqsadlarga, pedagogik va psixologik yo'naliishlariga, ta'lif oluvchilarning yoshiga muvofiqligiga, ayrim fanlarni (ijtimoiy, tillar, tabiiy, aniq, amaliy va boshqa fanlarni) o'qitishga, nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishga, o'zlashtirishni nazorat qilishga tegishli va boshqa belgilari.

Shu belgilariiga ko'ra ta'lif metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

### **1. Bajaradigan vazifasiga tegishli belgilariiga ko'ra ta'lif metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:**

Nazariy bilim berish metodlari.

Amaliy ko'nikma va malakalarni o'rgatish metodlari.

Amaliy mashqlar bajarishni o'rgatish metodlari.

Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash metodlari.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni nazorat qilish metodlari va boshqalar.

### **2. Ko'zda tutiladigan natijaga tegishli belgilariiga ko'ra ta'lif metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:**

Mashg'ulot sifati va samaradorligini oshirish.

Ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ta'lif oluvchilarning iqtidorlari yo'naliishlarini aniqlash.

Ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish.

Yuqori o'zlashtirishlariga erishish.

Bilimlarni o'zlashtirishlariga erishish.

Amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlariga erishish.

Faoliyklarini oshirishga erishish..

Qiziqishlarini orttirishga erishish..

### **3. Ta'lifiy va tarbiyaviy maqsadlarga tegishli belgilariiga ko'ra ta'lif metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:**

**Mustaqil fikrlashga o'rgatish.**

**Mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish.**

**Vazifalarni mustaqil bajarishga o'rgatish.**

**Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini faollashtirish.**

**Tanqidiy fikrlashga o'rgatish.**

**4. Pedagogik va psixologik yo'naliishlariga tegishli belgilariga ko'ra ta'lim metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:**

Interfaol ta'lim metodlari

Didaktik o'yinlar metodlari

Muammoli ta'lim metodlari

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim metodlari

Differensial ta'lim metodlari

Yakka (individual) ta'lim metodlari

Evristik ta'lim metodlari

Dogmatik ta'lim metodlari

Reproduktiv ta'lim metodlari

Produktiv ta'lim metodlari

Ijodiy ta'lim metodlari.

Badiiy ta'lim metodlari.

Estetik tarbiya va ta'lism metodlari.

Jismoniy tarbiya va sport ta'limi metodlari.

Mehnat ta'limi va tarbiyasi metodlari.

Maxsus ta'lim metodlari.

Katta yoshdagilar ta'limi metodlari va boshqalar.

**5. Ta'lim oluvchilarning yoshiga muvosiqiligiga tegishli belgilariga ko'ra ta'lim metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:**

Oliy ta'lim muassasalari uchun mos metodlar.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun mos metodlar.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun mos metodlar.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun mos metodlar.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari uchun mos metodlar.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalari uchun mos metodlar.

Maxsus ta'lim muassasalari uchun mos metodlar.

**6. Ayrim fanlarni (ijtimoiy, tillar, tabiiy, aniq, amaliy va boshqa fanlarni) o'qitishga tegishli belgilariga ko'ra ta'lim metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:**

Ijtimoiy fanlarni o'qitishga mos metodlar.

Tillarni o'qitishga mos metodlar.

Tabiiy fanlarni o'qitishga mos metodlar.

Aniq fanlarni o'qitishga mos metodlar.

**Amaliy fanlarni o'qitishga mos metodlar.**

**Texnika fanlarini o'qitishga mos metodlar va boshqalar.**

**7. Nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishga tegishli belgilariga ko'ra ta'lif metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:**

Nazariy bilimlarni o'rgatishga mos metodlar.

Amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishga mos metodlar.

Har turli texnika vositalaridan foydalanish, ularni boshqarishni o'rgatishga mos metodlar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni o'rgatishga mos metodlar.

Kasb-hunarlarni o'rgatishga mos metodlar va boshqalar.

**8. O'zlashtirishni nazorat qilishga tegishli belgilariga ko'ra ta'lif metodlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:**

Yozma ishlarni bajarish: diktant, bayon, insho va sh.k.

Nazorat ishlarni bajarish: joriy, oraliq, yakuniy nazorat ishlari.

Mashqlar bajarish.

Masalalar yechish.

Mustaqil ishlarni bajarish.

Og'zaki so'rov (savol-javoblar), imtihon, sinov.

Test sinovlari va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan ta'lif metodlarining turlari ma'lum darajada shartli bo'lib, bu esa, har bir ta'lif metodi bir vaqtida bir nechta sifat va xususiyatlarga ega ekanligi bilan bog'liq. Shu sifat va xususiyatlarning eng umumiy belgilari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

So'zlash va tinglashga asoslangan metodlar.

So'zlash, tushuntirish va tinglashga asoslangan metodlar.

So'zlash, ko'rgazmali vositalardan foydalanib tushuntirish va ko'rish, tinglashga asoslangan metodlar.

Monologik ma'ruza metodi.

Suhbat metodi.

Savol-javoblar metodi.

Bahs, munozaralar metodi.

Ishchanlik o'yinlari metodi.

Rolli o'yinlar metodi.

Didaktik o'yinlar metodi.

Hamkorlikda ishslash metodi va boshqalar.

Ta'lif metodlarining ushbu umumiy belgilari so'zlash-tinglash, ko'rsatish-kuzatish, tushuntirish-fikrlash, mustahkamlash-takrorlash jarayonlaridan iborat

**bo'lib, bu belgilar aslida har bir metod uchun xosdir. Bunday umumiylit ta'lif metodlarini amalda qo'llashda birmuncha keng imkoniyatlar berishi tabiiy. Bu esa, ta'lif metodlarini ma'lum maqsad bo'yicha tanlashda hisobga olinishi zarur omildir.**

## **KEYS-STADI METODI**

**(Amaliy holatlarni o'qitish metodi)**

*"Ta'larning buyuk maqsadi bilim berish emas,  
balki hatti-harakatlarga o'rgatishdir"*

**G. Spenser**

Bu metodning nomi inglizcha "sase-study" so'zlaridan olingan. Bunda "sase" – yashik, quti, g'ilof, jild, "study" – o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, o'quv fani, saboq olish, o'qish ma'nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytildig'an "sase – true life", ya'ni "keys – haqiqiy hayot" iborasiga ko'ra keys - real hayotning «bir parchasidir». Shunga ko'ra bu metodni "amaliy holatlarni o'qitish metodi" deb ham ataladi.

Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasи, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'limgarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta'limgarayonida hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

Shu sababli G'arb mamlakatlariagi ta'limgarayonida keys-stadi metodidan, ya'ni keyslardan foydalanish o'quv rejasining 25 % ini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan ta'limgarayonida hayotiy vaziyatdan foydalanishning ahamiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

### **Ta'limgarayonida hayotiy vaziyatdan foydalanishning dolzarbliji:**

Keys-stadi ta'limgarayonida metodini turli holatlarni o'rganishda qo'llash – hayotdan olingan odadagi vaziyatlarni o'rganishni tashkil etish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta'limgarayonida oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta'limgarayonidan iborat.

Bu metod ta'limgarayonida oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yig'ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag'ishlangan keyslardan foydalanish ta'limgarayonini haqiqiy hayot bilan bog'laydi. Keysni ko'rib chiqishda ta'limgarayonida oluvchilar ta'limgarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o'zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashish holatlari kelib chiqadi. Keys ta'limgarayonida oluvchilarga tahlil qilish, qiyoslash yo'llarini qidirish va muammoni yechish erkinligini beradi.

**Keys-stadi ta'limgarayonida doir ayrim asosiy tushbunchalar ta'rifi:**

“Keys” va “keys-stadi” tushunchalarining ma’no-mazmuni ko‘p qirrali bo‘lib, shunga ko‘ra quyida ularning asosiy xususiyatlarini to‘liqroq aks etirish maqsadida ko‘p variantli ta’riflari berildi.

**Keys – 1)** ta’lim oluvchilarining ma’lum maqsadlardagi hayotiy vazifalarni bajarishlari bo‘yicha vaziyatning bayoni, uni tushunish va baholashga imkon beradigan hamda muammoni ifodalash uchun, uning maqsadga muvofiq yechimini izlashlari uchun kerak materiallar to‘plami; 2) belgilangan mavzu yoki muammo va uning yechimiga doir qo’shimcha axborotlar, audio, video, elektron tashuvchilar, o‘quv-uslubiy materiallar yig‘indisi; 3) muammoni hal qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari va xulosalar.

**Keys-stadi – 1)** ta’lim oluvchilarni o‘rganilayotgan muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun‘iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatlari tahlil etilishiga asoslanadigan *ta’lim metodidir*; 2) ta’lim, axborot-kommunikatsiya, boshqaruv va boshqa sohalarni o‘rgatishda qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida oldindan belgilangan (bashorat qilinadigan) o‘quv natijalariga kafolatli erishishni vositali tarzda ta’minlaydigan, bir tartibga keltirilgan optimal usullar va vositalar majmuidan iborat bo‘lgan *ta’lim texnologiyasi*dir.

**Vaziyat** (lotincha situation - ahvol) – muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shart-sharoitlar va holatlar yig‘indisi. Keysda bayon qilingan vaziyat institutsional tizimda (shu o‘rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun‘iy qurilgan hodisalarning ideal tarzdagi in‘ikosidan iboratdir.

**Muammoli vaziyat** – mazkur holda vaziyat sub’ektining hozirgi vaqtida yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

**Keys-stadi metodi tarixi.** Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o‘qitish metodi sifatida xorijiy ta’limda dastlab huquq sohasida qo‘llanila boshladi: u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo‘llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (GBM) o‘qituvchilarini yuristlarning o‘qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta’limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o‘qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Ana shu vaqtadan boshlab GBM keyslarning boy to‘plamini yig‘di va mazkur metodni ta’limning mustaqil konsepsiysi darajasigacha olib chiqdi. Ayni shu sababga ko‘ra keys-stadi metodini ko‘pincha Garvard metodi deb ham ataladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, Garvard metodi ta’lim oluvchilarining amaliy vaziyatlarni videomateriallar, kompyuter va dasturiy ta’minotdan foydalanib hal qilish bo‘yicha intensiv treningidan iboratdir.

Keys-stadining ikki klassik maktabi - Garvard (Amerikada) va Manchester (Evropada) maktablari mavjud. Garvard maktabi doirasida mazkur metod yagona to'g'ri yechimni izlashni o'rgatish metodi hisoblanib, ikkinchi maktab (Manchester) keysda bayon qilingan muammoli vaziyat yechimining ko'p variantililigini taklif qiladi. Amerika keyslari o'nlab sahifali matnni va ko'plab chizmalarни o'z ichiga oladi. Yevropa keyslari hajmi birmuncha kamroq.

Chet ellardagi biznes-maktablarda odatiy vaziyatlarni o'rghanishga o'quv vaqtining o'ttacha 25% dan 90% gacha bo'lgan qismi ajratiladi. Masalan, Chikago universiteti biznes-maktabida o'quv vaqtining 25%ni keyslar ulushiga, Kolumbiya universitetida – 30%, Uortonda esa – 40% iga to'g'ri keladi. Mashg'ulotlarni ushbu metod bo'yicha o'tkazishga ajratiladigan soatlar soni bo'yicha uning "ilk ixtirochisi" – Garvard yetakchilik qiladi. Oddiy tinglovchi GBMda o'qish vaqtida 700 tagacha keyslarni ko'rib chiqadi va buning uchun o'quv vaqtining 90% gacha qismini sarflaydi.

Bunda shunday aniqlik kiritish kerak: moliyaviy fanlarga ixtisoslashgan maktablarda keyslar salmog'i asosiy fanlar - menejment, marketing, axborot texnologiyalari, xodimlarni boshqarish va shu kabilardan iborat maktablardagiga nisbatan ancha kamdir.

Mamlakatimizdagi ta'limgoh sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llaniladi. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslamini ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti.

**Keys-stadi metodini ta'limgoh jarayonida keng tatbiq qilishning dolzarbligini belgilovchi omillar.** Keys-stadini iqtisodiy oliy o'quv yurtining ta'limgoh amaliyotiga keng tatbiq etishning dolzarbliji va zarurligi quyidagi omillar bilan bog'liq:

*Birinchidan, mamlakatdagi iqtisodiy ta'limgohning umumiy yo'nalishi,* uning nafaqat ta'limgoh oluvchilarda aniq bilimlarni shakllantirishga, shu bilan birga, tinglovchilarda fikrlash faoliyati, nazariy bilimlarini amalda qo'llashga tayyorlik va bunga qobililikni rivojlantirish, bo'lg'usi mutaxassislarda mustaqillik va tashabbuskorlik, boshqaruv va iqtisodiyotdagi tadqiqotlarning turli jihatlari bilan bog'liq keng doiradagi masalalarni idrok etish qobiliyatini ravnaq toptirishga yo'naltirilganligi bilan bog'liq.

«Insonning qo'lliga baliqni tutqazsang – u bir kun qorni to'q yuradi, mabodo insonni baliq tutishga o'rgatsang – u butun umri davomida ochlik nimaligini bilmaydi» - xitoylik donishmandlarda shunday hikmatli gap bor. Auditoriya sharoitlaridayoq boshqaruvchilik yechimlarini qabul qilishga doir malaka va ko'nikmalar egallanmasa, keyinchalik yaxshi boshqaruvchi bo'lib chiqish mumkin emas.

Kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun o'zining boshqarish siyosatini ishlab chiqishga tinglovchilar korxonada va umuman iqtisodiyotda vujudga keladigan turli xil vaziyatlarni tahlil etish malakalari va ko'nikmalarini egallashi, tahlil qila bilish qobiliyatini o'stirishi, boshqaruvchiga xos xususiyatlarni orttirishlari zarur.

«Maslahat berish mumkin, lekin bunday maslahatdan foydalanimishga o'rgatish mumkin emasligi» haqiqatdir. O'rganib olgach ormadli iqtisodchi, moliyachi yoki menejerga aylanib olishga imkon beradigan qandaydir yagona, universal uslub yoki usul mavjud emas.

Tinglovchilarning keyslarni ishlab chiqish texnologiyalarini o'zlashtirishi, keysda taqdim qilinadigan amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo'lib ularni optimal hal qilish yo'llarini izlash malakalarini egallashi, bo'lg'usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakllantirish - kasbiy faoliyatda o'zining boshqarish va tashkil qilish texnologiyalarini loyihalashtirish, kasbiy jarayon mantiqini qurish usullari, shuningdek, kasbiy vazifalarni mustaqil va mobil tarzda hal etish usullarini hosil qilishga yordam beradi.

*Ikkinchidan*, bozor iqtisodiyotining nostonart vaziyatlarda bir tizimli asosda va samarali harakat qilish, oqilona yechimlarni qabul qilish qibiliyatini egallagan mutaxassislarga **muhtojligi** bilan.

Keysda har xil hayotiy vaziyatlar bayoni beriladi va ularning oqibatlari xususida mushohada yuritish yoki qatnashchilar harakatlarining samaradorligini baholash yoxud muammoni hal etish usullarini taklif qilish talab etiladi. Lekin har qanday holatda ham amaliy harakat modeli ustida ishlash ta'lim oluvchilar – bo'lg'usi mutaxassislarda mehnat bozori talab qiladigan kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

*Uchinchidan*, jahon tajribasi ko'rsatib turganidek, **keys-stadi tinglovechilarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish**, o'qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish, ularni haqiqiy professionallar sifatida yetishtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Keys-stadining bo'lg'usi mutaxassis shaxsining kasbiy va ijtimoiy jihatdan muhim fazilatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan usullari va vositalari, bizningcha, quyidagi 6-jadvalda ishonarli tarzda aks ettiirligan.

**Keys-stadining shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga ta'sir  
ko'rsatadigan usul va vositalari**

Mutaxassis fazilatlari	Keys-stadining usul va vositalari
Mavhum sharoitlarda vaziyatni his etish va adekvat baholash, oqilona yechimlarni topish qobiliyati	Vaziyat sub'ektining fazilatlari va kamchiliklarini taqqoslash va baholash, vaziyatning rivojlanish mantiqini ajratib olish, muammoning oqilona yechimini izlash.
Bir tizimli fikrlash, mulohazakorlik, bozor vaziyatidagi parametrlar va o'zaro aloqalarni tushunish	Vaziyat xususida har tomonlarga fikr yuritish, uni maqsadli tahlil etish, sub'ektlarni ularning tuzilmaviy-funksional ifodasida yaxlitligicha idrok etish.
Mustaqillik va tashabbuskorlik	Mavhumlik sharoitida vaziyatlar tahlili, oqilona yechimni ishlab chiqishda o'qituvchi tomonidan rag'battantiriladigan va qo'llab-quvvatlanadigan mustaqillik va faollik.
O'zgarishlarga tayyorlik, moslashuvchanlik	Muntazam o'zgarib turadigan vaziyatlarda optimal fe'l-atvorming ishlab chiqilishi.
Amaliy yo'nalganlik	Muammoli vaziyatning hal etilishida nisbatan amaliy natijaga erishish uchun doimiy izlanish.
Axborotlar bilan ishlash mahorati	Doimiy ravishda asosiy axborotni izlash va tanlash, uni tuzilmalarga ajratish, yana qayta tuzilmalash, uni tahlil etish, tasniflash, bir taqdimot shaklidan boshqacha shaklga o'tkazish. o'zaro axborotlar almashish.

Kommunikativlik, empatiya	Muammoli vaziyat yechimi va uning maqsadga muvosiq tarzda hal etilishini tanlash yuzasidan o'z pozitsiyasini har doim aniq bildirish, dalillash va o'zining nuqtai nazarini himoya qilish; keys bilan guruh bo'lib ishslash, munozaralar va o'z fikrini o'tkazish paytida jamoaning oshkora muloqot va axborot almashish, adolatli, konstruktiv va taktikali tanqidga hamda uni qabul qilishga, birgalikdagi faoliyatda ishonchga va hamfikrlilikka asoslangan bahamjihat harakat.
Muammoli, mantiqiy fikrlash	Muamoning izlanishi va ifodalanishi hamda uning asosiy tavsifnomalari belgilanishi, uni hal etish usullari va vositalarining asoslanishi.
Konstruktivlik	Muammoni hal etish modelining ishlab chiqilishi, konstruktiv yechimlarning izlanishi va ifodalanishi.
Nazokatlilik	Jamoaning o'z fikrini o'tkazish, munozaralar, guruh bo'lib ishslashga asoslangan doimiy bahamjihat harakati.

Va, nihoyat, keys-stadi interfaol metod bo'lgani sababli tinglovchilar tomonidan unga nisbatan ijobiy munosabat bo'lishiga erishiladi, ular ushbu metodnini o'quv axborotini o'zlashtirish va undan foydalanish yuzasidan amaliy ko'nikmalarni ta'minlaydigan amaliy qo'llanma (praktikum) sifatida qabul qildilar.

**Keys-stadi metodining umumi y tavsifnomasi** bu metodning mohiyati, belgilari va didaktik o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ularni qisqacha ko'rib chiqamiz.

**Keys-stadining mohiyati** shundan iboratki, ko'rib chiqilayotgan muammoli vaziyat bo'yicha maslahatchilar rolini bajarishi kerak bo'lgan tinglovchilarga quyidagilar taklif qilinadi:

- keysda bayon qilinganida ayni bir paytda tashkiliy hayotdagti tipik amaliy muammoni aks ettiradigan va amaliyotda ushbu muammoning hal etilishida o'zlashtirilishi va qo'llanilishi lozim bo'ladigan muayyan bilimlar majmuini dolzarblashtiradigan vaziyatni idrok etish va tahlildan o'tkazish;

- muammoli vaziyatni maqsadga muvofiq tarzda hal etadigan usullar va vositalarni izlash;
- taklif etilgan muqobil jihat(alternativ)larni baholash va ular orasidan qo'yilgan muammoga nisbatan eng qulay variantini tanlash;
- tanlangan muqobil usul (alternativ)ni amalga oshirish bo'yicha aniq yechimni butun tafsilotlari bilan ishlab chiqish.

**Keys-stadining mohiyati belgilarini quyidagicha ifodalanadi:**

1. Asosiy parametrlari bo'yicha muayyan diskret vaqtida ishlarning real ahvolini yana qayta tiklaydigan vaziyat shaklidagi holatda taqdim etilgan *institutsiyal tizim modelingining mavjudligi*.

**2. Berilgan vaziyatning muammoliligi.**

3. Vaziyatning to'liq chizmayi emasligi va buning oqibati sifatida, unda *mustaqil, qolipn bo'limgan yechimlarni talab qiladigan mavhumlikning mavjudligi*.

4. Yechimlarning *ko'plab muqobil jihat (alternativ)larga egaligi* har bir qatnashchi o'zining bilimi, tajribasi va sezgi(intuitsiya)sidan kelib chiqib o'z variantini taklif qiladi.

5. Muammoli vaziyat optimal yechimining yakka *tartibda, so'ngra jamoa bo'lib ishlab chiqilishi va ommaviy taqdim etilishi* (shuningdek, keys bilan mutlaqo yakka tartibda ishlashga va natijalarni yakka tartibda taqdim etishga ham yo'l qo'yiladi).

6. Muammoli vaziyat tahlili va uning yechimini ishlab chiqishdagi *yagona maqsad*.

7. Faoliyat *natijalarini guruh bo'lib baholash tizimi*.

8. *Ta'lim oluvchilarda boshqariladigan hissiy (emotional) keskinlikning mavjud bo'lishi*.

9. O'qituvchi va tinglovchi ta'lim jarayonida ayni bir paytda *ham mas'ul, ham erkin bo'ladi*:

- O'qituvchi keysning tayyorlanishi va uning o'quv-uslubiy ta'minoti, shuningdek, undan samarali foydalanish uchun *mas'uldir*.

- Tinglovchi mashg'ulotga tayyorlanish va keys bo'yicha o'quv topshiriqlarini samarali bajarish uchun *mas'ul*, ayni paytda u muammoli vaziyatni tahlil etish natijasida yechimlar va xulosalarni ishlab chiqish borasida *erkin ish tutadi*.

- Tinglovchi o'quv sharoitida muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilishda *xatoga yo'l qo'yishi mumkin*, lekin u real hayotda qabul qilinadigan noto'g'ri yechim uchun *mas'uliyat hissini sezishi kerak*.

10. *Ta'lim natijalarini rejalashtirish va ularga erishishda ta'lindagi oshkoraliq bilan qat'iyatlilikning qo'shib olib borilishi.*

**Keys-stadi ta'lif metodi sifatida quyidagi didaktik o'ziga xos xususiyatlarga ega:**

- Keysda taqdim etilgan aniq vaziyat ta'lifning vogelik bilan o'zaro aloqasini ta'minlaydi, chunki u kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun tipik muammolarni aks ettiradi. Bunda o'rghanish jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra, real hayotdagi yechim qabul qilish mexanizmini ifodalaydi.
- Keys undan foydalanuvchiga muammolarni tahlil etish, bir xillashtirish va hal qilish yo'llarini izlashda erkinlik beradi.
- Keysni ko'rib chiqishda tinglovchilar ta'lif jarayonining tashkilotchilariga aylanadilar va bir-birlari bilan o'zaro bahamjihat harakat qilish orqali real kommunikatsion holatlarni ifodalashadi (masalan, bank-korxona).
- Ta'lif oluvchilar aniq vaziyatni ko'rib chiqish jarayonida muayyan umumlashgan, konseptual tusga ega bilimni shakllantirishga muvaffaq bo'ladilar va ayni bir paytda oddiy umumlashtirish malakalarini orttiradilar.
- Amaliy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar nazariy tayyorgarlik davrida olingen bilimlar, shuningdek tinglovchilarning o'z malaka va mahoratlaridan foydalanish va amalda qo'llanishga yo'naltiriladi.
- Keys bilan ishlash natijalarining ommaviy taqdim etilishi taqdimotlar o'tkazish va matbuot arjumanlarida qatnashish: axborotni lo'nda, mantiqan va ko'rgazmali tarzda taqdim etish, savolni ifodalay bilsish va javobni daillash malakalarini hosil qilishga ko'maklashadi.

- Keys-stadi ta'lifning boshqa metodlaridan farqli ravishda nafaqat ta'lif berish va trening, shu bilan birga diagnostik nazoratchilik funksiyalarini ham bajaradi.

Tinglovchi *imtihon oldidan* keysni olishi: uni hal qilishi va amaliy vaziyat tahlilini hamda uni hal qilishga doir takliflarini yozma ish shaklida taqdim etishi mumkin.

Keys tinglovchilarga *bevosita imtihon paytida* taklif qilinishi ham mumkin. Lekin bunday holda u ancha qisqa bo'lishi, maqsadlari esa ularni tinglovchi belgilangan vaqt davomida hal qilishga ulguradigan holatda bo'lishi kerak.

Tinglovchilarning o'quv fani bo'yicha *auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishi* keyslar turkumining yechimini o'z ichiga olishi mumkin. Natijalarning grafikka binoan yozma taqdim etilishi (muddatlar o'quv rejasi va ta'lif dasturiga muvofiq belgilanadi) o'quv axborotlarining o'zlashtirilishi, ushbu kurs bo'yicha davlat ta'lif standartlari (DTS)ga ko'ra nazarda tutilgan malaka va ko'nikmalarni tezkor nazorat qilish va baholashga imkon beradi.

**Keyslar tipologiyasi.** Keyslar uchun ular juda ko'p turli ekanligi xosdir. Keyslarning turlari bo'yicha tasniflanishi 7-jadvalda ko'rsatilgan.

7-jadval

**Keyslar turlarini tasniflash jadvali**

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	1. Tabiiy sharoitdag'i 2. Kabinetdag'i 3. Ilmiy-tadqiqotchilikdag'i
Syujet mavjudligi	1. Syujetli 2. Syujetsiz
Vaziyat bayonining vaqttagi izchilligi	1. O'tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys 2. Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira 3. Bashorat keysi
Keys ob'ekti	1. Shaxsiy 2. Tashkiliy-institutsional 3. Ko'p sub'ektili
Materialni taqdim etish usuli	1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy yozishma 4. Jurnalist terg'ovi 5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistik materiallar majmui 9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmuvi
Hajmi	1. Qisqa (lo'nda) 2. O'rtacha miqdordagi 3. Katta (uzun)
Tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari	1. Tuzilmalangan 2. Tuzilmalanmagan
O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli	1. Savolli 2. Keys-topshiriq
Didaktik maqsadlari	1. Muammo, yechim yoki konsepsiyanı izohlash 2. Treningli, o'quv rejasidagi fan bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljalangan 3. Tahlil va baholashga o'rgatuvchi 4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi 5. Vaziyat sub'ekti rivojinining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shukabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi
Rasmiylashtirish usuli	1. Bosma 2. Elektron 3. Video-keys 4. Audio-keys 5. Multimedia-keys

**Keysologning** (shu o'rinda va keyinchalik - keysni ishlab chiquvchi) vazifasi keys turining qo'yilgan didaktik maqsadlarni optimal amalga oshirishga imkon beradigan o'ziga xos xususiyatlarini tanlash va qo'llashdan iborat.

**Keyslarning turli manbalari.** Keys intellektual mahsulot sifatida o'z manbalariga egadir. Ulami sxematik tarzda quyidagicha aks ettirish mumkin:

#### **Intellektual mahsulot sifatidagi keysning asosiy manbalari**

Sotsium keyslarning manbaidir, degan fikr hech kimda shubha tug'dirmasligi aniq. Faqat uning keysning mazmuni va shaklini qay darajada oldindan belgilab berishi mumkinligi haqida turlicha fikrlar bo'lishi mumkin. Ijtimoiy hayot butun turli-tumanligi bilan keys syujeti, muammolari va faktologik bazasining manbai bo'ladi.

Ta'lim va tarbiyaning keysda jamlangan maqsadlari va vazifalari, shuningdek ta'lim texnologiyasini belgilaydigan **ta'lim** keysning yana bir manbaidir.

**Fan** keysning uchinchi manbaidir. U tahliliy faoliyat va bir tizimli yondashuv bilan belgilanadigan ikkita asosiy metodologiyani, shuningdek, keysni hal etish jarayonida qo'llaniladigan boshqa ilmiy uslublarni yaratib beradi.

-sxemada keys determinatsiyasi asosiy manbalarining o'zaro nisbati bir xilda va teng tomonli uchburchak sifatida taqdim etilgan. Bu barcha manbalarning teng ahamiyatli ekanligining ideal va ancha kam uchraydigan holati - determinantdir. Keyslarni qurishning real amaliyotida bunday holat ancha kam uchraydi. Ko'pincha manbalardan binining ustunlik qilishi kuzatiladi. Sxema shaklida olganda manba rolini uchburchak burchagining kattaligi tarzida tasavvur etish mumkin. Bunda burchak qanchalik to'mtoqroq bo'lsa, tegishli manba ta'siri shunchalik ko'proq bo'ladi. O'tkir qirralar tegishlicha manbaning minimal ta'sirini aks ettiradi.

Ushbu yondashuv keyslarni **asosiy manbalari** bo'yicha tasniflashga asos bo'lishi mumkin. Bu yerda quyidagi larni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) *hayotiy keyslar* - mutlaqo real hayotiy vaziyatlarni aks ettiradi;

2) *kabinetdagи keyslar* - keysolog modellashirg'an amaliy vaziyatni o'z ichiga oladi;

3) *ilmiy-tadqiqotchilik keyslari* – tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

**Hayotiy keysning** asosiy vazifasi hayotiy vaziyatni batapsil va to'liq aks ettirishdan iborat. O'z mohiyatiga ko'ra, bunday keys vaziyatning amaliy, ya'ni «harakatdagi» modelini yaratadi. Bunda bunday keysning o'quv maqsadi ta'lim oluvchilar treningi, ushbu vaziyatdagi bilimlar, qobiliyatlar va fe'l-atvor (qarorlar qabul qilish) ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat bo'ladi. Bunday keyslar

maksimal ko'rgazmali va bat afsil bo'lishi kerak. Ulaming asosiy mazmuni hayotni bilish va optimal faoliyatga doir qobiliyatlarni hosil qilishdir.

Garchi har bir keys ta'lif beruvchi funksiyani bajarsa-da, lekin ularning barcha qirralarining turli keyslarda aks etishi darajasi turlichadir. Ko'proq ta'lif beruvchi funksiyani bajaradigan, hayotni biroz boshqacharoq aks ettiradigan keys *kabinetdagi keys* deyiladi.

Birinchidan, u hayotda ko'proq uchraydigan va mutaxassis o'zining kasbiy faoliyatida duch keladigan tipovoy vaziyatlarni aks ettiradi. Ikkinchidan, ta'lif beruvchi keysda o'quv topshiriqlari birinchi o'rinda turadiki, bu unda aks etadigan hayotning ancha shartlilik elementiga ega bo'lishini oldindan belgilaydi. Bu yerdagi vaziyat, muammo va syujet hayotda bo'ladigani kabi tus kasb etadi. Ular sun'iyligi bilan tavsiflanadi va eng muhim va haqiqiy hayotiy detallar konglomeratidan iborat bo'ladi. Bunday keys vaziyatlardagi tipiklikni ko'rishga imkon beradi va ta'lif oluvchida vaziyatni amaliyotdagi shunga o'xshagan variantni qo'llash orqali tahlil qilish qobiliyatini shakkantirib boradi.

*Ilmiy-tadqiqotchilik keysi* uchun ham shunday xususiyatlar xosdir. Uning asosiy mazmuni shundaki, u vaziyat va undagi fe'l-atvor haqidagi yangi bilmni olish uchun model bo'lib xizmat qiladi. Uning ta'lif beruvchi funksiyasi modellashtirish uslubini qo'llash orqali ilmiy tadqiqotchilik malakalarini shakkantirishdan iborat. Ushbu keys tadqiqotchilik modelini yaratish tamoyillari bo'yicha quriladi. Shuning uchun uni ko'proq magistraturada, mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi ta'limda qo'llash ma'quldir.

Bunday keysda tadqiqotchilik funksiyasining ustunlik qilishi uni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatida ancha samarali qo'llashga imkon beradi.

Keysning yuqorida ajratib ko'rsatilgan manbalarini **asosiy, bazaviy yoki birlamchi** manbalar deb atash lozim, chunki ular keyslarga ta'sir ko'rsatishning eng mohiyatli omillarini belgilaydi.

Keyslarni shakkantirishning **ikkilamchi manbalarini** ham ajratib ko'rsatiladi. Ular bazaviy manbalardan hosil bo'ladigan tusga egadir. Quyida ularga to'xtalamiz.

1. Xorijiy tajribalardan ko'rinish turganidek, mahsulotlari tinglovchilar uchun muayyan shaxsiy ahamiyat kasb etadigan korxonalar faoliyati ko'rib chiqilganida yoki *axborot «mahalliy» materialga asoslanganida* keyslar muhokamasi ancha mazmuni va qiziqarli kechadi. Lekin bu keyslarda faqat mamlakatdagi korxonalar tajribasi yoritilishi kerakligini bildirmaydi. Bunda u yoki boshqa sifati bilan milliy bozorda mavjud bo'ladigan korxonalar va tovarlar yoki xizmatlar nazarda tutilayapti.

Agar tinglovchilar keyslarda bayon qilingan hodisalar bilan bog'liq bo'lgan muhit va sohani yaxshi bilsalar, ular o'zlarini ancha ishonchliroq his etadilar.

Ularning, masalan, amerikalik yoki boshqa xorijiy iste'molchilar fe'l-atvori va motivlarini muhokama qilishi ancha qiyin kechadi. O'qituvchi ham o'zi sub'ektini yaxshi biladigan keys muhokamasiga mohirona rahbarlik qiladi. Har qanday holda ham bunday keyslar muhokamasida korxona – keys ob'ekti vakilini talif qilishdek noyob imkoniyat mavjud bo'ladi.

2. *Statistik materiallar, bozor ahvoli haqidagi ma'lumotlar, korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifnomalari va shu kabilar keysiga ilmiylik va oddiyilik baxsh etadi*. Bunda mazkur materiallar vaziyatni tashxis qilish vositali rolini bajarishi, vaziyatni tushunish uchun juda muhim bo'lgan ko'rsatkichlar hisob-kitobi uchun axborot vazifasini o'tashi mumkin.

Statistik materiallardan foydalanishda tinglovchi bu materialarni idrok etishi, quyidagi kabi bir nechta savollarga javob berishi kerak: «Ushbu materiallar vaziyatni tavsiflashda qanday rol o'ynaydi?», «Materialning o'zidagi qaysi narsalar vaziyatni bevosita tavsiflaydi?», «Bunday tavsifnomalar qanday hisoblab chiqiladi yoki ajratib ko'rsatiladi?» va hokazo.

Statistik materiallar keys matnida yoki ilovada joylashtiriladi.

3. *Ilmiy manbalar, publitsistika va badiiy adabiyot asarları* – bular ham keysni yozish uchun yana bir manbadir. U yoki boshqa muammoga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar va ilmiy hisobotlarni tahlil etish orqali ham keys uchun yaxshi materialarni olish mumkin. Yaxshi ilmiy maqola odatda, qandaydir masalani teran tushuntirishi bilan tavsiflansa, ilmiy monografiya tadqiqot predmetining bir tizimli, har tomonlama tavsifnomasini beradi. Ilmiy hisobotning o'ziga xos xususiyati esa, materialning dolzarbligi va yangiligidadir. Bunday fan mahsulotlari har doim ham vaziyatni bayon qilavermaydi va izohlab bermaydi. Shuning uchun ularni keysolog vaziyat nuqtai nazaridan maxsus mushohadadan o'tkazishi kerak bo'ladi.

Eng qiziqarli ilmiy maqolalar keys-stadi metodida ikkita funksiyani bajarishi mumkin. Birinchisi shundan iboratki, ilmiy maqolalar va ularning qismi ularni matnga kiritish orqali keyslerning tarkibiy qismiga aylanishi mumkin, ikkinchisi shundaki, ular keysni tushunish uchun zarur adabiyotlar ro'yxatiga qo'shilishi mumkin.

Agar ilmiy manbalar keysiga qat'iylik va oddiyilik bersa, unda publitsistika va badiiy adabiyot asarları emotsiyal to'liqlik va predmetli izohlilikni yaratadi.

4. *Internet va uning resurslari* – keyslar uchun tunganmas material manbaidir. Ushbu manba keng miqyosliligi, tezkorligi, qulayligi bilan ajralib turadi.

**Keyslerning syujetliligi bo'yicha turlari.** Syujet mavjudligiga qarab keyslar:

-syujetli;

-syujetsiz bo'ladi.

*Syujetsiz keys*, odatda, bo'lib o'tgan voqealar haqidagi hikoyani, shaxslar va korxonalar harakatlarini o'z ichiga oladi.

*Syujetsiz keys*, odatda, yaqqol ifodalangan syujetga ega bo'lmaydi, chunki syujetning aniq ifodasi ko'p jihatdan yechimni ochib beradi. Sirtdan qaraganda vaziyat tashxisiga, syujetni yana qayta tiklashga yordam berishi kerak bo'lgan statistik materiallar, hisob-kitoblar, ishlannmalar majmuidan iborat bo'ladi.

**Keysda bayon qilingan vaziyat syujetining vaqtligi izchilligi bo'yicha keysning turlari.** Keysda bayon qilinadigan vaziyat syujetining vaqtligi izchilligi ham keysning tasnisiy o'ziga xos xususiyatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu belgiga ko'ra keyslarning uch turini farqlashadi:

- O'tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys;
- Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira;
- Bashorat keys.

*O'tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys* bayon qilinadigan hodisalarning vaqtligi tabiiy izchilligi bilan tavsiflanadi, sabab-oqibatli aloqalarni yaxshi aniqlashga imkon beradi.

*Vaqi orqaga qaytariladigan keys-xotirada* vaqt orqaga qaytariladi: unda harakat qiluvchi shaxslar nimalarnidir eslashedi, xotiraning o'zi uzuq-yuluq, ko'pincha bir tizimsiz va fragmentar bo'ladi, bu vaqt zanjirini qayta tiklashni qiyinlashtiradi. O'z mohiyatiga ko'ra, keys tahlili vaziyat rekonstruksiyasi, uning biror-bir bilih paradigmasi jihatidan idrok qilinishidan iborat bo'ladi.

*Bashorat keys* yaqin o'tmishdagi va hozirgi voqealarning ancha batafsil bayonini beradi, undagi ob'ektning kelgusidagi holatining eng yaxshi variantini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi.

**Vaziyat ob'ektiga qarab keyslar turlari.** Vaziyat ob'ektiga qarab keyslar shartli ravishda uch guruhga bo'linadi:

- *Shaxslarga oid keys*, unda aniq sub'ektlar: menejerlar, siyosatchilar, rahbarlar amal qiladilar.

- *Tashkiliy-institutsional keys* - uning ob'ekti institutsional tizimlar: tashkilotlar, firmalar, kompaniyalar, korxonalar va ular bo'lmalari bo'lishi bilan farqlanadi.

- *Ko'p ob'ektlari keys* – odatda bir nechta harakat qiluvchi ob'ektlarni o'z ichiga oladi.

**Materialni bayon qilish usuliga ko'ra keyslar turlari.** Materiallarni yetkazishning janrga xos xususiyatlariga qarab keys quyidagi turlardan biri shaklida taqdim etilishi mumkin:

- hikoya;
- yesse;

- tahliliy yozishma;
- jurnalist terg'ovi;
- hisobot;
- ocherk;
- faktlar majmui;
- statistik materiallar majmui;
- hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui.

**Kattaligiga qarab keyslar turlari.** Keyslar kattaligiga qarab uch turli bo'ladi:

- qisqa (lo'nda) keys;
- o'rtacha miqdordagi keys;
- katta (uzun) keys.

Keysning kattaligi uning hajmiga bog'liq bo'ladi va uni tahlil etish uchun zarur o'quv vaqtini belgilaydi.

*Qisqa keys* - shuningdek «evropacha», qisqa keys deb ham ataladi. Uning hajmi bir necha jumladan bir-ikki sahifagacha bo'ladi. Uning yechimi ikki soatlik amaliy mashg'ulotning bir qismini band qilishga mo'ljallangan.

*O'rtacha miqdordagi keys* – uning ko'rib chiqilishi odatda ikki soatlik mashg'ulotni band qiladi.

*Katta keys* («amerikacha», uzun) – o'nlab sahifalarni o'z ichiga oladi, bir necha amaliy mashg'ulotlar davomida va hatto butun o'quv kursi mobaynida qo'llanilishi mumkin.

**Tarkibiy tuzilishi bo'yicha keyslar turlari.** Tuzilmaviy xususiyatlariga qarab keyslarning ikki turi farqlanadi:

- *tuzilmaga keltirilgan*;
- *tuzilmaga keltirilmagan*.

*Tuzilmali keys* o'zining tuzilmali shakli jihatidan vaziyatning idrok etilishi va fikrlanishini yengillashtiradigan axborotni o'z ichiga oladi.

*Tuzilmaga ega bo'lmagan keys*, odatda, muammoni batatsil (ba'zan, hatto haddan ortiq tafsilotlari bilan) yoritadigan katta hajmdagi tuzilmalanmagan axborotni o'z ichiga oladi.

**O'quv topshirig'ini taqdim etish usuliga ko'ra testlar turlari.** Ushbu tasniflash asosiga ko'ra keyslar ikki turda bo'ladi:

- *Savolli keys* – uning yechilishida tinglovchilar vaziyat bayon qilinganidan keyin qo'yiladigan savollarga javob berishi kerak.
- *Keys-topshiriq* - keysni hal qilish jarayonida bajarilishi lozim bo'lgan vazifa yoki topshiriq, odatda vaziyat bayonigacha qo'yiladi.

**Didaktik maqsadlariga ko'ra keyslar turlari.** Ushbu tasniflash asosiga ko'ra keyslarning besh turi farqlanadi:

1. *Muammo, yechim yoki konsepsiyanı izohlovchi keys.* Taniqli va muvaffaqiyat bilan ishlaydigan korxonalar (kompaniyalar)ning uzoq muddat davomidagi ish faoliyatini bayon qiladi (maqsadlari, strategiyalari, mahsulot modifikatsiyalari, turli bozorlardagi ishi va boshqalar).

Bunday keysning ta'limi maqsadi – misol orqali o'qitish. Rejalashtiriladigan o'quv natijalari – to'g'ri qabul qilingan qarorlarni eslab qolish, taniqli va muvaffaqiyat bilan ishlaydigan korxonalar va tarmoqlarning amaliyoti bilan tanishish.

2. *Treningli, o'quv fani, mavzu bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljallangan keys.* Uning ta'limi maqsadi - tinglovchilarga biror-bir harakatlarni bajarish alg'oritmini o'rgatish.

Tinglovchi quyidagilarni o'rganishi kerak: muayyan model, formula, hisob-kitob alg'oritmini qo'llash, berilgan odatiy vaziyatda yagona to'g'ri qaromi qabul qilish.

3. *Tahlil va baholashga o'rgatuvchi keys.* Bunday keysda aniq vaqt davridagi vaziyat bayon qilingan, vaziyat sub'ekti oldida turgan muammolar aniqlangan va aniq ifodalangan bo'ladi.

Tinglovchi vaziyatni tushunishi, tahlil qilishi va baholashi, qo'yilgan muammo yuzasidan qaror qabul qilishi lozim.

4. *Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi keys.* Murakkab shaklda bayon qilingan vaziyatga ega. Muammo vaziyatga kiritiladi-yu, lekin aniq namoyon bo'lumaydi. U statistik ma'lumotlar, korxona hisobotlari, bo'linmalar rahbarlari nutqlari va shu kabilarda taqdim etilgan.

Tinglovchilar muammoni aniqlashi va ifodalashi, uni hal etish usullari va vositalarini ko'rsatishi kerak.

5. *Vaziyat sub'ekti rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi keys.* Bunday keysning o'ziga xos xususiyati shundaki, boshqaruvchilik muammosi korxona faoliyatining muayyan turiga, muayyan asosiy shart-sharoitlarga bog'lab bayon qilinadi.

Tinglovchidan vaziyat sub'ektini rivojlantirishning yangi strategiyasi va yo'llarini topish talab qilinadi. Bunday keysdagisi vaziyatda axborotning bir qismi bo'lmasligi mumkin. Axborotga ehtiyojni aniqlash va uni topish – tinglovchining yana bir vazifasidir.

**Bezatish usuliga qarab keyslar turlari.** Keyslar tinglovchilarga turli shaklda taqdim etilishi mumkin: bosma, elektron, video-keys, audio-keys, multimedia-keys.

O'qitish amaliyotida, odatda, bosma shakldagi va elektron tashuvchilardagi keyslar qo'llaniladi – bunday shakldagi axborot bilan ishslash audio yoki video variantlardagiga nisbatan qulay va tahlil qilish osonroq. Bundan tashqari, ko'p


mortalab interfaol ko'zdan kechirish imkoniyatlarining cheklanganligi birlamchi axborotning buzilishi va xatolarga olib kelishi mumkin. Multimedia – keyslarning imkoniyatlari yuqorida ko'rsatilgan qiyinchiliklarning oldini olishga imkon beradi va o'zlarida matnli axborot va interaktiv video tasvir ustunliklarini mujassam etadi.

### **Keysni ishlab chiqish jarayonining protsessual tizimi**

**Keysni ishlab chiqish modeli.** Keysning yaratilish jarayoni murakkab protsessual tizimdan iborat bo'ladi. Keysni ishlab chiqish modelining umumiy sxemasi quyidagi 1-sxemada keltirilgan.

#### **1-sxema**

#### **Keysni ishlab chiqish modelining umumiy sxemasi**



Sxemadan ko'rinish turganidek, keysning shakllantirilishiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Ulardan asosiyları quyidagilar:

1. *O'quv fani bo'yicha Davlat ta'lif standarti (DTS)dagи keysni ishlab chiqishga asos bo'lgan ta'lif tizimi talablari* - keysning fanni o'qitish tizimidagi o'rni, uning maqsadlari va o'quv natijalarini, tinglovchilar keysni hal qilish uchun oldindan egallashi lozim bo'lgan bilimlarni belgilaydi.

2. *Ushbu fan bo'yicha nazariy, amaliy va didaktik talablar* – ta'lif mazmuni; ta'lif maqsadlarining amalga oshirilishi va bashorat qilinadigan o'quv natijalariga erishishni ta'minlaydigan vositalar, o'qitish uslublari va shakllari, axborot-kommunikatsiya va boshqaruva usullari va vositalarini; ta'lif jarayonining kechishi va natijalarini belgilaydigan qonuniyatlar, tamoyillar, qoidalar va me'yorlarni belgilaydi.

3. *Sotsium, institutsiyal tizimdan iborat keys ob'ektida hamda DTSda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar* – bu omillar keysiga o'zgartishlarni kiritish orqali axborot ta'minotida tezkorlik bilan aks etishi kerak.

4. *Keysologning kasbiy mahorati* – bu keysni bajaruvchining o'quv predmeti bo'yicha bilimlari majmui, keysni ishlab chiqish, ta'lifning keys-texnologiyasini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyatidan iborat bo'ladi.

Keysni ishlab chiqish jarayonining o'zi keysologning maqsadni faraz qilishidan boshlab to keysni ta'lif jarayoniga joriy etishgacha bo'lgan jami harakatlarining muayyan izchillikda amalga oshirib borilishidan iborat.

### **Keysolog faoliyati mazmunini bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz**

**Maqsadning qo'yilishi.** Keysni ishlab chiqishning ushbu birinchi bosqichi quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

•keysning o'quv kursi tuzilmasidagi o'rmini belgilash;

•uning ta'limi maqsadini ifodalash (tinglovchilarni tanishtirish, keys mavzusi bo'yicha haqidagi bilimlarni shakllantirish, chuqurlashtirish, o'rgatish, malakalarni ortirish, ko'nikmalarni rivojlantirish va hokazo);

•keysda tinglovchilarning ta'limga yutuqlari natijalari uchun «mas'uliyat zonasasi»ni aniqlash;

•o'zlashtirilishi, kengaytirilishi, rivojlantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar ro'yxati (... ni tahlil etadi, tuzadi (biznes-reja), ishlab chiqadi (marketing strategiyasi), ... ga tayyorlik, ko'nikmani namoyon etadi va hokazo);

•yechimi tinglovchilarning mo'ljallangan o'quv natijalariga erishishini ta'minlaydigan pedagogik vazifalarning belgilanishi (... ni o'rgatish, ... ni bir tizimga solish, ... ni tushuntirish va hokazo).

Tinglovchi – keysologning aniq va bir xilda ifodalangan ta'limiya maqsadlari, o'quv natijalari va vazifalari vaziyatga doir mashqni «qurish» uchun asos bo'ladi.

**Muammoning ifodalanishi.** Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun yetilgan zarurat bilan uni amalgalash oshirish uchun shart-sharoitlar yetishmasligi o'rtaсидиги ziddiyatning amal qilishi va ifodalanishi shaklidan iboratligi sababli muammoning ifodalanishi ana shu ziddiyatni belgilash, so'ngra uning asosiy tarkibiy qismlari – muammo tuzilmasini (kichik muammolarni) belgilashni nazarda tutadi.

**Keys dasturiy kartasining qurilishi.** Keys dasturiy kartasining qurilishi keysni ishlab chiqishning eng muhim bosqichlaridan biri. Keysning dasturiy kartasi keys uchun axborot yig'ish va vaziyatni bayon qilish uchun asos bo'ladigan asosiy masalalar (tezislardan) tuzilmalangan ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Quyida keltirilgan misoldagi keysning dasturiy kartasi savollar shaklida ishlab chiqilgan. Bu tinglovchi – keysologning axborot yig'ishi, shu jumladan, intervju shaklida yig'ishi va uni bayon qilishi vazifasini yengillashtiradi.

**Institutsional tizimning izlanishi, tanlanishi.** Keysni ishlab chiqishning ushbu bosqichiga kirishishdan oldin keysolog quyidagi qarorlarni qabul qildi:

- Keysning qanday (hayotiylik, kabinetli yoki ilmiy-tadqiqotchilik) tusida bo'lishini belgilash.

- Keys ob'ekti kimlar, nimalar (muayyan shaxs (shaxslar) yoki korxona yoxud ko'p ob'ektlari) bo'lishini belgilash.

Faqat shundan keyin keysni ishlab chiquvchi tegishli institutsional tizimni tanlaydi (kabinetli keys uchun) yoki topadi (hayotiy yoki ilmiy-tadqiqotchilik keysi uchun).

**Institutsional tizim** – keysologning keys dasturiy kartasini amalgalash oshirishiga bevosita daxldor bo'lgan ob'ektidir.

Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- firma;
- tashkilot;
- korxona va hokazo.

**Axborot yig'ish usullari va vositalarining tanlanishi.** Keys uchun axborot yig'ish usullari sifatida quyidagilar tanlanishi mumkin:

intervyu, suhbat, o'rganish (arkiv hujjatlari, hisobotlarni), kuzatuv va hokazo.

Quyidagilar axborot yig'ish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin: so'rovnomalardan varag'i, intervyu olish varag'i, anketa, har xil jadvallar, me'yoriy hujjatlari, ilmiy maqola, monografiya, OAV materiallari va boshqa manbalar bilan ishlash usullari.

**Axborot yig'ish.** Keysga asos bo'ladigan axborotlarni izlash va yig'ish uni yozishdagi muhim muammodir. *Quyidagilar axborot manbalari bo'lishi mumkin:*

- statistik materiallar, hisobotlar;
- vaziyat ob'ekti faoliyati haqidagi ma'lumotnomalar, axborotlar, prospektlar va boshqa ma'lumotlar;
- Internet;
- ommaviy axborot vositalari;
- korxonaning raqobatchilari, ularning ta'minotchilari va iste'molchilari, tarmoqdag'i ekspertlar yoki turli investitsion fondlar tahlilchilari bilan muloqot;
- tinglovchilarning o'quv va diplom loyihalari, magistrlik dissertatsiyalari;
- ilmiy maqlalar, monografiyalar va boshqalar.

**Vaziyat.** Vaziyat - keysning asosiy tuzilmaviy komponenti hisoblanadi.

*Keysda bayon qilingan vaziyat* korxonaga shu paytda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan parametrlar, o'zgaruvchan omillarning aniq turkumi shaklida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, u vaziyat ob'ekti haqidagi relevant (muammoni hal etish uchun muhim) ma'lumotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Vaziyat mazmuni tinglovchilarning kelgusidagi faoliyati uchun xos bo'lgan ishlab turgan korxonalar yoki modellashtirilgan korxonalarning hayotidagi real voqealarga asoslanadi.

Muvaffaqiyatliz vaziyatli mashqlar turli ishtirokchilar o'rtaсидаги suhbatlarni o'z ichiga olishi mumkin, tinglovchilar (keysdan foydalanuvchilar) vaziyatning realligini his etishlariga yordam beradigan boshqa publisistik usullar va vositalar ham ishlatalidi.

Vaziyatning keysdag'i bayoni va uning axborot ta'minoti quyidagilarga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

- *hajmiga ko'ra:* bir necha jumladan tortib, to yuzlab sahifali matngacha;
- *detallashtirish darajasiga va axborotga boyligiga ko'ra:* tahlil predmetiga bevosita tegishli bo'lmagan axborotning mavjud bo'lishi yoki, aksincha, vaziyat elementlaridan biri haqidagi axborotning bo'lmasisligi ham mumkin.

Keysning mavzusi va maqsadiga qarab vaziyatda sheriklar, raqiblar va (yoki) vaziyat sub'ekti birgalikda faoliyat yuritadigan boshqa harakat qiluvchi shaxslar, vaziyat amal qilishi va o'zgarishiga asos bo'ladigan shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin.

*Vaziyatning bayon qilinishida ishlatalilgan to'ldiruvchi materiallar, bir tomonidan, keysdan foydalanuvchilarni uni hal etish uchun zarur muayyan*

*tuzilmaga keltirilgan axborot bilan ta'minlaydi, boshqa tomonidan esa, vaziyatning ko'rgazmali axborotli negizini tashkil etadi.*

**Vaziyat modelining qurilishi.** Keysologning keysni ishlab chiqish bo'yicha faoliyatining ushbu bosqichidagi mazmunini uning quyidagi qarorlari belgilaydi:

- Keys qanday bo'ladi: syujetli yoki syujetsiz?

- Keysdagi voqealar axborotni bayon qilishning vaqt bo'yicha izchilligi o'tmishdan hozirga keladigan yoki keys-xotira yoxud bashoratli bo'ladi?

- Vaziyatga oid mashq qanday janrda bayon qilinadi: hikoya yoki esse yoxud tahlili yozishma yoki boshqacha shaklda?

Keysolog qabul qilingan yechim asosida vaziyat modelini quradi.

**Keysdagi vaziyat modeli** vaziyat sub'ekti faoliyatining ideal in'ikosidan iborat bo'ladi va ifodalangan muammo tashuvchisi rolini bajaradi. Tashqi ko'rinishiga ko'ra bu hodisalarning muayyan zanjiri yoki hodisalar doirasasi, hodisalar bog'lami va shu kabilar bo'lishi mumkin.

Model vaziyatning turga oid belgilarini tanlash asosida shakllantiriladi (...-jadvalga qarang).

Vaziyat modelini qurish muvaffaqiyati uning o'rganilayotgan mavzu yoki o'quv predmetiga muvofiq bo'lishi darajasiga qarab, shuningdek, unda nostandard, muayyan nuqtai nazarlar borligiga ko'ra belgilanadi. Bu esa, unga muammoning noodatiy yechimini baxsh etib, tadqiqotchilik motivatsiyasini hosil qiladi.

**Keys matnining yozilishi.** Keysolog keysni yozishga kirishishdan oldin quyidagi masalalarga doir yechimlarni qabul qiladi:

- Keys o'z hajmiga ko'ra qisqa yoki o'rtacha miqdorda yoxud katta bo'ladi?

- Bu savolli keysmi yoki keys-topshiriqmi?

- Keysda muammo qanday usulda beriladi?

*1-usul* – muammoni keysolog ifodalaydi.

*2-usul* – vaziyatdagi muammo yaqqol ifodalanadi, lekin bunda vaziyatning zarur elementlaridan biri (masalan, sheriklar haqidagi) axborot bo'lmaydi.

*3-usul* – matnda vaziyat sub'ektlari o'rtasidagi ziddiyat mavhum ifodalanadi.

- Keys tuzilmasi bo'yicha qanday bo'ladi?

Gap shundaki, keys bu shunchaki mohirona bir hikoya yoki muayyan voqealarning optimal sonli sahifalardagi oddiy bayoni emas. Yuqorida qayd qilinganidek, u avvalo, muayyan o'quv maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladigan pedagogik vositadir.

Shu sababli keys tuzilmasi uch asosiy tarkibiy qism bilan belgilanadi:

*1) motivation* - keysning dolzarbligi, uning maqsadi va tinglovchi keysni hal qilishda erishadigan o'quv natijalarini belgilaydi;

2) *syujetli* - u keysdag'i amaliy vaziyat mazmunini olib beradigan harakatlar, voqealar majmuidan iborat bo'ldi;

3) *informatsion* - u vaziyat tahlili uchun zarur axborotni o'z ichiga oladi.


Syujetli va informatsion qismlar nisbatan mustaqil tarzda va chambarchas bog'liq holda ham amal qilishi mumkin (...-sxema).

*Tinglovchining hal qilishi uchun taklif etiladigan har qanday keysda uning maqsadi va topshirig'i, savollari aniq ifodalangan bo'lishi lozim. Ular topshiriqni hal etish uchun zarur va yetarli axborot hajmini o'z ichiga olishi kerak.*

Keys mazmunini tashkil qiluvchi asosiy komponentlarining tarkibiy tuzilishini quyidagi 2-sxema ko'rinishida ifodalash mumkin:

2-sxema

### Keys mazmunining tarkibiy tuzilishi



#### - Majburiy tarkibiy qism (komponent)

Keysning ushbu tuzilmali komponenti keys dolzarbligining asosini, uning ta'lif beruvchi maqsadi va tinglovchilar keysni hal qilish natijasida erishishi mumkin bo'lgan nazarda tutiladigan o'quv natijalarini o'z ichiga oladi.

**Keys ob'ektining tarixiy bayoni.** Ushbu komponent katta (amerikacha, uzun) keyslarda doim bo'ldi.

Keys ob'ektining tarixiy bayoni to'g'risidagi ma'lumotlar muammoning retrospektiv tahlilini o'tkazish, uning sabablari va rivojlanish tendensiyalarini belgilashga imkon beradi.

## MULTIMEDIA - TA'LIM METODI

*Multimedia – zamонавиј kompyuter texnologiyalari yordamida matn, tasvir, grafika, animatsiya, jadval, audio, video effektlarini o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazib berish metodtexnologiyasıdir.*

Multimedia (multi – ko'p, media – muhit) – bu kompyuter texnologiyalarining sohasi bo'lib, turli axborot saqlovchi vositalardagi har xil fizik ko'rinishda ifodalangan axborotlarga ishlov beradi.

Multimedia vositalari *virtual borliq, videotasvirlar, animatsiya, tovush, rasm, foto, grafik, sxema, ranglar, yorug'-soya hodisalari, matn kabilarni o'z ichiga oladi.*

## MASOFAVIY TA'LIM METODLARI

Masofaviy ta'lif (lotincha "distansiya" - masofadan foydalanish) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri, shaxsiy aloqasiz "masofadan o'qitish" imkonini yaratib beruvchi zamонавиј axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'lib, unga ko'ra ta'lif jarayoni yangi axborot texnologiyalari, multimedia tizimi yordamida tashkil etiladi. U o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash; idrok etish qobiliyatini rivojlantirish kabi imkoniyatlarga ega. Kompyuter ta'limi masofaviy ta'lifning o'ziga xos turi sanaladi.

Masofaviy ta'lif metodi o'z tarkibiga birqancha ta'lif shakllarini oladi. Ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

## INTERNET KONFERENSIYALAR - TA'LIM METODI

Internet konferensiylar – bu muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtirokchilarining Internet tarmog'i orqali konferens aloqasi yordamida o'zaro axborot almashinishi jarayonidir. Tabiiyki, bu texnologiyadan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi cheklangan bo'ladi. Adabiyotlarda telekonferensiya atamasini ko'p uchratish mumkin. Telekonferensiya o'z ichiga konferensiylarning *uch* turini: **audio, video va kompyuter** konferensiylarini oladi. Kompyuter konferensiysi ishtirokchilari soni audio va videokonferensiylar ishtirokchilari sonidan ancha ko'p bo'lishi mumkin.



## AUDIOKONFERENSIYALAR

Ular tashkilot yoki fermaning hududiy jihatdan uzoqda joylashgan xodimlari yoki bo'linmalari o'rtasida kommunikatsiyalarni saqlab turish uchun audioaloqadan foydalanadi. Ikkitanidan ko'p ishtirokchi so'zlashuvda qatnashishini ta'minlaydigan qo'shimcha qurilmalar bilan jihozlangan telefon aloqasi tizimi

audiokonferensiyalami o'tkazish uchun qo'llaniladigan eng oddiy texnika vositasi hisoblanadi. Audiokonferensiyalarni tashkil etish kompyuter bo'lishini talab etmaydi, faqatgina uning ishtirokchilari o'tasida ikki tomonlama audioaloqadan foydalanishni ko'zda tutadi. Audiokonferensiyalardan foydalanish qarorlar qabul qilish jarayonini yengillashtiradi, u arzon ham qulay.

### VIDEOKONFERENSIYALAR

Videokonferensiyalar ham audiokonferensiyalar qanday maqsadlarga mo'ljallangan bo'lsa, shunday maqsadlarga mo'ljallangan, lekin bunda videoapparatura qo'llaniladi. Videokonferensiya – bu shunday kompyuter texnologiyasiki, u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda ko'radi, eshitadi va ma'lumotlar bilan almashadi. Videokonferensiyani o'tkazish kompyuter va monitorlar bo'lishini talab etadi.

Masofadan turib muloqotning videokonferensiya shakli 1964 yilda AT&T kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Videophone (real vaqtda ovoz va tasvirmi almashish) qurilmasidan boshlanadi. Bu qurilma yordamida ishtirokchilarning masofadan bir-birlarini real vaqtda ko'rib turgan holda muloqotlarini tashkil qilingan.

Videokonferensiya jarayonida bir-biridan ancha uzoq masofada bo'lgan uning ishtirokchilari ekranda o'zlarini va boshqa ishtirokchilarni ko'rib turadilar. Televizion tasvir bilan bir vaqtda ovoz ham eshitilib turadi. Masofadan videokonferensiya tizimi – matnli axborotlar almashish, fayllar almashish imkonini beradi. Shunisi bilan videokonferensiya shaklida masofadan turib interfaol o'qitish tizimi Internet yoki lokal tarmoq orqali o'qitishdan hamda radio yoki televidenie orqali ma'ruza o'qishdan farq qiladi. Videokonferensiyada tashqi elektron doskadan foydalanilganda o'qituvchi doskaga yozadi va uni videokonferensiya aloqasi ko'magida boshqa auditoriya tinglovchilariga ko'rsatiladi.

Elektron doskadan masofadan o'qitish tizimi foydalanuvchilari bir xil foydalanishlari mumkin, ya'ni bir doskaga chizilgan rasm boshqa auditoriyadagi doskalarda ham ko'rsatiladi. Dars olib borish jarayonida videokamera avtomat tarzda ma'ruza o'qiyotgan professor, talaba yoki savol beruvchi tomonga buriladi.

Videokonferensiya o'tkazish uchun asosan ikkita shartni bajarish lozim:

a) videokonferensiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuter (texnik) qurilmalari;

b) videokonferensiyani o'tkazish talabiga javob beruvchi aloqa kanallaridan foydalangan holda muloqotga chiquvchilar bilan bog'lanish.

Videokonferensiyalar transport va xizmat safari harajatlarini ancha qisqartirish imkonini beradi. Bunda uzoqda joylashgan ta'lif oluvchilarda ta'limni o'zlashtirish samaradorligi oshadi.

## **FORUMLAR - TA'LIM METODI**

*Forum tushunchasi.* Internet tarmog'ida forumlar veb-sayt ko'rinishida bo'ladi va Veb-forum deb ataladi. Veb-forum - veb-sayt tashrif buyuruvchilarining o'zaro muloqotini tashkil etish uchun mo'ljallangan veb-sayt sahfalari va uskulalari majmui. Qisqacha aytganda, forum bu veb-saytning tashrif buyuruvchilari muloqot o'mnataidigan maydonchasi. Bunda ixtiyoriy foydalanuvchi forum veb-saytiga tashrif buyurib, o'zini qiziqtirgan mavzuni o'rtaga tashlashi va veb-saytning boshqa tashrif buyuruvchilari bilan muhokama qilishlari mumkin.

Forum muloqotning yana bir oddiy turi bo'lib, bu muloqotda ixtiyoriy vaqtida ixtiyoriy joydan qatnashish ham mumkin. Forumni o'tkazishda biror mavzu tanlanadi va u muhokamaga qo'yiladi. Qatnashuvchilar muzokara jarayoni bilan tanishib, o'z fikrlarini jo'natishlari mumkin. Bu usulda siz muhokamada qatnashayotganlarni ko'rmasiz, faqatgina ularning fikrlari bilan tanishib chiqishingiz mumkin. Forumda turli-tuman mavzular muhokama qilinadi. Bunda siz biror mavzuni tanlab, ularning muhokamasida ishtirot etishingiz mumkin.

*Milliy va xalqaro internet forumlari.* Internet forumlari alohida yo'nalishlarga ixtisoslashgan yoki umumiyl bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan Internet forumlari meditsina, dasturlash texnologiyalari, dizayn va moda, kompyuter o'yinlari va transport vositalariga bag'ishlangan forumlar misol bo'ladi. Ixtisoslashgan forumlarda faqatgina mo'ljallangan sohaga oid mavzular muhokama qilinadi, umumiyl forumlarda esa, ixtiyoriy mavzuni o'rtaga tashlash mumkin.

Halqaro forumlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- *Medicinform.ru* forumi – ushbu forum tibbiyot sohasiga ixtisoslashgan bo'lib, u orqali kasalliliklar va ularni davolash, dori vositalari va ularni to'g'ri qo'llash hamda tibbiyot bo'yicha yuridik maslahat olish mumkin.

- *Progz.ru* forumi – ushbu forum dasturlash texnologiyalaridan foydalanish, kompyuter dasturiy vositalarini ishlab chiqish va dasturlash bilan bog'liq yuzaga kelgan muammolarni muhokama qilishga mo'ljallangan.

- *Avtomobili.ru* forumi – ushbu forum avtomobil ishqibozlari forumi bo'lib, unda avtomobillar brendlari, markalari va turlari hamda ularni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish mumkin.

- *Stopforum.ru* forumi – bu kompyuter o'yinlari forumidir. Bunda o'yinlarning turlari, ularni o'ynash sirlari va yuzaga kelgan muammolar muhokama qilinadi.

- *WildDesign.ru* forumi – bu forumda dizayn, moda va tasviriy san'at ixlosmandlari va ijodkorlari fikr almashishadi. Bundan tashqari ijodkorlar asarlaridan baxramand bo'lish mumkin.

- *Uforum.uz* - milliy forumi. *Uforum.uz* milliy forum hisoblanib, u Respublikamizning axborot texnologiyalari, ta'lim, madaniyat, moliya, sog'liqni

saqlash sohalarida hamda davlat sektori va elektron hukumat tuzilmasida ro'y berayotgan masalalar muhokamasini o'z ichiga oladi.

## WEBINAR METODI

**Vebinar metodi** – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuter, monitor, multimedia va shu kabi vositalar) yordamida turli joylardagi ishtirokchilar bilan masofadan turib o'tkaziladigan interfaol mashg'ulot turi. Vebinar metodi yoki "*Webinar*" texnologiya tushunchasi mulqotga 1998 yilda kirib keldi.

**Vebinar metodida** dars masofaviy seminar yoki konferensiya shaklida Internet orqali bir vaqtida hozir bo'lgan talabalar bilan masofaviy ta'lim tizimida qo'llanayotgan ko'plab interfaol audio video aloqa vositalari yordamida jonli olib boriladi. Bu darslarni kelgusida kerak darajada foydalanish uchun yozib olish mumkin. Bu metodda olib boriladigan butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona o'quv dasturidagi izchillikda o'zarlo uzviy bog'lanmaydi, ular alohida-alohida bir martalik darslardan iborat bo'ladi.



## O'QITISHNING 4 POG'ONALI METODI


### Kasbiy harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatish metodi

O'qitishning 4 pog'onali metodi dastlab AQShda paydo bo'lgan. Sanoat korxonalarida konveyerli ishlab chiqarish ko'paygan sari shunday o'rgatish usullari zarur bo'lib qoldiki, ishchilar bir xilda qaytariladigan qo'l va boshqa tana a'zolari harakatini to'g'ri bajarish ko'nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o'r ganib olishlari kerak edi. Bu metod bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni 4 ta pog'onali bosqichlar doirasida kechadi.

Bu pog'onalarining nomi: «Tushuntirish», «Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish», «Ko'rsatilgan tarzda qaytarish», «Mashq qilish».

Bu metod bo'yicha masalan, amaliyot o'qituvchisi talabalarga avval biron ishni bajarishning kichikroq alohida bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini o'zi bajarib ko'rsatadi. So'ngra talaba shu ish bosqichini ko'rsatilgandek bajarib takrorlashi (imitatsiya qilishi) kerak.

Talaba takrorlab bajarayotgan paytda amaliyot o'qituvchisi xatolarini to'g'rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi). Undan keyin esa, talaba shu ish bosqichini mukammal o'zlashtirgunicha mashq tarzida ko'p marta takrorlab bajaradi.



#### O'qitishning 4 pog'onali metodini qo'llashdagi harakatlar

4 pog'onali metodni qo'llashda shu pog'onalar bo'yicha amaliyot o'qituvchisi talabalar bilan guruqli hamda yakka tartibda ish olib boradi. Bunda o'qituvchi 1 va 2-pog'onalarda guruhi bilan, 3 va 4-pog'onalarda esa, har bir talaba bilan yakka tartibda ishlashi asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Bu harakatlarning mazmuni quyidagicha bo'ladi:

**1-pog'ona.** Amaliyot o'qituvchisi nima qilish kerakligini tushuntiradi. U talabalarga ma'lum bir ish bosqichi yoki bir ko'nikmani qo'llash uchun kerakli barcha ma'lumotlarni beradi. Talabalar o'qituvchining og'zaki tushuntirishlarini tinglab, tushunib boradilar.

**2-pog'ona.** Amaliyot o'qituvchisi tushuntirilgan ish bosqichi qanday bajarilishi kerakligini o'zi bajarib ko'rsatadi, talabalar esa, diqqat bilan kuzatib, eslab qoladilar. Odatda, o'qituvchi nima qilayotgani haqida talabalarga izohlar berib, takrorlab namoyish etib horadi.

**3-pog'ona.** Amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergen ish bosqichini bajarish harakatlarini talabalar ko'satilgan tarzda qaytaradilar. O'qituvchi ular

bajarayotgan harakatlar yuzasidan o'z fikrini bildirib, xatolarni to'g'rilab turadi.

**4-pog'ona.** Har bir talaba tegishli ish bosqichi bo'yicha harakatlarni o'qituvchi ko'rsatib bergandek qaytarib bajarib ko'radi va o'qituvchining bu ish bosqichini to'g'ri bajarish bo'yicha izohlarini tushunganidan keyin, bu ish bosqichini kutilgan natijaga erishmagunicha takrorlab mashq qilishda davom etadi.

Shundan keyin amaliyot o'qituvchisi ishning keyingi bosqichiga doir harakatni o'rgatishga o'tadi. Bu bosqich ham 4 pog'onadan iborat bo'lib, quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin:

- mashg'ulotda har bir harakatni o'rgatishning boshlanishida amaliyot o'qituvchisi tomonidan nazariy va amaliy ma'lumotlar beriladi, so'ng esa, talabalarning shu harakatlarni amaliy bajarish mashqlari bilan almashinadi;

- talabalarning harakatlari amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergen harakatlar doirasi bilan cheklanadi;

- talabalar yakka tartibda o'rganish (o'zlashtirish, mashq qilish)ga yo'naltiriladilar, lekin ularning mustaqil fikrlashga haqlari yo'q, chunki o'rganilayotgan kasbiy harakatni boshqacha bajarish albatta noxush holatlarga olib keladi;

- ishni tashkil qilish (ish tartibi) odatda, hech qanday yangicha yondashuvlarga yo'l qo'ymaydi.

#### **O'qitishning 4 pog'onali metodini qo'llash yuzasidan yo'l-yo'riqlar.**

**1-pog'ona.** Tushuntirish-qiziqtirish (motivatsiya), ma'lumot va yo'riqnomalar berish. Amaliyot o'qituvchisi avval bu yo'riqnomalar berish (instruktaj)ni o'quv xonasida yoki ish o'mida o'tkazish maqsadga muvofiqligini hal qiladi. Bu esa, instruktajning mohiyati va turiga bog'liq. U instruktaj vaqtiga 20-30 daqiqa dan oshib ketmasligini rejalashtiradi.

O'rganilayotgan mavzu bo'yicha ishni bajarishga qaratilgan topshiriq yuzasidan instruktaj talabalarning qiziqishini o'yg'otishdan boshlanadi, chunki ularning qiziqish va e'tibori o'rganilayotgan narsaga qaratilishi kerak.

So'ngra amaliyot o'qituvchisi talabalarga amaliy topshiriqni bajarish uchun kerakli barcha ma'lumotlarni beradi va bajariladigan jarayonlarni tushuntiradi. Shu paytda u o'zining amaliy ish tajribasidan kelib chiqib, mavzuga doir barcha o'quv-didaktik materiallardan, masalan, chizmalar, ish rejalar, ekspluatatsiya bo'yicha instruksiyalar, instrumentlar va xom ashyolardan ko'rgazmali materiallar sifatida foydalanishi mumkin.

O'qituvchi ish bosqichlarini ularning ketma-ketligida tushuntiradi va kerak bo'lsa, talabalarga shu bosqichlarni o'zlarining ish rejalariga kiritishlarini

talab qiladi. Shu paytning o'zida u talabalarga sifat farqini namoyish etish maqsadida yaxshi va yomon sinov ishi misollarini ko'rsatishi mumkin. Talabalar nisbatan passiv bo'lishadi, ular tinglashadi va qarab turishadi.

**2-pog'ona.** Nima qilishni ko'rsatib berish - namoyish qilish. Bu pog'onada amaliyot o'qituvchisi tushuntirgan ish bosqichlarini o'zi bajarib, namoyish qilib ko'rsatadi. Buning uchun u avval kerakli ish o'mini puxtalik bilan tayyorlab qo'ygan bo'ladi va o'sha ish o'mida namoyishni o'tkazadi. Ishni bajarish uchun kerakli barcha instrumentlar xom ashyolar va ish rejasи hamda kerak bo'lsa, tegishli stanok (uskuna) tayyorlab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Namoyish qilayotgan paytda amaliyot o'qituvchisi talabalarning diqqat bilan kuzatib turishlarini ta'minlaydi. Har bir harakatni 3 martadan namoyish qilib ko'rsatish tavsiya etiladi. Ular quyidagicha bajariladi:

**1 - namoyish** oddiy tezlikda o'tkaziladi, talabalarda kasbiy harakatning amalda qanday bajarilishi to'g'risida to'la va haqiqiy tasavvur paydo bo'lishi uchun.

**2 - namoyish** atayin sekin tezlikda o'tkaziladi, har bir bosqichni alohida va o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq ko'rsatish hamda mehnat xavfsizligi qoidalarini tushuntirish uchun.

**3 - namoyish** oddiy tezlikda o'tkaziladi, ishni bajarish harakati ko'nikmasini yana bir marta to'la ravishda ko'rsatish va o'quvchilarda «ichki sur'at» ya'ni, harakatni bajarish usuli, tartibi, ketma-ketligi, tezligi to'g'risida aniq tasavvur paydo bo'lishi uchun. Namoyish qilayotgan paytda amaliyot o'qituvchisi har bir harakatini izohlab boradi. Shundan so'ng bevosita instruktaj qismi tugaydi.

**3-pog'ona.** Ko'rsatilgan tarzda qaytarish - taqlid (imitatsiya). Bu pog'onada talabalarning har biri amaliyot o'qituvchisining harakatlarini u ko'rsatgan tarzda qaytarishlari kerak. Talabalar ishlayotgan paytda amaliyot o'qituvchisi o'z fikrini bildiradi, yaxshi ishni maqtab yomon ishni tanqid qiladi va nima qilishni yana bir marta ko'rsatadi. Hamma talabalar ish jarayonini tushunganligini ko'rganidan keyin amaliyot o'qituvchisi mashq qilishni boshlashga ruxsat beradi.

**4-pog'ona.** Mashq qilish - talabalar ko'plab marta takrorlash orqali instrument va uskunalar bilan bajariladigan ish jarayonlari bo'yicha kasbiy harakatlarni to'g'ri bajarishni mashq qilishlari uchun amaliyot o'qituvchisi ularga yetarlicha xom ashyolar berib qo'yadi. Har bir o'quvchi o'zi ishlaydi va bir xil ishslash usullarini qo'llaydi. Agar ish natijalarining sifati maqbul natija standartiga (oldindan belgilangan sifat mezonlariga - aniq maqsadlarga) javob bersa, ish tugatilishi mumkin. Amaliyot o'qituvchisi bu yerda nazoratchi vazifasini bajaradi.

**Eslatma.** 1-2-bosqichlar (pog'onalar) davomida amaliyot o'qituvchisi talabalarda dastlabki bilimlar bor yoki yo'qligini aniqlashi mumkin. Agar dastlabki bilimlar darajasi yetarlicha bo'lmasa, bu holda u qayta nazariy dars o'tkazishi kerak.

**Didaktik vositalar va mashq materiallarni tayyorlash.** 4 pog'ona metodi ko'p va katta tayyorgarliklar ko'rishni talab qilmaydi, ya'ni juda oz vositalar bilan ham ishlash mumkin. Didaktik vositalar va mashq materiallari sifatida odatda, asl (original) ish hujjatlari ishlataladi masalan, texnik chizmalar yoki biror elektr sxema, ish bosqichlari va izohlar ko'rsatilgan jadval shaklidagi ish rejasi hamda nazorat varag'i, unda o'quvchining natijalari yozib boriladi.

Bunda ushbu chizmalar va boshqa hujjatlarni sellofan paket, plyonkaga chiqarilmaydigan qilib solib qo'ygan yaxshi va talabalarga ko'rish uchun berish kerak. Ish rejasisini esa shaxsiy mehnat vositasi sifatida har bir o'quvchi o'zi to'ldirishi kerak. Bu maqsadda amaliyot o'qituvchisi tegishli shaklni tayyorlaydi va o'quvchilarga to'ldirish uchun tarqatadi.

Nazorat yoki baholash varag'i ham tegishli shaklda bo'lishi kerak. Uni o'qituvchi natijalarning isboti sifatida mashqlar tugaganidan keyin o'zida saqlab qoladi.

Qo'shimcha ravishda talabalarga tarqatma didaktik materiallar (kartochka-topshiriqlar) berilishi mumkin. Tarqatma materiallar darsliklar, maxsus adabiyotlar yoki ekspluatatsiya bo'yicha yo'riqnomalardan olingan qisqa ma'lumotlar (ko'chirmalar) bo'lishi mumkin.

**Mashq materiallari** deb amaliy mashqlarni bajarish uchun kerak xom ashyolar, sarflanadigan materiallar va yordamchi materiallarni aytildi. Ular kasb-hunarni o'rgatishga bevosita bog'liq bo'lib, ta'lim beruvchi korxona (firma)ning mahsulotlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Kerakli mashq materiallarni amaliyot o'qituvchisi odatda, bir yil oldindan rejalashtiradi. Ularni hisoblashda quyidagi ma'lumotlarga asoslaniladi:

### HUJJAT

Texnik  
chizma yoki  
elektro  
sxema

Ish rejasi

Nazorat
varag'i

Tarqatmalar

- bir yilda ta'lim oladigan talabalar soni, bir yilda o'tkaziladigan mashqlar soni va buning uchun kerakli xom ashyo sarfi va yordamchi materiallar miqdori.

Juda oddiy misol: Egovlash mashqlari uchun 40mmx40mmx100mm xajmidagi to'rt qirrali po'lat ko'zda tutilgan. Yil davomida taxminan 30 o'quvchi shu mashqni bajaradilar. Demak, bu yil uchun 3 metr po'lat kerak bo'ladi (30 kishi x 100 mm). Bunday rejalarни tuzish uchun amaliyot o'qituvchisi shunday hujjatni ishlab chiqishi kerakki, unda quyidagi indikatorlar (ma'lumotlar) bo'lishi kerak:

- barcha kurslar davomida o'tkaziladigan mashqlar ro'yxati (nomi va soni);
- biror texnik chizma mavjudligi ;
- bu mashqlar bo'yicha xom ashyo hajmlari ko'rsatkichlari (har bir mahsulotning tayyor hajmi hamda tayyorlash jarayonidagi chiqindilar);
- zarur bo'ladijan asboblar, tekshirish va o'Ichash asboblari, yordamchi vositalar, boshqa kerakli asbob-uskunalar to'g'risida ma'lumotlar;
- ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash uchun taxminan qancha vaqt talab qilinishi to'g'risida ma'lumotlar.

Rejalashtirishda e'tibor berish kerak bo'lган keyingi narsa - bu asboblarning yeyilishi. Buni inobatga olish lozim, chunki amaliyot o'qituvchisi qachon va qancha miqdordagi asboblarni almashtirish kerak bo'lishini bilishi zarur.

Tayyorlab qo'yiladigan asboblarni ikki turga bo'linadi:

- ustaxonada umumiyl foydalanish uchun mo'ljallangan asboblar (masalan qimmatbaho o'Ichash vositalari kamdan-kam ishlataladigan maxsus asboblar);
- ish o'mida yakka tartibda (individual) foydalanish uchun mo'ljallangan asboblar (o'quvchiga berib qo'yiladi);
- asbob-uskunalarga taalluqli, ularni sozlash, ta'mirlash, charxlash va sh. k. asboblar;
- amaliyot o'qituvchisining asboblari va hokazo.

Har bir o'quvchida o'zining individual asboblari bo'lsa, faqat shundagina hamma o'quvchilar mashqlarni bir vaqtida bajarishlari mumkin.

Agar buning iloji bo'lmasa, boshqa tashkiliy yechimlar topilishi kerak, masalan, asboblarni galma-gal ishlatalish, mashqlarni almashtirib o'tkazish va boshqa yechimlar.

#### O'qitishning 4 pog'onali metodining psixologik asoslari.

Bu metod psixologiyada bixevoirizm nazariyasi (insonning o'zini tutishiga oid nazariya) bilan asoslangan.

Dastlab hayvonlar ustida o'tkazilgan eksperimentlarda olingen natijalar keyinchalik insonga nisbatan qo'llanila boshlangan. Bunda qo'zg'ovchi va reaksiya kabi elementlar hamda aniq o'lchash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar muhim rol o'ynagan. Chunki olimlarning fikricha, reja asosida ishlataligan tashqi qo'zg'ovchilar va nazorat qilinishi mumkin bo'lgan reaksiyalargina yetarli darajada tekshirilishi mumkin va shundan kelib chiqib, umumiy ilmiy xulosalar chiqarish mumkin deb hisoblangan. Shunga muvofiq aniqlangan quyidagi ilmiy xulosalarni ta'kidlab o'tish zarur:

1. O'zlashtirish (o'rganish) - bu "qo'zg'ash ta'siri-reaksiya" ketma-ketligi takrorlanishining natijasidir. Shu takrorlar soni qancha qo'p bo'lsa o'zlashtirish natijasi shuncha yaxshi bo'ladi. ("Takror orqali o'rganish" tamoytli).
2. Ikkinchi qo'zg'ovchi birinchi qo'zg'ovchi bilan birgalikda tez-tez ishlatib turilsa, u birinchi qo'zg'ovchining o'rmini bosa oladi. ("Shartli reflekslar orqali o'rganish" tamoyili).
3. O'zlashtirishda erishilgan yaxshi natijalar maqtab turilsa, bunday natijalar ko'payib boraveradi. ("Kuchaytirish orqali o'rganish" prinsipi).
4. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarzda ishlatalgan maqtov va jazolar orqali deyarli istalgancha tegishli o'zini tutish tarzları o'zlashtirilishi yoki yo'q qilinishi mumkin.

Amaliyotda o'rgatish uchun esa, bundan quyidagi xulosalar chiqarildi:

Qo'zg'ovchi sifatida berilgan har bir qisqa savolga to'g'ri javob berilishi bilan iloji boricha uni darrov maqtab qo'yish (masalan "Yaxshi javob!" deb) kerak. Noto'g'ri javob ham ochiq va oydin tanqidlanishi (tanbehanishi) lozim.

Amaliyotda talabalar birorta iloji boricha qisqa ish bosqichi bilan tanishtiriladi, so'ng uni qaytaradilar va to uni mukammal o'zlashtirmagunlaricha takrorlab mashq qiladilar. Bunday mashqlarning zarurligi ochiq va oydin tan olinishi kerak. Bunda kichik o'quv bosqichlari katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda bu usulga ba'zi didaktik elementlar qo'shilib, mukammalashtirildi.

Bundan tashqari bosqichlarni biroz murakkabroq qilishga harakat qilinmoqda. Ya'ni shunday mashqlar ham kiritilishi mumkinki ular doirasida talaba birdaniga bir nechta ko'nigmalar va operatsiyalarni amalda bajarishi kerak. "Tushuntirish" va "nima qilishni ko'rsatib berish" pog'onalar esa, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Hayvonlar ustida muvaffaqiyatli o'tkazilgan eksperimentlar asosida olimlar inson o'zini tutishini istagancha manipulyatsiya qilish (boshqarish) mumkin deb hisoblab, insonning fikrlashidagi ichki jarayonlarni batamom e'tibordan tashqarida qoldirishgan, chunki ular faqat ayrim jonzotlar tashqi qo'zg'ovchilarga qanday reaksiya qilishlarini o'lchaganlar xolos. Shunga qaramay

bu usul odamlarga har turli kasbiy harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatishda o'zini juda ham yaxshi oqladi.

Shuning uchun bu usul kasbiy-texnikaviy sohalarda eng avvalo, ish o'mida kerakli ko'nikmalarni o'rgatishda kelajakda ham muhim rol o'yaydi.

### SUGGESTOPEDIYA METODI

Suggestopediya metodining asoschisi bolgariyalik vrach Lozanov. Bu ta'limgarayoni bir odam (o'qituvchi)ning boshqasi (ta'limgoluvchi)ga psixik ta'sir ko'rsatishidan iborat. Bu usul chet tillarini jadal o'rgatishda qo'llaniladi. Lekin boshqa fanlarda ham qo'llashga harakat qilinmoqda.

Leypsig universiteti mnemologiya laboratoriyasida chet tillari sifatida ingliz, rus tillarida 30 kunda 3200 leksik birlik, kuniga 120—140 leksik birlik o'rgatiladi. Bu boshqa jadal o'qitishlarga nisbatan 3 marta ortiq.

Bu mashg'ulotlarga 50 yoshgacha bo'lganlar, ba'zan undan ham katta yoshdagilar ilgari chet tilini o'qigan bo'lsa, qabul qilinadi.

*Metodikasi:* ta'limgoluvchilar fikrni jamlash uchun autogen mashqlar bajaradilar, ya'ni past ovozdagi sokin musiqa yordamida xotirjam holatga keltiriladi.

*Formulasi:* „Men batamom xotirjamman”. Klassik musiqa bilan bir vaqtida o'qituvchi turli intonatsiyalarda ta'sirchan, baland, ba'zan esa juda past ovozda, lekin aniq, tushunarli qilib chet tilidagi matnni o'qib, ma'nosini ona tilida tushuntiradi.

Bunda inson ongiga ma'lum axborot oson kirib boradi. Lekin bundan tashqari, ta'limgoluvchilar o'zlashtirgan bilimlardan mashg'ulotlarda faol foydalanishlari, kunning 2-yarmida uyda to'liq takrorlab borishlari lozim.

Bu usulda diqqatni to'liq jamlab anglangan, eslab qolingga axborot anglanmagan axborot bilan qo'shilib, xotira imkoniyatlarini kengaytiradi.

Natija juda yaxshi: ta'limgoluvchilar o'zlashtirgan bilimlar ularning xotiralarida 3 oydan keyin 95 %, 1 yildan keyin 85% saqlanadi.

*Suggestiya* — (lotincha) ishontirish ma'nosini bildiradi. Bunday muloqot shaklida ta'limgoluvchi (suggerend) ta'sir ko'rsatuvchi, ishontiruvchi o'qituvchi (suggestor)ning aytganlarini passiv, ixtiyorsiz, o'yamasdan o'zlashtiradi va uning topshiriqlarini motivlar kurashisiz bajaradi.

O'z-o'zini ishontirish yoki o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish deb suggerend va suggestorlikni bir kishi bajarishiga aytildi.

### GIPNOPEDIYA METODI

Gipnopediya uykuda o'kitish metodi bo'lib, kuprok chet tillarni o'rgatishda qo'llaniladi. Bu metod xammaga xam to'g'ri kelmaydi. Buning sababi esa, bu

metod xar kim uchun aloxida chukurlikdagi uyku darajasidagina samara berishidan iborat. Zarur uyku chukurligiga erishish va uni saklab turish kiyin.

Bilimlarni o'zlashtirish, idrok kilish va qayta ishlashdagi shaxsiy farklar o'zlashtirish tezligi va mustahkamligining asosiy omillari hisoblanadi. Ularning ayrim xususiyatlari kuyidagilar:

Aqli zaiflar — juda kam hajmdagi bilimlarni o'zlashti-radilar.

Boshqalarda turlicha bo'lib, ayrimlar materialni oson o'zlashtiradi, tez unutadi, ba'zilar sekin o'zlashtiradi, lekin unutmadi. Bular o'zlashtirish tezligi va mustahkamligini hisoblanadi.

Bular markaziy asab tizimi tarkibining xususiyatlari, ya'ni asab hujayralarining "eslab qolish imkoniyatlari" bilan bog'liq.

O'zlashtirish natijalariga faoliyat turlarini maqbul tarzda almashtirib turish ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni hisobga olgan holda dars jadvalida xamda dars tayyorlashda bir-biridan ko'prok farkli fanlar o'zaro ketma-ketlikda bo'lishi yaxshi natija beradi. Buni kuyidagi tajriba tasdiklaydi:

Guruh talabalariga 20 ta ruscha so'zni yod olish topshiriladi. Ular bajargach, shu talabalarni 2 ta kichik guruhgaga ajratiladi. Shundan so'ng birinchi kichik guruhgaga 20 ta bolgarcha (ruschaga yakin til) so'zni yodlash, ikkinchisiga badiiy asar o'kish topshiriladi. Keyin ikkala kichik guruhda ruscha so'zlarini eslab kolganlik darajasi tekshiriladi. Ko'rsatkich 2- kichik guruhda yukori bo'ladi.

Yomon baxoning sababi o'quvchining mакtabga yomon munosabati sababli xamda maktabning o'quvchiga yomon munosabati sababli ham bo'lishi mumkin.

## MUSTAQIL TA'LIM METODLARI

*Hech kim hech kimga hech narsa o'rgata olmaydi,  
o'quvchi o'zi o'rganishi kerak. Bilim – bu  
vogelikning nusxasi emas, u individ tomonidan  
konstruksiya qilinadi. (J. Piaje).*

Mustaqil ta'lism olingan bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadida tashkil etiladi. Mustaqil ta'limga afzalligi o'quvchilar bilimlarni o'zlari uchun qulay bo'lgan sharoit va vaqtida o'zlashtira oladilar. Bugungi kunda mustaqil ta'lism olish uchun keng imkoniyatlar mavjud. O'quvchi mavjud nashr materiallari (o'quv, ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop asarlar), Internet, ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilayotgan materiallarni yordamida o'z bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega.

Mustaqil ta'lism metodlari ko'p shakkarda amalga oshiriladi. Mustaqil ta'limga samarali bo'lishi va undan ko'zlangan maqsadga erishishning asosiy

yo‘li uni qat’iy reja asosida hamda shu rejada belgilangan vaqtlar davomida to‘liq hajmda va puxta olib borishdan iborat.

## 2-ILOVA.

### INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda

Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagи ta’lim mukassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlisha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faoliigi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlesh asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrleshga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.<sup>8</sup>

O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti,

<sup>8</sup> Asranov S. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularning imkoniyatlari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tashkiliy va ilmiy-metodik muammolari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. –T.: 2005, 41-bet.

ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

*Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarini faollashtiruvchi va mustaqil fikrashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi.* Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasini yuqoriq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalananish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalananilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faoliyagini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytiganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiyligi mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni *interfaol metodlar*, *interfaol ta'lim strategiyalari*, *interfaol grafik organayzerlarga ajratish* mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

**1. Interfaol metodlar:** "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blis-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.

**2. Interfaol ta'lim strategiyalari:** "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "Yumaloqlangan qor" va h.k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham

ko'proq jihatdan interfaol ta'limga metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

**3. Interfaol grafik organayzerlar:** "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'limga metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol ta'limga metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtida qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faoliyklarini oshirib, ta'limga samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan yuqoridagi tasnif bo'yicha hozirgi ayrim interfaol ta'limga metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi shartli ravishda quyidagi 8-jadvalda keltirildi.

Bu jadvaldagi ayrim interfaol ta'limga metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi bir muncha shartli va aslida muayyan o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan boshqa yana ko'p interfaol metodlarni aniq maqsadlar yo'lida qo'llash mumkin ekanligini alohida ta'kidlash zarur.

8-jadval

#### **Ayrim interfaol ta'limga metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi**

O'quv mashg'ulotlari texnologiyasi	Interfaol metodlar va ta'limga strategiyalari	Grafik organayzerlar
Ma'ruza mashg'ulotlari ta'limga texnologiyasi.	Erkin yozish. Asoslangan esse va b.	Klaster. B-B-B chizmasi T-chizma va b.
Ceminar mashg'ulotlari ta'limga texnologiyasi.	Aqliy hujum FSMU Blis-so'rov. Blis-o'yin va b.	Venn diagrammasi. Konseptual jadval va b.
Amaliy mashg'ulotlari ta'limga texnologiyasi.	O'qitish bo'yicha qo'llanma. Yozma va og'zaki davra suhbati va b.	Insert jadvali. "Nima uchun" chizmasi. "Qanday?" diagrammasi va b.
Mustaqil ta'limga texnologiyasi.	Tushunchalarni aniqlash va b.	Baliq skeleti va b.

Keys-stadi texnologiyasi.	ta'lim	Tushunchalar matn tuzish va b.	asosida Toifalash jadvali va b.
Loyihali texnologiyasi.	ta'lim	Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi va b.	Nilufar guli va b.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri **ta'lim metodlarini tanlash nimalarga bog'liq**, degan masaladir.

Didaktikaga oid adabiyotlarda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligining turli omillar bilan bog'liqliklari quyidagicha qayd qilinadi:

- *birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq;*

- *ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog'liq;*

- *uchinchidan, ta'lim oluvchilarining biliimi va rivojlanish darajasiga bog'liq;*

- *to'rtinchidan, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;*

- *beshinchidan, oliy o'quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog'liq;*

- *oltinchidan, o'quv jarayonining moddiy-teknik ta'minoti bilan bog'liq;*

- *yettinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.*

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy ta'lim jarayoni o'qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq tashkil etiladigan ko'pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuuning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatları bilan belgilanadi.


Quyida hozir amalda ko'p qo'llanayotgan interfaol ta'lim metodlaridan ayrimlariga doir ma'lumotlar keltirildi.

### “BAHS -MUNOZARA” METODI

*“Bahs -munozara” metodi- biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs-munozara va fikr almashuv tarzida o'tkaziladigan mashg'ul metodidir.*

Bahs-munozaralar o'quv guruhini ikki yoki undan ko'p kichik guruhlarga bo'lgan holda ishtirokchilarning biror mavzu bo'yicha o'zaro fikrlar almashishi tarzida o'tkaziladi.

### "Babs-munozara" metodining tuzilmasi



Bahsning samarali bo'lishi eng avvalo bahslashuvchilarning bir-birlariga nisbatan qanday holatda joylashuvlariga bog'liq. Tinglovchi va muzokarada qatnashuvchilarning o'zaro joylashuvlari va ularning psixologik mavqelarining mohiyati muhim ahamiyatga ega ekanligi bois biz ushbu masala bo'yicha quyidagi variantlarni keltiramiz:

•**Sinf sharoiti.** Bu - an'anaviy dars o'tkazish shakli bo'lib, tinglovchilar bir-birlarining yuzlarini ko'rish imkoniyatlari cheklangan holatda o'tiradilar. Ularning doska oldidagi o'qituvchiga va u bayon etayotgan mazmunga nisbatan munosabatlari va mas'uliyatlari turlicha. Bu sharoitda bahs o'tkazish mumkin emas. Chunki sinfda oxirgi qatorda o'tirgan bola bilan birinchi qatorda o'tirganning darsga munosabati keskin farq qiladi. Tinglovchining psixologik mavqeい - «Men» - o'yindan tashqarida» deb baholanadi.


• “Men” - o‘yinda» deb ataluvchi holat: tinglovchilar doira shaklidagi stol atrofida joylashadilar va o‘rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashtish, hattoki, ayrim ijtimoiy rollarga ham kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, hatto boshlovchi ham «qatorda» o‘tiradi. «Ishchanlik o‘yinlari» va boshqa rolli o‘yinlar ana shunday sharoitda o‘tkazilishi mumkin.

• “Men” - munozarada» deb ataluvchi holat ayni bahs - munozaralar o‘tkazish uchun qulay, chunki unda shaxs o‘z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi. Odatda, bunday bahslar to‘rburchak stol atrofida yushtiriladi.

• “Men” - hamkorlikdaman» degan holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a’zolari to‘rt-besh kishidan bo‘lib alohida stollar atrofida o‘tirib, har bir guruh o‘z qarorini chiqaradi. «Munozara» klublari» faoliyati shu tarzda tashkil etiladi.

### 3-sxema

#### “Bahs-munozara” metodi ishtirokchilarining joylashishi sxemasi



Bu keltirilgan har bir xolat bahs qatnashuvchilarida o‘ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas’uliyat xissini keltirib chiqaradi.

Demak, dars mobaynida o‘qituvchi mavzuning xarakteri va u bo‘yicha shakkantirish lozim bo‘lgan bilim, malaka va fazilatlarga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina mashg‘ulotni boshlashi kerak. Ko‘rinib turibdiki, an’anaviy sinfdagi tashkil etiladigan mashg‘ulotlarning samaradorligi deyarli yo‘q, chunki ular oldingi qatorlarda o‘tirgan tinglovchilarining faolligigagina yo‘naltirilgan, qolganlar “o‘yindan tashqari” holatda, bu narsa ularning dars mazmuniga munosabatlarida bevosita aks etadi.

Kichik, tor doiralardagi ixcham guruhlarda uyushtirilgan munozaralarning erkin mavzuli, yo‘naltirilgan va aniq ssenariyli disput turlari mavjud bo‘lib, bu tanlangan mavzuga va munozara guruhlarining muloqot tajribasiga bog‘liqidir (“disput” so‘zining lug‘aviy ma’nosi – “fikrlayapman”, “tortishayapman”, degan ma’nolarni bildiradi). Kichik guruhlarda tashkil qilinadigan munozaralardagi

asosiy narsa - guruh a'zolarining tanlangan mavzu xususiyatiga qarab, har birining o'z fikr-mulohazalarini oxirigacha bayon etish imkoniyatlari borligidir.

Bunday guruuhda boshlovchi ham qatorda o'tirib, mavzuning yechimi batamom hal bo'lmaguncha faol muloqotlarning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Lekin asosiy rol guruhning a'zolariga yuklanganligini va bevosita ajralib chiqqan norasmiy lider asosiy bahs yurituvchi bo'lishi mumkinligini unutmasligi zarur. Bunday bahs-munozaralar turli sharoitda, ko'pincha bahs ishtirokchilari uchun tabiiy sharoitlarda (masalan, sinfda, talabalar auditoriyalarida, ish xonalariда ва b.da) o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **“YOZMA BAHSLAR” METODI**

Bu metod o'quvchilarga o'quv xonasidagi tengdoshlari bilan birlgilikda shu onda jamoatchilik fikrini to'lqinlantirayotgan mavzularda muloqotlarni rejalashtirish imkonini beradi. Uslub o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratish, munozara madaniyatini o'rgatish va o'z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlatirishga xizmat qiladi.

Bu metoddan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilarini baholash uchun asos xizmatini o'tovchi ajoyib materialga ega bo'ladi. Yozma bahslar uslubiyoti bunday muloqotlarni o'quv xonasidagi barcha o'quvchilar ishtirokida yozma shaklda o'tkazish imkonini beradi.

#### *Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:*

1. O'quvchilar bahs mavzusi bilan oldin o'tkazilgan mashg'ulotda tanishadilar. Bahs arafasida o'qituvchi bo'lajak mavzu to'g'risida o'quvchilarga axborot berar ekan, bahslar qay yo'sinda o'tishini qisqacha tushuntiradi (bu, albatta, bahslar birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lsa, juda ham muximdir).

2. O'qituvchi guruuh o'quvchilarini ikkiga ajratadi va ularni o'quv xonasining ikki tomoniga qator qo'yilgan stollar atrofiga yuzma-yuz holatda o'tkazadi va xar bir guruuh qatnashchilari qaysi nuqtai nazarni ximoya qilishlarini belgilaydi (masalan, 1-guruuh -ijobiy xolat joriy qilinishi tarafdorlari, 2-guruuh - bunga qarshilar).

3. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarini juftliklarga ajratadi, har bir juftlikda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo'lishi kerak. Juftliklarni tartib raqami yoki alifbo harflari bilan belgilanadi. Agar o'quv xonasida o'quvchilar soni toq bo'lsa, o'qituvchi munozaraga yetishmagan sherik xuquqida qatnashishi mumkin. O'qituvchi 1-guruuh o'qtuvchilariga (keltirilgan misolda - ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari) har bir juftning raqami (harfi yoki ramzi) bilan belgilangan katak qog'oz varaqlarini targatadi

4. O'quvchilar o'quv xonasining ikki tomonida o'tirib, juftma-juft yozma muloqotni boshlaydilar. 1-guruuh o'quvchilariga o'zları maqullayotgan nuqtai nazar

foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular bu dalilni qog'oz varag'iga puxta tahrir qilingan paragraf shaklida yozadilar. Bu vaqtida 2-guruh o'quvchilari o'zлari bahs jarayonida bayon etishlari mumkin bo'ган nuqtai nazarlarini isbotlashlari mumkin.

5. Yozilgan varaqlar qarshi guruhdagи sheriklarga (ijobiy xolatning joriy qilinishiga qarshi chiquvchilarga) beriladi. Ularga juftlik buyicha sheriklarining dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun hamda o'z qarshi dalilarini bayon qilishlari uchun 8 daqiqa vaqt ajratiladi.

6. Dalillar almashishning bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi bunda xar bir o'quvchi shergining dalil-isbotiga javob qaytarishi va o'zining aks dalilini keltirishi shart. O'quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun 3-4 raund yetarlidir. Oxirgi raundda o'quvchilarga yakuniy paragrafni yozish imkonи beriladi. Shundan so'ng yozma ish yig'ib olinadi.

7. Bahslami samarali yakunlashning eng qulay shakli - ikkala tomonga qaratilgan savoldir: "Qarshi tomonning eng yaxshi dalil-isbotlari qaysilar bo'ldi?" Har ikkala tomon vakillari qarshi taraf yozgan fikrlarni o'qib yuqoridagi savolga javob beradilar.

8. O'qituvchi ishni yakkama-yakka yoki juftlik bo'yicha baholashi mumkin. Agar o'qituvchi yozma ishni baholashni rejalashtirgan bo'lsa, bu haqda o'quvchilarni darsning boshidayoq ogohlantirishi kerak.

Talim muassasalaridagi mashg'ulotlarda yozma bahslar usulidan foydalanish davomida quyidagi jadval ko'rinishda keltirilgan tarqatma materialdan foydalanish mumkin:

9-jadval

**"Yozma bahslar" metodi bo'yicha javoblarni asoslab yozish varag'i namunasi**

Bahs mavzusi:
<b>HA</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• Bu javobni asoslang.</li><li>• Dalil keltiring.</li></ul>
<b>YO'Q</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• Bu javobni asoslang.</li><li>• Dalil keltiring.</li></ul>

**"ESSE" METODI**

Esse fransuz tilidan tarjimada "tajriba, andaza" ma'nolarini anglatadi. Esse – prozaik etyud, qandaydir bir predmetga oid umumiy yoki dastlabki mulohazalar. Ko'pincha esse yozish mashg'ulotning boshida, yoki refleksiya sifatida, oxirida

taklif etiladi. Esse yozish ko'pincha nazariy mashg'ulotlar, ma'ruzalar hamda mustaqil mashg'ulotlar tarkibida o'tkaziladi. Uning quyidagi turlari tegishli maqsadlarga muvofiq holda qo'llianiladi:

**Esse** – taklif etilgan mavzu yuzasidan 1000 dan 5000 gacha so'z hajmidagi insho.

**Esse** – bu muallifning ta'kidlab o'tadigan individual nuqtai nazarini erkin ifoda etish shakli; qandaydir mavzu bo'yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

**Asoslangan esse** – qo'yilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdir. Muallif ma'lum bir nuqtai nazarni egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o'zining nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlami boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish.

Asoslangan samarali esse yozish uchun agar siz o'z esseingizni yozish jarayonida uni fikriy jihatdan kitobxonlarga (uni o'quvchilarga) "taqdim eta olsangiz" va ular bilan fikriy muloqot o'mata olsangiz, uni yozishingiz yengil bo'ladi.

#### **Asoslangan esse tarkibi:**

Misol sifatida "Menimcha mamlakatimiz iqtisodi gullab yashnaydi, agarda ..." mavzusida asoslangan esse yozing,<sup>9</sup> degan topshiriqni bajarish tartibini ko'rib chiqamiz:

1. Mavzu (savol)ga nisbatan muallif nuqtai nazarining bayon etilishi (1 xatboshi).

2. Bayon etilgan nuqtai nazarni asoslash – ushbu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muallifning ishonarli dalillari va ushbu nuqtai nazarni qabul qilishga ishontirish.

#### **3. Xulosa – rezyume.**

#### **Asoslangan essen ni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari:**

- mavzu mazmuniga mos kelishi (mavzudan chetga chiqmaslik);
- mazmuni, fikri;
- unga taalluqli muammoni oldindan ko'ra bilish, shaxsiy nuqtai nazari, ma'lumotlar yetariligi;
- uslub, ifoda aniqligi, muayyanligi;
- orfografiya qoidalariga rioya qilinishi.

**Besh daqiqali esse** – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'uloti oxirida 5 daqqa oralig'ida o'tkaziladi. Yozma topshiriqning ushbu turi talabalarning mavzuga doir

<sup>9</sup> Д.Тохобеева. Махсус фанларни укитиш методикаси. – Т.: 2007. 281-283-бетлар.

o'z mustaqil fikrlarini ifodalay olishga yordam berish va o'qituvchiga o'z talabalari o'quv materiali bilan tanishganda qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berishlari xususida fikrash imkonini beradi.

Ushbu yozma topshiriq turida ta'lim oluvchilardan quyidagi *ikki topshiriqni* bajarish: mazkur mavzu bo'yicha ular nimalarni o'rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savolni berish so'raladi.

O'qituvchi taklif etishi mumkin:

– "Men bu ... haqida nimani o'ylayman" yoki "Nima uchun, mening fikrimga ko'ra ..." savollariga javob bering;

– o'quv mashg'ulotida berilgan talablar uchun yangi sanalgan g'oyani tavsiflash va sharhlab berish;

– olingen bilim, ko'nikmalar qaerda amaliyotda qo'llanilishini tavsiflash.

Ushbu ko'rinishdagi esse baholanmasligi ham mumkin. Ammo, o'qituvchi juftliklarga ajralish, ishlar bilan o'zaro almashish va yozilganlarni muhokama qilish taklifini berishi mumkin. Ushbu holda o'qituvchi 2-3 ta esseni tanlab tekshirishi mumkin, ularni ovozini chiqargan holda sharhlashi talabalar bilan muhokama qilishi va xulosa qilishi mumkin.

**Erkin yozish metodi** - besh daqiqali essening boshqa ko'rinishi bo'lib, talabalarning muayyan mavzu bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozish mashqlaridan iborat. Masalan, talabalarga besh daqqa ichida "Ulug'bek fojeasi" mavzusi bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqqa tugaganida (*eslatma*, besh daqqa tugadi deb e'lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqqa vaqt bering, zero qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug'iladi) ularga o'z yozganlarini sheriklariga o'qib berishlarini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o'qituvchining ixtiyorida ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruhli aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

### "ASSESSMENT" METODI

"Assesment" inglizcha "assessment" so'zidan olingen bo'lib, "baholash" ma'nolarini bildiradi. **Assesment metodi** talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshirig'i, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

- 1) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;
- 2) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;
- 3) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

Mazkur texnologiyaning yaratilish tarixi o'tgan asrning 30-40-yillariga borib taqaladi. Dastlab texnologiya mavjud harbiy vaziyatlarni to'g'ri baholay oladigan, harbiy harakatlar jarayonini samarali boshqaradigan, zarur o'rnlarda oqilona harakatni tashkil eta oladigan ingliz hamda nemis harbiylari orasidan bilimdon, tadbirkor, mahoratli harbiylar, shuningdek, ofitserlarni tanlash maqsadida qo'llanilgan.

Keyinchalik bu metod tadbirkorlik sohasiga ham samarali tatbiq etildi. Metodni birinchi marta 1954-yilda "AT&T" kompaniyasi tomonidan tadqiqot dasturlarini amalga oshirish doirasida qo'llanilgan.

To'rt yildan so'ng malakali menejerlarni tanlash maqsadida qo'llanila boshlangan ushbu metod negizida tadbirkorlar va psixologlar bilan hamkorlikda mazkur texnologiya yordamida ishlab chiqarish, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari hamda tashkilotlar uchun malakali mutaxassislarni tanlash xizmati – "Assesment-markaz" ("The Assessment Centre") faoliyatini yo'lga qo'yildi.

1960 yilda "IBM", "Standart oyl of Ogayo", "Sirs Robaks" kabi yirik amerika kompaniyalari o'z faoliyatlariga bu texnologiyani samarali tatbiq etdilar. Agar 1980 yilda 2000 ta firma "Assesment-markaz" asosida malakali mutaxassislami tanlashni ma'qul ko'rgan bo'lsa, hozir bu texnologiyadan o'n minglab korxona, tashkilot, firma va kompaniyalarda samarali qo'llanilmoqda.

Ayni vaqtida ishlab chiqaruvchi va savdo kompaniyalari malakali menejerlarni tanlash maqsadida mazkur texnologiyadan muvaffaqiyatli foydalanmoqdalar. So'nggi yillarda mazkur texnologiya ta'lim tizimiga ham samarali joriy etildi. Uning yordamida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasi har tomonlama, xolis baholanmoqda.

*Metodning ko'llanishi.* "Assesment" metodi o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanish yoki dars oxirida yoki o'quv predmetning biron-bir bo'limi tugallanganida) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta'lim oluvchilarning bilimlarini tekshirib olish, malaka oshirishga kelgan tinglovchilarning dastlabki bilimlari, ko'nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo'ljallangan.

Ushbu metodni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida hamda yakka tartibda qo'llash mumkin. Bu metoddan uyga vazifa berishda ham

foydalansa bo'ladi. Bunda topshiriqlar shakli 10-jadvaldagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

10-jadval

#### "Assesment" metodi bo'yicha topshiriq namunasi

<b>Test.</b> Tegishli fan bo'yicha o'tilgan (bo'lim, kurs) yuzasidan 1-2 ta test beriladi.	<b>Muammoli vaziyat.</b> O'tilgan mavzu asosida aniq hayotiy vaziyat, hodisaga asoslangan muammo beriladi.
<b>Sимптом.</b> Мавзу bo'yicha ilmiy-nazariy fikrlar, g'oyalar, ta'riflar tugallanmagan fikr ko'rinishida beriladi, masalan: .....ta'rif bering, ..... ilmiy asoslang.... , yoriting... va b.	<b>Амалий ко'никма.</b> O'tilgan mavzu mazmunini hayotda ish foaliyatida ko'llashdagi ko'nikmalarga tegishli topshiriq beriladi, masalan: ... chizing, hisoblang, to'ldiring, toping, solishtiring... va b.

#### "SQARABEY" METODI


Sqarab ey - "qo'ng'iz" - har tomondan kavlab chiquvchi ma'nosini bildiradi. "Sqarab ey" metodi talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini, xotirani, shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasini rivojlantirishiga xizmat qiladi. Bu metodni qo'llash jarayonida ta'lif oluvchilarning bilimlari sifati va darajasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvurlari ko'lamini aniqlash imkoniyati hosil bo'ladi. Shuningdek, bu metod turli g'oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalash, ular o'rtasidagi o'zaroblikliqni aniqlashda ham samarali sanaladi.

Uning yordamida talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, rivojlantirishga erishish mumkin: mustaqil ishlash; muloqotga erkin kirisha olish; xushfe'llik, o'zgalar fikrini hurmat qilish; faoliyk; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish; o'z-o'zini baholash.

Ushbu metoddan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalinish mumkin. Uni umumiy tazda quyidagi 4-sxema ko'rinishida ifodalash mumkin:

4-sxema

#### "Sqarabey" metodidan darsning turli bosqichlarida foydalinish maqsadlari sxemasi



Mazkur strategiya talaba tomonidan oson qabul qilinadi. Zero, u shaxsga xos fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

### “PINBORD” METODI

**Pinbord** - (inglizcha: “pin” – mustahkamlash, mahkamlab taqib, qadab qo‘yish “board” – yozuv taxtasi (doska) ma’nosini bildiradi) - munozara usullari yoki o‘quv suhabatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

“Pinbord” metodi bilimlarni mustahkamlash va yangi bilimlarni o‘rgatishga xizmat qiladi. Bu metod bo‘yicha mashg‘ulotda ishtirokchilarining vazifalari quyidagicha belgilanadi:

**Ta’lim beruvchi:**

- mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha hal etish lozim bo‘lgan muammoni yechishni taklif etadi;
- taklif etilgan muammoni yechish bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon qiladi;
- ta’lim oluvchilar bilan aqliy hujum mashg‘ulotini tashkil qiladi va boshqarib boradi.

**Ta’lim oluvchilar:**

- muammoni muhokama qiladilar, uning yechimi yuzasidan takliflar bildiradilar, o‘z g‘oyalarni asoslaydilar;
- bildirilgan g‘oyalardan eng ko‘p ma’qul bo‘lgan, samarali g‘oyalarni tanlaydilar va baholaydilar;

- tanlagan g‘oyalarni qog‘oz varag‘iga asosiy so‘zlar (2 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan) ko‘rinishida yozadilar va yozuv taxtasiga mahkamlaydilar.

**Guruh a’zolaridan** (ta’lim beruvchi tomonidan belgilangan) 2-3 talaba yozuv taxtasi oldiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

- xato deb hisoblangan yoki takrorlangan g‘oyalarni ajratadilar;
- bahsli tortishuvlarning to‘g‘ri yechimlarini aniqlaydilar;
- g‘oyalarning tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarini aniqlab tizimlashtiradilar;
- shu belgilar bo‘yicha hamma g‘oyalarni guruhlarga ajratib yozuv taxtasiga joyladilar (varaqlar yoki boshqa ko‘rinishda).

**Ta’lim beruvchi:**

- mavzu bo‘yicha muhokama jarayonidagi fikrlarni umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

**Pinbord metodi qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi**

Ishlar bosqichi va mazmuni	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Tayyorgarlik.	O'quv mashg'ulotida pinbord metodini qo'llash o'mini aniqlaydi, uning maqsadini shakllantiradi, muammoni va uni yechish bo'yicha taklif etilayotgan g'oyalarni baholash mezonlarini aniqlaydi.	
2-bosqich. Mavzuni yaxshi o'rganish.	Mavzu tuzilmasini aniqlaydi. Pinbord metodini tushuntiradi. O'zining fikrlarini aytadi va ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini aytishlarini taklif etadi. Munozara boshlanishini tezlatish uchun bir qator savollar beradi. Kuzatadi. Berilgan muammoni eslatadi va boshlashga ruxsat beradi	Har bir guruuh baholash va maqbul, samarali, oqilona g'oyalarmi qayd etib borishi uchun ekspert tanlaydi. Guruuh a'zolari hamkorlikda ishlashlari mumkin bo'lgan holda o'tiradilar.
3-bosqich. Umumlashtirish.	Maslahat, tavsiyalar beradi.	Munozara jarayonida ishlab chiqilgan, o'z fikrlarini, asosiy yakuniy xulosadek kichik qog'ozlarga yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.
4-bosqich. Yakuniy xulosani yozma bayon etish.	Jarayonni kuzatib va boshqarib boradi.	O'quv guruhiidan 2-3 vakillar boshqa ta'lim oluvchilar bilan maslahatlashib, ma'lumotni tizimlashtiradilar va mazmuniga ko'ra guruhlaydilar. Ko'rsatuvchi chiziqlar yoki boshqa belgilari yordamida ularning mosliklarini ko'rsatadilar.
5-bosqich. Yakunlash, tahlil qilish va baholash.	Yakunlarni umumlashtiradi, guruhlar ishini tahlil qiladi va baholaydi: ijobiy, ijodkorlikning yuqori darajasi holatlari, jamoaviy faoliyat muvaffaqiyatlarini ko'rsatadi.	O'z-o'zlarini baholaydilar.

## PARADOKSLAR METODI

*Xatolar aql beradi (L.N. Tolstoy)*

Pedagog ma'ruzani olib borish jarayonida talabalarning qarama-qarshilikka (tushunchalardagi, bilimlardagi) duch kelishlarini ta'minlaydi. Bunday vaziyat asosan talabaning tushunchalaridagi adashishlar va xatoliklar bilan bog'liq. Demak, bu muammoli vaziyat talabalarning oldingi fikr, tushunchalari va xulosalariga qarama-qarshi, paradoksal bo'lgan vaziyatdir.

Talabalar muammoli vaziyatni yuzaga keltirgan amallardagi xatolikni izlaydilar (lekin amaliarda xatolik yo'q)

Ijodiy fikrlay oladigan talaba amallarning bajarilishi jarayoni emas, balki mazkur amalning o'zi xato ekanligini aniqlay oladi (bunday talaba topilmasa, o'qituvchining o'zi buni oshkor qilishiga to'g'ri keladi).

Endi quyidagi sxemada Paradokslar metodini qo'llash qoidalari keltirib o'tamiz.

5 -sxema

### Paradokslar metodini qo'llash qoidalari

→ Talabalar bilimlarini faollashtirib olish zarur.

→ Paradoks obyekti sifatida olinayotgan jarayon haqida talabalarning o'zları to'g'ri deb hisoblagan fikrlari aslida xato bo'lishi kerak.

→ Talabalar muammoli vaziyatga o'zları duch kelishlari kerak va to'g'ri deb bilgan narsalarining xato bo'lib chiqqanidan tushunmovchilikda qolishlari (hayron bo'lislari) kerak. Bu o'ta muhim, chunki aynan shu sababli ular faol fikrlay boshlaydilar, xatoni topishga harakat qiladilar.

→ Paradoksni, qarama-qarshilikni qandaydir bir qiyinchiliklar bilan adashtirmaslik lozim.

*Paradokslar usuli* – bu avvaldan bilganlari bilan yangi bilimlar o'rtaсидаги ко'приkdir. Shu tarzda yangi bilimning avvaldan ma'lum bilim bilan o'zaro bog'lanishi va bu jarayonni his qilishga talabani «majbur» qilinishi uning xotirasida yangi bilimning mustahkamlanib qolishiga yordam beradi.

## **“KUNDALIK DAFTAR” METODI**

**Kundalik daftar yuritish metodi.** Guruhning har bir ahzosiga yon cho'ntak daftarchasi tarqatiladi. Unga, aytaylik, bir hafta davomida muhokama qilinadigan muammo bo'yicha tug'ilgan fikrlar qayd qilib boriladi. Barcha ishtirokchilarning yozib borgan fikrlari peshqadamlar tomonidan tahlil qilinib, tayyorlangan material oxirgi muhokamaga olib chiqiladi.

Bu metod quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, tug'ilgan g'oya, aniq ratsional taklif o'sha guruhning fikri darajasiga ko'tariladi, ikkinchidan, turli xildagi tortishuvlar, nuqtai nazarlar guruh majlisigacha hal qilinadi, keskinlashgan nuqtai nazarlar ham tekislanadi.

6-sxema

**“Kundalik daftar” metodi –** qo'yilgan muammoni hal etish variantlaridan uzoq muddat davomida ishlangan va chuqur o'ylangan eng yaxshisini baholash va tanlash imkonini beradi. Bu metodni quyidagi harakatlar algoritmiga muvofiq olib boriladi.

O'rganuvchilarning har biri, masalan bir hafta davomida, qo'yilgan muammoni hal etish bo'yicha barcha fikrlarini yozuv daftarchasiga kiritib boradi.

Guruh rahbari bilan yakka tartibdagи muzokara paytida barcha nuqtai nazarlar aniqlanadi va qat'iy tasdiqlashlar bartaraf etiladi.

Guruhda muzokara etish uchun “o'rtacha” fikr taqdim etiladi va guruh ishini taqdim etish uchun tayyorgarliklar ko'rildi.

O'quv mashg'uilotida guruhlar natijalari taqdim etiladi va muhokama qilinadi, muammoni hal etish bo'yicha jamoa fikri va aniq oqilona takliflar ishlab chiqiladi.

## “Kundalik daftар” metodi bosqichlari “AQLIY HUJUM” METODI

“Aqliy hujum” – inglizcha “*brain storming*” so‘zlaridan olingan bo‘lib, biror muammo bo‘yicha ishtirokchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalami to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. Bu metod aqliy faollikni qo‘zg’atadi, ijodiy va innovatsion jarayonlarni jadallashtiradi.

Bu metodning paydo bo‘lishi ikkinchi jahon urushida Yapon dengizida xizmat qilgan amerikalik mutaxassis A.Osborn bilan bog‘liq. Harbiy kemani qanday qilib torpedolardan himoya qilish mumkinligi masalasida kema kengashi o’tkaziladi. Kengash qoidasiga ko‘ra hamma – yungadan tortib kapitangacha har qanday, hatto xayoliy va amalga oshirib bo‘lmaydigan g‘oyalarni ham aytaversa bo‘ldi, har qanday takliflar yozib borildi.

Matroslardan biri shunday fikrni ilgari surdi: “Torpedoni sezib qolsam, men butun jamoani bortga tizardim-da, torpedoga qarab puflashni buyurardim”. G‘oyani eshitib, hamma kulib yubordi, lekin, shu g‘oyani ham yozib qo‘yildi. Muhoqama davomida bu g‘oya qayta ishlab chiqildi va suvning kuchli oqimidan foydalanishga qaror qilindi. Suv nasosdan otilayotgan oqim yordamida torpedoga urildi va u to‘xtatildi. Bir qarashda kulgili tuyulgan g‘oya masalani hal qildi-qo‘ydi.

50-yillarning oxiriga kelib amerikalik psixolog A.Osborn o‘zi ishlayotgan universitetda “Aqliy hujum” metodini kutilmagan g‘oya va takliflar to‘plash va murakkab bo‘lgan masalalarni yechish usuli sifatida targ‘ib qila boshladi.

Ijodiy faollikning va mahsuldarlikning stimulyatori hisoblangan «Aqliy hujum» metodi asosan yangi, original fikrlarning tug‘ilishiga qarshilik ko‘rsatuvchi tanqidiy muhitning yo‘qligi deb atalgan psixologik mexanizmga tayanadi. Bunday muhitda hech qanday fikr tanqid qilinmaydi, noto‘g‘ri fikr aytishdan qo‘rqilmaydi, hech kimning ustidan kulinmaydi.

Shunday qilib, “Aqliy hujum” metodi dastlab AQSh, Angliya, Fransiyada so‘ngra Yaponiyada ishlatildi. 70-yillardan boshlab Rossiya, 90-yillardan boshlab esa, O‘zbekistonda ishlatila boshlandi.

- “Aqliy hujum” metodini o’tkazishdan ko’zlangan *maqsadlar* quyidagilar:
- muammoni hal qilish uchun g’oyalarni chiqarish;
  - g’oyalarni ularning ahamiyatligiga qarab, tartiblash;
  - faol fikrlash malakasini shakkantirish;
  - kutilmagan g’oyalarning paydo bo‘lish jarayonini namoyish qilish;
  - topilgan g’oyalardan foydalanish ko’nikmasini shakkantirish.

“Aqliy hujum” metodini olib boruvchi ma’lum muammoni ilgari suradi va ishtirokchilardan bu muammoni hal qilish bo‘yicha qanday mulohazalari borilagini hamda ulardan eng kutilmagan fikrlarni ham ilgari surishlarini so’raydi. Bildirilayotgan barcha fikrlarni kotib tomonidan yozib boriladi. Aytilayotgan fikrlarga nisbatan hech qanday tanqidiy munosabat bildirmaydi va fikrlar oxirigacha yozib borilaveradi.

“Aqliy hujum”da quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

17. *G’oyalarning ilgari surilishi bosqichida tanqid (hatto hazil) taqiqlanadi.*
18. *Original, hatto fantastik g’oyalalar rag’batlantiriladi.*
19. *Barcha g’oyalalar yozib boriladi yoki audio yoki videoplyonkada qayd qilinadi.*
20. *Agar ma’qul topsa, muallifning o’zi ham yozib borishi mumkin.*
21. *“Aqliy hujum” metodi qatnashchilari hammasi bir-biri bilan yuridik va administrativ (ma’muriy) jihatdan mullaqo bog’liq bo‘imasligi zarur.*
22. *Tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g’oyalarni tahlil qiladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi.*

#### **“Aqliy hujum” metodini amalda tatbiq etish**

“Aqliy hujum” metodini amalda bevosita o’tkazishning namunaviy shartlarini keltiramiz. Masalan, ekranda hal etilishi zarur muammo, uni hal etishdan ko’zlanayotgan maqsadlar, tegishli reja, ishtirokchilar rivoja qilishi shart bo‘lgan qoidalalar aks ettiriladi.


Bu tadbirlarni amalga oshirishga 10 daqiqagacha vaqt talab qilinadi.

#### ***Muammoni qo'yish va uni tushuntirish***

Bu bosqichda asosiy rol “Aqliy hujum” metodini o’tkazuvchiga bog’liq bo‘ladi. U tashkilotchi va ijodkor bo‘lmog‘i lozim. Oldiniga u “Aqliy hujum” metodi ishtirokchilariga bir qancha muammolardan birini tanlashni taklif qiladi. Shu bilan birga tanlangan muammo mutaxassis-qatnashchilar uchun dolzarb, tanish, qiziqarli bo‘lmog‘i lozim.

### “Aqliy hujum” metodining asosiy qoidalari

“Ақлий ҳужум” методи



Agar bu qishloq xo'jalik fanlariga oid muammo bo'lsa, unda, masalan, o'quv jarayonida qishloq xo'jalik ekinlari agrotexnikasini yaxshilash va yuqori hosil olish muammosini o'rghanish mumkin. Shunda muammoni quyidagicha qo'yish maqsadga muvofiq:

1. "*O'zbekistonda sho'rlangan yerlardan qanday samarali foydalanish mumkin?*".

2. *Paxtachilikni rivojlantirish muammolari.*

3. *Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish masalasi.*

4. *Tuproq agrotexnikasini rivojlantirish muammolari va sh.k.*

Muammoni shakllantirish va ishtirokchilar tomonidan qabul qilinishi uchun tegishli omillarni hisobga olgan holda muammoning umumiy tahlilini amalga oshirish zarur bo'ladi:

– muammoning murakkabligi nimada;

– muammoning tasnifi, ya'ni ma'lum bir tipga aloqadorligi, noaniqlik darajasi va h.k.;

– murakkab savollarni aniqlashtirish;

– muammoning salbiy va ijobiy jihatlari (minuslari va pluslari);

– qabul qilinadigan qarorning bajarilishi imkoniyatlari.

Muammoning bunday tahlili muammo haqida tinglovchilarda tasavvur paydo qiladi va tinglovchilar muammoni hal qilish yo'llarini topishda qiyinalishmaydi.

*Generatsiya – eksperiment (razvedka) bosqichi*

Shunday qilib, "Aqliy hujum" metodini o'tkazish boshlanadi. Oldiniga g'oyalalar yaratilishining eksperiment (razvedka) bosqichi boshlanadi. Metodni o'tkazuvchi ilk g'oyalarni ilgari suradi, qoidalarga rioya qilinishini qat'iy nazorat qiladi, ayniqsa, tanqidga taalluqlisiga alohida e'tibor beradi. Generatorlarning g'oyalalarini 12-jadvalga mos holda to'ldiradi. Bu jarayon 5-7 daqiqa davom etadi.

*G'oyalarning generatorlari uchun*

Muammoni yozing: Masalan, "*O'zbekistonda sho'rlangan yerlardan qanday samarali foydalanish mumkin?*"

12-jadval

**Generatorlarning g'oyalalarini yozish shakli**

Muammoni hal qilish bo'yicha Sizning g'oyalaringiz	G'oyaning yangiligi nimada? Kutilayotgan qiyinchiliklar, o'ziga xos xususiyatlar, bajarishning taklif qilingan muddati. Sizning shaxsan qatnashadigan qismingiz, bajarish algoritmi. Kutiladigan natijalar	G'oya muallifining ismi, sharifi
--	--	----------------------------------

### *Bevosita generatsiya bosqichi*

Generatsiya – eksperiment (razvedka) bosqichi sekin-asta bevosita generatsiya bosqichiga o'tadi. Bunda endi har bir ishtirokchi o'zining original g'oyasini ilgari suradi. Maxsus assistent g'oyalarni qanday aytidayotgan bo'lsa, shundayligicha hech qanday sharhsiz yozib boradi.

Agar metodni o'tkazuvchi ishtirokchilarning yangi g'oyalarni ilgari surmay qo'yayotganini sezib qolsa, ularni ilgarigi fikrlarining aksini aytishga chorlash kerak bo'ladi. Shunda ularda «ikkinki nafas» ochiladi.

Bu bosqichning so'nggida (bu bosqich 20-30 daqiqa davom etadi) rahbar barchaga "Aqliy hujum"da qatnashganliklari uchun minnatdorchilik bildiradi.

### *Ishning sintez bosqichi*

Bu bosqichda tahlilchilar guruhi (3-5 odamdan iborat) 2-shakl bo'yicha to'plangan g'oyalarni yig'ib olib, ularni keyinchalik tahlil qilish uchun korzinkalarga joylashadi. Shundan so'ng barcha g'oyalalar tizimlashtiriladi, tasnif qilinadi, baholanadi va nisbatan muammoning yechilishiga yordam beradiganlarini alohida olib qo'yadilar.

### *Tanqidiy bosqich*

Bu bosqichda tahlilchilar ikkita guruhg'a bo'linadilar: tahlilchilar va tanqidchilar. Tanqidchilar ilgari surilgan g'oyalarni tanqid qiladilar va bunda generatorning shaxsini emas, balki g'oyalarning o'zini tanqid qilish zarur bo'ladi.

Shundan so'ng g'oyalalar uchta korzinaga tashlanadi:

1. Yangi, bemalol hayotga tatbiq qilsa bo'ladigan g'oyalalar.
2. Ma'lum g'oyalalar.
3. Keyinchalik tahlil qilish uchun saqlanadigan g'oyalalar.

Bu metodni o'tkazuvchilar tahlilchilarga doimiy konsultatsiyalar berib boradilar va reglamentni saqlashga harakat qiladilar (reglament 30 daqiqa). Tahlilchilar ... -jadvalga mos holdagi shaklni to'ldiradilar. Shunday qilib, yangi ma'lumot tizimi dunyoga keladi.

*Tahlilchilar uchun "Tahlilchilar guruhi"ning ismi-sharifi (asosiy tahlilchilarini ko'rsating)*

Ilgari surilgan g'oyalar bo'yicha kiritiladigan ma'lumotlar.

3. Miqdoriy ko'rsatkichlar: \_\_\_\_\_  
a) qatnashchilar miqdori \_\_\_\_\_  
b) g'oyalar miqdori \_\_\_\_\_

4. Sifat ko'rsatkichlari:

- a) yangi, hayotga tatbiq qilish mumkin bo'lgan g'oyalar;  
b) ma'lum g'oyalar;  
b) keyingi tahlil uchun "zahira g'oyalar".

5. Birinchi ikkita yo'nalishdagi g'oyalarni alohida belgilash va tahlil qilish zarur;

6. Muallifini ta'kidlagan holda nisbatan original g'oyalarni ajratish zarur (g'oyaning mazmunini qisqacha yozish zarur):  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

G'oyalarni umumlashtirish bo'yicha bosh tahlilchining ma'ruzasi.

Tahlilchilar guruhi 10 daqiqalik ma'ruba uchun bosh tahlilchini mustaqil holda tanlashadi. Ma'ruzaning taxminan quyidagi shakli taklif qilinadi. Miqdoriy ko'rsatkichlar:

4. Ishtirokchilar miqdori  
5. G'oyalar miqdori

Shulardan:

- Yangi va real g'oyalar
- Original g'oyalar
- Ma'lum g'oyalar
- Keraksiz g'oyalar

Birinchi korzinkadagi g'oyalarga alohida eotibor qaratiladi.

"Aqliy hujum" bo'yicha umumiylar xulosalarining chiqarilishi

"Aqliy hujum" metodini o'tkazuvchi g'oyalarni oldinga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda tahlil qiladi va mavjud bo'lgan eski g'oyalar bilan qiyoslaydi. Bundan tashqari, "Aqliy hujum"ni o'tkazish jarayoniga qisqacha baho beradi. Shu o'rinda natijaga alohida e'tibor qaratiladi, eng kelajagi bor g'oyalar real amaliy faoliyatda qo'llanishi ta'kidlanadi.

"Aqliy hujum" metodini har xil variantlarda amalga oshirish mumkin:

- ogzaki individual fikr bildirish. Bunda muallif va uning g'oyasi doskada muqarrar qayd qilinadi;  
– guruh bilan ishlash. Bunda jamoalarning guruhli g'oyalari qayd qilinadi;

“Aqliy hujum” metodi “G‘oyalar konferensiyasi” ko‘rinishida ham amalga oshirilishi mumkin;

“Aqliy hujum”ning yana bir ko‘rinishida mualliflarning o‘zlarini o‘z fikrlarini yozadilar va uni og‘zaki tushuntiradilar.

Xulosada shu narsani ta‘kidlamoqchimizki, “Aqliy hujum” metodi yangilik tuyg‘usi rivojlangan, intellektual ijod rag‘batlantiriladigan, g‘oyalarni haqiqatdan ham hayotga tatbiq etiladigan jamoadagina samara berishi mumkin.

Ma‘lumki, ba‘zi bir ishga taalluqli o‘yinlarda ma‘lum masalalarning muhokamasi paytida “Aqliy hujum”dan foydalilanildi. Shuning uchun pedagoglar “Aqliy hujum” metodini o‘yin jarayonida qo‘llash texnologiyasini iloji boricha mukammal o‘zlashtirib olishlari zarur.

### “YALPI FIKRIY HUJUM” METODI

*Aqlii bo‘lishning o‘zi kifoya emas,  
aqlni ishlata bilish kerak (Sitseron)*

“Yalpi fikriy hujum” metodi – biror muammo bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan bildirilgan yangi fikr va g‘oyalarni to‘plib, ular orasidan eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni tanlab olinadigan metoddir. Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi.

“Yalpi fikriy hujum” metodi J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan.


#### “Yalpi fikriy hujum” metodini amalda qo‘llash

“Yalpi fikriy hujum” metodini bir necha o‘n (20-60) nafar o‘quvchi-talabalardan iborat guruhlarda qo‘llash mumkin. Bunda avvalo, o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun guruhlar shakllantiriladi. Barcha ishtiroychilar 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa yoki muammolar bo‘yicha 15 daqiqa davomida “Fikrlar hujumi” o‘tkazadi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijodiy hal etilgach, bu haqda guruh a‘zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasidan eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatları ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

7-sxema

**"Yalpi fikriy hujum" metodining tuzilmasi**



Echimlar orasidan eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblar e'lon qilinadi



### Muhokama, tahlil va baholash

## “FIKRLARNING SHIDDATLI HUJUMI” METODI

*Sivilizatsiyaning buyuk vazifasi,  
odamni fikrlashga o'rgatishdir.*

*T.Edison*


“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi – jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va o'quvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan zid fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishga asoslangan metoddir. Bunda jamoa bo'lib g'oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va ularning fikrlariga zid g'oyalar qo'yiladi.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi **Y.A. Aleksandrov** tomonidan asoslangan hamda **G. Y. Bush** tomonidan qayta ishlangan.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo'nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatlari qo'llash mumkin.

Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagicha:

**"Fikrlarning shiddati hujumi" metodini amalda qo'llash bosqichlari**




“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodini qo'llash jarayonida quyidagi holatlari yuzaga keladi:

- o'quvchi-talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;
- vaqtini tejash;
- har bir o'quvchi-talabani faollikkaga undash;
- ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

9-sxema

### “Fikrlarning shiddatli hujumi” metodining tuzilmasi



## **"YASHIRIN FIKRLARNING SHIDDATLI HUJUMI" METODI**

Keyingi davrlarda « Yashirin fikrlarning shiddatli hujumi» shaklidagi metod keng rivojlanmoqda. Bu metodning kelib chiqish mohiyati shunday: har bir kishi ham ijodiy mehnat qila olmaydi, begona shaxslar oldida, ayniqsa, begona shaxslar bahsga aralashib turganda g'oyalar ishlab chiqqa olmaydi, lekin ularning g'oyalar ishlab chiqishga uquvlari bor, balki ular yolg'izlikka va sokinlikka muhtoj bo'ladiilar.


Shu tufayli «yashirin fikrlar hujumi»da ikki g'oya ishlab chiquvchi guruhcha; biri - odatdag'i fikrlarning shiddatli hujumi davomida g'oyani olg'a suruvchilar; ikkinchisi – yashirin, ya'n'i ular birinchi guruh muhokamalarida qatnashmaydilar, ular uchun «yashirin xona» tashkil etiladi va joylashtiriladi. Ular telemonitor vositasida birinchi guruhnинг bahslarini kuzatadilar hamda yuzaga kelgan g'oyalarni o'z daftarchalariga yozib boradilar va ularni «ekspert»larga uzatadilar.

### **“6x6x6” METODI**

Bu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchi-talabani muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalanı hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. “6x6x6” metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta ga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi (10-sxemaga qarang).

10-sxema

### **“6x6x6” metodida ishtirokchilarning joylashuvi**



Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni tarqatib, ulardan qayta 6 ta guruh tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruh tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida

taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni bиргаликда muhokama qiladilar.

“6x6x6” metodining afzal jihatlari quyidagilardir:

- *guruhlarning har bir a'zosini faol bo'lishga undaydi;*
- *ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;*
- *guruhnинг boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;*
- *ilgari surilayotgan bir necha fikri umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rnatadi.*

Eng muhimmi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglevchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o'quvchi-talabadan iborat bo'lган bir nechta guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlari о'rtasida “6x6x6” metodi qo'llanilganda vaqtini ko'paytirishga to'g'ri keldi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlari tomonidan bir yoki bir nechta mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

“6x6x6” metodidan ta'lim jarayonida foydalinish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantirishga olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

*“6x6x6” metodi yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:*

5. *O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo'yib chiqadi.*

6. *O'quvchi-talabalar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadi. O'quvchi-talabalarni guruhlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob'ekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalaridan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi-talaba o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.*

7. *O'quvchi-talabalar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.*

10. *O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinnlarda guruh*

*a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriglarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng, guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.*

*11. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchi-talabalar o'z o'rinalarini almashtirib olganlaridan so'ng, belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlarga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakunty xulosaga keladilar.*

## **“QARORLAR SHAJARASI” METODI**


*„hizni qanday hayot kechirishimiz qabul qiladigan qarorimizga bog'liq (Rokfeller)*

**“Qarorlar shajarasi”** metodi – muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarda har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir nechta xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvlar imkoniyatini yaratuvchi metoddir.

Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

O'quvchi-talabalar guruhi ishtirokida qo'llaniladigan "Qarorlar shajarasi" bir necha o'n nafar o'quvchi-talabalarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchi-talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talabalar quyidagi -sxema asosida tuzilgan jadvalni to'ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar).

**“Qarorlar shajarası” metodi sxemasi**



“Qarorlar shajarası” metodi quyidagi shartlar asosida qo’llaniladi:

- 1. O’qituvchi mashg’ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mazvuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.*
- 2. O’qituvchi o’quvchi-talabalarni 4 yoki 6 nafardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi va bu borada eng maqbul qaror qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.*
- 3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a’zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batasil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzal va afzal bo’lmagan jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a’zolari bir to’xtamga kelib oладilar.*
- 4. Munozara uchun ajrailgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a’zolari o’z guruhining qarori to’g’risida axborot beradilar. Zarur hollarda o’qituvchi rahbarligida barcha o’quvchi-talabalar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.*

Muammoga oid tegishlichqa qarorlar borasida savollar yuzaga kelsa, ularga tegishlichqa javob qaytariladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agar barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga keltingan bo’lsa, o’qituvchi buning sababini izohlaydi.

“Qarorlar shajarası” metodining o’ziga xos jihat shundan iboratki, bu metod bevosita ma'lum loyiha asosida qo’llaniladi. Mazkur loyiha quyidagi ko’rinishga ega:


**"Qarorlar shajarasi" metodini o'llash loyihasi**

"QARORLAR ShAJARASI" metodi					
UMUMIY MUAMMO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror:					

**"TAJRIBA VOSITASIDA O'QITISH SIKLI"****(D. KOLB G'OYASI) METODI**

Mazkur metod quyidagi sxemada aks ettirilgan to'rt omil asosiga quriladi:

12-sxema

**"Tajriba vositasida o'qitish sikli" metodining asosiy omillari**

Ushbu sxemada qayd etilgan omillarning har biri o'qituvchi va ta'lif oluvchilar uchun muayyan shior (g'oya)larga asoslanadi. Chunonchi:

**1. Reflektiv kuzatish.**

*O'qituvchi uchun shior:* o'quvchi-talabalar uchun mashq (topshiriq)lar mazmunini tanqidiy o'rganish va ular ustida fikr yuritish imkonini beruvchi sharoitni yarating.

*O'quvchi-talabalar uchun shior:* o'qituvchi taklif qilgan mashq (topshiriq)lar mazmunini tanqidiy o'rganing va ular ustida fikr yuriting.

**2. Nazariy bilimlarni o'rgatish.**

*O'qituvchi uchun shior:* o'quvchi-talabalarga zarur nazariy bilimlarni bering.

*O'quvchi-talabalar uchun shior:* o'qituvchi taklif qilgan zarur nazariy bilimlarni o'zlashtiring.

**3. Abstrakt xulosalash, konseptuallash.**

*O'qituvchi uchun shior:* muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish va xulosalash uchun sharoit yarating.

*O'quvchi-talabalar uchun shior:* o'qituvchi ko'rsatgan muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtiring va xulosalang.

**4. Faol tajriba olib borishga tayyorlash.**

*O'qituvchi uchun shior:* o'quvchi-talabalarga mukammal shakllangan, ayni vaqtda yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo'lgan mashq (topshiriq)larni ishlab chiqish imkonini bering.

*O'quvchi-talabalar uchun shior:* mukammal shakllangan, ayni vaqtda yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo'lgan mashq (topshiriq)larni ishlab chiqing.

**5. Aniq tajriba o'tkazish.**

*O'qituvchi uchun shior:* o'quvchi-talabalarga yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o'tkazish va faoliyatda undan foydalanishni o'rgating.

*O'quvchi-talabalar uchun shior:* yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o'tkazing va faoliyatda undan foydalaning

## **"QORA QUTI" METODI**

Ta'lif jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchi-talabalar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiyl tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

*Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:*

– o'quvchi-talabalar justlikka birikiriladi;

– juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h.k.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi:

- o'qituvchi o'qirvchi-talabalar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;
- o'quvchi-talabalar yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar qanday ma'noni anglatishini aytadilar);
- to'g'ri javob bergan talaba-o'quvchi o'qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi shakl, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

### **“BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI, ...) ORTIQCHA” METODI**

Ushbu metod o'quvchi-talabalarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nkmalariga ega bo'lishlarida alohida ahamiyatga ega. *Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:*

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) tushunchaning o'rinn olishiga erishish;
- o'quvchi-talabalarga mavzuga taalluqli bo'lman tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchi-talabalarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchi-talabalardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish o'quvchi-talabalarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarni asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zar qoqoslash ko'nkmalarini ham shakllantiradi.

### **“3/3” (“4/4”, “5/5”, ...) METODI**

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o'quvchi-talabalardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob)

yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etidi.

Unga ko'ra, o'qituvchi mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan uchta (to'rtta, beshta va hokazo) to'g'ri va unga teng nisbatda (uchta, to'rtta, beshta) bo'Igan va noo'rin qo'llanilgan tushunchalar (so'zlar, belgilari, tasvirlar va boshqalar)dan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchi-talabalar ushbu tizimdan mavzu (bo'lim, bob)ga taalluqli bo'limgan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzu (bo'lim, bob)ga oid va oid bo'limgan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchi-talabalar mavzu (bo'lim, bob)ga oid va oid bo'limgan aso-siy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'limgan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchi-talabalar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchi-talabalar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

### **“RASMLARNI TO‘G‘RI JOYLASHTIRING” METODI**

Kichik guruhlarda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobjiy natijalarni kafolatlaydi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

– o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar to'plamlari tayyorlanadi. Bu kartochkalarning bir tomonida mavzuning mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi tushunchani ifoda etgan tasvirlar yoki boshqa belgilari aks ettirilgan bo'ladi. Shu tasvir yoki belgining ma'nosiga mos ravishda har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzuning mohiyatini yorituvchi “yadro” tushunchaning bittidan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi. Mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi har bir “yadro” tushunchaga bag'ishlangan bunday kartochkalarning to'plamlari kichik guruhlar soniga teng sonda tayyorlanadi;

– har bir guruha maxsus kartochkalarning bitta “yadro” tushunchaga tegishli to'liq to'lami alohida topshiriladi va kartochkalarni ulardag'i tushunchalarga asosan, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

– guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

Agar topshiriq guruhlar tomonidan to'g'ri bajarilgan bo'lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o'girilganda mavzuning mohiyatini yorituvchi "yadro" tushuncha hosil bo'ladi.

Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o'quvchi-talabalar mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'rganish va qismlar o'tasidagi mantiqiy bog'liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

### **"QIZIL VA YASHIL RANGLI KARTOCHKALAR BILAN ISHLASH" METODI**

O'quvchi-talabalar bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metodni qo'llash nihoyatda qulay. Bu metoddan mashg'ulotlar so'nggida mavzuni mustahkamlashga oid **tezkor savol-javobni tashkil etishda** foydalanish mumkin. Bunda tezkorlikni ta'minlash uchun odatda, "ha" yoki "yo'q" deb javob berish mumkin bo'lgan savollardan foydalilanadi. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo'llaniladi:

– *o'qituvchi tomonidan qizil va yashil rangli kartochkalar ishtiroychilar soniga muvoziq tayyorlanib, ularga tarqatiladi.*

– *tezkor savol-javobni tashkil etishda o'qituvchi savollarni birma-bir e'lon qilib boradi. Bunda bitta savolni e'lon qilinganda o'quvchi-talabalar "ha" yoki "yo'q" degan javobni bildirish uchun tegishlicha tartibda yashil yoki qizil rangli kartochkalardan tegishlisini ko'tarib javob beradilar. Bu usul darsda shovqin bo'lmasligiga hamda bir vaqtida guruhdagи barcha o'quvchi-talabalarning o'zlashtirish darajasini bilishga imkon beradi. O'qituvchi to'g'ri va noto'g'ri javoblarni sanab belgilaydi va keyingi savolni e'lon qiladi hamda javoblarni sanab belgilab boradi.*

*O'qituvchi to'g'ri va noto'g'ri javoblarning nisbatini aniqlash orqali guruhdagи o'quvchi-talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasini bilish va tegishli choralarни ko'rish imkoniga ega bo'ladi.*

Maktab, akademik litsey, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida "Iqtisodiy nazariya" va "Iqtisodiy bilim asoslari" fanlari bo'yicha tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash" metodini qo'llashda o'quvchi-talabalarga quyidagi savollarni berish mumkin.

1. *Inson ehtiyojlarini qondirish uchun unga turli xil ne'matlar (resurslar) zarur bo'ladimi?*

2. *Havo, suv, quyosh nuri va issiqligi, shuningdek, foydali qazilmalarni inson kuchi bilan hosil qilish mumkinmi?*

3. *Inson mehnati, uning tomonidan tashkil etilayotgan iqtisodiy faoliyatning mahsuli mahsulot deb ataladimi?*

- Mahsulotlar faqat moddiy ne'matlardangina iboratmi?*
- Xizmat ko'rsatishning muayyan ko'rinishi mahsulot bo'la oladimi?*
- Moddiy ne'mat yaratmaydigan, biroq natijasi insonlar ehtiyojini qondirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat xizmatlar deb ataladimi?*
- Mahsulot ishlab chiqarish uchun iqtisodiy resurslar (xomashyo, insonning jismoni va aqliy kuchi, turli mexanizm, mashina va asbob-usku-nalar, ishlab chiqarish korxonalarining bo'lishi shartmi?*
- Iqtisodiy resurslar miqdorining "cheklangan deb hisoblanishi" to'g'rimi?*
- Jamiyatda iqtisodiy cheklanganlik muammosi mavjudmi?*
- Iqtisodiy cheklanganlik muammosining iqtisodiyotning asosiy (bosh, yetakchi) muammosi deb hisoblanishi to'g'rimi?*

### **“VIDEOTOPISHMOQ” METODI**

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot-kommunikatsiya vositalari (kompyuter, monitor doska, proektor, multimedia materiallari, televidenie, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audiomagnitofonlar) yordamida ta'lif jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lif jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinci va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchi-talabalarga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasvirlay yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta video lavha namoyish etiladi;
- o'quvchi-talabalar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlarga qayd etadilar;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.

### **“YUMALOQLANGAN QOR” METODI**

Ushbu metod ham mavzuni muayyan qismlarga bo'lgan holda o'zlashtirish imkonini beradi hamda o'quvchi-talabalarda guruh bo'lib va juftlikda ishlash ko'nkmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- tasvirli kartochkalar tayyorlanadi;
- ularning orqa tomoniga mavzuni o'zlashtirishga oid o'n beshta variantdan iborat topshiriqlar yoziladi;
- o'quvchi-talabalar ikki yoki uch guruhga bo'linadilar (guruhlarni hosil qilishda tasvirli kartochkalardan foydalaniлади);
- har bir guruh a'zolari bir nechta juftliklarga biriktiriladi;
- har bir juftlik bir variantdagи topshiriqni bajaradi;

*—jarayon yakunida umumiy xulosalar chiqariladi.*

“Yumaloqlangan qor” metodidan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish nihoyatda qulay.

### **“DUMALOVCHI QOR UYUMI” METODI**

Dumalovchi qor uyumi metodi o‘quv mashg‘uloti o‘tkazish metodining ramziy nomi bo‘lib, ish qo‘yilgan muammo ustida mulohaza yuritib ko‘rish uchun talabalariga vaqt, tegishli manbalar, tarqatma materiallar berishdan boshlanadi. Bu metod guruhning har bir a‘zosiga butun guruhning bilimlari va tajribalaridan foydalanib, o‘zining keng qamrovli nuqtai nazarini bayon etishni nazarda tutadi. Buning uchun talabalar 4 ta kichik guruhlarga ajratiladi. Muhokama qilib chiqish uchun barcha guruhlarga bitta topshiriq beriladi.

Har bir kichik guruh topshiriq ustida alohida ishlaydi. So‘ngra birinchi bilan ikkinchi va uchinchi bilan to‘rtinchi guruhlar muammo ustida birgalikda muhokama yuritishadi. Oxir oqibatda barcha kichik guruhlar birlashib, butun yaxlit guruh bo‘lib qo‘yilgan muammo yechimini hal etishning turli yo‘llarini, variantlarini muhokama qilishadi. Bunday muhokama jarayonida talabalarning qo‘yilgan muammo yuzasidan bilimlari chuqurlashib, oydinlashib, boyib, kengqamrovli bo‘lib boradi.

### **“QOR BO‘RON” METODI**

Ikkiga ajratilgan guruh talabalari bir muammo yuzasidan eng ko‘p to‘g‘ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to‘g‘ri javob yumaloqlangan qor ko‘rinishida o‘scha guruh hisobiga yozib qo‘yiladi; to‘plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo‘lishi mumkin. Guruhlar qo‘yilgan muammoni ma‘lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma‘lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

### **“ZAKOVATLI ZUKKO” METODI**

“Zakovatli zukko” metodi o‘quvchi-talabalarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchi-talabalarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlari egaliklari muhim ahamiyatga ega.

Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchi-talabalar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi

tomonidan berilgan savollarga tez (qisqa vaqt davomida) to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi.

Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o'quvchi-talabalarning tafakkur tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi o'quvchi-talabalarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Metod o'quvchi-talabalar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

### **"QARAMA-QARSHI MUNOSABAT" METODI**

Bu metod o'z mohiyatiga qo'ra o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma'lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- *mavzuning umumiylar mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;*
- *ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;*
- *tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo'lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;*
- *jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo'lgan, 2-ustuniga muhim bo'lmagan tushunchalar yoziladi;*
- *kichik guruhlarni shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;*
- *jamoaning umumiylar filriga muvofiq bo'lgan yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.*

O'quvchi-talabalar faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ularga mavzu bo'yicha quyidagi 14 va 15-jadvallarni to'ldirishni taklif etish maqsadga muvofiq:

1. Yakka tartibda ishlash jarayonida foydalananish uchun:

14-jadval

#### **Mavzu bo'yicha tushunchalarni saralash jadvali**

<b>Mavzuning ahamiyati</b>		<b>Muhim bo'lmagan tushunchalar</b>	
<b>Nº</b>	<b>Muhim tushunchalar</b>	<b>Nº</b>	<b>Muhim bo'lmagan tushunchalar</b>
1.		1.	
2.		2.	
3.		3.	
4.		4.	
...		...	

2. Jamoa asosida ishlash jarayoni uchun:

**Mavzuning ahamiyatini tahlil qilish jadvali**

<b>Mavzuning ahamiyati</b>		
<b>Nº</b>	<b>Jamiyatning ijtimoiy (ijtisodiy, madaniy) hayotdagi roli</b>	<b>Shaxs hayotdagi roli</b>
1.		
2.		
3.		
4.		
...		

**“ZIG-ZAG” YOKI “BOSHQALARNI O’QITISH” METODI**

Bu metod talaba-o‘quvchilar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. *O‘qırchi-talabalarda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllanadi;*

2. *Mavzuni o‘zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi*

*“Zig-zag” metodining qo‘llanish qoidasi quyidagicha:*

*1-bosqich. Kichik guruhlar tashkil etiladi.*

*2-bosqich. Har bir guruh ishtirokchilariga 1, 2, 3 raqamlari yozilgan qog‘ozlar (topshiriqlar soniga qarab) tarqatiladi.*

*3-bosqich. Har bir guruhdagi ishtirokchilar alohida stol atrofida birlashadi. Buni shartli ravishda (1,1,1,1), (2,2,2,2), (3,3,3,3) ko‘rinishida ifodalash mumkin. Uushbu guruhlarning har biriga alohida topshiriqlar beriladi (misol uchun 1-guruhga darsning metodik tahlili, 2-guruhga ilmiy, 3-guruhga didaktik tahlili).*

*4-bosqich. Guruh ishtirokchilari belgilangan vaqt oralig‘ida beril-gan tahlil turlarini puxta o‘rganadilar va har bir ishtirokchi “o‘qituvchi” darajasiga ko‘tariladi.*

*5-bosqich. Har bir ishtirokchi avvalgi o‘rniga qaytadi va o‘zining puxta o‘rganib kelgan materialini (dars tahlili turini) sheriklariga galma-galdan tushuntirishi kerak. Mana shu tartibda dars tahlili turlari talabalar tomonidan mustaqil o‘rganiladi. Va bu ishlarning taqdimoti o‘tkaziladi.*

*Dars tahlilining qaysi turi bo‘yicha taqdimot qilish o‘qituvchi tomonidan belgilanadi, ya‘ni guruhlar taqdimot qilib beradilar. Har bir guruhlar taqdimotini golgan guruhlar baholaydi.*

*Baholash mezonini maksimal – 10 ball. Shundan tahlil mazmuni uchun – 6 ball, taqdimot sifati uchun – 2 ball, ijodiy yondashuv uchun – 2 ball bo'lib, guruh o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.*

### **“AJURLI ARRA” METODI**

“Ajurli arra” (fransuzcha “*ajour*” so‘zidan olingen bo‘lib, “*bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq*” degan ma’noni anglatadi) metodi- yaxlit mavzuni bir necha qisimlarga ajratgan holda mazmunini yoritish asosida ta’lim oluvchilarning puxta o‘zlashtirishi, o‘z bilimlarini boshqalarga yetkazib berish imkoniga ega bo‘lishi ta’minlanadi.

Ushbu metodni F.Slatin tomonidan ishlab chiqilgan (1986 y.)

“Ajurli arra” metodi tuzilishi jihatidan o‘zida quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

*Topshiriqni bo‘lish: topshiriq va matnli materiallar bir necha asosiy qismlarga (yoki) mavzulariga qirqiladi.*

*Birlamchi guruhlar: har bir guruh a’zolari qirqilgan mavzuni oladi va ekspertga aylanadi.*

7. Guruhlarga axborotli paketlar taraqatiladi, har qaysi guruh turli xil materiallar to'plamini olishlari va ularni muhokama qilishi, aynan ana shu axborotlar bo'yicha ekspertiga aylanishi lozim. O'quv materiallari bo'yicha "ekspert" bo'lishi uchun o'quvchi-talabalarda vaqt yetarli bo'lishi zarur. Agar materiallarni murakkab va katta bo'lsa, bir dars jarayoni to'liq talab qilinadi.

8. O'quvchi-talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

I. paketdagi materiallarni qunt bilan o'rGANING va muhokama qiling;

II. bir-biringizdan so'rang, materiallarni har biringiz tushunib olganingizga ishonch hosil qiling;


III. o'z "uyingiz" guruhida o'qitish zarurligini hisobga olib, materialning muhim o'quv unsurlariga e'tiborni qarating.

9. O'quvchi-talabalarning o'z "uylariga" qaytishlarini iltimos qiling. Har biri o'z "uyi" guruhiga axborot beradi. Shak-shubhasiz, "uy" guruhida ekspert guruhidan I ta o'quvchi-talaba bo'lishi shart. O'rganib kelgan o'quvchi-talaba materiallarni o'z guruhni o'quvchi-talabalariga o'rgatish javobgarligini bo'yniga oladi. Bu jarayon o'quv materiallarining o'zlashtirilishi zarurligiga qarab, yana bir soat davom etishi mumkin.

"Ajurli arra" strategiyasining texnologik modelini quyidagi 13-sxema shaklida ifodalash mumkin:

13-sxema

#### "Ajurli arra" strategiyasining texnologik modeli sxemasi



#### YELPIG'ICH (VEER) METODI

Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, ko'pincha muammoli xarak-terga ega bo'lgan mavzularni o'rGANISHGA qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, unda mavzuning barcha jihatlari (masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari, boshqa fazilatlari) to'g'risida bir yo'la sharh

beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida belgilanadi va tegishlicha muhokama etiladi.

Bu interfaol metod o'quvchi-talabalarda tanqidiy, tahliliy, aniq, mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatlari rivojlanishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Yelpig'ich metodi umumiy mavzuning ayrim jihatlarini alohida muhokama qiluvchi kichik guruhlarning hamda har bir ishtirokchining va shu bilan birga, butun guruhnинг faol ishlashini tashkil qilishga yo'naltirilgan.

Yelpig'ich metodini mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llash mumkin:

- *boshlanishida*: o'quvchi-talabalarining bilimlarini erkin saollashitish;
- *mavzuni o'rganish jarayonida*: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- *yakunlash bosqichida*: olingen bilimlarni tartibga solish.

Bu metodni qo'llashda mavzu bo'yicha quyidagi asosiy tushunchalar o'rganiladi:

- *mavzuga tegishli tushunchalar, nuqtai nazarlar, predmet, hodisalar*;
- *afzallik – biror narsa bilan qiyoslagandagi ustunlik, imtiyoz*;
- *nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuwofiqlik*;
- *fazilat – ijobiy sifatlar*;
- *xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish*.

Yelpig'ich metodi ta'lim maqsadidan tashqari tarbiyaviy xarakterdagи quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini ham beradi:

- *jamoa, guruhlarda ishlash mahorati*;
- *muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazzardan muhokama qilish mahorati*;
- *murosali qarorlarni topa olish mahorati*;
- *o'zgalar fikriga hurmat*;
- *xushmuomalalik*;
- *ishga ijobiy yondashish*;
- *faollik*;
- *muammoga diqqatini jamlay olish mahoratini shakllantirish va mustahkamlash*.

## “SINKVEYN” METODI

“Sinkveyn” metodi – mashg’ulot mavzusiga doir axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g’oyalarni, his-tuyg’ularni, tasavvurlarni bir nechta so’zlar vositasida aniq va qisqa bayon qilishni o’rgatish imkoniyatini beruvchi interfaol ta’lim metodidir.

J.Still, K.Mereds, CH.Temil tomonidan ishlab chiqilgan.

“Sinkveyn” atamasi fransuzcha “*besh qatordan iborat*” she’r ma’nosini bildiradi.

“Sinkveyn” metodi “O’qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi”da ko’zda tutilgan har bir ta’lim oluvchining fikrlash faoliyigini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan metoddir. Sinkveyn bu – “*besh qatordan iborat*” o’ziga xos qofiyasiz she’r bo’lib, u biror voqeа munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan axborot va materiallarning qisqa ifodalarda sintezlanishini talab etadi.

Sinkveyn ko’rinishidagi she’rda mashg’ulot mavzusi va unga doir o’rganilayotgan tushuncha, hodisa, voqeа haqidagi axborotni o’quvchi-talaba so’zi bilan umumilashtirilgan holda turli variantlarda va turli nuqtai nazarlar orqali ifodalanadi. Hozirda sinkveyn yozishning muayyan tartibi shakllangan.

*Sinkveynni yozib chiqish qoidasi quyidagicha:*

1. Birinchi qatorda bir so’z bilan mavzu yoki muammo yoziladi (odatda, ot turkumiga oid so’z bilan).

2. Ikkinci qatorda mavzu yoki muammo ikki so’z bilan tavsif qilinadi (sifat turkumiga oid ikki so’z bilan).

3. Uchinchi qatorda ushbu mavzu yoki muammo bo'yicha xatti-ha-rakatlar uch so’z bilan tavsif etiladi.

4. To’rtinchi qatorda bir so’z bilan ifodalangan mavzu yoki muam-moga aloqadorlikni ko’rsatuvchi to’rt so’zdan iborat hissiyotni ifo-dalovchi gap (ibora) tuziladi;

5. Beshinchi qatorda mavzuning mohiyatini takrorlovchi bir so’zdan iborat sinonim yoki mohiyatining yangicha ifodasi yoziladi:

Amaliyotda sinkveyn:

- *murakkab axborotni sintezlash quroli;*
- *o’quvchi-talabalar tushuncha zaxirasini baholash vositasi;*
- *fikri ijodiy ifodalash vositasi sifatida juda foydalidir.*

Sinkveyn tushunchalar va axborotlari refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor, ayni zamonda qudratli quroq hisoblanadi.<sup>10</sup>

Agar sinkveyn ma'lum bir mavzu o'rganilgandan so'ng tuzilsa, uning asosiy xususiyatlari, mohiyati tushunilib, yakunlanadi. Sinkveyn materiallar ustida o'yashga, murakkab axborotni sintezlashga yordam beradi. Ijodiy ishslash imkoniyati kelib chiqadi.

"Sinkveyn" metodini nisbatan adabiyot, falsafa, tarix va boshqa shunga o'xshash fanlarda qo'llash osonroq. Sababi, ularning sifati va harakati bilan bog'lovchi sinonim so'zlarni topish oson. Iqtisodiy fanlarda esa, kategoriyalarning sinonimini topish qiyinroq. Lekin uni boshqacha usullar bilan qo'llasa bo'ladi. Ana shu qiyinchilik uni qo'llashning qiziqarli bo'lishiga olib keladi.

"Sinkveyn" metodidan iqtisodiy kategoriyalarni o'rganishda foydalanishni quyidagi misol yordamida ko'rish mumkin.

*"Sinkveyn" metodini amalda tatbiq etishga misol:*

6. Nom (ot) **Kollej**
7. Tavsifi (2 ta sifat) **katta, chirovli**
8. Harakat (3 ta fe'l) **o'qitadi, o'rgatadi, tarbivalaydi**
9. Mavzuga tegishli gap (4 ta so'z) **tadqiqot ilm fan maskani**
10. Sinonim (1 ta so'z) **bilimgoh.**

**Vazifa:** "Fermer" mavzusi bo'yicha fikrlaringizni sinkveyn ko'rinishida bayon eting.

1. Nom (ot) \_\_\_\_\_
2. Tavsifi (2 ta sifat) \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_,
3. Harakat (3 ta fe'l) \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_
4. Mavzuga tegishli gap (4 ta so'z) \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_
5. Sinonim (1 ta so'z) \_\_\_\_\_

## **FIKR, SABAB, MISOL, UMUMLASHTIRISH (FSMU) METODI**

**FSMU metodining tavsifi:** Bu metod mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo'yicha talabalar o'z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko'rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o'rgatish va mashq qildirish metodidir.

<sup>10</sup> Qarang: Azizxodjayeva. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: 2006, 39-45-betlar.

Bu metod talabalarni erkin fikrlashga, o'z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va o'zlashtirish darajasini aniqlashga, baholashga o'rgatadi.

**FSMU metodining umumiy sxemasi:**

**F-**fikringizni bayon eting;

**S-**fikringizni asoslovchi **sabab** ko'rsating;

**M-**ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi **misol** keltiring;

**U-** fikringizni **umumlashtiring**.

**FSMU metodini amalda qo'llash namunasi:**

O'qituvchi quyidagiga o'xshagan vazifalar yozilgan tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab, mashg'ulot vaqtida kichik guruhlarga yoki alohida talabalarga tarqatadi.

**I-vazifa.** “Ta'lif texnologiyasi o'zini oqlaydi” mavzusi yuzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon eting.

**F-** \_\_\_\_\_

**S-** \_\_\_\_\_

**M-** \_\_\_\_\_

**U-** \_\_\_\_\_

**2-vazifa.** “Madaniy o'simliklarning begona o'tlar bilan munosabati” mavzusi yuzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon eting.

**F-** \_\_\_\_\_

**S-** \_\_\_\_\_

**M-** \_\_\_\_\_

**U-** \_\_\_\_\_

O'qituvchi vazifani bajarish uchun vaqtini belgilab e'lon qiladi. Vazifalarni bajarish vaqtida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Talabalar o'zlariga berilgan vazifani bajarib bo'lgandan so'ng, ulaming umumiy muhokamasini tashkil qiladi. Vazifani eng yaxshi bajarganlar rag'batlantiriladi.

**“REZYUME” METODI**

**“Rezyume” metodining tavsifi:** Bu metod mavzu bilan bog'liq turli masalalar bo'yicha bir yo'la yakuniy axborotni, odatda, xulosalarni belgilash

mashqlarini o'z ichiga oladi. Masalan, bu metod orqali tegishli masalalarga doir ijobiy va salbiy jihatlar, afzallik va kamchiliklar, foyda va zararlar belgilanadi.

**"Rezyume" metodining maqsadi:** o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini topishga, kerakli xulosalarga kelish va qarorlar qabul qilishga o'rgatish hisoblanadi.

**"Rezyume" metodini amalda qo'llash shakliga misol:**

O'qituvchi quyidagiga o'xshagan vazifalar yozilgan tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab, mashg'ulot vaqtida kichik guruhiarga yoki alohida talabalarga tarqatadi.

16-jadval

**"Rezyume" metodini amalda qo'llash uchun tarqatma  
materiallar namunalari**

a)

Mavzu: "Mevalarni qayta ishslash texnologiyasi"	
Afzalliklari	Kamchiliklari

Mavzu: "Tuproqqa ishlov berish mashinalarining turlari, vazifasi va ishlatalishi"	
Afzalliklari	Kamchiliklari

b)

O'qituvchi vazifani bajarish uchun vaqtini belgilab e'lon qiladi. Vazifalarni bajarish vaqtida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Talabalar o'zlariga berilgan vazifani bajarib bo'lgandan so'ng, ularning umumiy muhokamasini tashkil qiladi. Vazifani eng yaxshi bajarganlar rag'batlantiriladi.

**"QALIN VA INGICHKA SAVOLLAR" METODI**

Bu metod "Qalin" va "ingichka" savollar metodi deb atalishining sababi quyidagicha. Ta'lif jarayonida savollardan foydalanishda ularni ikki turga: oddiy va murakkab savollarga ajratish qabul qilingan. Bunda oddiy savollar "ha" yoki "yo'q" yoxud boshqa birorta so'zlar bilan javob berish mumkin bo'lgan savollardan iborat. ularni boshqachasiga qisqa yoki ixcham, obrazli qilib esa, ingichka savollar deb ham atash mumkin. Murakkab savollar ularga birnechta

so'zlar, iboralar, gaplar yoki tegishlicha bayon qilish, tushuntirish bilan javob berish lozim bo'lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga to'liq yoki yoyiq, obrazli qilib esa, qalin savollar deb atash ham mumkin.

Shunga ko'ra ushbu "Qalin" va "ingichka" savollar metodining nomini boshqachasiga "To'liq" va "qisqa" yoki "Yoyiq" va "ixcham" savollar metodi deb ham atash mumkin. Bu metoddan o'quvchi-talabalarining o'zlashtirishini tezkor nazorat qilish hamda faoliyklarini oshirish maqsadlarida mashg'ulotning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Buning uchun o'qituvchi darsning mavzusiga tegishli "Qalin" va "ingichka" savollar jadvalini (17-jadval) oldindan tuzib olishi kerak.

Bunday jadvaldagagi savollardan darsning uchta bosqichlaridan boshlanish (chaqiruv) bosqichida – mavzuni o'rganilgunicha savollar; anglab yetish bosqichida – o'qish, eshitish jarayonidagi o'rganilayotgan ma'lumotlarni faol qayd etishga, fikrlashga yordam beruvchi savollar; o'tilgan mavzuni mustahkamlash bosqichida – darsdagi ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq o'zlashtirilganligini nazorat qilish hamda ularni takrorlashga yo'naltirilgan savollardan foydalanish mumkin.

17-jadval

### "Qalin" va "ingichka" savollar jadvali namunasi

"Ingichka" savollar	"Qalin" savollar
<p>Bitta so'zdan iborat javob berish mumkin bo'lgan savollar, reproduktiv reja savollar. Masalan:</p> <p>Kim? so'rog'i bo'lgan savol: «Jinoyatchi» hikoyasining muallifi kim?</p> <p>Shuningdek, quyidagilarga o'xshagan so'roqlar ishtirok etgan savollar:</p> <p>Nima?</p> <p>Qachon?</p> <p>qanday ataladi?</p> <p>sodir bo'ldimi? va boshqalar.</p>	<p>Fikrlashni, qo'shimcha bilimlarni jaib qilishni, tahsil qila bilishni talab etadigan savollar. Masalan:</p> <p>Uchta tushuncha bering, nima uchun ...?</p> <p>Tushuntirib bering, nima uchun ...?</p> <p>Nima deb o'ylaysiz ...?</p> <p>Nima deb hisoblaysiz ...?</p> <p>o'rtasidagi farq nimada?</p> <p>Faraz qiling, agar ... nima sodir bo'ladi?</p> <p>Agar ... ?</p> <p>qanday qilish mumkin?</p> <p>nima qilsa bo'ladi?</p> <p>mumkin edimi?</p> <p>nima uchun?</p> <p>sababi nimada?</p> <p>qanday ro'y beradi? va boshqalar.</p>

### "BLIS-SO'ROV" METODI

"Blis-so'rov" ("blis" (inglizcha) - tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq, lo'nda va tez javob qaytarishga o'rgatishni mashq qilish metodi sanaladi. Ta'llim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli

mashg'ulot turi, o'rganilayotgan mavzuning murakkabligi, talabalarning qamrab olinishiga ko'ra belgilanadi.

Mashg'ulotlarda "Blis-so'rov" metodini qo'llash namunasi quyidagi 14-sxemada keltirilgan.

14-sxema

#### **"Blis-so'rov" metodini amalga oshirish sxemasi namunasi**

O'qituvchi o'rganilgan mavzu va uning muayyan tarkibiy qismi mohiyatini ochib berishni talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o'quvchi-talabalar e'tiboriga havola qiladi

O'quvchi-talabalar berilgan savolga qisqa vaqtida aniq, lo'nda javob qaytarishlari talab etiladi.

Guruh yoki juftlikda ishlashda bir nafar talaba berilgan savolga javob qaytaradi uning guruhdoshlari yoki sherigi javobni to'ldirishlari mumkin, lekin, fikrlar takrorlanmasligi lozim.

Bu metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

#### **"DEBAT" METODI**

"Debat" (fr. "debattre" so'zidan olingan bo'lib, "debats" – "bahslashmoq") metodi mashg'ulotlarda, shuningdek, turli yig'ilish, majlislarda biror mavzu yuzasidan ishtirokchilar o'rtaida o'zaro babs uyushtirish, ularning o'zaro fikr almashishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Debatlar" metodi Qadimgi Gresiyada yaratilgan bo'lib, ular demokratianing muhim elementi sifatida namoyon bo'lgan. Afina fuqarolaroli taqdim etilayotgan qonunlarning afzal tomonlari va kamchiliklari haqida tortishib, masalani yaxshi tushunish uchun uni turli tomondan tahlil qilishar, shu bilan birga, tahlil qilib babs qilishga o'rganar edilar. O'rta asrlarda Yevropa ta'lim tizimi tarkibida nutq so'zlash mahorati va debatlar darslari mavjud bo'lgan. Hozirgi vaqtida debatlar butun dunyo maktablarida va universitetlarda o'tkazilmoqda.

Debatni o'tkazishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- 1-debatlar ko‘p narsaga o‘rgatadi,
- 2-chin dillik va vijdonlilik majburiyati,
- 3- hurmat va ehtirom ko‘rsatish.

Debatda ishtirok etish natijasida ta’lim oluvchilarda muammoni aniqlash va ajratish qobiliyati, dalillar va fikrlarni aniqlash mahorati, tanqidiy fikr yuritish, muhim bo‘lgan ma’lumotni muhim bo‘lmagan ma’lumotdan ajratish, sabab va uning bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlariga baho berish, xulosa chiqarish, muammolarni ajratish va samarali yechim topish malakalari, o‘zining fikr yuritishiga, tafakkur jarayoniga baho berish ko‘nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati, nutq so‘zlash madaniyati shakllanadi. O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalariga tayanib, biz malaka oshirish jarayonida debat o‘tkazish tartibini ishlab chiqdik.

## 18-jadval


### “Debat”ni o‘tkazish tartibi

<b>Debatning maqsad va vazifalari</b>	Debatlar qarama-qarshi nuqtai nazarlarning to‘qnashuvidir. Uning maqsadi - ishtirokchilarda intellektual, mantiqiylar fikrlash malakasini shakllantirish, o‘zgacha fikrni inobatga olmasdan xulosa chiqarish noto‘g‘ri qaror qabul qilishga olib kelishi mumkinligini isbotlashdan iborat. O‘yin sifatida debatlarda tanqidiy fikr yuritish, tanqidiy tafakkur, tadqiqiy va tashkiliy malakalar, eshitish, yozma qayd qilish malakalari shakllanadi.
<b>Debatni tayyor-lash va o‘tkazish tartibi</b>	1. Debat ishtirokchilari uchun qiziqish uyg‘otuvchi mavzu yoki g‘oya aniqlangach, debatning mavzusi tasdiqlovchi ma’nodagi fikr bilan ifodalanishi kerak. Masalan: «Davlat har bir bolaga ta’lim berishi kerak» yoki «Yagona jahon hukumati zarurdir» kabi. Debatning mavzusi siyosiy, huquqiy, qadr-qimmat mavzularida bo‘lishi mumkin. 2. Debatda ikkita jamoa ishtirok etadi. Birinchi jamoa-tasdiqlovchi tomon sifatida, ikkinchi jamoa - qarshi tomon sifatida. Ishtirok etuvchilardan tasdiqlovchi tomonning so‘zga chiquvchilari, ya’ni spikerlarini T1, T2, T3; qarshi tomonning so‘zga chiquvchilari, ya’ni spikerlarini K1, K2, K3 deb shartli ravishda belgilash mumkin.
<b>Debatning o‘tkazilishi</b>	Debat metodini qo’llashda eng asosiy ish ishtirokchilarni tanlab olish bo‘lib, bunda har bir ishtirokchini debat jarayoni bilim orttirishga mo‘ljallangan dastur ekanligiga ishontirish lozim; ma’muriyat tomonidan ko‘mak olish, ya’ni tadbirlarni o‘tkazish jarayonida rahbariyatning ishtirok etishini ta’minlash kerak. Shu bilan birga, jamoa ishini to‘g‘ri tashkil qilish va jamoa tartibini saqlab turish, jamoaning har bir a’zosi o‘z vazifasini to‘liq tushunishiga erishish lozim.

<b>Debatning mazmuni</b>	Debatlar fikrni isbotlashga asoslangan bo'lib, ishtirokchilardan auditoriya e'tiborini jalb qilish uchun kutilmagan statistik ma'lumot yoki misollar keltirish orqali e'tibor qozonish talab etiladi.
<b>Debatning davomiyligi</b>	Debatda mavzu oldindan e'lon qilinishi va mavzuni yoritish uchun vaqt hisobga olingan bo'lishi lozim. Malaka oshirish kurslarida tashkil etiladigan debatlarning davomiyligi 1 soatdan 3 soatgacha belgilanishi mumkin. Undan ortiq vaqt davom etgan debat kutilgan natijalarni bermaydi.
<b>Nazorat shakli va baholash</b>	Hakamlar har ikkila jamoaning keltirgan faktlarini tinglagach, hakamlik jadvalini to'ldiradilar va debat natijasida qaysi jamoaga afzallik berilganligi haqidagi hakamlar qarorini yozib qo'yadilar.

15-sxema

### O'quv mashg'ulotlarida debat metodini qo'llash sxemasi



Hozirda debatlarning quyidagi shakkiali amaliyotda turli jarayonlarda qo'llaniladi:

*Amerikacha munozara* (debat). Bunday tarzda dars o'tishda ikki talaba belgilangan qat'iy tartib bo'yicha, munozaraga raislik qiluvchining rahbarligi ostida berilgan savol yoki muammo bo'yicha munozara olib boradilar. Ularning bildirgan fikrlarini hakamlar jamoasi baholaydi. Hakamlar jamoasining tarkibi talabalardan belgilanadi.

*Ingлизча munozara* (debat). Munozaraning bu shaklida muhokama qilinayotgan muammo yechimiga yetkaziladi.

*Ochiq munozara* (debat). Qo'yilgan muammoni belgilangan qoida bo'yicha muhokama qilinib, uning debat natijasidagi yechimini qabul qilish yoki qilmaslikni

mashg'ulot rahbariga, agar debat yig'ilish, majlisda o'tkazilgan bo'lsa, uning yuqori bo'g'iniga, rahbariyatiga topshirish bilan yakunlanadi.

### **"MANTIQIY ChALKASH ZANJIR" METODI**

Bu metod tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtaida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beruvchi ta'lif strategiyasidan iborat. Uning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bu metodni qo'llashda mashg'ulot mavzusini yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri hamda noto'g'ri tartibda, o'ziga xos chalkashlikda bayon etadi.

Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni "ulash"dan iborat. Bu metodni mashg'ulotda qo'llash quyidagi 16-sxemada ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi:

16-sxema

#### **"Mantiqiy chalkash zanjir" metodini amalda qo'llash sxemasi**

O'qituvchi ta'lif oluvchilarini strategiyaning mohiyati bilan tanishtiradi

Ta'lif oluvchilar bir nechta kichik guruhlarga biriktiriladi

Kichik guruhlarga chalkash ma'lumotlarni o'zida  
ifodalagan tarqatma materiallar beriladi

Topshiriqlarni bajarish uchun vaqt hajmi (5 daqiqa) belgilanadi

Kichik guruh tarqatma materialda ifodalangan matndagi mantiqiy xato  
va chalkashliklarni aniqlab, uzilgan zanjirni "ulash"ga harakat qiladi

Belgilangan vaqt yakunlangach, har bir guruhdan bir nafar vakil jamoani topshiriq  
mazmuni va guruhnинг javoblari bilan tanishtiradi

Jamoada guruhlarning javoblari yuzasidan muhokama tashkil etiladi

O'qituvchi jamoaning fikriga tayanih guruhlar ishini baholaydi

Masalan, "Ta'lif metodlari" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazilayapti, deylik. Dastlab o'qituvchi doskaga ta'lif metodlarini chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi (18-jadval). So'ngra, talabalardan mazkur

metodlarning har birini qaysi guruhgaga kirishiga qarab, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

18-jadval

**"Ta'lif metodlari" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot uchun didaktik material namunasi**

- |                        |                         |
|------------------------|-------------------------|
| 1. Mashq               | 7. Suhbat               |
| 2. Hikoya              | 8. Tushuntirish         |
| 3. Videometod          | 9. Ma'ruza              |
| 4. Munozara            | 10. Kitob bilan ishlash |
| 5. Didaktik o'yinlar   | 11. Ekskursiya          |
| 6. Laboratoriya metodi | 12. Namoyish            |

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy
2, 4, 7, 8, 9	3, 10, 12	1, 5, 6, 11

*Izoh:* o'qituvchi talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash uchun topshiriq mazmunini biroz o'zgartirgan holda har bir talabaga alohida topshiriq berishi mumkin..

**"MUAMMOLI VAZIYAT" METODI**

*Inson yengib o'tishi o'ta muhim bo'lgan muammolarga to'qnash kelgandagina fikrlab, tafakkur qila boshlaydi. Shuning uchun to'g'ri tashkil qilingan talim muammoli bo'lmog'i zarur. (J.Dyu)*

Muammoli vaziyat metodining mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib, uning asosida mashg'ulotni tashkil qilish va olib borishda foydalilanligidan didaktik ziddiyatlar yetadi. Muammoli vaziyat metodi konsepsiyasining asosiy tushunchalari "muammoli vaziyat" "muammo", "muammoni topish", "muammoni yechish", "ziddiyatlar", "usullar" kabilar hisoblanadi. "Muammoli vaziyat" metodining dastlabki bosqichi muammoli vaziyatni aniqlash hisoblanib, o'zida o'rganilayotgan mavzuga doir ma'lum yoki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi.


Uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar, harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida muammoni hal etish bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich

ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, u albatta, muammoli vaziyat yechimini topa olmaydi, ya'ni muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. O'quvchitalabalar muammoli vaziyatni qabul qilishlari (tushunib yetishlari) bilanoq o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi hamda fikrlash asosida muammoning mohiyatini har taraflama to'liq tushunib yetish, uning asosiy bog'liqliklarini belgilash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish va uni to'g'ri ifodalash jarayoni boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat hal etilishi lozim bo'lgan muammoga aylanadi. Bunday bog'liqlikdan ko'rinish turadiki, har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi, biroq barcha muammoli vaziyatlar muammoga aylanavermaydi.

Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li, shu bilan birga o'qish, o'rganish, yangi bilim, ko'nikma, malakalar hosil qilish yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi 17-sxema yordamida ifodalash mumkin:

17-sxema

### Muammoli vaziyat metodining tuzilmasi



Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'naliishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimining qandaydir parametrlari ko'rsatilsa, u o'rganilayotgan mavzuga doir ma'lum yoki qisman tushunib yetilgan muammoli masala hisoblanadi.

Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni va unga tegishli muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatkichlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

19-jadval

#### Muammoli vaziyat metodi ishtirokchilarining faoliyatini tuzilmasi

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
O'quv materialiga oid muammoli vaziyatlarni belgilash va o'quvchi-talabalarga hosal etish uchun taklif etish; muammoli vaziyatlarni tuzish; muammoning mavjudligini aniqlab berish; -muammoli topshiriqlarni loyihalash.	O'quv materiali mohiyatini anglab yetish va topshiriqni bajarish; muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash; mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash; muammoli masalani tahlil qilish, yechimini aniqlash; topshiriqni bajarish.

#### *"Muammoli vaziyat" metodini amalga oshirishbosqichlari:*

##### O'qituvchi:

1. "Muammoli vaziyat" metodi asosida ishlash yo'llarini tushuntiradi va tarqatma materiallarni tarqatadi.
2. Muammoli vaziyatning foydali va muammoli tomonlari ko'rib chiqiladi.
3. Haqiqiy muammo tanlab olinib va o'qituvchi ko'rsatmasi bilan kichik guruhlarga bo'linishlari iltimos qilinadi.
4. Har bir guruhga ma'lum bir muammoni belgilab beradi.
5. Guruhlar o'z fikrlarini yozma ravishda bayon etishlari uqtiriladi, himoya qilishlari tashkil etiladi.
6. O'qituvchi O'quvchi-talabalarning fikr-mulohazalarini taxlil etadi, natijani belgilaydi.

##### O'quvchi-talabalar:

1. "Muammoli vaziyat" metodi asosida ishlash yo'llarini tushunib oladilar.
  2. Muammoli vaziyatning foydali va muammoli tomonlarini tahlil etadilar.
  3. Haqiqiy muammoni tanlab olib va o'qituvchi ko'rsatmasi bilan kichik guruhlarga bo'linadilar.
  4. Har bir guruh ma'lum bir muammoni tanlab oladi.
  5. Guruhlar o'z fikrlarini yozma ravishda bayon etadilar va himoyaga chiqadilar.
  6. Fikr-mulohazalarni tahlil etadilar va natijani qo'liga kiritadilar.
- Kutiladigan natija: Talabalar "Muammoli vaziyat" metodini amaliyotga ttabiq etishni o'rGANADILAR.

#### **"TRAMK REJASI" NOMLI TA'LIM SHAKLIGA ASOSLANGAN METOD**

“Tramk rejasi” metodi AQShda juda mashhur. Bu o‘qitish shakllarining shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg‘ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg‘ulotlar bilan qo‘sib olib boriladi.

*“Tramk rejasi” XX asrning 60-yillarida amerikalik pedagog Lyuyd Tramk tomonidan asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra mashg‘ulotlarni katta (100-150 nafar kishilik) auditoriyada, 10-15 kishidan iborat guruhlarda yoki o‘quvchilarining har biri bilan yakka tatribdagи ishlarni olib borish asosida tashkil etiladi.*

Zamonaviy texnika vositalari yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o‘qituvchilar, professorlar ma’ruza o‘qiydilar. 10-15 kishidan iborat kichik guruhlarda esa, ma’ruza materiallarini muhokama qiladilar, babs yuritadilar. Yakka tartibdagи ishlarni esa, maktab kabinetlarida, laboratoriyalarda o‘tkaziladi.

O‘quv vaqtı ma’ruza mashg‘ulotlarga 40%, kichik guruhlardagi mashg‘ulotlarga 20%, kabinet va laboratoriyalarda yakka tartibdagи ishlarga 40% ajratiladi. Odatdagи sinf tushunchasi yo‘q, kichik guruhlar ham doimiy emas.

### **“IKKI QISMLI KUNDALIK DAFTAR” METODI**

*“Ikki qismli kundalik daftar” metodi o‘quvchilarga matn mazmunini o‘z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog‘lash, o‘zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradigan metod hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchilar qandaydir katta matnni uyda, o‘quv auditoriyasidan tashqarida o‘qib chiqish topshirig‘ini olishganida ikki qismli kundalik daftarlari foydalidir.*

Ikki qismli kundalik daftar uchun o‘quvchilar toza (yozilmagan) qog‘oz varag‘ining o‘rtasidan tik chiziq o‘tkazib, uni ikki qismga ajratishlari kerak. Kog‘ozning chap tomonida matnning qaysi qismi ularga eng ko‘p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg‘otar yoki hayotlarida yuz bergen voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg‘otar.

O‘ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu sitatani yozishga ularni nima narsa majbur etdi? Ularda qanday fikrlar uyg‘otdi? Shu munosabat bilan ularda qanday savol tug‘ildi? Qisqasi, matnni o‘qirkan, o‘quvchilar vaqtiga bilan to‘xtashlari va o‘zlarining ikki qismli kundalik daftarlarda tegishli belgilari qo‘yib borishlari kerak.

## “LOYIHA” METODI

Ta'lim tizimida “Loyiha” metodi turli fanlar bo'yicha o'quv loyihalarini amalga oshirish jarayoniga xizmat qiladi. O'quv loyihasi - o'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlashi, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirishi va tashkil etishidan to uni hal etish yo'lini taqdim etishigacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

*Loyiha (proekt)* –ba'zi murakkab ishlasmalarini yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Shu bilan birga, loyiha tushunchasining kengroq ifodalanishi ma'lum natija (loyihadan ko'zda tutiladigan yuqori natija)ga erishish uchun maqsadli tashkil etiladigan faoliyat ma'nolarini bildiradi.

*Loyihalashtirish* - («loyiha» so'zidan) – muammoni xal etish bo'yicha real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga olgan faoliyatni anglatadi.



*Loyihalash* – boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat jarayoni mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

*Loyihalash* “g'oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish, bashoratlash – rejalashtirish” tizimiga asoslanadi. Loyihalash moddiy buyum, qurollar, masalan: kompyuter texnologiyasi yoki oddiy ish qog'oz, chizg'ich, qalam, marker, nusxa ko'chirish apparati (printer) va boshqa vositalar, yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o'quv materiali mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- talabaning bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

### **"ROTATSIYA" METODI**

Rotatsiya so'zi almashtirish ma'nosini bildiradi.

Rotatsiya metodi mashg'ulot mavzusini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi va yozganlarini butun guruh jamoa bo'lib tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-dars mavzusi bo'yicha nomerlangan topshiriqlar (masalan, rejadagi mavzuchalar) plakatlarga yozilib doskaga osib qo'yiladi;

-topshiriqlar soni uchta bo'lsa, talaba-o'quvchilar ham shuncha kichik guruhlarga ajratiladi va guruhchalar nomerlanadi;

-kichik guruhlar o'zlarining nomerlariga mos nomerdagi topshiriqnini va uni bajarishda foydalaniladigan yozma ma'lumotlar paketini oladi;

-kichik guruhlar o'zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o'rganib, topshiriqqa o'z javoblarini yozadilar;

-javoblar kichik guruhdagi husnixati chiroyli bir talaba o'quvchi tomonidan yoziladi;

-topshiriqlarga yozilgan javoblar varag'i, ma'lumotlar paketi kichik guruhlararo almashtiriladi va qo'shimchalar qilinadi, biroq javoblarining takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi;

-javoblar qaysi kichik guruhniki ekanligi ajralib turishi uchun ularga har xil rangdagi flamasterlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek kichik guruhlar nomerlanib, ular o'zlarining javoblarini shu nomer ostida yozishlari ham mumkin;

-javoblar yozilgan varaqlar doskadagi osig'liq plakatlarga skotch bilan yopishtirilib, o'qituvchi ishtirokida muhokama qilinadi, umumlashtiriladi va to'g'ri javoblar daftarlarga yozib olinadi;

-to'g'ri va mukammal javoblar soniga qarab talaba-o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

## **“AKVARIUM” METODI**

Akvarium metodi o‘quvchi-talabalarda fikrlash, tinglash, kuzatish, baholash, o‘z fikrlarini bayon qilish va himoya qilish qobiliyatlarini mustahkamlash va rivojlantirish imkonini beradi. Bu metodni amalga oshirishda guruh a‘zolaridan uch nafar talaba ajratib olinib, ularga xona o‘rtasidagi stol atrofiga o‘tirishlari va qo‘yilgan muammoni o‘n minutgacha vaqt davomida birgalikda muhokama qilib, yakuniy fikrlarini bildirishlari so‘raladi.

Bu uch nafar talabalarini akvariumdagи baliqlarga qiyos qilinadi. Ularning atrosida o‘tirgan kuzatuvchi talabalar o‘rtadagi, ya‘ni akvariumdagи talabalarining fikrlarini diqqat bilan tinglab, ularni to‘g‘ri va noto‘g‘riga ajratib yozib borishadi hamda muhokama paytida o‘zlarining qarashlarini bayon etishadi.

Yetarli darajada fikr bildira olmagan o‘rtadagi, ya‘ni akvariumdagи talabalar o‘z o‘rinlarini kuchli fikr bildirgan kuzatuvchi talabarg‘a bo‘shatib beradilar. Har bir muammo yuzasidan bildirilgan fikrlar talabalar ishtirokida o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

## **“SINEKTIKA” METODI**

“Sinektika” metodini 1960 yilda AQShda U.Gordon tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metod ta’lim oluvchilarga muammoning unsurlarini ifodalashga, ijodning bosh maqsadini ajratib olishga, turli xil xarakterdagi vazifalarni yechishning har xil variantlarini izlashga yordam beradi va ular quyidagi shaklga ega bo‘ladi: bevosita (ma‘lum bir vazifaning yechilishiga o‘xshatib yechiladi), shaxsiy (ob‘ektdagi berilgan vazifa obraziga kirishga urinib ko‘rish va shu nuqtai nazardan fikrlashga harakat qilib ko‘rish), ramziy (ikki jumla bilan vazifaning obrazli mohiyatini aytib berish), xayoliy (go‘yoki ertaklardagidek mazmun va tuzilishga ega bo‘lgan vazifani yechadilar).

Bu bilan bo‘lgusi mutaxassislarda abstraksiyalash malakasi, muhokama mazmunidan o‘zini fikran olib qochish, aql yuritish moyilligi, xayilot, bahslarga kirishib keta olish, bog‘lanib qolish havfi bo‘lgan g‘oyalardan uzoqlashish, boshqalar fikrini tinglash, safdoshi bildirgan g‘oyalarga nisbatan chidamli bo‘lish, odatdagilar ichidan g‘ayri odatiylarini, g‘ayri odatiylar ichidan odatdagilarini topish, o‘xshashliklar (analogiyalar)dan unumli foydalanish kabi sinektik fikrlashga bo‘lgan qobiliyat shakllanadi.

Bu metod amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun qulay bo‘lib, «aqliy hujum» metodiga yaqin. Bunda talaba darsda qo‘yilgan muammoni hal qilish yuzasidan o‘xshashliklarga asoslangan holda

o‘z fikrlarini, qarashlarini olg‘a suradi. Bunda o‘xshashliklar bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo‘lishi mumkin.

### **“DUMALOQ STOL” METODI**

“Dumaloq stol” metodi amaliy mashg‘ulotlar uchun qulay. Bunda o‘qituvchi tomonidan bitta savol yozilgan varaq kichik guruhga taqdim etiladi. Talabalar o‘zlarining ism-shariflarini va savolga javoblarini yozib, varaqni yonidagi talabaga uzatadi. Shu tariqa yozilgan javoblar yig‘ishtirib olinib, talabalar ishtirokida noto‘g‘rilari o‘chirib chiqiladi va natijalar baholanadi.

### **“RUCHKA STOL USTIDA” METODI**

“Ruchka stol ustida” metodi amaliy mashg‘ulot uchun qulay. O‘qituvchi tomonidan berilgan savol yozilgan varaqda o‘zining shu savolga javob variantini yozgan kichik guruhdagi talaba ruchkasini stol ustiga qo‘yib varaqni yonidagi sherigiga uzatadi. Savolga javob yoza olmagan talaba ruchkasini stolga qo‘ymaydi. Bir nechta kichik guruhlardagi talabalarning qo‘yilgan bir xil savolga javoblari yig‘ishtirib olinib birlgilikda muhokama qilinadi.

Bu metodning afzalliklari: o‘qituvchi mashg‘ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko‘rib turadi; mashg‘ulotga tayyorlanmagan talaba og‘zaki muhokama paytida ko‘rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar oladi; bu metod kichik guruhda olib boriladigan ish bo‘lib, talabalarning intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o‘zining javob varianti ustida uzoq o‘ylab o‘tiradigan talaba butun guruhga ajratilgan vaqtini sarflab yuboradi. Shuningdek, talaba mashg‘ulotga tayyor bo‘lmasa, bunda ham guruhga pand beradi. Talabalar o‘z javoblarini ikki marta, ya’ni yozma javob yozish paytida va og‘zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

### **“BUMERANG” METODI**

*Boshqalarni o‘qitib, o‘zimiz ham o‘rganamiz  
Seneka*

“Bumerang” metodi -ta’lim oluvchilarni mashg‘ulot jarayonida, mashg‘ulotdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, fikrini erkin holda bayon etish, bir dars davomida barcha ta’lim oluvchilarni ishlatalish va baholashga qaratilgan metoddir. Yangi mavzuni yoki materialni o‘rganish jarayonida bu metoddan foydalanish maqsadga muvofiq.

**“Bumerang” metodidan foydalanish tartibi**

<b>1-bosqich</b>	Ta'lim oluvchilar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linadilar.
<b>2-bosqich</b>	O'qituvchi guruhnинг har bir a'zosiga mustaqil o'rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun yangi mavzu bo'yicha tarqatma material beradi. Tarqatma material umumiylar mavzuning bir qismini tashkil qildigan matndan yoki jadvaldan iborat bo'lib, guruhnинг barcha a'zolariga bir xil mazmunda berilishi kerak. Demak, yangi mavzu oldindan tashkil etiladigan guruhlar soniga qarab 4 yoki 5 qismga bo'linishi lozim.
<b>3-bosqich</b>	Guruhnинг har bir a'zosi matnni yakka tartibda o'rganib chiqib eslab qolishi, keyin esa, guruh a'zolari matnni o'zaro savol-javob asosida guruhda muhokama qilishlari kerak. Matnning kattakichikligiga qarab bu ishga 10 minutgacha vaqt ajratiladi.
<b>4-bosqich</b>	O'qituvchi har bir guruh yoniga kelib, guruh a'zolariga oldindan tayyorlangan, raqam yozilgan qog'ozlardan bittadan olishni taklif etadi (qog'oz soni guruhdagi ta'lim oluvchilar soniga teng bo'lishi kerak, 1 raqamini olganlar 1-guruh, 2 raqamini olganlar 2-guruh va hokazo). O'qituvchi raqamlar bo'yicha yangi guruhlar tuzishni taklif etadi.
<b>5-bosqich</b>	Yangi tuzilgan guruhnинг har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifani: ham o'qituvchi, ham o'quvchi vazifasini oladi. Ya'ni guruhnинг har bir a'zosi oldingi guruhda o'zi o'rganib chiqqan matn mazmunini yangi guruh a'zolariga o'rgatishi va o'z navbatida guruhnинг boshqa a'zolaridagi matnlarni ham o'zlashtirib olishi talab etiladi. Bunda har bir ishtirokchi o'zi o'zlashtirgan materialni so'zlab berish orqali boshqalarga o'rgatishi kerak. Buning uchun 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Natijada, raqamlar bo'yicha tuzilgan yangi guruhlar mavzu bo'yicha barcha materiallarni o'zlashtirishga erishadilar.
<b>6-bosqich</b>	Matn qanday o'zlashtirilganini tekshirish uchun o'qituvchi guruh a'zolariga o'z matnlaridan kelib chiqib bir-birlariga savol berish orqali guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi. Bu guruhdagilarning bir-birlariga so'zlab bergen materiallarni qanday o'zlashtirilganini aniqlashga va mustahkamlashga yordam beradi
<b>7-bosqich</b>	O'qituvchi ishtirokchilardan oldingi guruhlariga qaytishlarini so'raydi va hamma dastlabki guruhiga qaytadi.
<b>8-bosqich</b>	O'qituvchi barcha ishtirokchilarning mavzuga oid hamma material bilan tanishib chiqqanligini hisobga olib, nazorat savollarini reyting

	ballari asosida baholaydi. Agar savollarga berilgan javoblar to'liq bo'lsa –3 ball, qo'shimcha qilinsa-2 ball, o'tirgan joyida luqma tashlasa-1 ball, javob berolmasa-0 ball qo'yiladi. Guruh a'zolarining javoblarini belgilash va hisoblab borish uchun mas'ul tayinlanadi.
<b>9-bosqich</b>	O'qituvchi tarqatma materiallardagi savollar asosida guruhlarning o'zlashtirishini tekshirib chiqadi.
<b>10-bosqich</b>	Bu bosqichda har bir guruhga o'z materiali asosida yangidan 3 ta savol tuzish taklif etiladi.
<b>11-bosqich</b>	Bu bosqichda guruhlar bir-birlariga tuzgan savollarini beradi va berilgan javoblar yuqoridagi tartibda hisoblanadi. Agar boshqa guruhlar savolga to'g'ri javob bera olmasa, guruh javobni to'ldiradi va qo'shimcha ballga ega bo'ladi.
<b>12-bosqich</b>	Yakuniy bosqichda guruhlar to'plagan ballar hisoblanib, guruh a'zolari soniga bo'linadi. Ballarni taqsimlashda guruh a'zolarining ham fikri inobatga olinadi.

### **"GALEREYANI AYLANISH" METODI**

Kichik guruhlarning barcha a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir kichik guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan guruh ularni baholaydi va tugal bo'lmasa, o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlarning fikrlari umumlashtirilib, eng yuqori ballga arziyidigan to'g'ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

### **"SINDIKAT" METODI**

Guruh uchta kichik guruhlarga bo'linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilishi zarur. Masalan, uch no'malumli uchta tenglamalar sistemasini yechish topshirig'i berilgan bo'lsin, u holda birinchi guruh masalani Gauss, ikkinchi guruh Kramer, uchinchi guruh matritsa usulidan foydalanib yechadi. So'ngra yechimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

### **"DAVRALAR" METODI**

Talabalar davra qurib o'tirib taklif etilgan savolni ketma-ket emas, balki bilganlar galma-gal izohlab berishadi. Bunda har bir talaba o'z fikrini bayon qilib, muhokamaga foydali ulush qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki barcha qatnashchilarning fikrlarini bilish muhim. So'zga chiquvchilarning gaplariga munosabat bildirish hech kimga, jumladan

o'qituvchiga ham ruxsat etilmaydi. Oxirida hammaga ularning ishtirot etganliklari uchun tashakkur bildiriladi va fikrlar umumlashtiriladi. Davra metodidan darsning boshi va oxirida foydalanish qulay.

### **"MOJARO" METODI**

Bu metod amaliy mashg'ulotlar uchun qulay. Odatdan tashqari, hattoki favquloddagi vaziyatlarda qilinadigan hatti-harakatlarni talabalarga o'rgatish maqsadida bu metoddan foydalaniladi. Masalan, tug'ayotgan sigirming buzog'i teskari keldi, yurak to'xtash arafasida, nima chora ko'rish kerak va hokazo. Bunday muammolarni hal qilish yo'llarini o'rganishda mojaro metodidan foydalanilsa, talaba-o'quvchilarning fikrlari faollashib, qisqa vaqt ichida to'g'ri qaror qabul qilish, ishni to'la, tez va chaqqon bajarish sifatlari shakllanadi.

### **"MUNOZARA" METODI**

Munozara (disput) - bu ikki yoki ko'proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og'zaki olib boriladigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Disputning mavzusi uni o'tkazishdan oldin tayyorgarlik ko'rish uchun talaba-o'quvchilarga ma'lum qilinadi.

Talaba-o'quvchilarga bilim berishga mo'ljallangan disputda kamida bitta rais va ikki guruhning har biridan bir nafardan so'zlovchi qatnashadi. Disputni ochuvchi birinchi talaba qo'yilgan taklifni ma'qullab chiqsa, ikkinchisi unga qarshi chiqadi, ya'ni opponent bo'ladi.

So'zlovchilarga 10 minutdan, har ikki guruhdan ikkitadan ortiq bo'limgan qo'shimcha qilishga chiqadigan talabalarining har biriga 5 minutdan vaqt beriladi. Ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi. So'zga chiquvchilarining barchasi raisga murojaat etishadi va uning qarori qat'iy bo'lib, disputning mavzudan chetga chiqib ketmasligini nazorat qiladi.

### *Munozaralar o'tkazish texnologiyasi*

Munozaralarni tashkil etish va o'tkazish tashkilotchidan juda jiddiy tayyorgarlikni, ijodiy muhit yaratishni talab etadi. O'qituvchi ilgaridan munozaraning mavzusini, uni o'tkazish rejasini, vaqtlarini talaba-o'quvchilar bilan o'zaro kelishib oladi.

Talaba-o'quvchilarga o'quv yili boshlanishida munozara mavzulari rejasи e'lon qilinib, ularga yetkaziladi. Ularning tayyorgarlik ko'rishlari uchun vaqt beriladi. Munozara muhokamasiga ma'muriyat, mahalla faoliari, mashhur mutaxassislar taklif etiladi. Munozaraning boshlovchisi tayinlanadi. Boshlovchi juda keng qamrovli bilimga ega bo'lishi kerak.

Munozara davrida vujudga keladigan muammoli masalalar, ayniqsa, chigal fikrlar bo'yicha ularni chuqr tahlil qilish qobiliyatiga ega ekspertlar taklif

etiladi. Munozarani olib borganda uning ishtirokchilarini qiziqtirib, qovushtirib, boshqarib, zarur yo'llanmalar berib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan munozara jarayonida to'g'ri xulosalar chiqarish juda katta ma'suliyat talab etadi.

Munozaralar mavzuga qiziqish bildirgan guruhlarni qo'shib, aksincha hollarda esa, ularni guruhlarga bo'lib, zarur bo'lgan ayrim xollarda katta zallarda, katta auditoriyalarda olib boriladi. Munozaralar demokratik, oshkoraliq, tenglik, samimiylik, hamkorlik hamijodkorlik, bir-birini qo'llash ruhiyatida olib borilishini ta'minlash yaxshi natijalar beradi.

Munozara erkin fikr yuritishni, o'z shaxsiy pozitsiyasida turishga o'rgatadi. Eng muhimi, talaba-o'quvchini mustaqil mutolaaga, fikr almashuv orqali uzuksiz o'z bilim va malakasini oshirishga olib keladi.

## “TEXNIK YECHIMLARNING MORFOLOGIK TAHLILI VA SINTEZI” METODI

“Texnik yechimlarning morfologik tahlili va sintezi” metodi shveysariyalik astronom F. Svikki tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodni qo'llashda o'rganilishi lozim bo'lgan texnik tizimning tarkibiy qismi yoki funksional morfologik belgilaridan iborat bo'lgan tarkibning ro'yxatidan aniq muqobillari, texnik ifodalari ajratib olinadi; ular morfologik quti yoki matritsa deb nomlanadigan jadvallar shaklida joylashadi va ajralib turgan belgilar variantlarini birlashtirib saralab olish orqali yangi vazifalar yechimi aniqlanadi.

Morfologik tahlilda bo'lg'usi mutaxassislar texnik vazifalar yechimi unsurlarining har tomonlama kombinatsiyasini yasashga o'rganadilar, chunki bu metod quyidagi tamoyilga asoslangan: texnik xarakterdagи ijodiy vazifalarni yechishda muvofiqlashtiruvchi o'qlar yordamida ob'ektning muhim tafsiflarini farqlab oladilar. Unga quyidagilar kiradi:

- vazifalarni aniq ifodalash, yangi ifodalarni topishga urinish, ikkinchi darajali va o'xshash vazifalarni aniqlash, ulardan eng muhimini ajratib olish;
- yechimlardagi mavjud kamchiliklar, ularning asosiy tamoyillari va yangi takliflarni sanab ko'rsatish;
- xayoliy, biologik, iqtisodiy, molekulyar va boshqa analoglarni xomaki rejalashtirish;
- matematik, gidravlik, elektron, mexanik va boshqa modellarni yasash (ular aslida analoglarga qiyoslangan g'oyalarni ifoda qiladi);
- variantlar, tobeliklar, bo'lg'usi aloqalar, mantiqiy o'xshashliklarni o'rnatish;
- bu ishdan mutlaqo xabari yo'q ba'zi kishilarning fikrlarini bilish va boshqalar.

## **“FUNKSIONAL – FOYDALI TAHLIL” METODI**

Funksional – foydali tahlil metodining yaratuvchilari Permlik muhandis Yu.M. Sobolev va L.Mayez boshchiligidagi Amerikaning «Jeneral elektrik» firmasining muhandislaridir.

Bu texnik ob'ektlarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilash metodi bo'lib, ularning iste'molchilari o'ziga xosligi va bu o'ziga xoslikni ta'minlovchi chiqimlar o'rtaсидаги munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Bu metodning mohiyati shundaki, ob'ektga bajarilishi lozim bo'lgan amallar va iste'molchi talablari nuqtai nazaridan yondoshiladi.

Bu metod bir qator murakkab konstruksiyalarga ishlov berish, ularning texnologikligini aniqlash, samarasiz chiqimlarga qarshi «markazlashgan hujum» tashkil etish, moddiy va mehnat omillaridan samarali foydalanishni oshirish masalalarini hal qilishda iqtisodiy samarador metod hisoblanadi. Mamlakatimizdagи ilmiy tashkilotlar va korxonalarning xo'jalik hisobi va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashga o'tilishi bu metoddan keng foydalanish lozimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, funksional-foydali tahlil asoslari oliy maktabda bo'lg'usi mutaxassis-tadqiqotchilarga (konstruktorlar, texnologlar) dars sifatida o'tilishi lozim. Bu esa, oliy o'quv yurtini bitirgandan so'ng borib ishlaydigan ilmiy tashkilot (korxona)da mahsulotlar konstruksiyasini, uni tayyorlash texnologiyasini yaxshilashning konkret yo'llarini aniqlashga yangi imkoniyatlardan kelib chiqib ishlab chiqarish va uskunalarни ishlatish hamda ortiq darajadagi sarf-harajatlarni bartaraf qilishga imkon beradi.

Masala shundaki, funksional-foydali tahlil nuqtai nazaridan qaralganda, mahsulot ishlab chiqarishning barcha sarf-harajatlari foydali va foydasiz hamda ortiqcha deb taqsim qilinadi. Keyingilari yaqqol ko'rinish turgan va behuda sarflardir.

## **“ARIZ – TRIZ” METODI**

“ARIZ – TRIZ” metodi. G.S. Altshuller va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodlar sinov va kamchiliklar hamda boshqa ularning modifikatsiyalaridan sezilarli farq qiladi. Ular ko'r-ko'rona qidirishdan ko'ra texnik tizimlarni rivojlantirish qonuniyatlariga bo'yungan mantiqiy operatsiyalar tizimi asosiga qurilgan. Nazariyaning asosiy g'oyasi: texnik tizimlar o'z holicha emas, balki yaratuvchilik vazifalarini ongli va maqsadga muvofiq yechishda foydalanish mumkin bo'lgan muayyan qonunlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi, degan g'oyadan iborat.

Bu vazifalarni yechish jarayonini mavjud texnik ziddiyatlarni aniqlash, tahlil etish va yechish deb qarash lozim bo'ldi. Belgilangan vazifalarni qo'llash metodikasi esa, texnika va texnologiyani yaratishdagi ilmiy-texnik ziddiyatlarni ajratib olish, aniqlash va hal qilish bo'yicha muntazam ravishda muayyan harakatlarni bajarishdir. Tizim o'z ichiga bunday ziddiyatlarni hal qilishga yordam beruvchi o'ziga xos yangilovchi operatorlarning 40 ta ish usullarini qamrab oladi. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

1."Taqsim qilish": a) ob'ektni mustaqil qismlarga bo'lish; b) ob'ektni bo'laklarga bo'lib bajarish; v) taqsimlash darajasini kengaytirish.

2."Butlash": ayni yoki yondosh operatsiyalar uchun mo'ljallangan ob'ektlarni birlashtirish; b) ayni va yondosh operatsiyalarni birlashtirish.

3. "Onalik": a) bir ob'ektni ikkinchi ob'ekt ichiga va o'z navbatida uning ichiga uchinchi ob'ektni joylashtirish; b) bir ob'ektni to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi ob'ekt orasidan o'tkazish.

4. "Chappalik": a) ob'ektning harakatdagi qismini yoki tashqi muhitni qo'zg'almas holatga olib kelish, aksincha, muqim holatni harakatdagi holatga keltirish; b) vazifa shartlari talab qilgan harakatlar o'rniga teskari harakatni amalga oshirish; v) ob'ektning «oyog'ini osmonga qilib qo'yish» va uni o'nglash.

5. «Zararni foydaga aylantirish»: a) zararli faktorlardan (masalan, muhitga zarar yetkazadigan) ijobji samara berishda foydalanish; b) zararli faktorlarni boshqa zararli faktorlar bilan qo'shish asosida uni bartaraf etish; v) zararli faktorlarni ortiq darajada kuchaytirish asosida uni bezzar qilish.

## "TUSHUNCHALAR ASOSIDA MATN TUZISH" METODI

*Siz nimani tushunmasangiz, u sizga begona*

*I. Gyote*

"Tushunchalar asosida matn tuzish" metodi bilish-izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kiradi. Bu metod talaba-o'quvchilarga mustaqil ishlar bajarish jarayonida turli xil mantiqiy amallardan foydalanishni o'rgatishga xizmat qiladi. Bular: tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagи mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Odatda, talabalar mustaqil ishlar bajarishda o'zlarini uchun noma'lum bo'lgan hodisalar, yangi o'quv materiallariga duch keladilar, bunda ular uchun yangi bilimlarni egallah va o'quv muammosini hal qilish yo'llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo'ldi. Bunday muammolarni to'g'ri hal qilishda tegishli nazariy bilimlar va ayniqsa, mavzuga doir tushunchalar, qoidalarni puxta bilish talab qilinadi.


### *Mazkur metodni qo'llash qoidalari:*

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish bosqichida yangi mavzuga tegishli asosiy tushunchalarni (kalit so'zлarni) belgilab, ularning ta'riflari va o'zaro bog'liqliklarini aniqlab oladi. Darsda o'qituvchi yangi mavzuni e'lon qiladi. O'zi mavzuning qisqacha bayonini bergenidan so'ng, mavzuga oid tushunchalami ajratib, ta'lif oluvchilarga tegishli tushuntirishlarni beradi. Mavzuga doir vazifalardan birini namuna sifatida bajarib ko'rsatadi.

Ta'lif oluvchilar darsni tinglash jarayonida o'rganayotgan yangi mavzulari bo'yicha o'zlarining tezkor tayanch konseptlarini tayyorlaydilar. So'ng ular tayanch konseptdan foydalanib, o'rganilayotgan tushunchalar, ularning mazmun-mohiyati va o'zaro bog'liqliklari to'g'risida mustaqil ravishda matn tuzadilar. Tuzgan matnlarini o'zaro muhokama qilishlari, o'qituvchi bilan birga tegishli xulosalar chiqarishlari va o'qituvchining zarur yo'l-yo'riqlar berishi tashkil qilinadi. Bunday matnlar ta'lif oluvchilarning tegishli mustaqil ishlarni bajarishlarida jiddiy yordam beradi.

### **"ZINAMA-ZINA" METODI**

Mavzuga oid oddiydan murakkabga qarab ketma-ketlikka asoslangan savollar yordamida ta'lifni amalga oshirishga "Zinama-zina" metodi deb ataladi. Bu metod asosida kichik guruuhlar, alohida talaba-o'quvchilar orasida berilgan vazifani qanchalik to'liq bajarilishiga qarab marraga — zinapoyaning yuqorisiga kim birinchi chiqishi musobaqasi shaklida o'tilgan mavzularni mustahkamlash samarali hisoblanadi. Bunda zinapoyalar soni mavzuning murakkabligiga mos ravishda belgilanadi.



Ushbu metod ta'lif oluvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotiralash, o'zlashtirilgan bilimlarni eslash, to'plangan bilimlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishda ifodalay olishga o'rgatadi.

### *Metodni qo'llash tartibi:*

- o'qituvchi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'quv materialini bir nechta kichik mavzularga bo'lib oladi (masalan: 2 yoki 3 ta, 4 yoki 5 ta...). Bu kichik mavzular har biri darsning umumiyligini o'rganish uchun zarur bosqichlar (zinapoyalar) hisoblanadi. Ularni ketma-ketlikda o'rganish zinama-zina yuqorilab borish orqali mashg'ulot mavzusini to'liq o'rganishni nazarda tutadi;
- o'qituvchi ta'limga oluvchilarini mavzular soniga qarab 3-5 nafar kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;
- o'qituvchi ta'limga oluvchilarini mashg'ulotning maqsadi va uni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozilgan varaqalar tarqatadi;
- o'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlari va shu mavzu asosida bilganlarini qog'ozdag'i bo'sh joyga jamoa bilan birlashtiradi. Har bir guruhda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;
- guruh a'zolari birlashtirishda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, chizma) ko'rinishda ifoda etadilar.

### **“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI**


“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta'limga oluvchilarini faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'limga oluvchilar kichik guruhlarda jamoa a'zosi bo'lib ishlab, darsda faol ishtiroy etish huquqiga, boshlovchi roli da bo'lishiga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlashni o'rganish imkoniga ega bo'ladilar.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'limga beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladidi. Chunki ta'limga beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'limga oluvchilarini mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan (18-sxema).

## 18-sxema

### “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi



*“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:*

- Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
- Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
- Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
- Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
- Kichik guruhlar o‘zlari bajargan vazifaning natijalari to‘g‘risida taqdimot qiladilar.
- Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahvil qilinadi.
- Kichik guruhlar baholanadi.

<b>“Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalliliklari:</b>	<b>“Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari:</b>
<p>1) o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;</p> <p>2) muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;</p> <p>3) vaqtini tejash imkoniyati mavjud;</p> <p>4) barcha ta'limgan oluvchilar jalb etiladi;</p> <p>5) o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.</p>	<p>1) ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'limgan oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'limgan oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;</p> <p>2) barcha ta'limgan oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;</p> <p>3) guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;</p> <p>4) guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.</p>

### **JAMOALI O'ZARO O'QITISH METODI**

Bu usul 1918 yilda paydo bo'lgan. Hozirgi kunda jamoali o'zaro o'qitish metodi deb ataladigan metod bo'yicha dastlab pedagog Ribin pedagogik tajriba o'tkazgan edi. U mashg'ulotlarda talabalarning o'rganilayotgan mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarishda yakka (individual) va juft-juft bo'lib ishlashlari usulini qo'lladi. Bunday mashg'ulotlarda talabalar masalalar yechar, konspekt yozar, kitoblardan referat yozar, she'rlar yodlashardi, ma'ruzalar eshitishardi, bir-birlari va o'qituvchi oldida hisobot berishardi.

Bu davr (bir o'quv yili) mobaynida har bir talaba 3-4 yillik o'quv kursini o'zlashtirdi. Bunda talabalarning rivojlanishi hayratli darajada yuqori edi. Rivojlanmagan qishloq o'smirlari 1 yildan so'ng, mantiqli fikrlaydigan, isbotlay oladigan, munozara qila oladigan, murakkab matnlarni tahlil qila oladigan, hattoki pedagogik qobiliyatlarni ham namoyon qila oladigan darajaga yetdilar. Bu metodni qo'llash natijasida 3 ta pedagogik kashfiyot qilindi, ular quyidagilar:

- birinchi marta mahalliy va xorijiy pedagogikada yil davomida intensiv ravishda o'quv faoliyati amalga oshirildi. Unda talabalar o'zgaruvchan juftlik va kichik guruhlarga bo'lingan holda ish olib borishdi;

- o'quv tarbiyaviy ishning yangi metodi ishlab chiqildi va sinov (aprobatasiya)dan o'tkazildi;

- birinchi marta turli yoshdagi o'zini o'zi o'qitadigan o'quv jamoasi tuzildi.

O'qitishning bunday metodi o'sha davrdagi zamondoshlar tomonidan yaxshi qabul qilinmadi.

### **O'QITISH BO'YICHA QO'LLANMA METODI**

O'qitish bo'yicha qo'llanma metodi mavzuni o'rganish uchun zarur materiallarni, ma'lumotlarni, misol, masalalarni hamda tingovchilar uchun

savollarni oldindan to'plash, tayyorlash hamda rejalashtirish asosida o'quv mashg'ulotini tashkil qilish va o'tkazishdan iborat. Bunday qo'llanmalar talabalarning o'qish, o'rganish, tadqiq etish faoliyatini hatto o'qituvchi yo'qligida, masalan, ular matnni mustaqil o'qish topshirig'ini olganlarida yo'naltirishga yordam beradi.

O'qitish bo'yicha qo'llanma metodi quyidagi hollarda yaxshi ko'makchi ekanligini eslatib o'tish lozim:

1) talabalarga o'zlarining kuzatishi ehtimoldan uzoq bo'lgan fikrning ancha nozik harakatini sezishda yordam beradi;

2) ishning hamma bosqichlarida yuqori tartibdagi fikrlashni rag'batlantiradi;

3) munozara yoki yozma ish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ya'ni talaba o'z qobig'iga o'ralib qolmaydi.

Quyida misol sifatida "Amir Temur ta'limoti va uning davlatni boshqarish faoliyati" mavzusiga doir o'qitish bo'yicha qo'llanmani ko'rib chiqamiz. Ushbu mavzu yuzasidan o'qitish bo'yicha qo'llanma metodi uchun tayyorlangan material quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qisqa matn.

2. Mavzuni o'zlashtirishni mustahkamlash bo'yicha tinglovchilar uchun savollar varaqasi.

Mashg'ulotning boshlanishida talabalarning bilish faolligini rivojlantirish uchun "Temur tuzuklari" asarining tegishli joylaridan olib tuzilgan Amir Temurning davlatni boshqarish faoliyati to'g'risidagi qisqa matnni yalpi o'qib chiqiladi. Keyin shu mavzu bo'yicha savollar yozilgan varaqni talabalarga tarqatib, ularga javob yozish topshirig'i beriladi. Savollarning mazmuni tinglovchilarining e'tiborini matn ichida sochilgan muayyan detallarga jalb etishga qaratilgan bo'ladi.

"Amir Temur ta'limoti va uning davlatni boshqarish faoliyati" mavzusi bo'yicha talabalarga javob yozish topshirig'i berish uchun savollar varaqasi namunasi:

---

1. Amir Temur ta'limotida qanday g'oyalar ilgari surilgan?

2. "Temur tuzuklari" asarida jamiyat hayotining qaysi sohalariga tegishli fikrlar bayon qilingan?

3. Amir Temurning "Kuch - adolatdadir" deb aytgan fikrini qanday izohlash mumkin?

4. Amir Temur bilan unga dushman bo'lganlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarga siz qanday qaraysiz? Sizningcha, ularning qay birining g'oyalari jamiyat rivoji uchun asos bo'la oladi?

---

**Eslatma:** dastlabki ikkita savolga javoblar butun matnning har-har yeridan to'planadi. Uchinchi va to'rtinchi savolga javob berish uchun birinchi va ikkinchi savolga javob berish uchun to'plangan material asosida yuqoriroq tartibda fikrlashga tinglovchilar rag'batlantiriladi.

### YO'NALTIRUVCHI MATN METODI

Yo'naltiruvchi matn metodi o'tgan asming 70-yillarida «Daimler Benz» korxonasining Gaggenau shahridagi (Daimler Benz AG (Gaggenau)) o'quv ustaxonasi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metod tovush va tasvirli taqdimotlar bilan jihozlangan mustaqil o'rganish dasturlari shaklidagi loyihami kasb-hunar ta'limga qo'shimcha sifatida ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich shaklida bu metod kasb-hunar ta'limi amaliyotchilarini tomonidan ishlab chiqilgan, keyinchalik esa, nazariy jihatdan asoslanib, ilmiy asosda takomillashtirilib, oliy ta'linda qo'llanila boshlangan.

Yo'naltiruvchi matn usulida quyidagi 6 bosqich farqlanadi:

1. Ma'lumot yig'ish
2. Rejalashtirish
3. Qaror qabul qilish
4. Amalga oshirish
5. Tekshirish
6. Xulosa chiqarish

Bu bosqichlar ta'lim jarayonida qo'llashda doirasimon harakat yo'nalishi bo'yicha almashinadi. Bu bosqichlarning hammasini talaba tomonidan amalgalashiriladi. Bu metodning ishlab chiqilishiga sabab loyihamalar ustida ish bilan bog'liq tashkiliy muammolar bo'lgan edi, chunki o'quvchilar har xil tezlikda ishlashlari tufayli butun guruh uchun instruktaj o'tkazishga qulay vaqtini topish qiyin edi.

Bir o'quvchi hammadan tez ishlab yangi ko'nikmani o'rganishga tayyor bo'lgan bo'lsa, sekinroq ishlagan talabalar uchun esa, yangi instruktajning foydasi juda kam edi. Qaytaga yangi instruktaj ularning ishlariga xalal berganday yoki keragi yo'q to'xtalish kabi tuyular edi. Buning natijasida esa, talabalarning qiziqishlari (motivatsiyasi) qisman barbob qilinar edi.

Yo'naltiruvchi matnlari yordami bilan mustaqil instruktaj o'tkazish imkoniyati paydo bo'ldi va har bir o'quvchi aynan unga yangi ko'nikma uchun bilimlar kerak bo'lgan paytda shu bilimlarni olishi mumkin bo'ldi. Eng birinchi yo'naltiruvchi matnlari - bu asli og'zaki ravishda o'tkaziladigan instruktajlarning yozma shakli edi. Lekin baribir barcha maxsus ma'lumotlar talabalarga iloji boricha og'zaki berilar edi.

## Yo'naltiruvchi matn usuli bosqichlari

### Amaliyot o'qituvchisining o'qitish tarzi:

O'quv material va yo'naltiruvchi savollarni berish, instruktaj esa faqat kerak bo'lganda

Reja tuzish uchun qo'llanmalar, formuliyarlami tayyorlab berish

Takliflarni muhokama qilish

Materialni berish, muammolarni muhokama qilish

**Назорат вараг'ини биргаликда ишлаб чиқиш**

### O'quvchisining o'qish tarzi:

1. Mustaqil ravishda ma'lumot yig'ish

2. Mustaqil ravishda reja tuzish

3. Mustaqil ravishda qaror qabul qilish

4. Mustaqil ravishda amalga oshirish

**5. Мустақил равишда текшириш**

Bugungi kunda esa, yo'naltiruvchi matnlar shunday tuzilganki, talabalar yo'naltiruvchi savollar yordamida o'zları uchun kerakli ma'lumotlarni kitob, jadval, instruksiya videokassetalar yoki kompyuter disklaridan olib ishlab chiqishni o'rganishadi. Buning natijasida o'rgatish va o'rganishni tashkil qilishning yangi bir metodi vujudga keldi. Uning asosiy belgisi o'quvchining ko'prok mustaqil ravishda o'rganishidir.

Amaliyot o'qituvchisi esa, zaifroq talabalar bilan ko'proq shug'ullanishi mumkin bo'lib qoldi. Talabalarning mustaqil ishlashi esa, o'z navbatida qo'shimcha foyda keltirmoqda, ya'ni ularda birligida muloqotda bo'lish, birligida reja tuzish, qaror qabul qilish hamda o'z ishini tekshirish kabi yuqoriroq ko'nikma va qobiliyatlar rivojlanadi. Guruh bo'lib birligida ishlash orqali muayyan ijtimoiy kompetensiyalar rivoj topadi va shu

kompetensiyalarga mo'ljallangan maqsadlarni ham nazarda tutish mumkin bo'lib boradi.

Ko'rib turibmizki, vaqt o'tgan sari yo'naltiruvchi matn metodini qo'llashning ma'nosini o'zgarib bormoqda, chunki bugungi kunga kelib bu metod aynan «poydevor ko'nikma va malakalar» deb atalgan qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida qo'llanadi. Yo'naltiruvchi matn metodi tushunchasini Germaniyada ta'lim jarayoniga mehnat bozori tadqiqotchisi D. Mertens kiritgan. U bu tushuncha bilan asosan uslubiy kompetensiyalarni (ya'ni fikrlash, tashkil qilish va rejalashtirish usullarini) atagan.

Hozirgi kunda esa bu tushuncha bilan shunday qibiliyatlar, ko'nikma va o'zini tutish tarzları ataladiki, ular aynan shu kasb-hunarga oid bilim, ko'nikma, malakalar bilan birga, unga qo'shimcha sifatida barcha boshqa kasb-hunarlarda ham kerak bo'ladigan hatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Bular orasida muayyan vazifani bajarish bo'yicha ishni mustaqil rejalashtirish, amalga oshirish va o'z ishining nazoratini olib borish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy o'rincutadi.

Yo'naltiruvchi matn metodini qo'llashda amaliyot o'qituvchisining faoliyati bevosita instruktaj jarayonida bajariladigan ishlarni bilan birga ko'proq darsdan oldin va darsdan keyin bajariladigan ishlardan iborat. O'quvchilar esa, mashg'ulotning barcha bosqichlarida mustaqil ishlashadi.


**Yo'naltiruvchi matn metodini qo'llashdagi harakatlari.** Ta'lim maqsadi - kasbiy harakatlarni mustaqil bajarishga o'rgatish. Germaniyada ta'limning eng muhim maqsadi - talabani malakali kasbiy faoliyatni bajarishga qodir qilish, buning tarkibiga esa, mustaqil ravishda rejalashtirishni amalga oshirish va nazorat olib borish ko'nikmalari kiradi. Bu ko'nikmalardan foydalanishni amalda mutaxassisning korxonadagi faoliyat vakolatlari bilan adashtirish mumkin emas.

Albatta mutaxassislar bunday keng malaka talablariga ularning ish joyidagi shart-sharoitlar va imkoniyatlari doirasida javob bera oladilar. Shundan kelib chiqqan holda mustaqil harakat qilish shuni anglatadiki, mutaxassis o'ziga topshirilgan ishlarni mustaqil ravishda, ya'ni birovning boshqarib turishisiz amalga oshirishi kerak. Masalan, biror ishni boshlashdan oldin ish tartibini rejalashtirish, ishlab chiqarish usulini belgilash, kerakli materiallarni tanlash va ish tugatilganidan keyin natija sifati nazoratini o'tkazishi kerak.

Bundan tashqari mustaqil va ma'suliyatli ishlovchi mutaxassislardan kutiladigan narsa shuki, ular ish tartibini iqtisodiy mezonlarga muvofiq, ya'ni tejamkorlik asosida rejalashtirish va amalga oshirishlari kerak. Buning uchun ular tejamli ishlab chiqarish usullarini, ishlatiladigan materiallardan va energiyadan tejamli foydalanish usullarini bilishlari kerak.

Korxonada o'tkazilayotgan o'quv jarayonida «mustaqil harakatlanish» deb atalgan o'quv maqsadiga erishish faqat tasodifan bo'lighiga yo'l qo'yilmaydi. Bu malakani tizimli ravishda o'rgatish ta'lim amaliyotining doimiy omili bo'lishi lozim.

Mustaqil harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning birinchi kundanoq uning tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Buning uchun topshiriqlarni bajarishda rejalashtirish va nazorat vazifalari kiritilishi lozim.



### MUKAMMAL HARAKAT MODELI METODI

Mukammal harakat modeli metodi texnikaviy sohadagi kasblarga tegishli ish faoliyatida natijalarini ko'rish, o'lchanarli o'lgan mumkin bo'lgan maqsadlarga qaratilgan harakatlarni modellashtirib o'rgatish jarayonidan iborat. Uni mustaqil kasbiy harakatlanish modeli deb ham ataladi.

Bu metod kasbiy-texnikaviy sohada uchraydigan ko'plab ish faoliyatlariga mos keladi. Maqsad ko'rinarli o'lchanarli natijalardan iborat bo'lgan hollar uchun mos hisoblanadi. Bu model bir kasbiy harakatni 6 ta alohida harakat bosqichlariga bo'lgan holda batafsil o'rgatishga qaratilgan. Bunda mukammal harakatni amalga oshirilishining o'zi o'rganish bilan teng deb hisoblanadi.

Mukammal harakat modeli metodini qo'llashdagi pedagogik muammo shundan iboratki, har bir alohida bosqich bo'yicha bir o'quvchining ham xayolida (harakatni xayolan bajarib ko'rishida), ham amalda mukammal harakatlarni bajarishi ta'minlanadigan strategiyani to'g'ri tanlash kerak.

Yo'naltiruvchi matni metodi bo'yicha bu muammoni hal qilishda xayolda bajariladigan jarayonlarni deyarli tashqariga chiqariladi. Ya'ni, odatda faqat xayolda bo'lib o'tadigan narsalar bu metod bo'yicha yozilishi yoki ovoz chiqarib aytilishi kerak.

Shuning uchun bu yerda bir nechta qayta aloqa jarayonlari mavjud. Jumladan, "Ma'lumot yig'ish" (1), "Rejalahtirish" (2), "Amalga oshirish" (4) va "Tekshirish" (5) bosqichlarini o'quvchi deyarli butunlay o'zi yoki kichik guruhlarda bajarishi mumkin. "Qaror qabul qilish" (3) va "Xulosa chiqarish" (6) bosqichlarida erishilgan natijalar esa, amaliyot yoki nazariyot o'qituvchilar bilan batafsil muhokama qilinishi kerak.

O'quv jarayoni bunday bosqichlarga bo'linishi o'quvchilarning iloji boricha ko'proq mustaqil o'rganishlariga turki beradi. O'quvchilarga «Ma'lumot yig'ish» va «Rejalahtirish» bosqichlarida yozma hujjatlar masalan texnik

chizmalar, jadvallar, eslatmalar, yo'riqnomalar yoki o'qituvchining o'zi tuzgan hujjatlar berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday hujjatlar mustaqil o'rganish jaraayonini juda yaxshi kuchaytiradi.

Amaliyot o'qituvchisi o'quv jarayonida moderator rolini o'ynaydi, ya'ni u har bir bosqich uchun kerakli ma'lumot va materiallarni tayyorlaydi va talabalarga mustaqil ma'lumot yig'ishda yordam berib boradi. U talabalarning aniq maqsadga qaratilgan ish-harakatlariiga turki beradi, ularning bilim, ko'nikma, malakalari o'sishini nazorat qiladi va o'qituvchilar bilan birlashtirishda nuqsonlarni bartaraf etish yo'llarini belgilaydi.

Talaba esa, o'zining ta'lif olish jarayonining faol qatnashchisi bo'lib qoladi. Endi u faqat tinglovchi emas, balki bajariladigan topshiriq uchun kerakli barcha ma'lumotlarni yig'adi, o'z ish tartibini va kerakli vaqtini o'zi rejalashtiradi va qolaversa, o'z ish natijasini o'zi baholaydi.

Bularning hammasini o'quvchining bir o'zi, yakka tartibda yoki boshqa o'quvchilar bilan birlashtirish mumkin, bu esa, maqsadga niroyatda muvofiq bo'ladi. O'qituvchilar shunday rol o'ynashlari va o'zlarini shunday tutishlari «poydevor bilim, ko'nikma, malakalar» deb atalgan qobiliyatlar rivojlantishiga juda katta yordam beradi, ya'ni talabalarda mustaqil o'rganish, muloqotga kirishish, jamoada ishlash va eng muhim, o'z natijalarini o'zi baholash va ish-harakatlari rejalashtirish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

### DELFI METODI

Bu metod o'tgan asrning 50-60 yillarda asoslanib, qadimgi yunon afsonaviy qahramoni Appolon faoliyati bilan bog'liq hodisa negizida shakllantirilgan strategiya hisoblanadi.

Metodning mazmuni jamoa bo'lib qo'yilgan muammoning muqobil yechimlarini maqbullik darajalari bo'yicha tabaqlashtirib, ulardan har birining muhim yoki nomuhimligini baholashdan, shu asosda eng yaxshi variantni tanlab olishdan iborat.

Masalan, yer maydonini plugda 15, 20, 25, 30, 35, 40, 45 sm. chuqurlikda ag'darib haydash mumkin bo'lsin. Ma'lum bir yer maydonini ag'darib haydashda shu variantlardan qaysi biri eng yaxshi ekanligini aniqlash uchun ularning har birini talaba-o'quvchilar tomonidan yer haydashga doir mavjud agrotexnik omillar asosida o'qituvchining rahbarligida baholanadi. Bunda har bir kichik guruh o'zlarining variantlarini taklif etishlari, so'ngra fikrlar umumlashtirilib, eng yaxshi variant tanlab olinishi ham mumkin.

Delfi metodi – tavsiya etilgan seriyadagi muqobillardan eng yaxshisini tanlab olishga yordam beradi.

Guruh a'zolaridan har biri muqobil variantga muayyan izchillikda baho berishi talab qilinadi. Tadbirni o'tkazish tartibi quyidagicha. Masalan, statistik metodlar orqali 5ta kamchilik (nuqson) sabablari aniqlangan. Ulardan qaysi biri muhim kamchilik ekanligini aniqlash kerak. Muhokama ishtirokchilari muammoni avvalo muhimlik darajasiga ko'ra saralab chiqadilar. O'zları muhim deb hisoblagan muqobil variantni dolzarbliji darajasi bo'yicha eng dolzarbini birinchi, qolganlarini shu tartibda ikkinchidan beshinchigacha toifalar bilan baholaydilar.

Shundan so'ng har bir muqobil variantga har bir ishtirokchi kamchiliklarning sabablariiga to'xtalgan holda shu sabablarning bartaraf qilinishi ahamiyatini 10 ballik tizim asosida baholab chiqadi. Bunda eng yuqori ahamiyatli sababni 1 va shu tartibda 10 ballgacha belgilab baholanadi. Uchinchi bosqichda muqobil varantlarning har biri o'zaro ko'paytiriladi va hosila raqam topiladi. Eng kam raqam tezlikda va birinchi navbatda bartaraf qilinadigan sababni bildiradi. Hisoblashni osonlashtirish uchun maxsus jadval (32-jadval) tuzish mumkin.

### 32-jadval

Delfi metodi bo'yicha muqobil variantlarni baholash

MQ	Muqobil variantlar														
	1			2			3			4			5		
	T	B	H	T	B	H	T	B	H	T	B	H	T	B	H
A	4	7	28	3	4	12	1	1	1	2	3	6	5	10	50
B	5	2	10	3	6	18	2	7	14	1	10	10	4	4	16
V	2	8	16	1	1	1	4	3	12	3	4	12	5	2	10
G	5	10	50	4	5	20	3	4	12	2	3	6	1	1	1
Jami hosila	104			51			39			34			77		

#### Izohlar:

MQ - muhokama qatnashchilarining shartli belgilanishi;

T - muqobil variantning dolzarbliji toifasi bo'yicha baholash (eng dolzarb muqobil variant 1-toifa va shu tartibda 5- toifagacha);

B - kamchiliklar sabablarning ahamiyatliligi darajasini baholash (eng yuqori ahamiyatli sabab 1 ball va eng kam ahamiyatli sabab 10 ballgacha);

H - hosila (TxB).

### "ROLLI O'YINLAR" METODI

Rolli o'yinlarning boshqa o'yinlardan farq qiluvchi belgisi o'yin davomida baholash tizimining yo'qligidir. Shu bilan birga rolli o'yinlar boshqa o'yinlardan farqli o'laroq, o'zining maqsadi bilan jamoaviy yoki individual qaror qabul qilishga asoslanadi. Rolli o'yinlar o'quvchi-talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi, kelgusidagi amaliy faoliyatlarini uchun zarur bilim,

ko'nikma va malakalarni amaliy asosda, ya'ni faol o'yin jarayonida egallashlariga imkon beradi.

Rolli o'yining metod sifatidagi imkoniyatlari:

– *ta'linda motivatsiyani shakllantiradi (shu bois ta'linda samaradorlik bosqichi boshlanadi);*

– *o'quvchi-talabalarning tayyorgarlik darajasi baholanadi;*

– *materiallarni o'zlashtirganlik darajasi - passiv o'zlashtirishdan to malakalarning faol shakllanganligiga ko'ra baholash.*

Rolli o'yinni rejalashtirish;

– *rolli o'yinlarni rejalashtirish va tayyorlash uni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.*

Birinchi navbatda, rolli o'yining maqsadini tushuntirish va uning afzallik jihatlarini ko'rsatish zarur. Birinchi bor oddiy rolli o'yinni namoyish qilish ma'qulroq.

Rolli o'yinni rejalashtirishda o'qituvchi quyidagi savollarga ijobiy javoblar berish imkoniyatlari mavjudligini hisobga olishi zarur:

1. Pedagogik savollar:

- Rolli o'yin o'quv materiallarini o'zlashtirishda maqbul usul hisoblanadimi?
- Agar sizga ma'qul kelsa, undan foydalanishingiz mumkinmi?
- Maqsadingiz aniqlimi?

10. Amaliy savollar:

- Rolli o'yinni tashkil qilish uchun zarur vositalar, jihozlar sizda mavjudmi (stullar, stollar, telefonlar, ekranlar)?

- Kerakli materiallar yetarlimi (flipchart, marker va boshqalar)?
- Xona va maydon yetarlimi?

- Rollarning bayoni va boshqa yozma materiallarni tayyorlagansizmi?
- Rollarni ijro etish bo'yicha tanlangan o'quvchi-talabalar yetarlimi?

11. Sizning rolingiz:

- Rolli o'yinda ishtirop etasizmi?

- Boshqalarni faoliikkha undovchi biror rollni olasizmi yoki ko'rsatma beruvchi nutqni namoyish qilasizmi?

- Agar o'yinda ishtirop etish xohishi bo'lsa, rolingizni ijro etish vaqtida jarayonni qanday boshqarasiz?

- Rolli o'yin yordamida mavzuni ko'rib chiqishdagi taklifingiz?

Rolli o'yining taqdimoti:

- Mashg'ulot mavzusining taqdimoti.

- Ishtiropchilarni ixtiyoriy ravishda boshqa rollni tanlashi yoki xohishi bo'limasa, rollardan birini ijro etishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirish.

- Rolli o'yin vaziyatlarini qisqacha bayon etish mumkin. Bu o'yin ishtirokchilariga vaziyatni o'zgartirish va o'z munosabatini hosil qilishni o'rgatadi.

Rolli o'yin mashg'ulotini tashkil qilish bosqichida vaqt sarfini qisqartirish bo'yicha bir necha usullar mavjud:

- Ayrim rollarni sinf, auditoriya va konferensiya zalida norasmiy so'z orqali ifodalash.

- Rollarni qog'ozga yozib, ishtirokchilarga tarqatish.
- Rollarni ishtirokchilarning o'zлari taqsimlashi.
- Ishtirokchilarga rollarni o'zлari tanlab olishini taklif qilish.

Kuzatuvchilar:

- Kuzatuvchilarga maxsus ko'rsatma beriladiki, ular o'yinni dars maqsadidan kelib chiqib kuzatadilar.

O'yin vaqtida va o'yindan keyin:

- Rolli o'yinining muhim tarkibiy qismi topshiriqlarning bajarilgani haqida so'rov nomasi o'tkazish (Rolli o'yin tamom bo'lgandan so'ng).

- O'yin oxirida ishtirokchilardan ular ijro etgan rolni ichki holatidan qanday farq qilishini bayon etib berish so'raladi. Ularga rollarni farqlash imkoniyati va aynan o'ynagan rolini yana qanday o'ynashi mumkinligini izohlashiga imkoniyat beriladi.

#### **Rolli o'yin o'tkazish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari**

O'yin bosqichlari	Asosiy qiyinchiliklar	Bartaraф etish yo'llari
1	2	3
<b>Tayyorlarlik bosqichi</b>		
Instrumental jihat	1. O'yinchilarning har xil tayyorlarlikka egaligi	Oldindan tashxis qilish va ishtirokchilarni o'yinga tayyorlash
	2. O'yin vaziyatlaridagi modellashtirish haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslik	O'yindagi modellashtirishni, ob'ektni oldindan o'rganish
	3. O'yinda yo'l qo'yiladigan va qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridagi ziddiyatlarni aniqlash	O'yin shaklini tanlash, o'yinни fikran ishlab chiqish. O'yinning kritik nuqtasini ajratish, qo'shimcha kirish ma'lumotlarini shakllantirish
Emotsional	4. O'yinchilarda o'yinda yuz	Ishtirokchilarni oldindan o'yin

jihat	berishi mumkin bo'lgan hodisalar bo'yicha xulosalash noaniqligining yuqori darajadaligi	qoidasi va dasturi bilan tanishtirish
	5.O'yin ishtirokchilarining qadriyatlari va maqsadlari haqida ma'lumotlarning yo'qligi	O'yin ishtirokchilarini oldindan diagnostika qilish
<b>Asosiy bosqich</b>		
Instrumental jihat	6.Ishirokchilarining o'yinga yetarlicha qo'shilmasliklari	Kirish shartlarini aniq bayon etish, topshiriq va tarqatma materiallarni to'g'ri tushuntirish
	7.O'yin ishtirokchilarining maqsadni va muammoni yetarli-cha aniqlashtira olmasliklari	Modellashtiriladigan vaziyatni birgalikda bajarish

### “AYIRBOSHLASH” ROLLI O’YINI

“Ayirboshlash” rolli o'yin mashg'ulotining maqsadi: Ishtirokchilarda savdo-sotiq va undagi ayirboshlash jarayoni haqida tushuncha va rolli o'yinlar metodi haqida tasavvurni shakllantirish.

Mashg'ulotdan kutiladigan natijalar: ishtirokchilarining rolli o'yinga tavsif berish, tovarlar va xizmatlarni ayirboshlashning ahamiyatini tahlil qila olish, rolli o'yinlar yordamida dars tashkil qila olish ko'nikmalarini o'zlashtirishlari.

Talab etiladigan vaqt: 1 soat 15 daqiqa.

Zarur bo'ladigan materiallar 3-4 tadan uncha qimmat bo'lmagan sovg'alar - tarqatma materiallar, masalan: qalam, ruchka, lineyka, o'chirg'ich, kalendar, kitobchalar: to'g'nog'ich, taroq; saqich, qurt, konfet, pechene; skripka, rangli qog'ozlar, qog'oz jild, paketlar, otkritka, sterjen, qalamdon, yozuv qog'ozi, bo'r, tuflining ipi, rangli qalam, gugurt, sigareta, jo'xori qalamchalar, tugmacha, gazeta, daftar, daftar jildi, rangli skrepka, knopka va h.k.

*“Ayirboshlash” rolli o'yini o'quv usuli sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:*

- ishtirokchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish, jumladan, yangi vaziyatlarni tushunish, aniqlash va tahlil qilish;

- rivojlantiruvchi – mantiqiy tafakkumi atrof-muhit sharoitini o'rganish qobiliyatini o'stirish;

- qiziqtiruvchi – ishtirokchilarning o'quv qobiliyatlarini namoyon etishga undash, mustaqil xulosaga kelishga rag'batlantirish;

- tarbiyaviy – mas'uliyatni, kommunikativlikni shakllantirish.

*"Ayrboshlash" rolli o'yinini tashkil qilish:*

- o'yin mashg'uloti usullari va o'yin jarayoni bosqichlarining maqsadlariga muvofiq tanlanadigan vaziyatlarni belgilanadi;

- didaktik maqsad tinglovchilar oldiga vazifa o'mida qo'yiladi;

- ishtirokchilar o'quv faoliyatida o'yin qoidalariga bo'ysunadilar;

- o'yin jarayonini amalga oshirish vositasi sifatida o'quv materiallaridan foydalilanadi;

- o'quv faoliyatiga didaktik vazifani o'yin shaklida bajariladigan musobaqa elementlari kiritiladi;

- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijasi bilan bog'lanadi.

Bu rolli o'yin ko'rsatilgan vaziyatga tegishli muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlariga asoslangan.

Rolli o'yin mavzusi bo'yicha ishtirokchilarning asosiy majburiy maqsadlari – muammoni yechishdan iborat.

Ishlab chiqilgan o'yin mumkin qadar hayotiy bo'lishi, lekin ishtirokchilar uchun juda murakkab va qiyin bo'lmasligi lozim.

Ishtirokchilarga ayrim asosiy ma'lumotlar eslatib o'tiladi, masalan:

Savdo-sotiqning jahon iqtisodiy tizimidagi o'mi naqadar beqiyosligini bugungi kun tajribalari tasdiqlamoqda. Buni bir qator rivojlangan davlatlarning tajribasi amaliy jihatdan ko'rsatib turibdi.

Argumentlar nazariyasida jahon savdosida foya olish uchun raqobatdoshlar ayrim chet el korxonalarini siqib chiqarishga va korxona ishchilarini ishdan bo'shatishga harakat qiladilar.

Shu bilan birga, savdo-sotiqda ishtirok etuvchi sub'ektlar o'rta sidagi bog'liqlikka asoslangan ayrim iqtisodiy qonuniyatlardan biri erkin ayrboshlashdir.

Quyidagi asosiy tushunchalarining ta'riflari aytilib, tegishli izohlar beriladi:

1. Erkin ayrboshlash.

2. Foydalilik.

Erkin ayrboshlashda maqsad ishtirokchining o'zi tomonidan o'z ehtiyojlarini baholashi orqali erkin ayrboshlashning shaxsiy qoniqishga ta'sirini tahlil qilinadi.

Almashtirish loyiha, mashq natijasida amalga oshirilishini, ayrboshlash jarayonlariga bozor ta'siri hajmini baholashni tushuntiriladi.

*Darsning borishi:*

Darsning boshida ishtirokchilarni "Ayrboshlash" rolli o'yini qoidalari, mavzu bo'yicha zarur ma'lumotlar bilan tanishtiriladi va sovg'alar tarqatiladi.

Sovg'alar raqamlar bilan belgilangan bo'lishi lozim. Ko'rinxmaydigan paketdagi sovg'alar har xil bo'lishi kerak.

Ishtirokchilar olgan sovg'alarini bo'yicha o'z qoniqishlarini baholaydilar.  
Bunda ularning har biri olgan sovg'alarini aharniyatiga ko'ra baholaydilar.

Har birlari o'z ehtiyojlari bo'yicha o'z narsalarining alohida va so'ngra o'rtacha qiymat ko'satkichini hisoblaydilar.

5-10 daqiqa o'quvchi-talabalarga imkoniyat beriladi, ular narsalarini qolgan ishtirokchilar bilan o'z ehtiyojlariga mos kelishiga qarab, ayirboshlaydilar. Ayirboshlash hech kimga majburiy emas.

Bu o'yin ikki bosqichdan iborat. Har bir ishtirokchi o'z ixtiyoriga ko'ra narsalarni ayirboshlashga kirishadilar. Narsalarni ayirboshlagandan so'ng, ularni baholash tavsiya etiladi, baho yangi 1-5 gacha o'z ehtiyojlariga qarab baholanadi. Baholarni umumlashtirib, ularning o'rtacha qiymati hisoblanadi.

Ishtirokchilarga yana 10-15 daqiqa vaqt beriladi. Ular shu vaqt ichida narsalarini boshqa o'zları xohlagan ishtirokchi bilan ayirboshlashlari tavsiya etiladi. Baholarni umumlashtirib, ularning o'rtacha qiymati hisoblanadi.

Foydalilik bahosi natijalarini e'lon qilinadi.

**Ishtirokchilarga bir qator savollar bilan murojaat qilinadi:**

Nima uchun har safar o'rtacha va umumiyl miqdor har bir bosqich bo'yicha o'sdi?

Hammangiz ayirboshlashda ishtirok etganingizdan qoniqdingizmi?

Odamlar haqiqiy ayirboshlashda yangi imkoniyatlarga ega bo'ladilarmi?

21-jadval

## **“Ayirboshlash” rolli o‘yini mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

Bosqichlar	Ta'lim heruvchining faoliyati	Ta'lim oluvchilarning faoliyati
I bosqich Tayyorlarlik	O'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalari aniqlanadi. Ta'lim oluvchini baholash mezonlarini aniqlaydi. Mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzadi. Zarur o'quv materiallari va sovg'a alarni tayyorlaydi.	
II bosqich O'yinda kirish	Ta'lim oluvchilarga ular "Barter" o'yini qatmashchilari bo'lishlarini e'lon qiladi. Ushbu ta'lim usulining ma'nosini tushuntiradi. Maqsad va kutiladigan natijalarni	Ishtirokchilar mavzuning nomi, o'quv mashg'ulotining maqsad va natijalarini yozadilar. Ishtirokchilar sovg'a solish pa-ketini olib, raqam bo'yicha sheriklarini

	<p>aytib beradi. Baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Ta'lim oluvchilarni 3ta guruhga bo'lib chiqadi.</p> <p>Har bir ishtirokchiga ko'rinnmaydigan paketda sovg'alar tarqatiladi, ular 1-6 raqamlar bilan belgilangan bo'lishi kerak.</p>	topib, stolga o'tirishadi.
III bosqich Asosiy	<p>Ishtirokchilarga sovg'almni o'zlarining ehtiyojiga qarab 1 dan 5 gacha raqam bilan baholashni taklif qilish.</p> <p>1- eng past ehtiyoj, 5-eng yuqori.</p> <p>Ishtirokchilardan o'zlarining sovg'alarini qanchaga baholaganlarini qog'ozga yozib berishlarini so'rash.</p> <p>Sonlar yig'indisiga ko'ra o'z ehtiyojlariga qarab, o'rtachasini hisoblab chiqish.</p> <p>1-bosqich. Ishtirokchilarga 2-3 daqiqada o'z xohishlariga ko'ra narsalarini boshqalar bilan ayrboshlashlarini aytadi.</p> <p>Xohlamasalar, ayrboshlamaydilar.</p> <p>Ishtirokchilardan hisoblangan qog'ozlarni yig'ib olib, umumiy hisoblab chiqib, ehtiyojni aytish.</p>	<p>Ishtirokchilar savollarni baholaydilar. Qog'ozga yozib, ta'lim beruvchiga beradilar.</p> <p>Ishtirokchilar narsalarini o'z ehtiyojini qondirish uchun ayrboshlaydilar. Qog'ozga ayrboshlangan narsalarining narxini hisoblashadi.</p> <p>Ayrboshlamaganlar oldingi narxлами qo'yadilar.</p>
	<p>2-bosqich. Endi ishtirokchilarga narsalarini ayrboshlash uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.</p> <p>Ishtirokchilardan baholagan varaqlarini yig'ib olib, o'rtacha qiymatini e'lon qiladi.</p>	<p>Ayrboshlab bo'lgandan keyin o'rinaliga kelib o'tirishadi va o'zining ehtiyoji uchun ayrboshlangan narsalarining qiy-matini hisoblaydilar.</p>
IV bosqich. Taklif o'z-o'zini baholash.	Bilim oluvchilarga "Barter" faoliyatini tahlil qilish va o'z-o'zini baholashni amalga oshirishni taklif qilish.	O'z-o'zini baholashni amalga oshiradilar.
V bosqich. Muhokama, Xulosalash.	<p>Ta'lim oluvchilarga savol berish.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Nima uchun miqdor o'sishiga erishiladi?</li> <li>Nega har bir bosqichda o'rtacha va umumiy miqdor ko'rsatkichi yanada oshdi?</li> <li>Hayotdan shunga mos misollar keltira olasizmi?</li> <li>Ayrboshlashdan qoniqdingizmi?</li> </ol> <p>Savollarga javob olgandan keyin umumlashtirib, yakun yasaladi.</p>	<p>Ta'lim oluvchilar berilgan savollarga o'ylab javob beradilar. Ta'lim beruvchining yakunini eshitadilar va o'zlar uchun xulosalar chiqaradilar.</p>

## **“TADBIRKORLIK” O‘YINI**

Tadbirkorlik o‘yinlari o‘z mazmun-mohiyatiga, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlariga ko‘ra, insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning vositasi hamda iqtisodiy ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya ishlarni tashkil etishning bir shaklidir. Zero, tadbirkorlik o‘yinlari o‘quv jarayonida o‘z o‘rniga ega va o‘quv jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda o‘rganilayotgan iqtisodiy fanning didaktik tabiatiga bog‘liq bo‘lgan, aniq belgilangan funksiyalarini bajaradi.

Tadbirkorlik o‘yinlarining didaktik funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- *o‘quvchi-talabalarda aqqliy faoliyat usullarining shakllanishi;*
- *bilimlarni mustahkamlash va qo‘llash;*
- *o‘quv jarayonida bo‘lg‘usi iqtisodchi mutaxassisning faoliyati faqat o‘rganish emas, balki ishlab chiqishdan iborat bo‘lishi;*
- *o‘quvchi-talabalar o‘quv-bilish faoliyatining bo‘lg‘usi kasbiy faoliyati, xarakteri va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib borishi.*

Tadbirkorlik o‘yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1. O‘quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig‘i shaklida qo‘yish:

- *bo‘lg‘usi tadbirkorlik o‘yinining maqsadini aniqlab olish;*
- *muammoli vaziyatni anglab yetish;*
- *o‘quvchi-talabalarga navbatdagi tadbirkorlik o‘yini haqida dastlabki ma‘lumotlар berish.*

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan va avval egallangan bilimlardan foydalananish:

- *o‘quvchi-talabalarning o‘qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;*
- *bajarilishi lozim bo‘lgan ish to‘g‘risida o‘quvchi-talabalarga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish;*
- *olingan bilim, o‘zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishslash metodlarini umumlashtirish;*
- *o‘z-o‘zini nazorat qilish.*

3. Tadbirkorlik o‘yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

4. Navbatdagi ishni rejalashtirish:

- *avval ma‘lum bo‘lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;*
- *avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishini olib borish va o‘z ijodi uchun zarur bo‘lgan yangi metodlarni qidirish;*

- *rejalashtirishni mustaqil nazorat qilish.*

5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o'rganish va tahsil qilish bo'yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o'yinlaridagi o'z mavqeini aniqlash.

6. O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosidagi reja bo'yicha ishlarni bajarish:

- *yangi bilim va malakalarni hosil qilish;*
- *o'z xatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish.*

*Qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;*

*• belgilangan rejalarни (reja oldi ishlari va rejadan tashqari) takomillashtirish;*

- *yakuniy natijalarini tekshirib ko'rish va tahsil qilish.*

7.O'quvchi-talabalalar faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko'nikmalarini nazorat qilish va joriy yo'l-yo'riqlar berish.

8.O'quvchi-talabalarning tadbirkorlik o'yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko'rish.

9.O'quvchi-talabalarga tadbirkorlik o'yinlarini o'tkazish va unda qatnashish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish, ulami rol o'ynash bo'yicha taqsim qilish, zarurat tug'ilganda har biriga qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berish.

10. Oldindan ishlab chiqilgan ssenariy bo'yicha o'quvchi-talabalarning tadbirkorlik o'yinlari.

11. O'yin ishtirokchilariga joriy yo'l-yo'riqlar berish.

12. O'yin ishtirokchilarining o'yin davomida o'zi o'ynagan rollariga baho berishi hamda o'z-o'zini nazorat qilishi.

13. Tadbirkorlik o'yini natijalarini muhokama qilish va o'quvchi talabaning o'quv-o'yin faoliyatiga baho berish.


Shunday qilib, tadbirkorlik o'yinlaridan yangi bilimlarni egallash, o'tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni yechishda foydalaniadi.

Iqtisodiy ta'lim berishda tadbirkorlik o'yinlarining faol shakllaridan biri "Iqtisodiy savodxonlik" treningidir. "Iqtisodiy savodxonlik" treningi o'quvchi-talabalarning iqtisodiy jarayonlar va bu jarayonlarda kuzatiladigan o'zaro bog'liqliklar, iqtisodiy tushunchalar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan trening guruh o'quvchi-talabalari bilan o'tkaziladi.

Buning uchun guruh o'quvchi-talabalari bir necha jamoaga bo'linadi. Keyin, jamoalar o'zaro bellashadi, ya'ni musobaqa jarayonida ularning har biri iqtisodiy jarayonlar haqidagi bilim va iqtisodiy savodxonligining qay darajada ekanini ko'rsatishga harakat qiladi. Masalan, musobaqa "Tadbirkor"

tushunchasining mazmunini izohlab berish va atamadan foydalanib, iqtisodiy ma'noga ega gaplar tuzish bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

Ularning iqtisodiy ma'noga ega gap tuzish-lari uchun 10-15 daqiqa vaqt beriladi. Bu vaqt davomida musobaqada ishtirok etayotgan jamoaning har biri "tadbirkor" so'zi bilan boshlanadigan iqtisodiy ma'noga ega gaplarni ko'proq tuzishi kerak bo'ladi. Gaplar bir-birini takrorlamasligi lozim. Birinchi tuzilgan gapda asosiy so'z yoki atamaning mohiyat-mazmuni yoki lug'aviy ma'nosi ifodalananadi. Keyin jamoalar o'sha so'zdan foydalanib, iqtisodiy ma'noga ega bo'lgan boshqa gaplarni tuzadilar. Masalan, quyidagi larga o'xshash gaplarni tuzishlari mumkin:



1. Foya olish uchun xo'jalik faoliyati bilan mashg'ul bo'lgan rahbar.
2. Tadbirkorlik faoliyati sub'ekti.
3. Yollanib ishlaydigan shaxs mehnatiga mehnat qonunchiligidagi belgilangan miqdorda haq to'laydi.
4. Tovar yetkazib beruvchi va iste'molchini tanlash huquqiga ega.
5. Mehnatsevar, doimo ish bilan band mas'ul shaxs.
6. O'z faoliyatida maqsadga intilgan kishi.

Musobaqa uchun ajratilgan vaqt tugagandan keyin har bir jamoa o'z varag'ini to'ldirib, uni boshqa jamoaga beradi. jamoalar tuzilgan gaplarning iqtisodiy ma'noga ega emasligini, ya'ni ularning to'g'ri-noto'g'riliгини tekshiradi.

Bir-birlarini takrorlaydigan, iqtisodiy ma'noga ega bo'lмаган iboralarni aniqlaydi. O'zaro tekshiruvlardan keyin har bir jamoa ma'ruza bilan chiqadi. Ular jamoa tomonidan tuzilgan ibora (gap)larning nechtaşı iqtisodiy ma'noga ega yoki ega emasligini e'tirof etishadi.

Jamoalarning ma'ruzalari trening ishtirokchilari va o'qituvchilar tomonidan muhokama etiladi va natijaga asoslanib, har bir jamoaga necha ball berilishi haqida qaror qabul qilinadi. Iqtisodiy ma'noga ega bo'lgan gaplarni ko'p tuzgan jamoa g'olib sanaladi va taqdirlanadi.

### "ISHBILARMONLIK" O'YINI

"Ishbilarmomonlik" o'yini taqlid asosida bajariladigan o'yin shaklidagi o'quv mashg'uloti turidan iborat. Bu mashg'ulot umumiy jihatdan o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan yoki ularga oldindan berilgan topshiriqlarga ko'ra har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid,

ifodalash, aks ettirish) metodi hisoblanadi. Shu bois ham ishbilarmonlik o'yinlari imitatsion boshqaruvchilik o'yinlari deb ataladi.

Ishbilarmonlik o'yinlaridan ko'zda tutiladigan maqsad ishtirokchilarni turli ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishga o'rgatishdan iborat. Ushbu maqsadga muvofiq ravishda ijtimoiy-iqtisodiy tizim modeli asosida boshqaruvchilik qarorini qabul qilish bo'yicha tashkilot rahbari, xodimlari va mutaxassislari faoliyatni imitatsiya qilinadi.

O'yin faoliyatida birorta tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining ish faoliyati, xulq-atvori va ijtimoiy institutlar funksiyalarini imitatsiya qilish amalga oshiriladi. O'yin davomida hal qilinadigan muammoning xarakteriga, ishtirokchilarning o'zaro ta'sirlashuv xususiyatlariga ko'ra vazifalarni guruhli hal qilinadi. Bunda bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ishbilarmonlik o'yinining ko'p taktli ekanligi uning o'ziga xos jihatni hisoblanadi.

Ishbilarmonlik o'yinida rollar va rollarga tegishli maqsadlar aralash holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi o'yin davomida qat'iy belgilangan va o'zgarmas rollarni ijro etishlari belgilanadi.

Ishbilarmonlik o'yini boshqaruvchisi o'zining tashkiliy faoliyati bilan bir vaqtda faol ishtirokchi ham hisoblanadi. U o'yinni tashkil qiladi, o'yinni amalga oshirish rejasini belgilaydi, kengash o'tkazadi yoki nizoli vaziyatni hosil qiluvchi manba sifatida ishtirok etadi. O'yin boshqaruvchisi o'yindagi guruhlar va ekspertlar singari o'yin jarayonining tarkibiy elementi hisoblanadi.

Iqtisodiy o'yinni baholash tizimi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: ishtirokchilarning o'yinni tashkil etish, uning maqsadlarini amalga oshirishdagi faoliyatlarini, har bir ishtirokchi o'ziga berilgan roldan qanchalik chalg'iganini taqdirlash yoki jazolash hamda o'yinning alohida bosqichlarini ballar asosida baholashni nazarda tutadi. Ushbu individual va guruhli baholar asosida yakuniy baholash amalga oshirilishi mumkin.

O'quv jarayonida qo'llaniladigan o'yin metodlarini ishbilarmonlik o'yinlari, rolli o'yinlar va tashkiliy faoliyat o'yinlari turlariga ajratiladi. Bu o'yinlardan ularni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan mavzularni o'rgatishda foydalilanadi. Bunda o'yinni o'tkazishdan oldin uning didaktik va tarbiyaviy maqsadlari aniqlab olinadi. Ushbu o'yinlarning umumiy tavsisi quyidagi jadvalda keltirilgan.

**O'quv jarayonida qo'llaniladigan o'yin turlarning umumiy tavsisi**

O'yining asosiy belgilari	O'quv o'yinlarining turlari		
	Ishbilarmomonlik o'yini	Tashkiliy faoliyat o'yini	Rolli o'yin
O'yin jarayonida modellashtirish shakli va imita-siya darajasi	Real ijob etiladi	Mulohazalashga asoslanadi (faoliyat haqida fikr yuritiladi)	Real ijob etiladi
O'yin boshqaruvchi-sining roli	O'yin davomida faol ishtirot etadi, lider	Jamoaviy fikrlashning tashkilotchisi, kommunikatsiyada vositachi. Faol pozitsiyada	"Kadr ortida" o'yin metodlarini bilvosita nazorat qiladi
Rollarni taqsim qilish tartibi	Rollar aynan taqsimlab beriladi	Rollar shartli bo'ladi, taqsimlanmaydi, shaxsiy pozitsiyalar bo'yicha belgilanadi	Rollar aynan taqsimlab beriladi
Ko'p qo'llaniladigan modellashtirish sohasi	Jamoaviy	Jamoaviy	Jamoaviy yoki individual
O'yining borishini baholash tizimi	Bo'ladi	Ko'pincha bo'lmaydi	Bo'lmaydi

**KROSSVORD - O'YIN METODI**

*Bolalar faqat ular o'zlari ixtiro qilgan narsalar borasidagina haqiqiy tushunchaga ega bo'ladilar va har safar, biz ularga bir narsani tez o'rgatmoqchi bo'lganimizda, biz ularni narsalarni qaytadan kashf etishdan ushlab qolamiz. (J. Piaje)*

Krossvord o'yini XX asrning boshlarida paydo bo'ldi va o'zining qiziqarliligi bilan qisqa vaqt ichida butun dunyoga keng tarqaldi.

"Krossvord" so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, kross - "kesib o'tish" va "word" - "so'z" so'zlarining birikmasidir va u boshqotirma ma'nosini anglatadi. Krossvord tuzish uchun "o'zaro kesishuvchi" katakchalarda so'zlar yozilishi va yozuvda umumiy katakchalarda bir xil harflar qatnashishi kerak. Krossvordlar shakli va hajmi jihatidan juda ko'p turli bo'ladi.

Krossvordning vatanini aniqlash borasida uch davlat bahs yuritadilar. Ular AQSh, Angliya va JAR davlatlaridir. Krossvordning gazeta sahifasida birinchi marta chop etilishi 1913-yilning 21-dekabriga to'g'ri keladi va bu kun birinchi gazeta krossvordining tug'ilish kuni sifatida Ginnes rekordlar kitobiga rasman kiritilgan. Bu krossvord AQShda Artur Uinn tomonidan tuzilgan bo'lib, "New York world" gazetasida e'lon qilingan.

Krossvordga oid muhim pedagogik-psixologik jihatlar ustida to'xtalib o'tamiz.

**Talaba uchun krossvord:**

1. O'yin xarakteriga ega. Bu xususiyat mavzuni oson egallash im-konini beradi. Chunki insонning ruhiyati mavzuni o'yin orqali qabul qilishga moyildir.
2. Xotirani chiniqtiradi.
3. Fikrlash dorasini kengaytiradi, aqlni peshlaydi.
4. Fahmlash qobiliyatini rivojlantiradi.
5. So'z boyligini oshiradi.
6. Izlanuvchanlikni vujudga keltiradi.
7. Intellektual salohiyatni kengaytiradi.
8. Mustaqil fikrlash ko'nikmasini hosil qiladi va shakllantiradi.
9. Bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish imkonini beradi.

**O'qituvchi uchun:**

1. Krossvord o'quv jarayonida talabalarning olgan bilimini aniqlashning barcha nazorat bosqichlarida (joriy, oraliq va yakuniy nazorat bosqichlarida) qo'llanishi mumkin.
2. Krossvorddan talabalarning mustaqil bilim olishini tashkil qilishda foydalanish mumkin. Masalan, o'qituvchi tuzgan krossvordlardan talabalar mustaqil yoki birlgilikda ta'lim olishlarida foydalansalar bo'ladi. Shuningdek, talabalar o'zlashtirishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha mustaqil ravishda krossvord tuzish topshirig'ini bajarishi ham mustaqil bilim olishning bir turini tashkil etadi.

3. Krossvord barcha fanlar bo'yicha tuzilishi mumkin.

Krossvordning yuqorida keltirilgan jihatlari darslarda qo'llanishi uchun to'liq asos bo'ladi, deb hisoblaymiz.

**Quyida joriy nazoratda krossvordni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyani keltiramiz:**

Ayni shu kungacha o'tilgan mavzular bo'yicha tuzilgan krossvord talabalarga tarqatiladi va ularga kataklarni to'ldirish uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Talaba krossvord kataklarini mumkin qadar to'ldiradi va u to'g'ri deb hisoblagan javoblar sonini qog'oz chetiga yozib qo'yadi.

O'qituvchi talabalarning javoblarini ko'rib chiqqach, to'g'ri javobni krossvordning yechimi ko'rinishida (ya'ni, krossvord kataklarida) e'lon qiladi. Bu

ishni texnik vosita – proektor yordamida ekranda namoyish etilishi yaxshi samara beradi. Talaba bir daqiqada o‘z javobining to‘g‘ri va xato joylarini anglab yetadi. Bu mashg‘ulot mavzuga oid bilimning talaba xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga olib keladi.

Krossvord yordamida talaba bilimini tekshirishning bu usuli o‘qituvchiga auditoriya darsi vaqtidan unumli foydalanishga va talabaning ta‘lim olishdagi faolligini oshirishga imkon beradi. Birdaniga amalga oshirilgan bunday nazorat turi talaba uchun ham qiziqarli hamda shu kungacha egallangan nazariy va amaliy bilim, ko‘nikmalarni qanchalik egallaganligini, o‘ziga ishonchini, zehnini yana bir marta sinash imkonini beradi.

Krossvord yordamida talabalarining mustaqil ta‘lim olishlarini tashkil qilishni quyidagicha amalga oshirish mumkin:


- talaba o‘qituvchi tomonidan uyda mashq qilish uchun berilgan krossvordlarni mustaqil yechib, o‘z bilimini oshirishi mumkin. Bu mashq paytida talaba adabiyotlardan va boshqa manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan krossvordlardan bir nechta talabalar birgalikda foydalanib, o‘z bilimlarini oshirishlari mumkin. Bunday mashg‘ulot talabalar orasida erkin bahs-munozara, o‘zaro bir-birini sinash bilan o‘yin kayfiyatida o‘tadi. Natijada bilim oson va mustahkam egallanadi.

- talabaga mustaqil krossvord tuzish topshirig‘i berish mumkin. Bunday topshiriq talabani mavzuga oid adabiyotlarni ko‘rib chiqishga va o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasining shakllanishiga olib keladi.

Krossvordning boshqa pedagogik jihatlari, ta‘lim jarayonida qo‘llanish uslubiyatlari, krossvordlarni tuzish qoidalari, krossvordlarni tuzishda kompyuter va axborot texnologiyalarini qo‘llash haqidagi fikrlarni rivojlantirish masalasi kelgusi ilmiy izlanishlar mavzularini tashkil etadi.

19-sxema

#### Krossvord namunasi



#### **4-bob. INTERFAOL GRAFIK ORGANAYZERLAR METODI**

Interfaol grafik organayzerlar o'rganilayotgan mavzuga tegishli asosiy ma'lumotlarni har turli ko'rgazmali shakllarda (sxema, jadval, diagramma, histogramma va boshqa tasvirlar ko'rinishida aks ettirish orqali) taqqoslash, tahlil qilish metodlari va vositalardan iborat.

**Grafik organayzer** – (grafik tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlami ko'rgazmali taqdim etish vositasi.

**Grafik organayzer** – (grafik tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlami ko'rgazmali taqdim etish vositasi. Ta'lim tizimida didaktikaning ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirish imkonini beruvchi vositalar turkumiga kiradi. Grafik organayzerlar quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish usul va vositalari, o'rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o'rtaida aloqa va aloqadorlik o'rnatish.

Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatsa, ular **ta'lim metodi vazifasini** bajaradi.

Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa, ular **ta'lim vositasi vazifasini** bajaradi. Amaliyotda grafik organayzerlarni bir mashg'ulot davomida ko'pincha shu ikki vazifa qo'llaniladi. Shunga ko'ra ularni amaliyotda ta'lim metodlari deb hisoblanadi. Hozirda keng qo'llanilayotgan grafik organayzerlarni ko'rib chiqamiz.

**"Klaster"** (*tarmoq, g'uncha, bog'lam*) metodi – ta'lim oluvchilarda berilgan muammolar bo'yicha erkin, ochiq o'yish, shaxsiy fikrlarni bemalel bildirish va turli javoblar o'rtaida bog'liqlik o'rnatish hamda guruhlash imkoniyatini yaratuvchi metoddir.

#### **"KLASTER" METODI**

"Klaster" metodi deb ham "Klaster"lar g'oyasini ishlab chiqqan olimlar *Jeni Stil va Stil* (1991) hisoblanadi.

Klaster metodini o'qituvchi tomonidan ishlashda qo'llanilishi deb ham etishdan iborat. Shunga ko'ra ta'minotni o'shish uchun "Klaster" metodi deb ham atash mumkin. Mazkur metod turli xil tushunchalar, g'oyalar o'rtaida bog'liqliklarni muayyan tizimli grafik shaklda tasvirlash orqali ular to'g'risida birmuncha yaqqol fikrlash imkoniyatini beradi.

“Klaster” metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, o‘quvchi-talabalarga istalgan muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarini bermalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bu metod aniq ob‘ektga yo‘naltirilgan fikrlash shakli sanaladi.

“Klaster” metodidan foydalanib fikrlash jarayoni inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchi-talabalar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.


### “Klaster” metodidan foydalanish tartibi

“Klaster” metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchi-talabalar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda o‘quvchi-talabalar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa, ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga rioya qilish talab etiladi:

20-sxema


### “Klaster” metodi bo‘yicha mashg‘ulot ishtirokchilari uchun qoidalar



ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniladi. Undan o‘quvchi-talabalarning muayyan mavzuni sinchiklab to‘liq o‘rganilguncha faol fikrlash faoliyatini ta’minlash maqsadida foydalanish mumkin. Klasterlar tuzish o‘quvchi-talabalarning tasavvurlarini yangi bog‘lanishlar bilan boyitish, ulami grafik ko‘rinishda ifodalash hamda mavzu bo‘yicha yakuniy muhokama o‘tkazish

vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin. Bu ularning yangi bilimlarni yaxshi o'zlashtirishi, muayyan mavzu to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish va unga tegishli bog'liqliklarni tushunishlariga yo'l ochadigan strategiyadir. Klasterlar tuzish ketma-ketligi quyidagicha:

21-sxema




Klasterlar tuzish qoidasi quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

1. Klit so'z bilan bog'liqligi bo'lgan aqlingizga kelgan barcha fikrlarni yozib oling. Bu fikrlarni muhokama qilmang, shunchaki, yozib olavering.
2. Xatni (matnni) yozishni kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham e'tibor bermang.
3. Sizga berilgan vaqt nihoyasiga yetmagunga qadar yozishdan to'xtamang. Miyangizga fikr kelishi to'xtab qolsa, toki yangi fikrlar kelgunga qadar qog'ozda nimalarnidir chizib o'tiring.
4. Imkoni boricha bog'lanishi mumkin bo'lgan g'oyalarni tizib chiqing. G'oyalarning oqimi sifatida va ular orasidagi aloqalarni chegaralab qo'y mang.

Klasterlar tuzish bo'yicha namunalarni keltirib o'tamiz:

22-sxema

### **Klasterning sxematik namunasi**



Masalan, "Fermer" tushunchasi asosida klaster tuzaylik. Buning uchun xayolimizga kelgan barcha so'z, tushuncha, g'oyalarni yozib chiqamiz. Ularni aloqadorlikda quyidagi "Fermer" klasterida aks ettirishimiz mumkin. Navbatda tushunchaning bir-biriga o'xhash xossalarni umumlashtirib, klasterni tashkil etuvchilarni toifalarga ajratamiz va 23-sxemada ifodalab, bog'lanishlarni aniqlab ko'rsatamiz.

### "INSERT" METODI

"Insert" metodi mavzuni o'rghanish jarayonida "bilaman" (+), "bilmayman" (-), "fikrimga qarshi" (x), "bilishni xohlayman" (v), "tushunmadim" (?) deb nomlangan ustunlarga ega maxsus jadvalni to'ldirish va tegishli tahlillar o'tkazish, xulosalar chiqarish mashg'ulotidan iborat.

24-sxema

#### "Insert" metodini qo'llashning umumiy sxemasi

Grafik tashkil etuvchi turi, ahamiyati va xususiyatlari

O'quv faoliyatini tashkil etish jarayonining tarkibiy tuzilmasi

#### INSERT JADVALI

mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi. Oldindan olingen ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Insert jadvali tarkibi va uni to'ldirish qoidasi bilan tanishadi. Shaxsan uni rasmivlashtiradi.

O'qish vaqtida olingen ma'lumot yakka tartibda taqsimlanadi: matnda belgi qo'yilgan mos ravishda jadval ustunlariga "joylashtiriladi":  
 "v" – "... haqida olingen bilim (ma'lumot)ga mos keladi;  
 "—" – "... haqidagi bilimga qarama-qarshi;  
 "+ " – yangi ma'lumot sanaladi;  
 "?" – tushunarsiz qo'shimcha ma'lumot.

#### Insert jadvali

v	+	-	?
---	---	---	---


Bu metod o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha o'quvchi-talabalarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- *kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi. Har bir guruhdan o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so'raladi;*
- *o'quvchi-talabalar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadilar;*
- *bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;*
- *so'ngra o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlarga tarqatadi;*
- *guruhsiz matn bilan tanishib chiqib, matn va o'zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o'xhashlik va farqlar maxsus belgilarni yordamida qayd etiladi);*
- *guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilarni umumlashtiriladi;*
- *guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi, liderlar guruhsiz va sinf jamoasining natijalari bilan tanishtiradilar;*
- *guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.*

Metodni qo'llashda o'quvchi-talabalarning faoliyatlarini tegishlichcha shakllardagi jadval yoki sxemalar bo'yicha tashkil etiladi. Masalan, guruhsiz tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanganda 24-jadvalda ko'rsatilgan shakl bo'yicha tashkil etiladi:

24-jadval

**Guruhsiz tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matnni qiyosiy taqqoslash jadvali namunasi**

Maxsus belgilarni	Maxsus belgilarning maonosi
Z	Matnda guruhsiz tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa
S	Matnda guruhsiz tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug'ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

Guruhsiz bo'yicha liderlarning hisobotidan so'ng guruhlarning natijalarini qiyosiy taqqoslab o'rganishni 25-jadvalda ko'rsatilgan shakl bo'yicha tashkil etiladi:

**Liderlarning hisobotidan so'ng gurublarning natijalarini qiyosiy  
taqqoslash jadvali namunasi**

<b>Maxsus belgilarning tartib raqamlari</b>	<b>Guruhlarning nomlari</b>			
1.	Forobiy	Farg'oniy	Bebbudiyl	Avloniy
2.				
3.				

Metod o'quvchi-talabalarda mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishslash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.<sup>11</sup>

"Insert" texnologiyasi o'quv materiallarini o'zlashtirish va mustahkamlash, o'quvchi-talabalarning kitob bilan ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish, berilgan vazifalarni mustaqil bajarishlarida qo'l keladi. Ushbu texnologiya qo'llanilganda o'quvchi-talabalar matnlardan mustaqil foydalanish, olingan axborotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish, ularni qisqa va aniq bayon qilish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

O'qitishning ushbu texnologiyasida o'qituvchi yangi mavzuni bayon etmaydi, balki uning nomini e'lon qiladi. Mavzu e'lon qilin-gach, o'quvchi-talabalar berilgan matnni mustaqil o'qib-o'rganadilar.

Shundan keyin keltirilgan maxsus jadvalning "bilaman" (+), "bilmayman" (-), "fikrimga qarshi" (x), "bilibishni xohlayman" (v), "tushunmadim" (?) deb nomlangan ustunlarini belgililar bilan to'ldiradilar. So'ng o'qituvchi o'quvchi-talabalar bilan birgalikda to'ldirilgan jadvallarni muhokama qiladi.

*Metodning afzalligi:*

- o'quvchi-talaba matnlardan mustaqil foydalana oladi;
- olingan axborotlarni mustaqil tahlil qila oladi;
- axborotlarni tizimlashtirib, ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'latdi;
- kichik guruhlarda ishslash jarayonida har bir guruuh a'zosining guruuh bilan ishslash hamjihatligi mustahkamlanadi.

*Metodning kamchiligi:*

- metodni qo'llash uchun ko'p vaqt kerak;
- har bir ishtirokchi uchun alohida tarqatma material talab etiladi;
- ishtirokchilarning o'zlashtirish darajalari har xilligi sababli kutiladigan natijaga har doim ham erishilavermaydi.

<sup>11</sup> 1. Qarang: Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning taqbiqi asoslari. – T.: «Fan», 2006, 144 – 174-beellar.

## “TOIFALI JADVAL TUZISH” METODI

*Qiyin fanlar yo'q, faqat hazm etilishi  
qiyin bo'lgan izohlargina bor (A.I. Gersen)*

Bu metod o'r ganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni toifalashtirib tahlil qilish va xulosalar chiqarish mashg'ulotidan iborat.

**Toifa** – mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan umumiy tushuncha bo'lib, u:

- ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi.
- tizimli mushohada qilishni, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.



O'quvchi- talabalar toifali sharhni tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi. Aqliy hujum (klasterga ajratish) dan so'ng kichik guruhlarda yangi o'quv materiali bilan tanishiladi va olingan ma'lumotlar fragmentlarini birlashtirishga imkon beradigan toifalarni izlash ishlari olib boriladi.



Toifalar jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi. G'oya ma'lumotlar jadvalida tegishli toifalar bo'yicha taqsimlanadi. Ish jarayonida ma'lum bir toifalar nomlari o'zgartirilishi mumkin. Yangilari paydo bo'lishi mumkin.



### Toifali sharhni tuzish qoidalari

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta kichik guruhdha toifalarga ajratish boshqa guruhdha ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. O'r ganuvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas, bu ularning mustaqil tanlovi bo'lsin.
4. Toifali sharhni yaratish yakuniy mahsul sifatida emas, balki jarayon sifatida muhim.

## Toifali sharh javdali namunasi

## Toifalar va sharhlari

**"KONSEPTUAL JADVAL TUZISH" METODI**

**"Konseptual jadval tuzish" metodi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bar turli yondashuvlar, tushunchalar, tavsiflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilarni tegishlichcha taqqoslash, toifalash asosida tahlillar o'tkazish, xulosalar chiqarishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.**

**"Konseptual jadval tuzish" metodi o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, qarasb, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi.**

Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikma-sini rivojlantiradi.

**Metodni qo'llash bosqichlari:**

1. Konseptual jadval tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Taqqoslanadigan ob'ektlar aniqlanadi, taqqoslash amalga oshiriladigan tavsiflar ajratiladi.
2. Yakka tartibda yoki kichik guruhlarda konseptual jadval tuziladi va to'ldiriladi;
  - *vertikal bo'yicha* - taqqoslash talab etiladigan narsalar (qarashlar, nazariyalar) joylashtiriladi
  - *gorizontal bo'yicha* – taqqoslashni amalga oshirishdag'i har xil tavsiflar joylashtiriladi.
3. Ish natijasi taqdimoti.

**Konseptual jadval tuzish namunasi**

... ga yondashuvlar, ... tushunchalari	Tavsiflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar			

**"BILAMAN, BILISHNI XOHLAYMAN, BILIB OLDIM"****(“BBB-JADVALI”) METODI**

Ushbu metod o'quvchi-talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bi-limlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchi-

talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlarini quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

1. *har bir guruh umumiyyat sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriglarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi;*

2. *guruhi lar umumiyyat sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriglarni bajaradi.*

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi 25-sxema asosida tashkil etiladi:

25-sxema

**"Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim" sxemasi**

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya'ni:

1. O'quvchi-talabalarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2. O'quvchi-talabalarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi.

3. O'quvchi-talabalarni mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

Bosqichlar bo'yicha amalga oshiriladigan harakatlarning to'liq tafsiloti quyidagicha:

a. o'quvchi-talabalar guruhlarga biriktiriladi;

b. o'quvchi-talabalarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga ega-lik darjasini o'rganiladi;

c. o'quvchi-talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;

d. o'quvchi-talabalarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo'yiladi;

e. o'qituvchi o'quvchi-talabalarni yangi mavzuga oid umumiyyat ma'lumotlar bilan tanishtiradi;

f. o'quvchi-talabalar o'zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;

g. bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo'yiladi;

h. mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.

## “T – JADVAL”

“T-jadval” mashg’ulotda ikki xilga ajratib tahlil qilish mumkin bo’lgan ma’lumotlar bilan ishlashni qulaylashtirish imkonini beradigan shakldagi jadvaldan iborat. Uning oddiy ko’rinishi qog’oz varag’ining o’rtasidan tik chiziq bilan ikki qismga ajratish va har bir qism yuqorisiga tegishlicha “ha”–“yo’q”, “tarafdr”–“qarshi” kabi so’zlar bilan, “+”–“–” kabi belgililar bilan, “A”–“B”, “1”–“2” kabi harflar yoki raqamlar va shu kabilar bilan belgilashdan iborat. Shunday hosil qilingan jadvalning ko’rinishi “T” harfiga o’xshashligidan uni “T-jadval” deb nomlanadi.

“T-jadval” munozara vaqtida ma’lumotlarni hamda qo’shaloq javoblarni (“ha”–“yo’q”, “tarafdr”–“qarshi”) yoki boshqa asoslarda taqqoslash natijalarini yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi.

26-sxema

### “T-jadval”dan foydalanish mashg’uloti bosqichlari

Ishtirokchilarni T-jadval bilan ishslash qoidalari bilan tanishtiriladi. Ishtirokchilar o’z T-jadvallarini yakka tartibda yoki juftlikda to’ldirib rasmiylashtiradilar.

T – jadval o’rganilayotgan mavzuga doir bitta konsepsiya (ma’lumot)ning jihatlarini o’zaro solishtirish yoki ularni “ha”–“yo’q”, “tarafdr”–“qarshi”ga ajratish uchun xizmat qiladi. Tanqidiy mushohadani rivojlantiradi.

Ajratilgan vaqt oralig’ida belgilangan tartibda (juftlikda) T-jadvalni to’ldiradilar, uning chap tomoniga sabablar yoziladi, o’ng tomoniga esa chap tomondagiga nisbatan qarama – qarshi g’oyalar, omillar va shu kabilar yoziladi.

Yakka yoki juftlikda tuzilgan jadvallarni taqqoslab, muhokama qilib, kichik guruhning umumiy jadvalini to’ldiriladi.

Kichik guruhlari tomonidan tuzilgan jadvallarni taqqoslab, muhokama qilib, o’quv guruhining yagona T-jadvalini tuziladi.

### "T-jadval" namunasi

+ (ha)	- (yo'q)

### "SWOT-TAHLIL" METODI

Kuchli, kuchsiz tomonlarni, imkoniyatlar, xavf-xatarni aniqlash asosida tahlil qilish va xulosalar chiqarish metodi

Bu metod biror loyihaning yoki tashkilot faoliyatining muvaffaqiyati uchun kelgusidagi ko'zda tutilgan aniq natijani hisobga olgan holda strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda qo'l keladi.

Qoidaga ko'ra, "SWOT-tahlil"ning muvaffaqiyati tashkilotga bog'liq bo'lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda ulardan ko'zda tutilgan natijaning hisobga olinishiga bog'liq bo'ladi. Uni qo'llashda tahlil qilinayotgan maqsad va loyiha elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

S - strength - **kuchli tomoni** - hal etilayotgan vazifaning afzalliklari;

W - weakness - **kuchsiz tomoni** - maqsadga erishishda ichki muhit omillarini ta'siri;

O - opportunities - **imkoniyatlar** - belgilangan vazifalarni hal etishdagi eng ma'qul holat;

T - threats - **xavf-xatar** - faoliyatni amalga oshirishda to'sqinlik qiluvchi tashqi muhit omillari.

27-sxema

### "SWOT-tahlil" metodining umumiyligi sxemasi

"SWOT-tahlil" jadvali  
- tashkilot resurslari holatini  
tahlil qilish va baholash  
vositasи. Bu kabi tahlilni  
tashkilot bo'yicha umumiy  
tarzda yoki alohida muammo  
yoki loyiha bo'yicha ham  
amalga oshirish mumkin.  
Tizimli mushohada qilish,  
taqqoslash, solishtirish, tahlil  
va sintezni amalga oshirish  
ko'nikmalarini rivojlantiradi

"SWOT-tahlil" jadvalini tuzish tartibi  
bilan tanishiladi

Ishtirokchilar kichik guruhlarga  
birlashishadi, taqqoslashadi,  
to'ldirishadi, o'zgartirishadi.  
Umumiy "SWOT-tahlil" jadvaliga  
jamlashadi.

Ish natijasi taqdimoti

**“SWOT-tahlil” jadvalini to‘ldirish namunasasi**

<b>S</b>	Kuchli tomonlari (korxona ichki resurslari)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi</li> <li>- yangi loyihalar asosi hisoblanadi</li> <li>- noqulayliklarni yengib o‘tishi vositasi ham bo‘lishi mumkin</li> </ul>
<b>W</b>	Ojiz tomonlari (korxona ichki muammolari)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- korxona faoliyati aynan shu kabi kamchiliklarni yengib o‘tishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim</li> <li>- yangi loyihalar uchun o‘zak maqsad hisoblanadi</li> <li>- rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda majburan hisobga olinishi zarur</li> </ul>
<b>O</b>	Imkoniyatlar (tashqaridan)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘srimcha resurslari yoki tashqi manbasi bo‘lib xizmat qiladi</li> <li>- korxona maqsadi bilan qanchalik darajada ular mos kelishi yoki qanchalik murosaga kelish imkoniyati borligini hisobga olish zarur bo‘ladi</li> <li>- yangi loyihalar asosi, yoxud hamkorlik manbasi bo‘lishi mumkin</li> </ul>
<b>T</b>	Xavflar (tashqaridan)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- har bir yangi loyihada hisobga olinishi zarur</li> <li>- ularni bartaraf etish chora-tabirlarini ishlab chiqish talab etiladi;</li> <li>- ayrim hollarda «dushmanni» «ittifoqchi» ga aylantirish paradoksal varianti mumkin bo‘ladi</li> </ul>

**“SWOT-tahlil” jadvalining umumiy ko‘rinishi**

<b>S</b>	<b>W</b>
<b>O</b>	<b>T</b>

### **“Qanday?” diagrammasini qurish qoidalari:**

1. Ko‘p hollarda muammolarni hal etishda «Nima qilish kerak?» degan savolga nisbatan «Buni qanday qilish kerak?» degan savolga javob topish asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunga ko‘ra «Qanday?» degan savol muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

“Qanday?” ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiylasavvurga ega bo‘lishga imkon beradigan savollarning mantiqiy zanjiri ko‘rinishida bo‘ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo‘yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalgasherish usullarini ham o‘rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning pastki (quyi) darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro‘yxatiga mos keladi.

2. O‘ylamay, baholamay va ularni o‘zaro solishtirmay tezlikda barcha g‘oyalarni yozish lozim bo‘ladi.

3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi, unga yangi g‘oyalarni kiritish mumkin bo‘ladi.

4. Agar bir xil savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo‘lishi mumkin.

5. Yangi g‘oyalarni qanday grafik ko‘rinishda qayd etishni o‘zingiz hal eting (daraxt yoki kaskad ko‘rinishida, yuqorida pastga yoki chapdan o‘ngga). Bunda eng muhammi nisbatan ko‘p miqdordagi foydali g‘oyalarni va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanishini esda tuting.

6. Agar siz to‘g‘ri savol bersangiz va optimist bo‘lsangiz, u holda «Qanday?» ierarxik diagrammasi (texnikasi) har qanday muammoning yechimini topib berishni kafolatlaydi.

### **“KASKAD” TARKIBIY-MANTIQIY SXEMASI**

“Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxemasi o‘quvchi-talabalarda o‘rganilayotgan muammoni tarkibiy-mantiqiy tahlil qilish, unga tegishli ierarxik g‘oyalarni tarkibini aniqlash, tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

#### **“Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxemasini qurish qoidalari:**


1. “Kaskad”ni tuzish jarayonida tizimli sxemaning tarkibiy qismi va elementlarini oldinga surish mumkin – bu u yoki bu holatni qayta mushohada qilishga imkon beradi.

2. G'oyalarni ishlab chiqishda agar siz tor yo'lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizga hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligiga amin bo'ling.


3. Siz chapdan o'ngga yozishga o'rgangansiz. «Kaskad» qurishning esa, o'ngdan chapga bo'lishiga harakat qiling. Buning uchun asosiy g'oyani varaqning chap chekkasiga emas, balki o'ng chekkasiga joylashtiring.

33-sxema

### «Kaskad» tarkibiy-mantiqiy sxemasini qo'llash namunasi




### "Kaskad" tarkibiy-mantiqiy sxemasini qo'llashning shartli tasviri




### “Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxemasining namunaları

a)



b)



### “NILUFAR GULI” SXEMASI

“Nilufar gul” sxemasi ishtirokchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o‘z navbatida to‘qqizta kichik kvadratlardan iborat. Asosiy muammo (masala) markaziy kvadratning markaziga yoziladi. Uni hal qilish g‘oyalari markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yoziladi. Har bir ushbu sakkizta g‘oya markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadratlarning markaziga o‘tkaziladi, - boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o‘tkaziladi. Shunday qilib, ular har biri, o‘z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

#### “Nilufar gul” sxemasi asosida masbg‘ulotni tasbkil qilish:

1. O‘rganilayotgan mavzuga doir o‘quv topshiriqlari o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab olinadi.
2. Mashg‘ulot boshlanishida o‘quvchi-talabalarni o‘quv topshiriqlarini bajarish uchun 3 ta kichik guruhlarga ajratiladi.
3. Kichik guruhlarga topshiriqlar tarqatiladi va tegishli tushuntirishlar beriladi.

4. Har bir kichik guruh a'zolari o'z guruhlari raqamiga muvofiq belgilab qo'yilgan kvadratlarga (grafik tashkil etuvchilaridan biriga) mustaqil ravishda o'z fikrlari bo'yicha munosib tafsif va belgilarni xohlagan shaklda yozadilar.

5. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish usul va vositalarini qo'llab o'rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o'rtasidagi bog'liqliklarni aks ettiradilar.

6. Shu bog'liqliklar bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalarini qo'llab ma'lumotlarni ahamiyati jihatidan tegishli darajalarga ajratadilar.

7. Ma'lumotlar tarkibi va bog'liqliklaridagi muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalarini qo'llab tegishli xulosalar chiqaradilar.

8. Kichik guruhlar birlashib, to'ldirilgan grafik tashkil etuvchilarda yozilganlarni muhokama qiladilar va qiyosiy tahlil qiladilar.

9. Ma'lum bir misol asosida mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsadning bajarilganligini tahlil qilib xulosalar chiqariladi.

10. Ushbu mavzu bo'yicha o'quv guruhining bilimini aks ettiradigan ko'rgazmali taqdimotni rasmiylashtiriladi.

### **“Nilufar gul” sxemasini qo'llash bosqichlari**

«Nilufar gul»  
sxemasi  
muammoni hal etish  
usuli.

O'zida nilufar gul obrazini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nkmalarini rivojlantiradi.

Ishtirokchilar sxemani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi. Ular yakka (juftlikda) o'z sxemalarini tuzadilar: asosiy muammo (masala) markaziy kvadratning markaziga yoziladi. Uni hal qilish g'oyalari markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yoziladi. Har bir ushbu sakkizta g'oya markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o'tkaziladi, - boshqacha atyganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o'tkaziladi. Shunday qilib, ular har biri, o'z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

Ishtirokchilar juftliklarga birlashadilar, o'z sxemalarini taqqoslaysilar va qo'shimchalar kiritadilar. Umumiyligi sxemaga jamlaydilar

Natijalar taqdimoti o'tkaziladi

**"Nilufar gul'i" sxemasining umumiyl ko'rinishi**

	B	
	D	
G		

		Z
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	

		C
	F	
	Y	

## XOTIMA

Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati shaxsiy mohiyat sifatida qabul qilinadigan o'quv maqsadlariga ongli ravishda qaratilgan bo'lishi lozim. Psixolog olimlar (D.B.Elkonin va b.) ta'kidlaganidek, o'quv faoliyati eng avvalo shunday faoliyatki, uning natijasida ta'lrim oluvchining (o'quvchining) o'zida o'zgarish yuz beradi. Bu faoliyat o'z holicha o'zgarishdir. Uning mahsuli, sub'ektning o'zida yuz bergen o'zgarishlardir.

O'quv faoliyatining asosiy motivlari ichki o'quv-bilish motivlaridir. O'quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa, ta'lrim oluvchining bo'lg'usi kasbiga bo'lgan qiziqishi va moyilligidir.

Ta'lrim oluvchi o'zining o'quv jarayonida egallagan bilimlaridan, kasbiy ko'nikma va malakalaridan hissiy qoniqish va undan quvonch hissini hosil qilishi lozim.

Bunday vazifalarni hal qilishda o'qitish jarayonida o'yinli metodlardan foydalanish ulkan ahamiyat kasb etadi. O'yinli o'qitish metodlaridan foydalanish ta'lrim jarayonida barcha ishtirokchilar muloqotning demokratik uslubi yutuqlaridan foydalanishlariga xizmat qiladi, ta'lrim oluvchilarning ijodiy kuchlari va qobiliyatini o'stiradi.

Hozirda o'qituvchilar uchun har bir dars mavzusiga xos xususiyatlarga muvofiq bo'lgan ta'lrim metodlarini to'g'ri tanlash, ulardan samarali foydalanish yo'l-yo'riqlarini puxta egallash eng dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda mazkur o'quv-metodik qo'llanma zarur yordam ko'rsatishiga umid qilamiz.

## TAYANCH TUSHUNCHALAR

Hozirda ta'lrim metodlari sohasida turli mamlakatlarda o'ziga xos tajribalar mavjudligini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatda xorijiy adabiyotlar, o'quv metodik materiallar va boshqa manbalar bilan tanishish, ularni o'rganish hamda amaliyotda zarur darajada foydalanish ta'lrim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda jiddiy ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan ta'lrim metodlarining nazariy va amaliy masalalariga tegishli asosiy atamalarning o'zbek va ingлиз tillaridagi qisqa sharhlarini quyidagi jadvalda keltirdik.

<b>Atamalar</b>	<b>O'zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>"Assesment" texnologiyasi</b> <b>"Assessment technology"</b>	Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari dara-jasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
<b>Validatsiya</b> <b>Validation</b>	Ta'lim mahsuloti, ta'lim xizmatlari yoki ta'lim tizimi iste'molchilari ehtiyojlari-ning qondirilishi	Satisfaction of interests of customers in educational and service system
<b>Vebinar texnologiya</b> <b>Webinar technology</b>	Web texnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta'lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konfrensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqeя yoki hodisalar bo'yicha Internet tarmog'i orqali tashkil etiladigan to'g'ridan to'g'ri uzatiladigan lavha (translyatsiya)lar.	Broadcasting organized via Internet transmitting live seminars, conferences, debates, presentations, negotiations, meetings, trainings, various events with the help of Web technologies
<b>Dars ishlamasi</b> <b>Lesson planning</b>	Ta'limiylar mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat	An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence
<b>Dasturiy ta'lim</b> <b>Program education</b>	1) o'qitishning talaba, talabalar ehtiyoji, qizi-qishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o'quv material -larini o'zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo'lgan muammolar, o'quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi-gan ta'lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri	1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the academic subject; 2) one of the pedagogical technologies

<b>Invigilator</b> <b>Invigilator</b>	Masofaviy ta'lif asosida tashkil etiladigan o'qitish natijalarini nazorat qiluvchi mutaxassis-pedagog	A specialist-pedagog who controls the results of teaching in the frames of distance learning
<b>Individual ta'lif</b> <b>Individual education</b>	Ta'lif jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lif vositalari (adabiyotlar, kompyuter, tele-videnie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilan o'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lif	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or educational means (literature, computer, television, radio, etc.) during educational process
<b>Innovatsion ta'lif</b> <b>Innovative education</b>	Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lif	Education that allows to develop skills and qualities f a student
<b>Innovatsion faoliyat</b> <b>Innovative activity</b>	Yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladi-gan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat	An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards
<b>Innovatsiya</b> <b>Innovation</b>	Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system
<b>Interfaol ta'lif</b> <b>Interactive yeducation</b>	Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lif	The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde

<b>“Keys-stadi” texnologiyasi</b> <b>“Case study” technology</b>	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini -shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	A technology that forms skills in searching for proper variants by analyzing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems
<b>Konsorsium Consortium</b>	Masofaviy ta’limni tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma	A union of two universities that organize a distance learning
<b>Loyihalash Projecting</b>	Boshlang’ich ma’lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat	An action aimed at developing the essence of an activity or process, activity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means
<b>Loyiba Project</b>	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli	A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness
<b>Loyiba metodi</b> <b>A method of project</b>	O’quv jarayonini individuallashtirish, talabaning o’zini mustaqil namoyon qilishini rejalashtirish, o’z faoliyat-ini oqilona tashkillashti-rish va nazorat qilish imko-niyatini beradigan ta’lim metodlari majmui	A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students’ performance, control and proper organization of an activity
<b>Loyiba ta’limi</b> <b>A study of project</b>	Ta’limiy xarakterdagи aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo’naltirilgan ta’lim	Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a plan and aim that have educational characteristics

<b>Masofaviy ta'lism</b> <b>Distance learning</b>	Muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lism xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiylar mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdai an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lism resurslaridan foydalananishga yo'naltirilgan ta'lism	Education aimed at using study resources based on innovative form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.)
<b>Mahorat darslari</b> <b>Master classes</b>	Ochiq tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib etishga yo'naltirilan samarali o'qitish shakli	An effective form of teaching organized to spread progressive pedagogical experiences
<b>Moderator Moderator</b>	Masofaviy ta'lism negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbat va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog	A pedagog leading seminars, trainings, debates and forums organized in the frames of distance learning
<b>Model Model</b>	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi	A simplified or lessened copy of a real and authentic object
<b>Modernizatsiya Modernization</b>	Ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi	Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations
<b>Modul Module</b>	1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi atama; 3) o'quv materialining manntiqan tugallangan birligi	1) units that consist of interrelated elements in the system; 2) notion meaning parts that create a certain technology; 3) logically completed units of study materials

<b>Modul ta'limi</b> <b>A study of module</b>	O'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materiali mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi	A certain form of organization of educational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps
<b>Muammoli vaziyat</b> <b>Dilemma</b>	Talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and effective accomplishment
<b>Muammoli ta'lim</b> <b>Problem education</b>	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
<b>Mustaqil ta'lim</b> <b>Independent learning</b>	OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim	education aimed at preparing the students of higher educational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs
<b>Novatsiya</b> <b>Novation</b>	Tizimdagи ayrim elementlarnigina o'zgartirishga xizmat qiluvchi faoliyat	An activity that serves to change certain elements in the system

<b>Pedagogik muammo</b> <b>Pedagogical problem</b>	Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala	A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution
<b>Rivojlantiruvchi ta'lif</b> <b>Developing education</b>	Talabalarning ichki imkoniyatlarini rivojlanti-rish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lif	Education aimed at revealing and developing students' inner capacities
<b>Supervizor</b> <b>Supervisor</b>	Quyidagi to'rt vazifani bajaradi: o'qituvchi sifatida o'rgatadi, fasilitatorlik, maslahatchi, ekspert vazifani bajaradi.	Supervisor-does 4tasks, teaches as a teacher facilitator, advisor and expert.
<b>Superviziya</b> <b>Supervision</b>	O'zaro munosabatlar tizimi bo'lib, supervizor tomonidan kasbiy faoliyatga oid boshqa mutaxassisiga maslahatlar berishni ko'zda tutadi.	Supervision-gives advice to other specialists on their professional, activities and interrelation system.
<b>Tadqiqot loyihalari</b> <b>Projects of research works</b>	Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar	Projects that have scientific study characteristics
<b>Ta'lif jarayonini loyihalashtirish</b> <b>Projecting the educational process</b>	O'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyat-ni rejalaشتirish va tashkil-lashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlov-chi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati	A targeted educational activity organized in order to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activites and its assessment
<b>Ta'lif innovatsiyalari</b> <b>Educational innovations</b>	Ta'lif sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results
<b>Tayanch konspekt</b> <b>Reference cponspekt</b>	Nazariy o'quv materiali (axboroti)ni grafikli tasvir (qisqa xulosa, tushuntiruvchi surat, shartli ramz, sxema, javal, grafik chizma va b.)da ifodalovchi konspekt	A conspect about theoretical learning materials (information) depicted with graphic pictures (brief conclusion, explaining pictures, signs, schemes, charts)

<b>Texnologik model (pasport)</b> <b>Technological model (passport)</b>	Ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat	A document that reveals main indicators of education or spiritual and educational events and their technological characteristics
<b>Texnologik xarita</b> <b>Technological map</b>	Ta'lim jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalmarni o'z ichiga olgan hujjat	A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead educational process or those who carry out technical services to a certain object
<b>Tyutor</b> <b>Tutor</b>	O'quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba o'rtasida ta'limiylar aloqani o'rnatuvchi ustoz, murabbiy	A teacher, coach who uses interactive methods for courses and establishes learning communication between a student and lecturer
<b>Fasilitator</b> <b>Facilitator</b>	Masofaviy ta'lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarning faoliyatini natijasini muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog	A teacher who helps to search for scientific solutions to the problem of the results of activities of groups that use distance learning services, and who develops communication occurring in groups, effectively and objectively assesses activity of groups
<b>Franchayzing</b> <b>Franchising</b>	O'zaro hamkor universitet-larning bir-birlariga o'zlarini tomonidan tashkil etiladi-gan masofaviy ta'lim kurslarini tashkil etish huquqining berishi	Rights that are given by partner universities to other universities for carrying out distance learning courses
<b>Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim</b> <b>Student-centered education</b>	Talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies

<b>Shaxsnri rivojlantirish</b> <b>Developing an individual</b>	Individida vaqt nuqtai nazaridan jismoni va ruhiy o'zgarishlarning sodir bo'lish jarayoni	A process of occurring physical and psychological changes in an individual
<b>Edvayzer Advisor</b>	Bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihibalarining talabalar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi	An advisor who assists in an independent accomplishment of a thesis, course projects by students
<b>O'yin texnologiyalari (o'yin ta'lifi) Game technologies (game learning)</b>	Ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lif (pedagogik texnologiya) turlaridan biri	One of the types of education (pedagogical technologies) aimed at creating a process of emotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social experiences by a student
<b>O'quv loyihasi Learning project</b>	1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasи; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lif berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakkantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita	1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a product; 2) means of learning activities carried out by students for accomplishing the practical assignments based on theoretical knowledge; 3) a didactic mean that develops, educates, increases knowledge and develops skills, competence
<b>O'quv topshiriqlari Study assignments</b>	O'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limi vazifalar yig'indisi	A set of learning assignments that allows to identify the level of knowledge, skills and competence of students on a certain subject

<b>Hamkorlik ta'limi Cooperation education</b>	O'quv jarayonida talabalar-ning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni <b>birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, "pedagog-talaba(lar)" muno-sabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim</b>	Education based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process
<b>Hamkorlik ta'limi texnologiyalari Cooperation education technologies</b>	O'quv jarayonida talabalar-ning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni <b>birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, "pedagog-talaba(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlovchi ta'limiy xarakterdagi texnologiyalar</b>	Educational technologies that allow to establish relationships based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.
5. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
6. O'rionov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma.
7. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.
8. Oliy ta'lifning me'yoriy - huquqiy xujjatlari to'plami. -T., 2013. 8. Rasprostranenie Bolonskogo protsessa: o deklaratsii k vnedreniyu na praktike. V 3-x chastyax. Chast 2. Tendensii razvitiya Bolonskogo protsessa, yego instrumenty i oriyat vnedreniya / R.R. Agishev, I.V. Anisimova, Sh.M. Valitov, D.A. Gopkalo, V.G. Kryukov, A.E. Pushkina, L.A. Simonova, A.P. Snegurenko.
9. Pod red. prof. R.R. Agisheva. - Kazan, KGTU im. A.N. Tupoleva, 2008. - 118 s.
10. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.
11. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.
12. Bottino R.M., Forcheri P., Molino M.T. Technology Transfer in
13. Cropley A., Cropley, D. Using Assessment to Foster Creativity. – Singapore: World Scientific. 2007. Pp. 209-230.
14. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
15. Avlaev O.U. Muammoli ta'lifning psixologik asosi. –T.: 2014 y. 132 b
16. Ayupov T.X., Ahmadjonov X.I., Imomqorieva Sh.R. Samarali ta'lif berish usullari. –T.: 2003.

17. Ashurova S. Maxsus fanlarni modul texnologiyasi asosida o'qitish. // Kasb-hunar ta'limi. 2004-yil 5-soni.
18. Azizzxo'jaeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. –T.: 2006, 159 bet.
19. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv uslubiy qo'llanma. – T.: 2009. 155 bet.
20. "Innovatsion ta'lif texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv –uslubiy majmua. (Tuzuvchilar: N.A. Muslimov, M.Usmonboeva, M.Mirsolieva) T.: 2016 y. 227 bet.
21. Karimova V. Psixologiya. O'quv qo'llanma. –T.: 2002.
22. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lif texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.
23. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 120 b.
24. Olimov Q.T. "Zamonaviy ta'lif va innovatsion texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar" moduli bo'yicha o'quv –uslubiy majmua. 2015y. 81 bet
25. D.Ro'ziyeva va boshqalar. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.
26. Tolipov O'.Q., Usmonberdieva M. Pedagogik texnologiyalar-ning ta'biqiylarini asoslari. O'quv qo'llanma; -T.:»Fan», 2006.
27. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. –T.: 2009.
28. "Ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi seminar trening materiallari. –T.: 2002.
29. Tillashayxova M. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiya-lari va ularning ta'lif tizimini rivojlantirishdagi o'mni. // Iqtisodiyot va ta'lif, 2005-yil 2-soni.
30. Usmonova Sh., Rahimov B. Muammoli ta'lifni tashkil etishning psixologik asoslari. // Xalq ta'lifi, 2005-yil 5-soni.
31. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. –T.: Fan, 2000.
32. Farberman B.L., Musina R.G. Jumaboeva F.R. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. –T.: 2002.
33. Xodiev Baxodir Yunusovich, Golish Lyudmila Vladimirovna. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. O'quv-uslubiy qo'llanma – T.:TDIU, 2010. – 97 b.
34. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", 2009, 608 bet.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1 - MAVZU: MAXSUS (PSIXOLOGIYA) FANLARINI O'QITISH METODIKASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.....	4
2 - MAVZU: MAXSUS (PSIXOLOGIYA) FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM SHAKLLARI.....	9
3 - MAVZU: SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.....	32
4 - MAVZU: MAXSUS (PSIXOLOGIYA) FANLARNI O'QITISHDA RIVOJLANTIRUVCHI VA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.....	52
5 - MAVZU: PSIXOLOGIYA FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLARI.....	72
6 - MAVZU: MAXSUS (PSIXOLOGIYA) FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM VOSITALARI.....	99
7 - MAVZU: MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA DARSLARNI TAHLIL QILISH METODIKASI.....	109
8 - MAVZU: MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.....	112
9 - MAVZU: MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYA: LOYIHA METODI.....	140
10 - MAVZU: PSIXOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA KEYS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH "KEYS-STADI" TEXNOLOGIYASI.....	144
11 - MAVZU: O'QUV MASHG'ULOTLARINING ZAMONAVIY TURLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI.....	152
12 - MAVZU: PSIXOLOGIK BILIMLARNI TEKSHIRISH VA BAHOLASH.....	164
13 - MAVZU: PSIXOLOGIYA FANLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI..... ILOVALAR.....	175
TAYANCH TUSHUNCHALAR.....	180
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	339
	348

O.U.AVLAYEV, S.R.MIRZAYEVA, SH.R.SAMAROVA

MAXSUS FANLARNI O'QITISH  
METODIKASI

O'QUV QO'LLANMA

**Muharrir: H.Toxirov**  
**Texnik muharrir: T.Tursunov**

**O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «Yangi chirchiq book» nashriyotiga  
2022 yil 19 dekabrda berilgan 054070-sonli litsenziyasi  
Nashriyot manzili: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Madaniyat MFY.**

Ofset qog'ozsi. Bichimi 60x84. 1/16  
Times garniturasida ofset usuli. Shartli bosma tabog'i - 42  
Buyurtma № 955240. Adadi 100 nusxada  
«Yangi chirchiq book» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

ISBN 978-9943-9170-5-7



9 789943 917057